

RAJABOVA IRODA HAMIDOVNA

**TABIAT BILAN TANISHTIRISH
NAZARIYASI VA TEXNOLOGIYALARI**

O'quv qo'llanma

Buxoro 2021

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

RAJABOVA IRODA HAMIDOVNA

**TABIAT BILAN TANISHTIRISH NAZARIYASI VA
ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ**

*Oliy o‘quv yurtlarining 5111800 —Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi
bakalavr bosqichi talabalari uchun mo‘ljallangan.
(O‘quv qo‘llanma)*

Buxoro-2021

Rajabova I.H.

Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari: O‘quv qo‘llanma. Toshkent.: “ ” nashriyoti, 2021. – b.

Ushbu o‘quv qo‘llanma 5111800 —*Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bakalavr* bosqichi talabalari uchun ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasidagi “Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari” nomli fan dasturi asosida yaratilgan bo‘lib, bolalarni tabiat bilan tanishtirish usullari, inson atrofini o‘rab turgan tabiiy muhitning har bir bo‘lagida kechayotgan o‘zgarishlar va bunda insonning qanchalik ishtiroki, tabiiy muvozanatni qayta tiklash, uning sifatini saqlab qolish uchun qanday chora-tadbirlar ishlab chiqish kabi masalalarni o‘zida mujassamlashtirgan.

Данное учебное пособие создано на основе предметной программы учебного плана образовательного направления для студентов бакалавриата направления дошкольного образования 5111800 “теория и методика ознакомления с природой” и включает в себя такие вопросы, как методы ознакомления детей с природой, изменения, происходящие в каждой части окружающей человека природной среды, и то, как человек участвует в ней, какие меры необходимо предпринять для восстановления природного баланса, сохранения его качества.

This manual was created on the basis of the science program “The Theory and methodology of acquaintance with nature” in the curriculum of the educational direction 5111800 —th preschool education for students of The Bachelor stage, which includes such issues as the methods of acquaintance of children with nature, the changes taking place in each section of the natural environment that surrounds

Mas’ul muharrir:

G.Q.Hasanova– Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar:

M.M.Ahmedjanov – Pedagogika fanlari doktori, professor.

Z.B.Jalilov – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha muhim huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash, chiqindilarni qayta ishlash bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta‘minlash, bu yo‘nalishdagi davlat boshqaruvi va nazorat tizimini takomillashtirish maqsadida, shuningdek, “2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish”ga oid Davlat dasturida ko‘zda tutilgan vazifalarni hal etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ustuvor vazifalardan kelib chiqib ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakat strategiyasida muhim vazifalar o‘z ifodasini topgan. Unda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, sud-huquq, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish, iqtisodiyotni yanada isloh etish, diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash bilan bog‘liq chora-tadbirlar qamrab olingan. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiyasidagi “Ajdodlarimizning donishmandlik an‘analariga amal qilib, qat‘iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz” nomli nutqlarida, “Mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish” borasida, “Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risida so‘z yuritar ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o‘ta olmaymiz. BMT Bosh kotibining "Suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o‘zaro chambarchas bog‘liq", degan pozitsiyasini to‘la qo‘llab quvvatlaymiz. Ishonchim komil, suv muammosini hal qilishning mintaqaning 4 mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo‘li yo‘q.

O‘zbekiston BMTning preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to‘g‘risidagi konvenstiyalar loyihalarini qo‘llab-quvvatlaydi: “Bugungi kunning eng o‘tkir ekologik muammolardan biri – Orol halokatiga yana bir bor e‘tiboringizni qaratmoqchiman. Mana, mening qo‘limda – Orol fojiasi aks ettirilgan xarita. O‘ylaymanki, bunda ortiqcha izohga hojat yo‘q. Dengizning qurishi bilan bog‘liq oqibatlarini bartaraf etish xalqaro miqyosdagi

sa'y- harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda. Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko'rgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to'liq amalga oshirilishi tarafdorimiz"- deb Orol muammosiga alohida to'xtaldilar.

Ekologik ahvolni sog'lomlashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa omillarga bog'liq. Ular orasida ekologik ta'lim va tarbiyaning ahamiyati kattadir. Kasbi qanday bo'lishidan qat'iy nazar inson atrofini o'rab turgan tabiiy muhitning har bir bo'lagida kechayotgan o'zgarishlar, bunda insonning qanchalik ishtiroki, tabiiy muvozanatni qayta tiklash, uning sifatini saqlab qolish uchun qanday chora-tadbirlar ishlab chiqish kabi masalalarni yechish uchun tabiatshunoslik fanini chuqur o'rganishi zarur.

1- MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA TABIAT HAQIDA TUSHUNCHANI IFODALASH

Reja:

1. “Tabiat bilan tanistirish nazariyasi va texnologiyalari” fanining maqsad va vazifalari
2. Tabiat, inson va jamiyat haqida tushuncha
3. Inson rivojlanishida tabiatning roli haqida qadimdi qo'lyozmalarda yoritilishi
4. Sharq va G'arb olimlarining tabiat, uning inson hayotidagi o'rni haqidagi qarashlari
5. So'ngi yillardagi fan istiqbollari

***Tayanch tushunchalar:** tabiat bilan muloqotda bo'lish, bolani tabiat bilan tanishtirish, inson va jamiyat haqida tushuncha, jonsiz tabiat, uzluksiz ekologik ta'lim, biosfera, ekologiya tushunchasi, ekologiya fanining manbai, ekotizimlar.*

1.1.” Tabiat bilan tanistirish nazariyasi va texnologiyalari “fanining maqsad va vazifalari

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama kamol toptirish va tarbiyalashning eng samarali usullaridan biri bu tabiat bilan tanishtirishdir.

Tabiat — bolani ma'naviy boyitishning bitmas-tuganmas manbaidir. Bolalar doimo u yoki bu shaklda tabiat bilan aloqada bo'ladilar. Ularni yam-yashil o'tloqlar, anvoyi gullar, kapalaklar, qo'ng'izlar, qushlar, hayvonlar, suzib yurgan bulutlar, pag'a-pag'a yog'ayotgan qor uchqunlari, jilg'a va ko'lmaklar o'ziga jalb qiladi. O'simlik hamda hayvonotlarning xilma-xil olami bolalarda tabiatga nisbatan jonli qiziqish va havas uyg'otadi, ularni faoliyatga undaydi. Tabiat bilan muloqotda bo'lish bolalarda atrof-olam haqida realistik bilim, jonli mavjudotga insoniy munosabatda bo'lishni shakllantirishga yordam beradi.

Bolani tabiat bilan tanishtirish, uni tabiatni tushunishga o'rgatish, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash maktabgacha ta'lim muassasalarining eng muhim vazifasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarkib toptirishga katta e'tibor beriladi. Bolalar tabiat haqida juda bo'lmaganda ilk bilimlarni egallab olib, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilishning oddiy usullarini o'rganib, tabiatni kuzatish, uning go'zalliklarini ko'ra olishni bilib olgan taqdirdagina ularda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat va g'amxo'rlik munosabatida bo'lishni tarbiyalash imkoniyati tug'iladi. Bolalarda tabiatga jonajon o'lka, ona- Vatanga muhabbat xuddi mana shu asosda shakllanadi. Shunga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalarida murg'ak qalblarga ta'lim-tarbiya berayotgan tarbiyachilarning oldilarida eng

muhim vazifalaridan biri ham bolalarning tabiat go'zalliklarini ko'ra bilishi, uni sevishi, tabiatda yuz beradigan voqea-hodisalar haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lishi, qolaversa, tabiat yaratgan boyliklardan oqilona foydalanish ruhida tarbiyalashdan iborat bo'lmog'I lozim.

Bu borada" Tabiat bilan tanistirish nazariyasi va texnologiyalari"fanining maqsadi - bo'lajak bakalavrlarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ilmiy, nazariy, metodik asoslari, tabiat bilan tanishtirishda turli ish shakllari va metodlardan foydalanish haqidagi tasavvurlarini hosil qilish, tabiat haqidagi fan va uning metodikasiga oid tushunchalar, darsni tashkil etish, tabiat haqidagi bilimlarni bolalarga etkazib berishda pedagogik texnologiyalar orqali yondashish yo'llari, maktabgacha ta'lim muassasalarida ana shu ixtisoslikka mos yetuk, barkamol pedagogik kadrlarni tarbiyalashdan iborat. .

"Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari" fanining vazifalari esa:

-talabalarga bolalarni tabiat bilan tanishtirishning mazmuni, maqsad va vaifalari, metodlari;

-tabiat bilan tanishtirish ishlarini tashkil etish va bu sohada ilmiy-nazariy tushunchalarni hosil qilish, tafakkurlarini kengaytirish;

-turli metodlarni qo'llash , zamonaviy va innovatsion texnologiyaga asoslangan mashg'ulotlarni loyihalashtirish, ularni tashkil etish metodikasi bilan qurollantirish;

Fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish kabi metodik vazifalarni to'g'ri belgilashdan iboratdir.

1.2. Tabiat, inson va jamiyat haqida tushuncha

Tabiat — bitmas-tuganmas xazinadir. O'simliklar dunyosi, hayvonot olami yosh qalbning to'g'ri o'sib shakllanishida, tabiatda bo'ladigan voqea-hodisalarning sir-asrorini o'rganib voyaga yetishida katta manba bo'lib xizmat qiladi. Tabiatdagi narsalar ikki qismdan: jonsiz va jonli tabiatdan iboratdir. Jonsiz tabiatga yer, quyosh, yulduzlar, suv, havo, toshlar, tuproq, jonli tabiatga esa o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, odamlar kiradi. Jonsiz tabiat deyilishiga sabab ular oziqlanmaydi, o'smaydi, ko'paymaydi, rivojlanmaydi. Masalan, toshni olsak, unga suv ham, havo ham kerak emas. Jonli tabiatga kiruvchilar esa oziqlanadilar, nafas oladilar, o'sadilar va ko'payadilar. Jonli tabiat vakillari o'simlik, havo, suv, yorug'lik, issiqlik va ozuqa bo'lmasa yashay olmaydi. Jonli tabiatdagi barcha mavjudotlardan eng qudratlisi insondir. Inson fikrlaydi, mehnat qiladi, turli kashfiyotlar ixtiro qiladi. Tabiat insonni ma'naviy boyitishning bitmas -tuganmas manbaidir. Tabiat bilan inson o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda ekologik ta'lim-tarbiyaning roli nihoyatda katta.

Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya insonning tabiatiga, qolaversa, o'ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otish ona - Vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, osori-atiqalari xalqimizning an'analariga hurmat ruhida tarbiylashga, yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi. Biosfera yerda hayot paydo bo'lgandan boshlab, uzoq tarixiy davrlar davomida rivojlanib kelmoqda. Yerning tirik 5 organizmlar va biogen cho'kindi tog' jinslari tarqalgan qismini rus olimi akademik

V.I. Vernadskiy biosfera (yunoncha — «bios» — hayot, «sfera» — shar) deb nomlagan. Biosfera sayyoramizning «hayot qobig'i» hisoblanib, tirik organizmlarning o'zaro chambarchas aloqa, munosabatlaridan iborat murakkab ekosistemalar majmuini tashkil etadi.

V.I. Vernadskiy tushunchasiga ko'ra, hozirgi vaqtda biosferaning tarkibiga faqatgina yerning qobig'ida tarqalgan tirik organizmlar kirib qolmay, balki qadimgi davrlarda organizmlar ishtirokida hosil bo'lgan litosfera qismi ham kiradi. Shuning uchun ham biosfera, neobiosfera va polebiosfera kabi tarkibiy qismlarga ajratiladi. Biosfera murakkab harakatdagi tizim ekan, unda moddalar almashinuvi natijasida energiyaning qabul qilinishi, to'planishi va o'tkazilishi kabi jarayonlar boradi. Biosfera funksional nuqtai nazardan bir necha qatlamlardan tashkil topgan. Biosfera yer sharidagi eng yirik ekotizim bo'lib, u quyi darajalardagi kichik tizimlarga bo'linib ketadi. Bular quruqlik va suv havzalari, okeanlar, metosferaning yuqori qatlami, atmosferaning quyi qatlamlari, bundan tashqari quruqlikda evolyutsion-tarixiy tizimlar sifatida biogeografik tabiiy mintaqalar, biomlar, landshaft zonalar, ayrim landshaftlar va hokazolarga ajraladi. Biosferaga katta doiradagi biotik moddalarning aylanishi xarakterlidir.

Biosfera tushunchasi fanga 1875-yilda avstraliyalik zoolog E.Zyuss tomonidan kiritilgan. Biosfera haqidagi ta'limot esa akademik V.I. Vernadskiy tomonidan yaratilgan. Sayyoramizdagi barcha tirik organizmlar yig'indisini V.I. Vernadskiy «tirik modda» deb atadi. «Tirik modda»ning eng muhim xususiyatlari uning umumiy vazni, kimyoviy tarkibi va energiyasi hisoblanadi. Biosferaning ikkinchi tarkibiy qismi «o'lik modda» bo'lib, V.I. Vernadskiyning aytishi bo'yicha tirik organizmlar qatnashadigan biosferadagi moddalar yig'indisidan hosil bo'ladi. Biosferada «oraliq moddalar» ham mavjud bo'lib, ular o'lik va tirik moddalarning birgalikdagi faoliyatidan hosil bo'ladi.

Ekologiya. Bugungi kunda ekologiya fani tushunchasi har bir kishining ongiga singib bormoqda. Deyarli har kuni gazeta sahifalarida, radio va

oyinajahon ko'rsatuvlarida hozirgi sharoitdagi ekologik muammolar hamda ularni hal etish borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Mamlakatimizning kelajagi bo'lgan yoshlarimiz o'z murabbiylarini nomini zo'r ehtirom, chuqur minnatdorchilik bilan tilga oladilar buning uchun har bir o'qituvchi O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonunida ko'rsatilganidek, yuksak kasbiy tayorgarligi va yuqori ahloqiy fazilat egasi bo'lishlari darkor.

Ekologiya tushunchasi yunoncha so'z bo'lib, «eko» — uy, makon «logos»- “ ta'limot” degan ma'noni bildiradi. Tabiiy uyimizni o'rganish deganda, albatta, undagi barcha tirik organizmlar va jarayonlarni o'rganish, ya'ni ushbu u yoki maskanni hayot uchun yaroqli holda saqlash kabi masalalar tushunilishi kerak. Ekologiya fani ham biologiya, geografiya fanlari singari mustaqil fan hisoblanadi. U tirik organizmlarning yashash sharoiti va ularni o'zi yashab turgan muhit bilan o'zaro murakkab munosabatlari hamda shu asosda vujudga keladigan qonuniyatlarni o'rganadi. *Ekologiya tushunchasi fanga birinchi bo'lib 1866- yilda nemis biologi E. Gekkel tomonidan kiritilgan.*

Populatsiyalar, turlar, biotsenozlar, biogeotsenozlar va biosfera kabi tushunchalar ekologiya fanining manbai hisoblanadi. Shuning uchun umumiy ekologiya to'rt bo'limga bo'lib o'rganiladi:

- *autekologiya*
- *populatsiyalar ekologiyasi*
- *sinekologiya*
- *biosfera*

1. **Autekologiya** («autos» — yunoncha so'z bo'lib, «o'zi» degan ma'noni bildiradi) ayrim turlarning ular yashab turgan muhit bilan o'zaro munosabatini, ularning qanday muhitga ko'proq va uzviy moslashganligini o'rganadi.

2. **Populatsiyalar ekologiyasi** («papulason» — fransuzcha so'z bo'lib, «aholi» degan ma'noni bildiradi) populatsiyalar tuzilmasi va dinamikasini, ma'lum sharoitda turli organizmlar sonining o'zgarish (biomassa dinamikasi) sabablarini tekshiradi.

3. **Sinekologiya** («sin» — yunoncha so'z bo'lib, uning ma' - nosi «birlikda» demakdir) biogeotsenozlarning tuzilishi va xossalarini, ayrim o'simlik va hayvon turlarini o'zaro aloqasini hamda ularni tashqi muhit bilan munosabatini o'rganadi.

4. **Biosfera.** Ekotizimlarning tadqiq qilishning rivojlanishi biosfera haqidagi ta'limotni vujudga keltiradi. Bugungi kunga kelib ekologiya fani aniq

biologik fanlar tizimidan chiqib, atrof-muhitga zamonaviy fan va texnika taraqqiyotining ta'siri natijasida o'ta kengayib ketdi.

Fanga «inson ekologiyasi» degan atama ham kirib keldi. Insonning tashqi muhitga munosabati boshqa tirik organizmlardan tubdan farq qiladi. 1921- yilda amerikalik olimlar Bortes va Park tomonidan «Inson ekologiyasi» degan yangi fan kiritildi.

Dastlab, inson ekologiyasiga tabiiy soha bo'limi sifatida qaralib, keyinchalik uning ijtimoiy, texnik, me'moriy-iqtisodiy va huquqiy tomonlari ham o'rganildi. Inson ekologiyasi insonning atrof-muhitga va aksincha, atrof-muhitning insonga ta'sirini o'rganadi. Inson ekologiyasini o'rganish natijasida ijtimoiy ekologiya vujudga keladi. Unga birinchi bo'lib Raderik Mak Kenzil ta'rif bergan. Ijtimoiy ekologiya ijtimoiy fanlardan biri hisoblanib, uning maqsadi inson bilan atrof-muhit o'rtasidagi xususiy bog'lanishlarni o'rganishdan iborat.

Shunday qilib, ekologiya bugungi kunda tabiiy va ijtimoiy fanlar jumlasiga kirib, o'rganilayotgan obyekt yoki tizimning atrof-muhit bilan munosabatini keng miqyosda tadqiq etadi. Biosfera va inson ekologiyasi fanining obyekti bo'lib bir hujayrali sodda tuzilishdagi bakteriyalar, zamburug'lar, o'simlik va hayvonlar hamda ularning jamoalari xizmat qiladi. Ekologiya fani tabiat bilan tirik organizmlarning uzviy bog'lanishini ifoda etar ekan, u shubhasiz, tabiatni muhofaza qilishning ilmiy asosini tashkil etadi.

1.3. Inson rivojlanishida tabiatning roli haqida qadimgi qo'lyozmalarda yoritilishi

Tabiat – bu insoniyat yashashi uchun buyuk makon, nozu- ne'matlar manbai bo'lib, uni asrash har bir insonning burchi, bu borada xalqimiz o'zining milliy-tarixiy an'alariga ega. Bu an'alar doimo rivojlantirilib, boyitib kelingan. O'tmishdan ma'lumki, tabiat insoniyat uchun bebaho qadriyatdir. Tabiat tug'ilish, yashash, o'sish faoliyati maydonidir. Inson tabiat bilan birga yashaydi, o'sadi, rivojlanadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng tabiatni muhofaza qilishga oid ma'naviy qadriyatlar ham xalq hayotida to'laroq namoyon bo'la boshladi.

Mustaqillik tufayli yurtimizda qadim-qadim zamonlarda kechgan davlatchilik taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotni atroflicha tahlil va tadbqiq etish imkoniyati vujudga keldi. Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekistonda bu muammoning yechimiga intilish uzoq tarixga ega. Zero, "Sivilizastiya belgilarini asrab-avaylash qanchalik zarur bo'lsa..., yer va suvni asrab-avaylash ham shunchalik muhimdir. Yer, havo, suv va olov (Quyosh) Markaziy Osiyoda qadimdan e'zozlab kelingan, ajdodlarimizning

zardushtiylikdan tortib to islomgacha bo'lgan barcha dinlari tomonidan munosib qadrlab kelingan".(.....)

Ta'lim-tarbiyaning o'z oldiga qo'ygan maqsadi va vazifalarini yaxshi bilmasdan turib yosh avlodni tabiat bilan tanishtirishda ularni maqsadga muvofiq tarbiyalab bo'lmaydi. Buning uchun xalq manfaatlarini aks ettiruvchi tarbiyaning maqsadlari to'g'risidagi tasavvur qanday vujudga kelgan va bu tasavvurlar keyinchalik qanday rivojlanganligi hamda pedagogik tomondan qanday ta'rif va tavsif berilganini eslash maqsadga muvofiqdir. Shuni aytish kerakki, hayotda har bir fanning yuzaga kelishi hayotiy zarurat natijasidir. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi ham ana shunday hayotiy zaruratning mahsulidir. Bu fan o'z oldiga ana shu tabiat elementlari vositasida yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi. Tarbiya esa pedagogikaning bosh vazifasidir.

Tabiat - bitmas-tuganmas xazinadir. O'simliklar dunyosi, hayvonot olami yosh qalbning to'g'ri o'sib shakllanishida, tabiatda bo'ladigan voqea-hodisalarning sir-asrorini o'rganib voyaga yetishida katta manba bo'lib xizmat qiladi. Tabiatdagi narsalar ikki qismdan: jonsiz va jonli tabiatdan iboratdir. Jonsiz tabiatga yer, quyosh, yulduzlar, suv, havo, toshlar, tuproq, jonli tabiatga esa o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, odamlar kiradi. Jonsiz tabiat deyilishiga sabab ular oziqlanmaydi, o'smaydi, ko'paymaydi, rivojlanmaydi. Masalan, toshni olsak, unga suv ham, havo ham kerak emas. Jonli tabiatga kiruvchilar esa oziqlanadilar, nafas oladilar, o'sadilar va ko'payadilar. Jonli tabiat vakillari o'simlik, havo, suv, yoruhlik, issiqlik va ozuqa bo'lmasa yashay olmaydi. Jonli tabiatdagi barcha mavjudotlardan eng qudratlisi insondir. Inson fikrlaydi, mehnat qiladi, turli kashfiyotlar va ixtiro qiladi. Tabiat insonni ma'naviy boyitishning bitmas-tuganmas manbaidir.

Tabiat bilan inson o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda ekologik ta'lim-tarbiyaning roli nihoyatda katta. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya insonning tabiatiga, qolaversa, o'ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otish ona Vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an'alariga hurmat ruhida tarbiyalashga, yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi qadimdan ekologik madaniyat tushunchasiga ega. Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz «Avesto» xalqimizning bebaho mulki sanaladi. Bu nodir kitob bundan o'ttiz asr muqaddam shu zaminda yashagan ajdodlarimizning biz avlodarga qoldirgan ma'naviy tarixiy merosidir. «Avesto», ayni zamonda, bu qadim o'lkada buyuk

davlat, yuksak ma'naviyat va madaniyat bo'lganligidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdir. «Avesto» tabiat jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlarni ma'naviy, ruhiy va axloqiy mezonlar orqali uyg'unlashtiruvchi, kishini qurshab olgan olamni o'rganishga chorlaguvchi falsafadir.

«Avesto»da noyob dorivor giyohlar haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, uy-joy, atrof-muqit, tabiatni muhofaza qilish, uni asrash to'g'risida tavsiyalar berilgan. «Avesto»da yer, suv, xona, inson tana azolari, kiyim-kechaklarni toza tutish haqida yozilgan. Atrof-muhit, ko'chalarni, butazorlaru o'tloqlarni, yerni iflos qilgan kishilar jazolanganlar. Shuningdek, muhit tozaligini saqlash va kasalliklarni oldini olish maqsadida axlatlarni, ifloslangan joylarni tosh, tuproq, qum bilan ko'mib tashlash buyurilgan. Asarda kasallik tarqatuvchi hasharotlarni yo'qotish, shuningdek, uy hayvonlarini to'g'ri parvarish qilish yo'llari ham ko'rsatilgan.

"Avesto"da dunyoning yaratilishi, insonning xalq bo'lib kamol topishi, ezgulik uchun yovuz kuchlar bilan kurashi, erkinlik, ijodkorlik va bunyodkorlik yo'lidagi orzulari o'z ifodasini topgan. "Avesto" faqat odamninggina emas, balki bir hovuch tuproq, bir qultum suv, bir nafaslik havoning ham muqaddas ekanligi haqidagi kitob. "Avesto" yerning, daryolaru bog'lar, tog'laru buloqlar, ko'lu sahrolar, otu tuyalar uyuri, molu itlar, o'simligu giyohlarning bunyod etish tarixiga doir asar.

Ajdodlarimiz ekologik ta'lim-tarbiya borasida ham boy meros qoldirgan. Bunga "Avesto"da ifodalangan ekologik yo'nalishdagi qarashlar va o'gitlar, zardushtiylik bilan bog'liq an'analar, urf-odatlar, bayramlar, suvga, yerga sajda qilish, olovning poklovchi kuchiga e'tiqod, ajdodlar ruhiga topinish misol bo'la oladi.

Zardushtiylikning yaratuvchilari turli xalqlarning tabiatga va tabiat hodisalariga topinishidan, diniy bayramlar va urf-odatlaridan ustalik bilan foydalanganlar. Uning negizidagi asosiy narsa yorqin dualizm: dunyoning ibtidosidagi nur va zulmat, ezgulik va yovuzlik bo'lib, ular yaxshilik xudosi Ahuramazda va yovuzlik xudosi Anhramanu timsolida namoyon bo'ladi.

Ularning birinchisi ezgu hodisalar: yer, suv, havo, olovning ijodkori bo'lib, hayot, poklik, salomatlik, aql, ezgulik timsoli hisoblansa; ikkinchisi ifloslik, nopoklik, kasalliklar, o'lim yaratuvchisi shu bilan birga yolg'on, yovuzlik, axloqiy tubanlik timsolidir.

Qadimgi zardushtiyning o'ziga xos o'simlik va hayvonot olami, hayot tarzi bilan aloqador tarixiy sharoit havo, suv, tuproq va olovning ilohiylashtirilishiga olib keldi.

"Avesto" da hayvonlarga ozor bermaslik, ularni asrash chora-tadbirlari to'g'risida, turli xil suvlar va ularning foydasi haqida yozilgan. "Avesto" da

maxsus bo‘lim bo‘lib, uning nomi "Suvlar qasidasi" dir. Unda Markaziy Osiyoning yirik daryolaridan biri – Amudaryo haqida so‘z yuritiladi.

Suvni toza tutish uchun qo‘yilgan talablar tuproqqa ham qo‘yilgan. Ona zamin tabiatning ajralmas bo‘lagi, shu sababli ajdodlarimizning yerga mehri o‘zgacha bo‘lgan. Ona zaminni ehtiyot qilishda sir-asror mo‘l-ko‘l, karomat kattadir. Chunki yer barcha boylikning asosi, butun tiriklikning manbaidir. Zardushtiylar e‘tiqodicha, yer har xil iflos narsalar, ayniqsa, inson va hayvonlar jasadining ko‘milishidan paydo bo‘ladigan narsalardan poklanishga ehtiyoj sezadi. E‘tiqodga ko‘ra, o‘limning o‘zi ham yovuz kuchlarning ishi hisoblangan. Bu yovuz kuchlar o‘limdan so‘ng ham jasad atrofini tark etmaydi. Shunga ko‘ra vafot etganlarning jasadlari tog‘ qoyalari, sahrolar, maxsus sokinlik minoralarida qoldirilgan va ularning suyaklarigina qolmaguncha qo‘l tekkizilmagan. So‘ng suyaklar yig‘ilib maxsus idish – "assuar"larga solingan va maxsus joylarga ko‘milgan. E‘tiqod qiluvchilar uchun o‘lik tananing muqaddas yer, suv yoki o‘simliklarga tegib turmasligi favqulodda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Zardushtiylik ta‘limotida atrof muhitga nisbatan madaniyatning teranligi va kuchliligi insonni hayratga soladi. Zero, uning dolzarbligi hozir ham o‘z kuchini saqlab qolmoqda. Bu o‘rinda yerni ifloslantirmay va hosildorligicha saqlash, o‘simlik va daraxtlarni o‘stirish, hayvonlarni parvarishlash kabi masalalar ko‘zda tutilgan.

Axlatlarni maxsus usulda tozalash lozim bo‘lgan. Toza va quruq axlat, masalan, singan idish, suyaklar yerga zarar keltirmaydigan narsalar sifatida ko‘mib tashlangan. Qolgan barcha narsalar tomida tuynuksimon teshigi bo‘lgan kichikroq uychaga to‘plangan hamda vaqti-vaqti bilan ishqor ta‘sirida yo‘q qilib turilgan. Zardushtiylik aqidalarida insonga ongli jonzot sifatida qarash alohida ahamiyat kasb etgan. U shu sababli ham atrof muhitni saqlash uchungina emas, balki o‘zining jismoniy sog‘ligi, axloqiy-ma‘naviy holatini kuzatish, qarindosh-urug‘lari haqida g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga ham mas‘ul qilingandir. Shuning uchun "Avesto" da tabiatni – ya‘ni suv, tuproq, olov, havo, quyoshni e‘zozlash va insonning yaratuvchanlik mehnatini ulug‘lash birlamchi ahamiyat kasb etgan.

O‘zbek xalqining yil fasllari almashuvi, hosilni yig‘ib-terib olish bilan bog‘liq umumxalq bayramlari ham maxsus ekologik mazmun bilan boyitilgan. Ular orasida eng ommaviy bayram Navro‘zdir. U zardushtiylarning astrologik taqvimlarida alohida ahamiyat kasb etgan. Navro‘z o‘zbek xalqining tabiat, yer va uning in‘omlariga bo‘lgan muhabbatining o‘ziga xos jamuljamidir. U O‘zbekistonda bahor va mehnat bayrami hisoblanadi. Shunga ko‘ra, o‘zida nihoyatda katta tarbiyaviy imkoniyatni mujassamlashtiradi hamda insonlarda mehnatsevarlik, insonparvarlik, o‘zaro hurmat, muhabbat, ezgulik, adolat, do‘stlik va boshqa ijobiy fazilatlarni mustahkamlashga imkon yaratadi. Navro‘z

bayrami bahorning boshlanishida o'tadi. Bu paytda dehqonlar yerga dastlabki urug'ni qadashadi, mevali va manzarali daraxt ko'chatlarini o'tqazishadi, yerni "bezash"ga harakat qilishadi, toki u kishilarga ezguliklar keltirsin, ularning qalbiga umid va ishonch tuyg'ularini singdirsin, yaqin qarindoshlar hamda do'st-yorlar bilan munosabatda o'zlarini erkin va baxtli his etishsin. Qadimgi an'analarga ko'ra bu paytda kishi quyidagi shartlarni bajarmog'i kerak: ko'cha va hovlilarni tartibga keltirish, tozalashda ishtirok etishi, daraxtlarni oqlash, ko'chat (kamida uchta) hamda gullar o'tqazish, xushchaqchaq va shoduman yurishi, bir-birlariga yaxshi niyatlar tilash, urushgan kishilar bilan yarashish, halol va munosib hayot kechirishga intilish.

Shunga ko'ra, ekologik madaniyat tamoyillari, me'yorlari antropogen omillar xarakteriga ega bo'lib faqat insonning bevosita tabiat bilan bo'lgan munosabatlaridagi harakatlarigagina tatbiq etilgan va baholangan. Barcha insonlar ana shu o'lchov me'yoriga amal qilganlar. Shu sababdan ham suvga tuflama, suvga suprindi tashlama, suv oqqan ariqni iflos qilma, havoni ifloslama kabi fikrlar ular uchun dasturi amal bo'lgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ajdodlarimiz asrlar davomida to'plagan xalq an'analari, urf-odatlar va marosimlarida yer, suv, havo, atrofdagi o'simlik hamda hayvonot dunyosiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga rioya qilganlar. Ular to'plagan ekologik tajribasining bir avloddan ikkinchi avlodga, bir xalqdan boshqa xalqqa vorisiyligini ta'minlash muhimdir. Tabiat, jamiyat va hayotni inson uchun yaratilgan moddiy-ma'naviy ne'mat sifatida talqin etish, uni asrab-avaylashga da'vat etish qadimgi ma'naviy merosimizning buyuk gumanistik mazmunini tashkil etadi. "Avesto" buning yorqin namunasi

Islom ta'limotida ekologiya muammosiga alohida e'tibor berilgan. "Qur'oni karim" va "Hadis"i sharifda tabiatni muhofaza qilish, boyitish, pokiza saqlashga oid pand- nasihatlar o'z aksini topgan.

"Qur'oni karim" kitobi insonlarni tabiat bilan uyg'unlikka da'vat etadi. Jumladan, "Furkon surasi" ning 2-oyatida: "Alloh hamma narsani yaratdi va o'lchovini mukammal qildi", deyiladi. Ya'ni, dunyodagi har bir narsa – suv ham, tuproq ham, havo ham, hayvonot olami ham, nabobat olami ham Alloh taolo tomonidan muayyan o'lchov bilan bir-biriga o'zaro bog'liq qilib yaratilgan. Agar bu muvozanatlik buziladigan bo'lsa, tabiat uchun, shu jumladan, inson uchun ham jiddiy muammolar kelib chiqishi ehtimoli nihoyatda katta.

Shuningdek, "Al-Isro" surasi tungi sayr degan ma'noni bildiradi. Bunda borliqdagi barcha jonli-jonsiz mavjudot o'zaro bog'lanishda ekanliklari to'g'risida aytilgan. "Rahmon" surasida jannatga ta'rif beriladi, "Duoxon" tutun degan ma'noni anglatib, bunda ham do'zax va jannat manzaralari haqida

ta'riflanadi. "Shuaro" surasidagi Nuh payg'ambarning kemasida odamlar bilan hayvonlar va parrandalarning saqlab qolinishi hikoyatlari, "Nahl" asalari, "Naml" chumoli deb nomlangan suralarida ham zaif va zahmatkash mahluqlarning ibratli hayot tarzi haqida hikoya qilinadi.

Islom ta'limotining yetuk namoyandalaridan biri, 4-jildli "Al-jomi' as-sahih" hadislarini yozgan Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy ham tabiat va uning ne'matlari haqida, tabiat in'omlarining inson uchun yaratilganligi va ulardan oqilona foydalanish, ko'chat ekish, er haydash va ijaraga berish, o'lik erni jonlantirish, suv, ov va ovga tasliya aytmoq haqida kitob yozganlar." Hadisi sharifda tabiatni muhofaza qilish to'g'risida fikrlar bildirilgan.

Jumladan: soyasidan xalq foydalanib turgan daraxtni kesib yuborgan odamni tangri do'zaxga maxkum etadi; dunyo yam-yashil va go'zaldir, kimki undan haqli ravishda halollik bilan olsa, baraka topadi, kimki nafs xohishi bilan boylikka mukkasidan ketsa qiyomat kuni do'zaxdan boshqa narsaga erisha olmaydi; dunyoni buzib, bulg'ab yurgan kishi mening ummatim emas; englar, ichinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrofgarchilikka o'tmanglar; tangri pokdir, poklikni yaxshi ko'radi, saxiydirki, saxiylikni yaxshi ko'radi; hovli sahni va turar joylaringizni toza tutinglar; bu dunyoda jonivorlarga qattiq azob beradigan kishilarni tangri qiyomat kuni qattiq azoblaydi; qo'y barakadir, tuya ahliga izzatdir; ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda bexosdan qiyomat qoyim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham ulgursangiz uni ekib qo'ying kabi hadis namunalari keltirishimiz mumkin.

Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy madaniyati xalqni atrof- muhitga nisbatan ekologik madaniyatining ko'p qirrali bo'lganligini ko'rsatadi. U tarixan taraqqiy etib kelgan insoniyat tajribalari davomiyligining muhim omili bo'lganligidan darak beradi. Xalq ekologik madaniyati ana shu evolyustion ziddiyatli jarayonda shakllangan. Ajdodlarimiz atrof- muhitning rang-barang ko'rinishlarini saqlab qolish uchun tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga amal qilganlar. Ota-bobolarimiz o'tmishda tabiat zaxiralaridan pala-partish foydalanishni taqiqlaganlar, suvdan foydalanishda uni isrof va iflos qilmaslik (ayniqsa, cho'l hududlarida sardobalar bunyod etish), yer, o'simlik va hayvonot dunyosiga oqilona munosabat, hunarmandchilikda chiqitsiz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, dehqonchilik va chorvachilik uchun ajratiladigan yerlar mutanosibligiga muntazam e'tibor berish, farzand (o'g'il) tug'ilishi bilan ko'chat o'tqazish, bahor paytida ariq va zovurlarni tozalash, yo'l, ko'priklarni qurish va saqlashda bahorgi hashar usulini qo'llash, oziq-ovqat mahsulotlaridan tejab-tergab foydalanish, mollarni semirtirib so'yish kabi ekologik muammolarga amal qilishganlar.

Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi davrlardayoq o'zlarini tabiatning bir qismi ekanligini anglab, tabiatga hurmat bilan qaraganlar. O'z bolalarini tabiatga nisbatan chuqur hurmat, e'tiqod ruhida tarbiyalaganlar.

1.4. Sharq va G'arb olimlarining tabiat, uning inson hayotidagi o'rni haqidagi qarashlari.

O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar tabiatshunoslik fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar.

Buyuk alloma **Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy** (783- 850) risolalaridan birida bunday deb yozadi:

«Bilingki, daryoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig' tutmanglar!» Daryoning «yoshli ko'zlari» deganda Muhammad Muso alXorazmiy nimalarni ko'zda tutgan ekan? Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo'lishini nazarda tutgandir? Vaholanki, buyuk bobomiz eng awalo daryo bilan odamlarning «birbirlarini tushunishlari», o'zaro mehr-muhabbat qo'yishlarini nazarda tutgan.

847- yilda Muhammad al-Xorazmiy «Kitob surat al-arz» nomli asarini yozdi. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit'alar, qutblar, ekvatorlar, cho'llar, tog'lar, daryo va dengizlar, ko'llar va o'rmonlar, ulardagi o'simlik, hayvonot dunyosi, shuningdek, Yerning asosiy boyliklari hamda boshqa tabiiy resurslar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu risolada matematika, geologiya, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, shuningdek, dunyo xalqlarining tabiiy ko'nikmalari va tarixiy huquqiy bilimlari umumlashtirilgan.

Abu Nasr Forobiy. O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrlarining eng yirik va mashhur vakillaridan biri Abu Nasr Forobiyning (873- 950) ilmiy falsafiy merosi nihoyatda boy. Uning asarlari hozirgacha to'liq aniqlanmagan. Nemis olimi M.K.Brokkelmanning ro'yxatida Forobiyning turli sohalarga oid 180 ta asarining nomi keltirilgan.

Forobiy tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug'ullangan bo'lib, uning «Kitob alhajm va almiqdor», «Kitob almabodi al-insonia» («Insoniyatning boshlanishi haqida kitob»). «Kitob al-a'zo al-hayvon» («Hayvon a'zolari to'g'risida kitob») nomli asarlari bunga dalil bo'la oladi.

Tabiatshunoslikka oid «Odam a'zolarining tuzilishi», «Hayvon a'zolari va ularning vazifalari haqida» kabi asarlarida odam va hayvonlardagi ayrim a'zolarining tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida ham to'xtab o'tilgan.

Odam a'zolarining tuzilishi va vazifalari haqida so'z yuritilganda o'zgarishlar, ya'ni kasalliklar birinchi navbatda ovqatlanish tartibining buzilishi oqibatida kelib chiqadi, deb tushuntiriladi.

Forobiy tabiiy va inson qo'li bilan yaratiladigan sun'iy narsalarni ajratgan. Shuningdek, u tabiiy narsalar tabiat tomonidan yaratilganligini va bunda inson omilining ta'siri katta ekanligini, tabiiy va sun'iy tanlash hamda tabiatga ko'rsatiladigan boshqa ta'sirlarni atroflicha baholagan.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) koinotdagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari, narsa va hodisalarning o'zaro ta'siri bilan tushuntirishga urinadi. Olim yerdagi ba'zi hodisalarni quyoshning ta'siri opqali izohlaydi. Beruniyning fikricha, yerdagi o'simlik va hayvonot olamining yashashi uchun zarur imkoniyatlar cheklangan. Lekin o'simlik va hayvonlar doimo ko'payishga intiladi va shu maqsadda kurashadi. Beruniyning tabiatshunos sifatida quyidagicha fikrlari hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotmagan:

«Ekin va nasl qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi. Garchi dunyo cheklangan bo'lsa-da, kunlar o'tishi bilan bu ikki o'sish natijasida ko'payish cheklanmaydi. Agar o'simliklardan yoki jonivorlardan biror xilining o'sishiga sharoit bo'may, o'sishdan to'xtasa ham, boshqalarida bu ahvol bo'lmaydi. Ular birdaniga paydo bo'lib, birdaniga yo'qolib ketmaydi. Bordi-yu yer yuzini bir xil daraxt yoki bir xil hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvonning ko'payishiga ham, daraxtning o'sishiga ham o'rin qolmaydi. Shu sababdan dehqonlar ekinlarni o'toq qilib, keraksizini yulib tashlaydilar».

Beruniy asarlarida o'simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va xo'jalikdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar topish mumkin. Beruniyning ilmiy qarashlari, asosan, «Saydana», «Minerologiya», «Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar» asarlarida o'z aksini topgan. Unda Eronning turli tropik o'simlik va hayvonlarining tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvori yil fasllarining o'zgarishi bilan bog'liqligi misollar bilan tushuntirilgan.

Beruniy yer yuzining o'zgarishi, o'simlik va hayvonot dunyosining o'zgarishi bilan, tirik organizmlarning turli hayoti yer tarixi bilan bog'liq bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Qumni kovlab, uning orasidan chig'anoqni topish mumkin. Buning sababi, bu qumlar qachonlardir okean tubi bo'lgan, deb ta'kidlaydi alloma.

Beruniy «Saydana» degan asarida 1116 xil dori-darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750 tasi turli o'simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 107 tasi esa minerallardan olinadi. Beruniyning «Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar» va «Hindiston» asarlarida o'simlik va hayvonlarning tuzilishi hamda ularning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasi haqida ham qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Beruniy o'zining tabiiy-ilmiy kuzatishlari, tajribalari asosida tabiatdagi hodisalar ma'lum

tabiiy qonuniyatlar asosida boshqariladi, ularni tashqaridan ta'sir etuvchi har qanday kuch o'zgartirish qobiliyatiga ega emas, degan xulosaga keladi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) yirik qomusiy olim sifatida tanilgan. Uning 450 ta asari mavjud bo'lib, bizgacha 240 tasi yetib kelgan. Ibn Sino asarlari orasida «Tib qonunlari» shoh asari tibbiyot ilmining qomusi bo'lib, o'rta asr tibbiyot ilmi tarqalishining oliy cho'qqisi bo'lib hisoblanadi.

Ibn Sinoning falsafiy va tibbiy ilmiy qarashlari uning jahonga mashhur «Kitob ash-shifo», ya'ni «Davolash kitobi» asarida bayon etilgan. Bu asarda materiya, fazo, vaqt, shakl, harakat, borliq kabi falsafiy tushunchalar, shuningdek, matematika, kimyo, botanika, ekologiya, geologiya, astronomiya, psixologiya kabi fanlar haqida fikrlar bayon etilgan.

Ibn Sinoning tog'larning vujudga kelishi, yer yuzining davrlar o'tishi bilan o'zgarib borishi, zilzilaning bo'lishi kabi turli tabiiy jarayonlar haqidagi fikrlari geologiya ilmining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530). Bobur nafaqat shoir, balki podsho, tarixchi, bog'bon va tabiatshunos bo'lgan. «Boburnoma» asarida Bobur o'zi ko'rgan-kechirganlari, yurgan joylari tabiati, boyligi, urf-odati, hayvonoti, o'simliklarini tasvirlagan. Asarda yer, suv, havoga tegishli xalq so'zlari ko'plab uchraydi.

Bobur o'z asarida joyning geografik o'ri, qaysi iqlimga mansubligi, o'simliklari, hayvonlari haqida bayon etgan va O'rta Osiyoda qadim vaqtlardan buyon qovun, bug'doy, o'rik, nok va mevalarning bir necha navlari borligi haqida ma'lumot bergan.

Asarda Bobur borgan joylarining tabiati va o'ziga xos xususiyatlarini Andijon bilan taqqoslagan, hamda O'rta Osiyo, Afg'oniston, Xuroson va Hindistondagi hayvonot dunyosi haqida batafsil bayon etib bergan.

Chexiyalik mashhur pedagog **Ya.A. Komenskiy** bashariyat tarixidan demokratik pedagogikaning asoschisi sifatida o'rin olgan. U o'zining ongli hayotini va amaliy pedagogik faoliyatini, yaratgan ilmiy asarlarini bolalarni o'qitish va tarbiyalashdek olijanob ishga bag'ishlagan.

Uning fikricha, inson tabiatning eng go'zal mavjudotidir. Inson tabiatga ergashib, hamma narsani bilib olishi mumkin. O'zining «Buyuk didaktika», «Tillar hamma fanlarning ochiq eshigi», «Fizika», «Falakiyot», «Onalar maktabi», «Tinchlik farishtasi» kabi asarlarida o'zining muhim pedagogik g'oyalarini ifodalagan.

Ya.A. Komenskiy maktablarning 4 turini yilning 4 fasliga o'xshatgan.

«Onalar maktabi» xushboʻy oʻsimliklar, gʻuncha va gullarga burkangan ajoyib bahorni eslatadi. «Ona tili» maktabi yozga va ayrim erta pishgan mevalarga oʻxshaydi.

«Gimnaziya»da dalalar, bogʻ va terakzorlardagi moʻl hosilni yigʻib, uni «aql xazinasi»ga joylayotgan kuz faslini eslatadi. Va nihoyat, «Akademiya» yigʻilgan hosilni umr boʻyi sarflashni moʻljallab taqsimlayotgan kishiga oʻxshatiladi.

Ya.A. Komenskiy «Onalar maktabi»da 18 ta fandan maʼlumot olishni tavsiya etgan. Uning fikricha olti yashar bola:

Suv, yer, havo, olov, yomgʻir, qor, muz, tosh, temir, daraxt, oʻt, qush, baliq kabilarni;

Yorugʻlik va qorongʻulikning farqini, osmon, quyosh, oy, yulduzlar haqidagi bilimlarni, ularning har kuni chiqishi va botishi haqidagi tasavvurlarni;

Oʻzi yashayotgan joyning xususiyatiga muvofiq togʻ, vodi, dala, daryo, qishloq, shahar nima ekanligini bilishi kerak.

Ya.A. Komenskiy hamma narsani tabiatga bogʻlab tushuntirgan. U oʻquvchilar diqqatini jalb etish uchun kitoblarning nomini qiziqarli nomlab, mazmunini toʻliq ifodalab bergan. Uning aytishicha, bu sohada mavjud narsalardan eng chiroylisi bogʻning turli manzaralaridan namuna olishdir. Masalan, nega endi 1- sinf uchun bitilgan kitobni «Gunafsha joʻyagi», 2- sinf kitobini — «Atirgul tupi», 3- sinf kitobini — «Istirohat bogʻi» va hokazo deb nomlash mumkin emas? Ya.A. Komenskiy bolalarni tarbiyalashda tabiatning ahamiyatini oʻzining boshqa asarlarida ham ochib bergan.

I.G. Pestalossi 1746- yilda shveytsariyalik shifokor oilasida tugʻilgan. U oʻz zamonasining mashhur pedagogi boʻlgan. Uning fikrlari haligacha pedagogika sohasida qoʻllanib kelinadi. U «Gertruda oʻz bolalarini qanday qilib oʻqitadi», «Kuzatish alifbosi», «Son toʻgʻrisida koʻrsatmali taʼlim», «Oqqush qoʻshigʻi» kabi asarlarni yaratdi. I.G. Pestalossining fikricha, *bolaga berilayotgan tarbiya tabiat bilan uygʻun boʻlishi kerak.* U Ya.A. Komenskiy, Jan Jak Russolarning ushbu gʻoyasiga amal qildi: «*Insoniy kuchlarning oʻsishi uchun tabiat qilayotgan harakatga yordam berilmasa, bu harakatlar odamlarni hayvoniy hissiy xususiyatlardan sekinlik bilan qutqaradi. Toʻgʻri tarbiya esa ularni, yaʼni barcha insoniy kuchlarni oʻstirishga yordam beradi.*»

I.G. Pestalossi bolalarning aqliy kamolotini o‘stiruvchi quyidagi didaktik qoidalarni olg‘a suradi: “Ta’limning tabiat bilan uyg‘unligi, oddiydan murakkabga yo‘naltirish, bolaning kuch va qobiliyatiga moslashtirish, ko‘rsatmalilik”.

G. Pestalossi boshlang‘ich ta’lim xususiy metodikasining asosini yaratdi. Bunda u ona tili, hisob, geografiya, o‘lkashunoslik fanlaridan elementar ta’lim berish mazmunini asoslab berdi va bola tilini boyitish uchun geografiya, tibbiyot fanlarining ham uzviy ravishda olib borilishini tavsiya etgan edi.

I.G. Pestalossi dunyo pedagogika fanining taraqqiyotiga katta hissa qo‘shib, o‘z asarlari bilan o‘ziga haykal yaratgan olimdir.

1.5. So‘ngi yillarda “Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyasi” fanining istiqbollari

So‘nggi yillarda bir qator olimlarning izlanishlarida tabiat bilan tanishtirishga doir mulohazalarni kuzatishimiz mumkin. Biz ularning ayrimlariga qisqacha izoh bermoqchimiz.

Rus milliy pedagogikasining asoschisi **K.D. Ushinskiy** 1824-yili Rossiyaning Tula shaxrida tug‘ilgan. U «Bolalar dunyosi», «Ona tili», «Muallimlar uchun qo‘llanma» asarlarini yozgan.

K.D. Ushinskiy boshlang‘ich maktabdagi ta’lim mazmunini asoslab berish bilan birga undagi qonun- qoida, tartib, metod va vositalarini ham ishlab chiqib, didaktika faniga katta hissa qo‘shdi. Bu esa ajoyib yangilik sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. U ,eng avvalo, o‘qitishni bolalar mehnati bilan bog‘lashni tavsiya qildi.

K.D. Ushinskiy chet el maktablarida olib borilayotgan ta’lim-tarbiyani o‘rganib, o‘zining «Pedagogik adabiyotning foydasi», «Boshlang‘ich ta’lim metodikasi» hamda «Ona so‘zi» asarlarini yozdi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish masalalari bilan juda ko‘p pedagog- olimlar shug‘ullanganlar.

S.A. Veretenikova «Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi» kitobida, har bir yosh guruhidagi bolalarni yil fasllariga qarab tabiat bilan tanishtirish metodini asoslab bergan.

P.G. Samorukova tahriri ostidagi «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish» o‘quv qo‘llanmasida tabiat bilan tanishtirish metodlari, vositalari va usullari, ish shakllari, bolalar bog‘chasi hovlisidagi tabiat burchagini tashkil etish masalalari keng yoritilib berilgan.

M.M. Markovskaya «Bolalar bogʻchasida tabiat burchagi» kitobida, tabiat burchagini tashkil etishning shart-sharoitlari, undagi xona oʻsimliklari, hayvonlar, tabiat burchagidagi mavsumiy ishlar, bolalarni tabiat burchagidagi hayvonlar bilan tanishtirish yoʻllarini koʻrsatib bergan.

A.G. Grigoryans, U.B. Gʻofurovalarning «Bolalar bogʻchasida ekologik tarbiya» nomli qoʻllanmalarida ekologik tarbiya berish metodlari, yoʻllarini misollar orqali yoritib, shuningdek bolalarda oddiy izlanuvchanlik faoliyatini tarbiyalashning yoʻllari haqida qimmatli maslahatlar berishgan.

Nazorat savollari

1. “Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyalari “fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Bolani tabiat bilan tanishtirish va uni tabiat haqidagi tushunchasini boyitish yoʻllarini ayting.
3. Tabiat haqida qomusiy olimlarning qanday fikrlarini bilasiz?
4. Tabiat, inson va jamiyat haqida oʻzbek olimlarining qarashlarini bayon eting.
5. V.I. Vernadskiy tushunchasiga koʻra biosferaning lugʻaviy mazmuni ayting.
6. “Ekologiya” tushunchasi qanday mazmun kasb etadi?
7. Inson rivojlanishida tabiatning roli haqida keltirilgan qadimgi qoʻlyozmalarda qanday fikr-mulohazalar yoritilgan?
8. Tabiat bilan inson oʻrtasidagi uygʻunlikni taʼminlashda ekologik taʼlim-tarbiyaning roli nimadan iborat?
9. Sharq va Gʻarb olimlarining tabiat, uning inson hayotidagi oʻrni va ahamiyati haqidagi qanday qarashlarni bilasiz?
10. Soʻngi yillardagi fan taraqqiyoti va istiqbollari haqida qanday fikrlar bildira olasiz?

Mavzu yuzasidan testlar

- 1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish vazifalari nimalardan iborat?**
 - a. aqliy, axloqiy, jismoniy, ekologik tarbiya berish
 - b. taʼlimiy, tarbiyaviy, jismoniy
 - c. maʼnaviy-axloqiy
 - d. jismoniy, estetik
- 2. Ekologiya soʻzining taʼrifi qaysi qatorda toʻgʻri koʻrsatilgan?**
 - a. tirik organizmlarning yashash sharoiti yoki tashqi muhit bilan oʻzaro munosabati tashqi muhitning oʻzaro munosabati
 - b. atmosferaning tozaligi

- c. organizmlarning yashash sharoiti
- d. organizmlarning tashqi muhitga ta'siri
- 3. **«Bilginki ,daryoning ko'zlari yoshlansa uning boshiga ham kulfat tushgan bo'ladi» bu so'zlar qaysi allomaning fikri?**
 - a. Muxammad Muso-al Xorazmiy
 - b. Abu Rayxon Beruniy
 - c. Abu-Nasr Forobiy
 - d. Alisher Navoiy
- 4. **Fikricha, inson tabiatning eng go'zal mavjudotidir. Inson tabiatga ergashib, hamma narsani bilib olishi mumkin.**
 - a. Ya. A.Komenskiy
 - b. Z.M.Bobur
 - c. Ibn Sino
 - d. Abu Nasr Farobiy
- 5. **Tabiatshunoslikka oid “Odam a'zolarining tuzilishi”, Hayvon a'zolari va ularning vazifalari haqida” bu asarlar kimning qalamiga mansub?**
 - a. Abu Nasr Forobiy
 - b. Abu Ali Ibn Sino
 - c. Zahridin Muhammad Bobur
 - d. Muhammad ibn Muso al- Xorazmiy

Foydalanilgan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari.T.2018
2. “Ilk qadam” maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi. T.2018
3. Xasanboeva O, Jabborova X, Nodirova Z Tabiat bilan tanishtirish metodikasi Toshkent,2006.
4. M.M. Markovskaya M.M Bolalar bog'chasida tabiat burchagi Toshkent O'qituvchi 1991
5. Samorukova P.G Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish . Toshkent O'qituvchi, 1991
6. Yusupova F Bolalar bog'chasida ekologik tarbiya Toshkent O'qituvchi ,1999
7. Grigor'yants A.G. , Gafurova U. “Bolalar bog'chasida ekologik TarbiyaToshkent O'qituvchi , 2002
8. Xasanboyeva O U , Djaborova X.J Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. T. Cho'lpon. 2007.

2. MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TABIATSHUNOSLIK ISHLARINI TASHKIL ETISH

Reja:

- 1. Tabiat-bolalarni har tomonlama tashkil tarbiyalashda asosiy omil sifatida**
- 2. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan talablar**

Tayanch tushunchalar: tabiat, hissiy bilimning fiziologik asosi, bolalarni tabiat bilan tanishtirish asosi, maktabgacha tarbiya yoshida tabiatni o'rganish, tushuncha, tabiat bilan tanishtirish metodikasi, jonsiz tabiat hodisalari, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish, axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, ekologik tarbiya, bolalarda ekologik ong elementlarini shakllantirish.

2.1. Tabiat-bolalarni har tomonlama tarbiyalashda asosiy omil sifatida

Tabiat — bitmas-tuganmas xazinadir. Nabotot dunyosi, hayvonot olami yosh qalbning to'g'ri o'sib shakllanishida, tabiatda bo'ladigan voqea-hodisalarning sir-asrorini o'rganib voyaga yetishida katta manba bo'lib xizmat qiladi.

I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra, insonning tabiatdagi narsa va hodisalardan olayotgan ta'siri birinchi signal sistemasini, ularni ifodalovchi so'z esa, ikkinchi signal sistemasini hosil qiladi. Bilishning hissiy tomoni birinchi signal sistemasi bilan bog'liq. Bu ko'rgazmali, obrazli tafakkurga asoslangan bo'lib, miya po'stlogidagi muvaffaqiyatli bog'lanishni o'z ichiga oladi, ya'ni tashqi dunyodagi narsa va hodisalarni sezishda, idrok qilishda va tasavvurda bevosita aks etadi. Bilimning ratsional tomoni, abstrakt tafakkur, ya'ni tushunchalarning hosil bo'lish jarayoni ikkinchi signal sistemasi bilan bog'liqdir. Ikkinchi signal sistemasi tashqi dunyo bilan faqat birinchi signal sistemasi orqali aloqa olib boradi, shuning uchun tafakkur sezgi va idroksiz bo'lish, biror narsa haqida aniq tasavvurga ega bo'lmay turib tushuncha hosil qilinishi mumkin emas.

“Hissiy bilimning fiziologik asosi — ko'rish, eshitish, hid bilish, teri, harakatlantiruvchi va boshqa analizatorlarning birgalikdagi faoliyatidir” - degan edi I.P.Pavlov.

O'zlashtirishda qancha ko'p analizatorlar birgalikda ishtirok etsa, tasavvur va tushuncha shunchalik aniq, boy va ma'noli bo'ladi. Demak, bolalarni tabiat bilan tanishtirish asosiga birinchi navbatda ko'rgazmalilikni qo'yish kerak, ya'ni narsa va hodisalar ulara sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etishi, bolalar narsalarni ko'rib, qo'l bilan ushlab ko'rishlari, eshitib, hidlab ko'rishlari, ta'mini

tatib ko'rishlari, ya'ni ularning xususiyatlarini seza bilish imkoniyatlariga ega bo'lishlari shart.

Uyda, sayrda, o'yinlarda va mehnatda, tabiatdagi narsa va hodisatarni bolalarga ta'sir etishi natijasida ularda seza bilish tajribalari to'planib boradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bog'chaga ketayotganlarida ko'chadagi ob-havo sharoiti (sovuq, issiq, iliq va namlik)ni seza oladilar. Qo'llarini yuvganlarida, cho'milish vaqtida, o'yinlarda suvning xususiyatlarini (sovuqligi, iliqdigi, sachrashi, toshlarning suvda cho'kishi yoki yog'ochning suzib yurishi)ni payqay oladilar. Hayvonlarni parvarish qilishda esa ularning harakatlarini, odatlarini bilib oladilar.

Bola tabiat bilan yaqin munosabatda bo'lishi natijasida, undagi narsa va hodisalarni yaqqol ko'rib, idrok qiladi. Lekin ko'pincha bola narsalarni payqamay qolishi yoki muhim bo'lmagan tomonlarga diqqat qilib, idrok qilgan narsalarini noto'g'ri tasvirlashi mumkin. 3-4 yoshdagi bola uchayotgan qushlarni hamma vaqt ham sezmasligi mumkin. Hayvonlarni uchratganda u birinchi navbatda uning kattaligiga e'tibor beradi, akvariumda suzib yurgan baliqni ko'rsatib uni «yuryapti» yoki «qanotlarini silkityapti», - deb aytadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, bolani tabiat bilan tanishtirishda unga hodisa yoki narsani ko'rsatishning o'zigina kifoya qilmaydi. O'rgatish jarayonida maqsadga muvofiq rahbarlik qilinishi zarur. Bu esa tarbiyachining bolaning idrokini yo'lga soladigan, diqqatini ko'rish va eshitishi muhim bo'lgan narsa va hodisalarga to'g'ri yo'naltiruvchi so'zlarida ifodalanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshida tabiatni o'rganish ko'proq ona tilini bilish bilan yaqindan bog'liqdir. Bu yoshda sezib idrok qilishdan ko'ra so'z bilan aytib idrok qilish mustahkam o'zlashtiriladi. Sezib idrok qilishda tabiat haqidagi hamma bilimlarni boshlang'ich manbai ekanligini doimo nazarda tutish kerak, aniqroq qilib aytganda, bolalar ongida haqiqatni aks etadi.

Tushuncha - bu miyaning analitik-sintetik faoliyatining natijasidir. Tabiatdagi narsa va hodisalarning bir necha marta sezib idrok qilinishi, ularning boshqalari bilan taqqoslab ko'rilishi, ulardagi eng muhim belgilarning so'zlarda aks ettirilishi natijasida tushuncha hosil bo'ladi. Tushuncha bolalar faoliyatida o'yin va mehnatda o'zlashtiriladi va tekshirib ko'riladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ma'naviy yetuk, axloqli, pok insonlar qilib voyaga yetkazishda tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani muhim ahamiyat kasb etadi. Uning maqsadi, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, Vatanga mehrlilik bo'lish, ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish, tabiat haqida mukammal bilimga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashdir.

Tabiat bilan tanishtirish metodikasining vazifasi bolalarni:

- o‘z o‘lkasi tabiati bilan tanishtirish;
- ona- Vatanga mehr- muhabbatini uyg‘otish;
- tengdoshlari va kattalar mehnatlarini qadrlashga o‘rgatish;
- tabiat orqali psixik jarayonlarni rivojlantirish(sezgilar, idrok, xotira, xayol, nutq, diqqat);

Bolalarning jonsiz tabiat hodisalari, o‘simliklar va hayvonlar, inson mehnati haqidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytirish haqida boyitish, shuningdek, o‘simliklar o‘stirish, hayvonlarni parvarish qilishda bolalarda oddiy ko‘nikmalar hosil qilish ta‘lim berishning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bunda bolalarda kuzatuvchanlik, bilimga qiziqish, tafakkur va mantiqiy nutq rivojlanadi, so‘z boyligi ortadi, yangi tushunchalar hosil bo‘ladi.

Bolalarda mehnatni sevish, o‘zgalar mehnatini qadrlash, o‘simlik va hayvonlarni asrash, ularni parvarish qilish, o‘z Vatanini, tabiatni sevish, tabiat go‘zalliklarini ko‘ra olish kabi hislatlarni o‘stirish orqali tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi.

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida tabiat bilan yaqindan tanishtirmasdan turib, bolalarni jismonan rivojlantirish, nutq va tafakkurlarini boyitish vazifalarini amalga oshirish mumkin emas.

Tabiat bilan tanishtirishning bolalarni aqliy jihatdan o‘shishiga ta‘siri kattadir.

Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda talim-tarbiya jarayonida ularning ongida atrofni o‘rab olgan dunyo haqida hissiy tajribaga asoslangan aniq bilimlar hosil qilish muhimdir. Haqiqatni to‘g‘ri aks ettiruvchi bilimlar berilmasi, bolalarda tabiat haqida noto‘g‘ri tushunchalar hosil bo‘ladi.

Yoshlarga estetik tarbiya berishdan maqsad — shaxsning estetik didi va idealini tarkib toptirish, tevarak-atrofdagi narsalarni to‘g‘ri qabul qilish qobiliyatlarini har tomonlama o‘stirishdir. Estetik tarbiya bolaga did bilan kiyinish, yurish-turish, mehnat qilish, omma orasida o‘zini to‘g‘ri tuta bilish kabi xislatlarni singdiradi. Ayniqsa, ona -tabiatni sevish va undan zavq olish, ya‘ni go‘zallikni his qilishni o‘rgatadi. Gul va mevalarning hidi, shakli va ranglari, qushlarning sayrashi, ariqlarda suvning jildirab oqishi, qishda qorning g‘ichirlashi - bularning hammasi bolalarda tabiatdagi narsa va hodisalarni tasavvur etishga imkon beradi va ularda estetik hissiyoini tarbiyalashda va o‘stirishda boy material bo‘lib xizmat qiladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarda bunday estetik tuyg‘ularning o‘shishi esa o‘z navbatida san‘atni, hayotni, tabiatni sevish, uni tushunish va o‘rganish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Avval tabiat go‘zalligi, so‘ngra san‘at go‘zalligini his etish kerak. Tabiatdagi va san‘atdagi go‘zallik bilan tanishish bolaning aql-idroki va his-

tuyg'ularini tarbiyalabgina qolmay, balki uning axloqini, aqliy xayol va fantaziyasini ham rivojlantiradi.

Bog'cha yoshidagi bolani tabiat bilan tanishtirishda uni zavqlantirish, estetik his-tuyg'ularni hosil qilish oson ish emas. Uning tabiat go'zalliklarini ko'ra bilishi, ulardan bahramand bo'lishi, qalbida havas, qiziqish, hayajonlanish hislarining uyg'onishi uchun oylar, yillar kerak bo'ladi. Bolani estetik tarbiyalashni tabiatga sayohat, sayrlar yoki bog'cha hovlisidagi hushmanzara gullarni, chiroyli bog' hovlilarini kuzatish orqali amalga oshirsa bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat orqali estetik ruxda tarbiyatashni tabiatning istagan faslida amalga oshirish mumkin.

Axloqiy tarbiya

Axloqiy tarbiya deganda, yosh avlodni Vatanga, insonlarga muhabbat, ularning mehnatiga hurmat tuyg'ulari, intizomlilik, xulq-atvor madaniyati, tengdoshlar orasidagi do'stlik, tinchlik, inson xarakterining irodaviy xislatlari hamda shaxsning ijobiy, axloqiy sifatlari, poklik, to'g'rilik, kamtarlik, xullas barcha oliyjanob xislatlarni mujassamlashtirish ruhida tarbiyalash tushuniladi.

Yosh avlodda bu xislatlarni kamol toptirish uchun tabiat vositasidan keng foydalanish kerak. Bu murakkab jarayon bo'lib, uzoq vaqt, kerak bo'lsa yillar davomida qilinadigan mehnatning mahsuli hisoblanadi.

Tabiat vositasida axloqiy tarbiya berish uchun bog'cha hovlilariga ekilgan gullarni parvarish qilish jarayonida har bir gulni, niholni asrash, uni parvarish qilish, gullarning tagini yumshatish, sug'orish, begona o'tlardan tozalash, shakl berish, o'g'it yoki go'ng solish kabi ishlarni bajarish jarayonlarini amalga oshirish mumkin. Bu yerda tarbiyachining ahamiyati katta. Masalan, tarbiyachi bolalarga gullarni parvarish qilayotganda ularning ham jonli organizm ekanligini, biz qanday nafas olsak, ular ham nafas olishini, biz qanday ovqatlansak, ular ham bizdek «ovqatni yaxshi ko'rishini», o'simlikning ovqati go'ng, o'g'it ekanligini, biz yuvinish, taranishni qanday yaxshi ko'rsak, gullar ham «yuvinishni», «taranishni» yaxshi ko'rishini va buning uchun gullarning tagini vaqti-vaqti bilan yumshatib, suv berib turish kerakligi, barglariga chang yuqtirmasdan yuvib, artib turish lozimligini o'rgatishi zarur. Shuningdek, tarbiyachi bolalarga odamlar yorug'likni, quyoshni qanday yaxshi ko'rsa, gullar ham yorug'likni, quyoshni shunchalik yaxshi ko'rishini, shuning uchun ham ularni soya yoki qorong'i yerga saqlash mumkin emasligini ularga uqtirishi zarur.

Tabiat vositasida bolalarga axloqiy tarbiya berishning yo'llari juda ko'p va xilma-xildir. Biz yuqorida faqat uning ba'zi birlarini eslatdik, xolos. Uni har bir tarbiyachi o'z sharoiti, o'z milliy urf-odatlarini asosida amalga oshirsa, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Bolalarning o'simliklar o'stirish va hayvonlarni parvarish

qilishda ishtirok etishlari ularda har bir ishda javobgarlikni his qilishga va mehnatsevarlikka o'rgatadi.

Jismoniy tarbiya

Insonning ma'naviy shakllanishida, mazmunli hayot kechirishida jismonan sog'lom bo'lishining ahamiyati beqiyos kattadir. Xalqimiz «Tani sog'lik — tuman boylik», «To'rt muchaling sog' bo'lsin» deb bekorga aytmagan. Bu naqlarning tuman-tuman ma'nosi bor.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning organizmi juda tez rivojlanadi. Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasidan ma'lumki, bolalar 7—8 yoshgacha bo'yiga har yili 5 sm gacha o'sib, tana og'irligi 2-2,5 kg ga ortib boradi. Kevin esa biroz sekinlashadi. Bundan ko'rinib turibdiki, bolaning jismonan sog'lom o'sishini yoshlikdan ta'minlash kerak. Bog'cha yoshidagi bolalarni jismonan sog'lom tarbiyalash uchun nimalarga e'tibor berish zarur? Bunda qanday tarbiya vositalaridan foydalanish kerak, degan haqli savollar tug'ilishi mumkin.

Bolalarni jismonan to'g'ri tarbiyalash uchun quyidagi shartlarga qat'iy rioya qilish kerak:

- gigiyenik ko'nikmalar hosil qilib tarbiyalash (bino, hovli, jihozlar, kiyim-bosh, poyafzal gigienasi);
- tibbiyot xodimlariniig doimiy nazoratida (sog'ligi, antropolitik ma'lumotlari, fiziologik holati) bo'lish;
- bog'chadagi bolalarning kun tartibini tuzish (ovqatlanish, uyqu, o'yin, mashg'ulot, sayr, organizmini chiniqtirish).

Bog'cha yoshidagi bolalarga tabiat vositasida jismoniy tarbiya berishda ochiq havoda sayr qildirish, tog' etaklari, daryo bo'ylariga sayohatga chiqish, shahar ichidagi istirohat bog'larida bo'lish, ular bilan bog'cha hovlisida ishlash, harakatli o'yinlar tashkil qilish, o'simliklar va hayvonot dunyosi bilan tanishish, hayvonot bog'larida bo'lish kabilar bolani jismoniy tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Bog'cha hovlisidagi gullarni parvarish qilish, tagini yumshatish, sug'orish, gulzorni begona o'tlardan tozalash, gullarga mineral va madaniy o'g'itlar solish kabi ishlar bolalarni ham mehnatsevarlikka, ham jismonan sog'lom bo'lib o'sishlariga yordam beradi.

Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda yer maydonchasi, bog'cha hovlisining mavjudligi ahamiyatga ega. Bola ochiq havoda sayr etar ekan, nafas olishorganlarining rivojlanishi bilan birga tanasining boshqa a'zolari mustahkamlanadi, sog'lom o'sishi uchun sharoit yaratiladi. Tabiat vositasida jismoniy tarbiya berinshing turiari juda ko'p bo'lib, ulardan oqilona foydilanish kerak.

Ekologik tarbiya

Bolalarning ekologik tarbiyasi-pedagogikaning bolalarni tabiat bilan tanishtirish dasturlarida o'z ifodasini topgan an'anaviy yondashish, keyingi yillarda yuzaga kelgan yangi bir yo'nalishdir.

Voyaga yetayotgan avlodni ekologik tarbiya muammosi, avvalambor, hozirgi zamon olimlarining tabiat va jamiyatdagi o'zaro bog'liqliklarini diqqat bilan kuzatishlari natijasida kelib chiqadi. Hozirgi kunda inson va tabiatning o'zaro munosabatlar xarakteri yer sharida hayotni saqlab qolish bilan bog'liqdir. Ushbu muammolarning dolzarbligi, ekologik va biologik qonuniyatlarni hisobga olmagan holda tabiiy resurslardan foydalanish, sanoat ishlab chiqarishning tez sura'tlar bilan o'sib borishi va nihoyat, tabiatda inson faoliyati orqali yuzaga kelgan aniq ekologik xavf vujudga kelganligi bilan asoslanadi.

Olimlar tabiat jamiyat bir-biriga ta'sirning o'ziga xosligini tahlil qilish orqali, hozirgi zamon sharoitida tabiat va jamiyatning yangi turiga o'tishni ta'minlash kerak degan xulosaga keldilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyasi muhim ahamiyatga ega, chunki xuddi mana shu yoshda informatsiyalarning 70 %ni qabul qiladilar, ma'naviy madaniyatning bir qismi hisoblangan shaxsiy ekologik madaniyatning poydevor asoslari shakllanadi. Bolalarning ekologik tarbiyasi maqsad sari yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Shaxsni ekologik tarbiyalash, tabiatni muhofaza qilish munosabatlariga ijobiy yondashish, tabiat bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni amalga oshirishda ekologik muhofaza nuqtai nazaridan yo'naltirilgan intizom, ekologik ongning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi.

Shaxsning ekologik madaniyati ekologik tarbiyaning natijasi bo'lib hisoblanadi. Maktabgacha yoshda bolaning shaxsiy ekologik madaniyatining tarkibiy qismi – tabiatni bilish bo'yicha bilim va uning ekologiya nuqtai nazaridan yo'naltirilganligi, kundalik turmush, turli-tuman faoliyatlarda:-(uy sharoiti, mehnat jarayoni va turli xil o'yinlarda) foydalanishni tashkil qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayonda shaxsni ekologik tarbiyalash quyidagi faoliyat turlarini ochib berish orqali amalga oshirilishi mumkin.

1. Bolalarda ekologik ong elementlarini shakllantirish. Bola ekologik ong elementlarini tushunish va tasavvur etish, tabiat to'g'risidagi bilimlarning xarakteri va mazmuni bilan aniqlanadi. Ularda, tabiiy hodisalarning o'zaro bog'liqligini namoyon qiluvchi ekologik mazmunga ega bo'lgan bilimlar bo'lishi kerak.

2. Bolalarda tabiat bilan bog'liq bo'lgan turli xil bilim va malakalarni shakllantirish, faoliyat bilan bog'liq bo'lgan harakatlar tabiatni saqlash xarakteriga ega bo'lishi kerak. Tabiat bilan bog'liq holda olib borilayotgan aniq

faoliyat davomida (dala hovli va tabiat burchaklarida o'simlik va hayvonlarga qarash, tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan ishlarda faol qatnashish) bolalar tirik organizmlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o'simlik va hayvonlar uchun tabiiy sharoitga yaqin bo'lgan sharoitlarni tashkil qilishni o'zlashtiradilar. Bunda salbiy ishlarning oqibatlarini oldindan ko'ra-bilish, tabiatda o'zini qanday tutishni bilish, alohida olingan turkumlar va tirik organizmlarning butunligini saqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Kelajak avlodni barkamol kishilar qilib tarbiyalash shu kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada bolalarni tabiat bilan tanishtirish muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra maktabgacha ta'lim muassasalarida ishlayotgan tarbiyachilar oldida bolalarda tabiat go'zalliklarini ko'ra bilish, uni sevish, tabiatda yuz berayotgan voqea- hodisalar haqida to'g'ri tushunchalar hosil qilish, ularga ekologik ta'lim-tarbiya berishdek muhim vazifa turadi.

Nemis pedagogi (1782-1852) F. Frebel maktabgacha tarbiya nazariyasida o'z qarashlari bilan yuksak shuhrat qozongan.

U, tabiatdagi cheksiz rivojlanish haqida va insonning butun hayoti davomida kamol topishi haqidagi qimmatli va muhim fikrni keng tashviq qildi. U bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini oshirib borishda tarbiyachining roliga, mehnat ta'limiga katta baho berdi.

Uning pedagogikada katta nom chiqarishiga sabab, u birinchi bo'lib "bolalar bog'chasi" atamasini joriy etdi. Bolalarning tarbiyalanishida, yetilishi va rivojlanishida murabbiylarning roli katta ekanligini aytib, bog'chalar bir bog'-u, murabbiylar uning "bog'boni" deb ta'rif berdi.

Tarbiyachi, eng avvalo, o'zi tabiatni sevuvchi, jonli va jonsiz tabiat haqida aniq bilimlarga ega bo'lmog'i lozim.

Tarbiyachi bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun «Bolajon» dasturida berilgan tabiatga oid bilimlar bilan tanishib chiqqan va har bir yosh guruh uchun berilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Tarbiyachi har bir faslda olib boradigan tabiat haqidagi bilimlarini to'g'ri rejalashtirishi, yer maydonchasidagi o'simliklar, tirik burchakdagi xona o'simliklari, akvariumda, terrariumda yashovchilarni parvarish qilish ko'nikmalarini, qafasdagi qushlar va mayda sut emizuvchilar bilan tanishtirishni to'g'ri yo'lga qo'yishi zarur. Tarbiyachi bolalarni yuqoridagilar bilan tanishtirar ekan, ularning dunyoqarashini shakllantirib, jonli va jonsiz tabiatning xususiyatlarini o'rganib, - ular haqida dastlabki tushunchalar beradi.

Bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularni barkamol qilib o'stirish tug'ilgan kundan boshlab amalga oshiriladi.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonimizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning bosh maqsadi aynan mana shunga qaratilgan ya'ni o'sib kelayotgan yosh avlod mustaqil O'zbekistonimizning kelajagini, taraqqiyotini kafolatlaydi. Mana shu ustivor yo'nalishlardan kelib chiqqan holda bolalar bog'chalarida farzandlarimizga berilgan har qanday bilim ularda Vatanga sadoqat o'z o'lkasini sevish, Vatan bilan g'ururlanish ruhini tarbiyalashi lozim. Shunday ekan tabiat bilan tanishtirish metodikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- bolalarni o'z o'lkasini sevishga o'rgatish.
- o'zining, tengdoshlari va kattalarning mehnatini qadrlashga o'rgatish.
- tabiat orqali psixik jarayonlarni rivojlantirish (sezgilar, idrok, xotira, xayol, tasavvur, nutq, diqqat).
- Bolalar hissiyotini, irodasini rivojlantirish.
- tabiat in'om etgan ne'matlarni avaylab asrashga o'rgatish. Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda, bolalarni har tomonlama tarbiyalashda tabiat orqali aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, nafasat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, ekologik tarbiya, iqtisodiy tarbiya berish lozim.

Yosh avlodga aqliy tarbiya berish umumiy tarbiyaning tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi.

Aqliy tarbiya berish ko'zlangan maqsad maktabgacha yoshdagi bolalarni tevarak - atrofdagi hayotning eng oddiy hodisalari haqida turli tasavvurlar hosil qila olishga o'rgatib borishdan iborat. Tabiat vositasida bolalarga aqliy tarbiya berish biz yashaydigan muhitdagi o'simlik va hayvonot olami bilan tanishtirish, jonli-jonsiz tabiat haqida tushuncha berish haqidagi, uning elementlari, tabiatda bo'ladigan hodisalar, yomg'ir, yulduzlar, oy haqida, yer haqida tushunchalarini mashg'ulot vaqtida so'rab bilish mumkin. Bola tevarak- atrofdagi narsalar, ularning shakli, rangi, katta-kichikligini ko'rib ular haqida fikir yuritadi. Aqliy tarbiyaning eng muhim vazifalaridan yana biri bolalarni tarbiyalashdir. Bolalarga aqliy tarbiya berishda tabiat vositalardan foydalanish ma'lum bir tizim asosida amalga oshirilishi kerak. Buning uchun eng avvalo tabiat bilan tanishtirishning eng oddiy tushunchalaridan boshlab tabiat haqidagi ilmiy dunyoqarashlar hosil qilinadi. Natijada bolalarda ko'rgazmali obrazli, ko'rgazma harakatli tafakkur rivojlanadi. Buning ahamiyati shundaki tanishtirilgan tabiatning har bir vositasi bola ongida fikrida tushunchasida mustahkam iz qoldiradi.

Axloqiy tarbiya deyilganda yosh avlodni Vatanga, kishilarga muhabbat, ularga va ular mehnatiga hurmat tuyg'ulari, baynalminallik kurtaklari, kishi – kishiga do'st, tinchlik, xarakterning irodaviy xislatlari va shaxsning ijobiy

axloqiy sifatlar, poklik, to'g'rilik, olijanob inson uchun nimaiki zarur bo'lsa, hammasini mujassamlashtirilgan holda tarbiyalash tushuniladi.

Yosh avlodda bu xislatlarni kamol toptirish uchun tabiat omilidan keng foydalanish kerak. Buni amalga oshirish bir kunlik, bir oylik ish emas, balki bu uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo'lib, kerak bo'lsa yillab tarbiya talab qiladigan mehnatning mahsuli hisoblanadi.

Tabiat vositasida axloqiy tarbiya berish uchun maktabgacha ta'lim yer maydonchalariga ekilgan ekinni parvarish qilish, gullarning har biri gulini niholini asrash, uni parvarish qilish, gullarni tagini yumshatish, sug'orish kabi ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirish mumkin. Bolalarni maktabgacha ta'lim yer maydonchasida, tabiat burchagida, o'simlik yoki hayvonni tanishtirish jarayonini tashkil etish kerak. Bunda tarbiya tanishtirishni qiziqarli jonli sharoitga bog'lab bolalarning e'tiborini o'ziga rom etib tashkil etish kerak. Tabiat vositasida bolalarga axloqiy tarbiya berishning yo'llari juda ko'p va xilma-xil.

Yoshlarga nafosat tarbiyasini berishdan maqsad shaxsning didini, go'zallikni his etib doimo unga intilib yashash xislatini tarkib toptirishdir. Chindan ham tabiatni uning go'zal manzaralarini bog' rog'larni sevmagan undan rohatlanmagan kishi bo'lmasa kerak. Gullarning, mevalarning hidi, shakli va rangi, qushlarning sayrashi, ariqlardan suvlarning shildirab oqishi, oyoq ostidagi qorning g'ijirlashi - bularning barchasi balalarda tabiatdagi narsa va hodisalarni his qilishga imkon beradi va ularda estetik hissiyotni tarbiyalash va o'stirish uchun boy material bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, yosh bolalar chiroyli, yorqin, rang, predmetlarni yaxshi ko'radilar. Go'zallik, havas, qiziqish har bir bola ongida mavjud. Biz bola ongidagi fikridagi ana shu qiziqishni rivojlantirishimiz zarur. Bunda asosiy vosita rolini tabiat oynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiat vositasida nafosat tarbiyasini istagan faslda amalga oshirish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga mehnat tarbiyasini berish ularni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash mehnatga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, kattalar yaratgan mehnat mahsulini e'zozlash, uning qadriga yetish ruhida tarbiyalashni bolalik davridan boshlashi lozim. Bolalarning mehnat tarbiyasi burchagida gulzorda, o'simliklar va hayvonlarni parvarishlash jarayonida amalga oshiriladi. Mehnat tarbiyasi har bir guruhning yosh xususiyatini hisobga olgan holda amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kichik guruhda mehnat tarbiyasini berishda bolalar tarbiyachi bilan birga xonadagi o'simliklarga suv quyadilar, akvariumdagi baliqlarga ovqat beradilar, qushlarga don tashlaydilar, boqcha hovlisidagi poliz ekiilarini yig'ib-terib olishda ishtirok etadilar. O'rta guruhda mehnat tarbiyasi bir oz murakkablashadi,

maktabgacha ta'lim yer maydonchasidagi o'simliklarni o'zlari parvarish qiladilar. Tabiat burchagidagi hayvonlarni o'zlari ovqatlantiradilar, parvarishlaydilar. Katta tayyorlov guruhlarida amalga oshiriladigan mehnat tarbiyasi ham bir muncha o'ziga hosligi, murakkabligi bilan ajralib turadi. Bolalarning o'simliklarga bo'lgan munosabati, mehnat qilishlari jonli tabiatga, Vatanga bo'lgan muhabbatni yanada oshiradi.

2.2. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan talablar

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining katta sohasi bu "Bilish jarayonining rivojlanishi" quyidagi kichik sohalardan tashkil topgan:

1. Intellektual anglash malakalari
2. Elementar matematik malakalar
3. Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida rivojlantirish markazlaridan foydalanish bilan pedagogik jarayonni tashkil etish masalasi o'ta dolzarbdir. Bu O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturini amalda qo'llash bilan bog'liq. Tarbiyachi Davlat talablarining "Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasi mazmuni asosidagi o'quv-tarbiyaviy jarayonni «O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari» asosida amalga oshiradi.

"Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida berilgan yillik mavzuviy reja asosida oylik va hafta mavzulariga asoslanib faollik markazlarida va kun davomidagi turli faoliyatlarda olib boriladi. Oy mavzulari ichidagi hafta mavzulari bo'yicha quyidagi rivojlantirish markazlari ishi tashkil etiladi:

1. "Til va nutq" markazi.
2. "Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika" markazi
3. "San'at" markazi
4. "Ilm –fan va tabiat" markazi
5. "Syujetli –rolli o'yinlar va drammalashtirish" markazi

"Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasidagi kichik sohalarda belgilangan vazifalarni pedagoglar asosan "Ilm, fan va tabiat", "Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika" hamda "Til va nutq" markazlaridagi ta'limiy faoliyat orqali amalga oshiradilar. Markazlardagi faoliyatlar bilan cheklanib qolmagan holda kun davomida sayr, ertalabki suhbat, katta guruh bo'lib ishlash

va turli hil ko'rik-tanlov, viktorinalar, ko'rgazmalar orqali ham maqsadga erishishi, ya'ni bolaga kerakli bilimni berish mumkin.

Tarbiyachi tabiat bilan tanishtirish metodikasining vazifalari ustida ish olib borar ekan, haftaning o'rganilayotgan mavzusi asosida Davlat talablaridan kutilayotgan natijalarni maqsad qilib oladi va faollik markazlarida turli xildagi amaliy tajribalar, pedagogning nazariy bilimlari, AKT vositalari, ta'limiy va rivojlantiruvchi o'yinlar orqali maqsadga erishish uchun mavzularni rejalashtiradi.

Tarbiyachi bolalarda bilish jarayonining to'liq rivojlanishi uchun dastur vazifalarini va Davlat talablaridagi "Bilish jarayonining rivojlanishi" katta sohasining har bir kichik sohasi talablari, kutilayotgan natijalarini yaxshi bilishi va natijalarni (rivojlanish ko'rsatkichlar) tanlashi, maqsadni amalga oshirish uchun tegishli markazlarni tayyorlash, jihozlar bilan boyitish ishlarini to'g'ri tashkillashtirishi lozim.

Markazdagi faoliyat bolani maqsad sari undashi, bolada qiziqish uyg'otishi, bajarayotgan ishidan o'ziga kerakli bo'lgan bilimni olishi, tanlangan materialni yakuniy xulosasi aniq namoyon bo'lishi, mavjud jihoz va ko'rgazmalarning guruh bolalarining yoshiga mos, xavfsiz va ularda qiziqish paydo qilishi lozimligi inobatga olinadi.

Markaz har haftaning boshida yangi mavzu bilan jihozlanishi va hafta davomida yangi jihozlar bilan boyitib borilishi lozim va mavzu asosida berilayotgan vazifalarni bola mustaqil bajara olishi uchun imkoniyat yaratilgan bo'lishi kerak; ya'ni vazifani bajarish bo'yicha ko'rsatma, yo'nalish yoki jadvallar bilan ta'minlanganligiga e'tibor qaratiladi.

Markazlardagi ish davomida tarbiyachi bolalardagi faollikni va ularda yangi bilimlar bazasini qay darajada boyitilayotganligini, bolalar faoliyati davomida duch kelayotgan muammolari va yutuqlarini kuzatib boradi. Lozim bo'lsa bolalarga yengillik yaratish va ulardagi qiziqishni yanada oshirish maqsadida markazdagi jihozlarni boshqa biror bir jihozlar yoki mavzudan chetlashmagan holda yangi vazifalar bilan almashtirish mumkin. Faoliyat davomida faol bo'lmagan bolalar bilan yakka ishlash hamda ularning otalarini faoliyatga jalb etish choralarini ko'rish mumkin.

Har hafta oxirida tarbiyachi bolalar faoliyatini tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor qaratadi, bolalar nimalarni bilib olgani, nimani bilishni xohlashlari, kun davomida suhbatlar jarayonida bir hafta davomida berilgan bilimlarni natijalari aniqlanadi, ya'ni bolada tabiat va atrof-olamdagi o'zgarishlar, tabiat hodisalari, amaliy tajribalar asosida nimalar hosil bo'lishi yoki halok bo'lishi, nimalarni yaratish mumkinligi, tirik va jonsiz tabiatni bir-biridan qanday ajratishi va tabiat uchun qanday foydali ish qilishlari mumkinligi haqidagi bilim va malakalari

tahlil qilinadi. Yakuniy xulosa chiqarishda tarbiyachi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishdimi yoki yo'qmi buni aniq dalillar (mavzu asosida topishmoqlar, muammoli vaziyatlar, ta'limiy o'yinlar) asosida tahlil qiladi. O'tkazilgan tajribalarning bolalar ongiga qay darajada ta'sir etganligi, ularga nisbatan qiziqish ortgan ortmaganligi, o'z mehnat natijalarida hosil bo'lgan, yaratilgan narsalarni ehtiyot qilish, uni asrash kabi malakalarni singdirilganligiga xulosa qilinadi. Shundan so'ng keyingi haftaga tayyorgarlik ko'riladi.

“Bilish jarayonining rivojlanishi” yuzasidan tarbiyachi turli yosh guruhda quyidagi vazifalar bo'yicha ish olib boradi:

Kichik guruhlarda:

1. Bolalar tevarak-atrof, tabiat bilan yaqindan tanishadi.
2. Oddiy tabiat hodisalarini bilan biladi.
3. Ta'limiy o'yinlar orqali tevarak atrofdagi hodisalar bilan tanishadi.
4. Tevarak va tabiat hodisalariga ta'rif berish orqali nutqi rivojlanadi.

O'rta va katta guruhlarda:

1. Tevarak-atrof va tabiat bilan tanishtirishda davom etadi, nutqi rivojlanadi, turli tabiat hodisalariga mos bo'lgan tajribalarni o'rganadi.
2. Tabiat hodisalariga o'z munosabatini bildiradi.
3. So'zlashuv nutqi (dialog nutqini) rivojlanadi.
4. Hayot xavfsizligi haqidagi tushunchalarga ega bo'ladi.
5. O'z salomatligini asrash kerakligini tushunadi.

Maktabgacha tayyorlov guruhlarida:

1. Tevarak-atrof va tabiat bilan tanishtirishda davom etadi, nutqi rivojlanadi, turli tabiat hodisalariga mos bo'lgan tajribalarni o'rganadi va ularni o'zi mustaqil bajaradi.

2. Tabiat va tevarak- atrofda sodir bo'layotgan hodisalar, yer osti boyliklari, transportlar, qurilish, insonlar hayotida yordam beruvchi robotlar, ma'ishiy texnika vositalari va ularning faoliyati haqidagi tushunchalari kengayadi.

3. O'yinlar , tajribalar orqali kattalar mehnatiga qiziqish ortib boradi.

4. Amaliyotda sinab ko'rish, tajribalar o'tkazish jarayonlarida o'ziga nisbatan ishonch ortadi.

5. Hayot xavfsizligi haqidagi tushunchalarga kengayib boradi.

6. O'z salomatligini asrash kerakligini tushunadi va sanitariya qoidalariga rioya qiladi.

Nazorat savollari

1. Tabiat nima?
2. Hissiy bilimning fiziologik asosi haqida gapiring.
3. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish asosi nimadan iborat?
4. Maktabgacha tarbiya yoshida tabiatni o'rganishning asosiy usullari haqida gapiring.
5. Biologik tushuncha deganda nimani tushunasiz?
6. Tabiat bilan tanishtirish metodlari haqida gapirihg.
7. Jonsiz tabiat hodisalari deganda nimani tushunasiz?
8. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish asoslari nimadan iborat?
9. Axloqiy tarbiya asosi nimadan iborat?
10. Jismoniy tarbiya mazmuni haqida gapiring?
11. Ekologik tarbiya tavsiflang.
12. Bolalarda ekologik ong elementlarini shakllantirishning asosi haqida gapiring.

Mavzu yuzasidan testlar

- 1. Kim o'zining «Buyuk didaktika», «Tillar hamma fanlarning ochiq eshigi», «Fizika», «Falakiyot», «Onalar maktabi», «Tinchlik farishtasi» kabi asarlarida o'zining muhim pedagogik g'oyalarini ifodalagan?**
 - a. Ya.A.Komenskiy
 - b. I.G.Pestalossi
 - c. K.D.Ushinskiy
 - d. S.A.Veretenikova
- 2. Kim maktablaning 4 turini yilning 4 fasliga o'xshatgan?**
 - a. Ya.A.Komenskiy
 - b. I.G.Pestalossi
 - c. K.D.Ushinskiy
 - d. S.A.Veretenikova
- 3. Tabiat bilan tanishtirish tamoyillari qaysilar?**
 - a. ilmiylik, bolalar yoshiga moslik o'lkashunoslik, ensiklopedik, faolchilik
 - b. ilmiylik, faslchilik, ko'rgazmalilik
 - c. o'lkashunoslik, ko'rgazmalilik, entiklopedik falschilik, ensiklopedik
 - d. o'kashunoslik, ensiklopedik, faslchilik
- 4. Ya.A.Komenskiy «Onalar maktabi»da nechta fandan ma'lumot olishni tavsiya etgan?**
 - a. 18 ta
 - b. 17 ta
 - c. 12 ta

d. 13 ta

5. Shveysariyalik olim I.G.Pestalossi qanday oilada va nechanchi yilda tugʻilgan?

- a. 1746-yilda shifokor
- b. 1766-yilda oʻqituvchi
- c. 1749-yilda injener
- d. 1739-yilda iqtisodchi

Foydalanilgan asosiy darsliklar va oʻquv qoʻllanmalar

- 3. Oʻzbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qoʻyladigan Davlat talablari.T,2018
- 4. Ilk qadam maktabgacha taʼlim muassasasining davlat oʻquv dasturi. T,2018
- 5. Xasanboeva O, .Jabborova X, .Nodirova Z Tabiat bilan tanishtirish metodikasi Toshkent ,2006.
- 6. Markovskaya M.M. Bolalar bogʻchasida tabiat burchagi Toshkent, Oʻqituvchi , 1991
- 7. .Samorukova P.M Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish Toshkent Oʻqituvchi , 1991
- 8. F. Yusupova F. Bolalar bogʻchasida ekologik tarbiya,Toshkent Oʻqituvchi ,1999
- 9. Grigorʻyans A.G. , Gafurova U. Bolalar bogʻchasida ekologik tarbiya Toshkent, Oʻqituvchi, 2002
- 10. Hasanboyeva O U, Djabborova X.J. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. T Choʻlpon. 2007.

3. MAVZU: MAKTABGACHA TAʼLIM TASHKILOTLARIDA TABIAT BILAN TANISHISHTIRISH MAZMUNI

Reja:

- 1. Tabiat bilan tanishtirish tamoyillari.
- 2. Tabiatdagi ekologik bogʻlanishlar haqidagi bilimlarni shakllantirish.
- 3. Dasturning konsentrik tamoyillari asosida tuzilishi.
- 4. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda faslchilik tamoyillariga oid joylashtirish.

***Tayanch tushunchalar:** Ekologik taʼlim-tarbiya tizimi, ekologik vaziyat, bolalarning tabiatga ongli munosabati, atrof-muhitga munosabatni maʼnaviy madaniyatning ajralmas qismi ekanligini anglash, ekologik madaniyatini shakllantirish, ekologik bilim mazmuni, ekologik qonuniyatlarning oʻzlashtirilishi atrof- muhitni muhofaza qilish.*

3.1. Tabiat bilan tanishtirish tamoyillari

Ekologik ta'lim-tarbiya tizimi asoslariga tabiat yaxlitligi hamda atrof - muhitning inson tomonidan o'zgartirilishi haqidagi tasavvurlar qo'yilgan. Bunda tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni oliy o'quv yurtlarida hozirgi zamon ommaviy axborot vositalaridagi uzluksiz jarayon sifatida qaraladi. U umumiy vazifalar bilan uyg'unlashadi hamda mutaxassislik tayyorgarligi bilan bog'liq holda tabaqalashtiriladi. Uning umumiy nazariy ko'rsatmalari o'quv rejasining turli qismlarida aks etgan bo'lib, ma'ruza matnlari, elektron darsliklar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mazmunida o'z ifodasini topadi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning jarayoni har tomonlama rivojlangan shaxs ma'naviy qiyofasini kamol topish jarayonining muhim va tarkibiy qismidir. U bolalarda milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida tabiatga ongli munosabat, tabiat zaxiralarini saqlash va ko'paytirishga oid mas'uliyat tuyg'usi, ekologik muammolarni amaliy hal qilishdagi ko'nikmalarning rivojlantirilishini o'zida qamrab oladi.

Sayyoramizda, jumladan, respublika hududida vujudga kelgan ekologik vaziyat ta'lim-tarbiya tizimi oldiga quyidagilarni hal etishni muhim vazifa etib qo'yadi, ular:

1. *Bolalarning tabiatga ongli munosabatlari, tabiat komponentlarini yaxlitlikda va o'zaro aloqadiligini his etish;*
2. *Tabiatning bolalar ekologik madaniyatini belgilab beradigan vosita sifatida namoyon bo'lishi;*
3. *Atrof-muhitga munosabatni ma'naviy madaniyatning ajralmas qismi ekanligini anglash;*
4. *Tabiat talabaning ekologik madaniyatini shakllantirishi uchun asosiy omil ekanligini tushunish;*
5. *Atrof-muhitga nisbatan bolalarni tabiat bilan tanishtirishda bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonida atrof- muhitni muhofaza qilishni ekologik qadriyat sifatida anglab yetishlariga ilmiy-amaliy jihatdan sharoit yaratish;*
6. *Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda maqsad va vazifalarini aniq belgilab olish, uning amaliyotga yo'naltirilganligini tushunish;*
7. *Ekologik muammoga umummilliy, umuminsoniy, ijtimoiy muammo sifatida yondashish kabilar.*

Shular asosida talabaning ekologik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini didaktik jihatdan ta'minlanishiga erishamiz. Buning uchun ekologiyaga oid o'quv materiallarini tanlash, tabiatni muhofaza qilishga oid faoliyat turlari va ular mohiyatini bolalar ongiga singdirish, insonning tabiat hodisalarini anglashi, mazkur hodisalarning

hayotiyliги, mukammalliligini tushunish lozimligining ustuvorligini anglashi zarur.

Bizning fikrimizcha, bolalarga o'rgatiladigan ekologik bilim mazmuni o'z ichiga quyidagilarni qamrab olishi lozim:

- bolalar ongida olamning ilmiy manzarasini shakllantirish;
- tabiat va jamiyat o'rtasidagi ma'lum bo'lgan ekologik bilimlar ahamiyatini ilmiy-amaliy jihatdan yoritib berish;
- bolalar tomonidan ekologik qonuniyatlarning o'zlashtirilishiga erishish;
- tabiatda sodir bo'ladigan turli xildagi fojialarni anglash, ularning mohiyatini bilib olish, ekologiyaga oid ta'lim vazifalarini ifodalash, kuzatish va tajribalarni rejalashtirish hamda amalga oshirish, ekologiyaga oid nazariy-amaliy g'oyalarni oydinlashtira olish, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalana olish malakalarini hosil qilish;
- tabiatga qadriyat sifatida qarash tuyg'usini uyg'otish va madaniyatini shakllantirish, tabiatni muhofaza qilish va uning boyliklaridan unumli foydalanishni takomillashtirish;
- respublika hududidagi biologik xilma – xillikni bilishga imkon beradigan nazariya va amaliy g'oyalarni o'rganishni tashkil etish;
- ekologiya sohasidagi muayyan bilimlar hajmini, tasavvur va tushunchalar doirasini ilmiy-amaliy jihatdan ishlab chiqish;
- atrof- muhitni muhofaza qilish, uning zahiralardan unumli foydalanishga o'rgatish;
- bolalarni atrof-muhit bilan muloqot davrida ekologik amaliyotni kengaytirish, ularda atrof muhitga nisbatan faol ta'sir etuvchi ekologik munosabatni tarkib toptirish.

Ekologik ta'lim mazmuni: psixologik, pedagogik, shaxs faoliyatiga yo'naltirilgan omillarga tayanadi:

- tabiatga nisbatan ekologik ongli munosabatda bo'lish zaruriyatini anglab yetish;
 - o'z faoliyatlarining ekologik oqibatlarini oldindan his eta olish;
 - tabiat bag'rida yashash, rivojlanish va milliy boylik ekanligini his qila bilish;
 - atrof-muhit bilan muloqotlarning turini tanlashga oid xulosalar chiqarishda tabiiy-ilmiy, texnik va gumanitar bilimlarga tayanish;
- tabiat bilan muloqotda bo'lganda milliy tarixiy taraqqiyotga, umuminsoniy qadriyatlarga tayanish zarur.

Shunday qilib, bolalar ekologik madaniyatini shakllantirish uchun ular ekologiyaga oid quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:

- ekologik muammolarning paydo bo'lish sababini ilmiy-amaliy jihatdan aniqlay olish;
- tasodifan hosil bo'ladigan antropogen omillar holatini hamda uning salbiy oqibatlarini anglash va undan himoyalani;
- tabiat zahiralariidan foydalanishga oid amaliy, aniq ma'lumotlarni olish, tahlil qilish va undan xulosa chiqarish;
- ekologiyaga oid oddiy bitiruv malakaviy ish ishlarini o'tkaza olish, olingan natijalarni tahlil etib, xulosa chiqarish;
- ekologiyaga oid tajribalar olib borish;
- mahalliy, hududiy, umumbashariy ekologik muammolarni ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish, tahlil etish va bartaraf qilishda faollik ko'rsata olish.

Ekologiya o'z mazmuniga ko'ra, insoniyatning tabiat ob'ektlari bilan bo'ladigan barcha xilma-xil aloqalari mohiyatini aks ettiradi. Shunga ko'ra, endilikda shahar, ishlab chiqarish, texnika, qishloq xo'jaligi, suv havzalari, o'simliklar, hayvonot olami, inson, mahalla ekologiyasi kabi tushunchalar mavjud. Ekologik tushunchalarni ekologiya fani o'z ichiga qamrab oladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish tamoyillari

1. Bolalar yoshiga xoslik tamoyili
2. Ilmiylik tamoyili
3. Ko'rgazmalilik tamoyili
4. O'lkashunoslik tamoyili
5. Ensiklopedik tamoyili

Bolalar yoshiga xos jonli va jonsiz tabiat haqida oddiy tushunchalar berish bolalarga beriladigan bilimlar oddiy bo'lishi bilan birga ilmiy aniq bo'lishi kerak. Masalan, o'simlikni yorug'likka, suvga, issiklikka bo'lgan ehtiyoji, bolalarga beriladigan bilimlarning barchasi ko'rgazma asosida berilishi, unga o'lkasi tabiati haqida chuqur bilim berish, tabiatshunoslik barcha sohalari- (botanika, zoologiya, astronomiya) haqida bilim berish.

Yuqorida aytib o'tilgan tamoyillar bir-biri bilan aloqada olib boriladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ilmiylik tamoyiliga amal qilinadi, beriladigan tabiat haqidagi bilimlar ilmiy bo'lishi bilan birga bolalar tushunadigan bo'lishi shart. Masalan, erta bahorda kunlar isiydi. Kunlar isigan sababli daraxtlar kurtak chiqara boshlaydi. Osmon ko'm-ko'k tus oldi, biz endi bog'cha yer maydonchasiga ekin ekishimiz mumkin. Mana shunday oddiy misollar orqali bolalar aniq va ilmiy asosda tushunchalarga ega bo'ladi.

3.2. Tabiatdagi ekologik bog‘lanishlar haqidagi bilimlarni shakllantirish

Ekologik ta'lim-tarbiya tizimi asoslariga tabiat yaxlitligi hamda atrof - muhitning inson tomonidan o'zgartirilishi haqidagi tasavvurlar qo'yilgan. Bunda tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni oliy o'quv yurtlarida hozirgi zamon ommaviy axborot vositalaridagi uzluksiz jarayon sifatida qaraladi. U umumiy vazifalar bilan uyg'unlashadi hamda mutaxassislik tayyorgarligi bilan bog'liq holda tabaqalashtiriladi. Uning umumiy nazariy ko'rsatmalari o'quv rejasining turli qismlarida aks etgan bo'lib, ma'ruza matnlari, elektron darsliklar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mazmunida o'z ifodasini topadi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning jarayoni har tomonlama rivojlangan shaxs ma'naviy qiyofasini kamol topish jarayonining muhim va tarkibiy qismidir. U bolalarda milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida tabiatga ongli munosabat, tabiat zahiralari saqlash va ko'paytirishga oid mas'uliyat tuyg'usi, ekologik muammolarni amaliy hal qilishdagi ko'nikmalarning rivojlantirilishini o'zida qamrab oladi.

Respublika hududida vujudga kelgan ekologik vaziyat ta'lim-tarbiya tizimi oldiga quyidagilarni hal etishni muhim vazifa etib qo'yadi, ular:

1. Bolalarning tabiatga ongli munosabatlari, tabiat komponentlarini yaxlitlikda va o'zaro aloqadorligi his ettiriladi.
2. Tabiatning bolalar ekologik madaniyatining asosiy ishtirokchisi sifatida namoyon bo'lishi uqtiriladi.
3. Atrof- muhitga munosabatni ma'naviy madaniyatning ajralmas qismi ekanligi anglashtiriladi.
4. Tabiat talabani ekologik madaniyatini shakllantirishi uchun asosiy omil ekanligi ayonlashtiriladi.
5. Atrof-muhitga nisbatan bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishd, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonida tabiatni muhofaza qilishni ekologik qadriyat sifatida anglab yetishlariga ilmiy-amaliy jihatdan sharoit yaratiladi.
6. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishning maqsad va vazifalarini aniq belgilab olish, uning amaliyotga yo'naltirilganligi muayyan rejalashtiriladi.
7. Ekologik muammoga umummilliy, umuminsoniy, ijtimoiy muammo sifatida yondashiladi.

Bizning fikrimizcha ,bolalarga o'rgatiladigan ekologik bilim mazmuni o'z ichiga quyidagilarni qamrab olishi lozim:

- bolalar ongida olamning ilmiy manzarasini shakllantirish;

- tabiat va jamiyat o'rtasidagi ma'lum bo'lgan ekologik bilimlar ahamiyatini ilmiy-amaliy jihatdan yoritib berish;
- bolalar tomonidan ekologik qonuniyatlarning o'zlashtirilishiga erishish;
- tabiatda sodir bo'ladigan turli xildagi fojialarni anglash, ularning mohiyatini bilib olish, ekologiyaga oid ta'lim vazifalarini ifodalash, kuzatish va tajribalarni rejalashtirish hamda amalga oshirish, ekologiyaga oid nazariy-amaliy g'oyalarni oydinlashtira olish, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalana olish malakalarini hosil qilish;
- tabiatga qadriyat sifatida qarash tuyg'usini uyg'otish va madaniyatini shakllantirish, tabiatni muhofaza qilish va uning boyliklaridan unumli foydalanishni takomillashtirish;
- Respublika hududidagi biologik xilma – xillikni bilishga imkon beradigan nazariya va g'oyalarni o'rganishni tashkil etish;
- ekologiya sohasidagi muayyan bilimlar hajmini, tasavvur va tushunchalar doirasini ilmiy-amaliy jihatdan ishlab chiqish;
- atrof muhitni muhofaza qilish, uning zaxiralaridan unumli foydalanishga o'rgatish;
- bolalarni atrof -muhit bilan muloqot davrida ekologik amaliyotni kengaytirish, ularda tabiatga nisbatan faol ta'sir etuvchi ekologik munosabatni tarkib toptirishdan iborat.

3.3. Tabiat bilan tanishtirish dasturining mohiyati

O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan, maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun tabiat bilan tanishtirish dasturi, respublikamizning o'ziga xos etnik xususiyatlari, geografik jihatdan iqlimi, tabiiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan.

Dasturda amaliyotda erishilgan yutuqlar asosida ta'lim-tarbiya haqida nazariy vazifalar berilgan. Unda maktabgacha yoshdagi bolalarni turli yosh bosqichiga xos psixofiziologik xususiyatlari hisobga olingan. Dastur ilk yoshdagi , ikkinchi kichik guruhdan to maktabgacha tayyorlov guruhi uchun mo'ljallangan bilim va ko'nikmalar hajmini o'z ichiga oladi.

Bizga ma'lumki, maktabgacha tarbiya muassasalarida turli yoshdagi bolalar tarbiyalanadi. Maktabgacha bo'lgan davrda bolalarga har bir guruhda jonli va jonsiz tabiat haqida bilim beriladi. Bu beriladigan bilim, ko'nikma, malaka guruhdan-guruhga o'tgan sayin chuqurlashtirilib, kengaytirilib, murakkablashib boradi.

Dasturda tabiatshunoslik materiallari barcha guruh uchun yil fasllariga qarab taqsimlangan. Har bir mavsumda jonli va jonsiz tabiatdagi hamda kishilar faoliyatidagi eng aniq xarakterli hodisalar ko'rsatib o'tilgan. Materiallarning

bunday joylashishi tabiatda sodir boʻladigan oʻzgarishlarni kuzatish, uni tahlil qilish imkonini beradi.

3.4. Dasturning konsentrik tamoyillari asosida tuzilishi

Tabiat bilan tanishtirish dasturi respublikaning oʻziga xos tabiiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida qoʻllaniladigan "Bolalar bogʻchasida taʼlim-tarbiya dasturi" davlat hujjati sanaladi. Har bir bogcha mudirasi, uslubiyotchisi, tarbiyachisi shu hujjat materiallarini toʻliq amalga oshirishlari shart. Dasturning tabiat bilan tanishtirish boʻlimi, hamma boʻlimlar bilan uzviy boʻlingan. Tabiat haqidagi tasavvur va tushunchalarni hosil qilish soʻz yordamisiz boʻlishi mumkin emas. Shuning uchun ham ona tilini chuqur oʻrganish undan foydalana olish, tabiatni kuzatish va oʻrganish bilan chambarchas bogliq. Bolalar tabiatini kuzatish davomida olgan bilimlarini oʻzlari tasviriy faoliyatlarida aks etradilar. Tabiatni kuzatish orqali sanashni, miqdor, oʻzgarishlarini oʻrganib boradilar (daraxt baland, buta past, daraxt tanasi 1 ta, buta tanasi koʻp). Jismoniy mehnat bolalarni jismonan baquvvat, soglom oʻsishlari uchun yordam beradi. Bundan tashqari tabiatga oid boʻlgan harakatli oʻyinlar ham bolani jismonan barkamol boʻlishiga yordam beradi. Bu misollarning barchasi dasturda oʻz aksini topgan. Dasturda material tanlash tabiat bilan tanishtirishdagi barcha prinsiplarga rioya qilingan holda amalga oshirilgan.

3.5. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda faslchilik tamoyillariga oid joylashtirish

Yuqorida bayon etilganidek, MTTda turli yoshdagi bolalar tarbiya topadi. Bolalarning oʻzlashtirish qobiliyatini hisobga olingan holda dastur quyidagicha tuzilgan, yaʼni, bolalar bogʻcha muassasalarida boʻlgan davrlarida bitta mavzu bilan bir necha marta tanishadilar. Lekin har safar chuqurroq, kengaytirilgan holda tanishadilar.

Masalan: kichik guruhda suv haqida tushuncha berilganda suv bilan yuviladi, suvni ichadilar, suv sovuq, iliq boʻladi, suv oqadi kabi fikrlar oʻrgatiladi. Oʻrta guruhda suv tiniq, ayrim predmetlar suvda choʻkadi, issiq kunda suv tez, sovuq kunda sekin quriydi, katta tayyorlov guruhlarida suvning tabiatda aylanib yurishi, oʻsimlik, inson hayotida uning oʻrni, suvdan elektr energiyasi olishda foydalanish mumkin kabi tushunchalar oddiydan - murakkabga qoidasi asosida tushuntirilib boriladi. Demak, har bir guruhda tabiatga oid bilimlar har yili murakkablashib boradi.

Dastur faslchilik prinsiplari asosida tuzilgan boʻlishi lozim. Materiallarning bunday joylashtirilishi tabiatda sodir boʻladigan oʻzgarishlarni tahlil qilishga

yordam beradi. Dasturda o'rtta guruhdan boshlab har bir faslda bolada jonli va jonsiz tabiatdagi, o'simliklar hayotidagi, hayvonot olamidagi o'zgarish va ular haqida bolalar olishlari lozim bo'lgan bilimlar berilishi hisobga olingan.

Biror bir faslda o'simlik hayotidagi o'zgarish, ob-havoning o'zgarishini kuzatish, hayvonot olamidagi o'zgarishlarni, kishilarning shu mavsumdagi mehnatlari bolalarga yaqqol ko'rinadi. Shu fasldagi barcha tabiat haqidagi, unda sodir bo'ladigan o'zgarishlar haqida to'liq, tasavvurlar shakllanadi. Bundan tashqari, dasturda tabiat haqidagi tasavvurlarni shakllantirish choraklarga bo'lib berilgan.

Bolalarga beriladigan bilimlarni choraklarga bo'lib joylashtirishda ham yuqorida ko'rib o'tilgan prinsiplarga rioya qilinadi.

Har bir guruhda yil oxirida bola egallashi lozim bo'lgan bilimlar ko'rsatiladi. Dastur materiallarini joylashtirishda ketma-ketlik, tizimlilikka amal qilingan.

Quyida "Ilk qadam" davlat tayanch dasturining maktabga tayyorlov guruhida bolalarni tabiat bilan tanishtirish bo'limini amaliy tahlil etish asosida talabalarni bilishi va uddalashi lozim bo'lgan bilimlar majmuasi bilan tanishtirishga harakat qilamiz.

Jonsiz tabiat

1. Bolalarda jonsiz tabiat hodisalari haqidagi tasavvurlarini shakllantirish:

-ob-havo, magnitning xususiyatlari bilan tanishtirish;

-bolalar uchun tushunarli vositalar yordamida havo hamma joyda: suvda, g'ishta, yerda va shu kabilarda mavjudligini tajribalar orqali ko'rsatish;

- havoning qayishqoq bo'lishi, ma'lum hajmi egallashi (sovun ko'piklarini puflash, sharlarni puflash) mumkinligini ko'rsatish;

Havo harakatlanadi(shamol) va u harakat qilib, predmetlarni joydan-joyga ko'chirishi va shuningdek, harakatga qarshilik ko'rsatishi mumkin(parashyut).

Bolalarni magnitning xususiyatlari bilan tanishtirish;

Magnit o'ziga metall buyumlarni tortishi, magnitning xususiyatlari to'siqlar orqali ham namoyon bo'lishi(magnitga predmetlar suv, qog'oz, plastmassa, yog'och, karton orqali ham tortilishi);

Magnit o'ziga tortishi va o'zidan itarishi bilan tanishtirish.

2.O'simliklar dunyosi

Bolalarni yangi xona o'simliklari bilan tanishtirish. Ularning xususiyatlari: shakli, hajmi, poyasi, barglar, gulining rangini ajratish va xarakterlashga o'rgatish;

O'simliklarning yorug'lik, issiqlik, nam, oziqlantiruvchi tuproqqa ehtiyojlari haqidagi tasavvurni shakllantirish;

Bolalarni yorug'likni sevuvchi va salqinga chidamli, suvni sevuvchi va suvsizlikka bardosh beruvchi o'simliklarning tashqi tuzilishiga qarab farqlashga o'rgatish;

-sabzavotlarning (8-9 xili), meva (5 xili)larning va sitrus o'simlik (3-4 xili)larning shakli, rangi, hajmi, ta'mi, oziq-ovqat sifatida qo'llanilishi, belgilarga qarab qiyoslash va xarakterlay olish ko'nikmasini shakllantirish, umumlashtirilgan (sabzavotlar, mevalar, gullar) so'zlarni qo'llashga o'rgatish;

-bolalarda tabiatdagi go'zallikdan zavq olishni tarbiyalashni davom ettirish. Ular ongiga tabiatga zarar yetkazmaslik, ekologiyani zararlamaslik (tevarak-atrofni iflos qilmaslik, o't-o'lanlarni bosmaslik, daraxt shoxlarini sindirmaslik, hayvon va qushlarga ozor bermaslik, uyalarini buzmaslik, gullarni yulmaslik, buning oqibatida gullar, kapalaklar yo'q bo'lib ketishi, chumolilarning inini buzmaslik va h.k.)ni bolalar ongiga singdirish;

-bolalarning hovlidagi barcha o'simliklar va xonaki(qishda vaqtincha o'tkazilgan) o'simliklarning yorug'likka, issiqlikka, suvga, (ozuqa) tuproqqa bo'lgan ehtiyojlari haqidagi tasavvurlarini aniqlash;

-o'simliklarning o'sish va o'smasligi shart-sharoitlarining mavjudligi va ularning turlicha talablarga bog'liqligini belgilashga o'rgatish;

-o'simliklarning o'sishi uchun havo, suv, quyosh, ozuqali tuproq zarurligini amaliy ishlar orqali tanishtirish;

-bolalarning o'simliklarni turli yo'l bilan ko'paytirish haqidagi bilimlarini kengaytirish;

-o'simliklar qalamchasidan, piyozidan, butasini ajratib ekishdan unishi mumkinligini xonaki o'simliklar misolida ko'rsatish;

-o'simlikning o'sishi uchun yorug'lik, suv, issiqlik, ozuqali tuproq zarur ekanligi to'g'risidagi bilimlarini tajriba, amaliy mashg'ulotlar orqali takomillashtirish;

-bahor gullari haqidagi tasavvurlarini aniqlash, bolalarni ularning rangi, shakli, gullari, yaproqlarining hajmi, belgilariga qarab qiyoslash asosida xarakterlashga o'rgatish;

-erta gullaydigan o'tsimon, butasimon o'simliklar va daraxtlar bilan tanishtirishni davom ettirish. Ba'zi daraxtlar(o'rik, bodom) avval gullab, so'ng barg chiqarishi, ba'zilari esa barg chiqarib(olma, behi) so'ng gullashini tushuntirish;

-bolalar bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasasi hovlisida daraxt va gul ko'chatlarini ekish, tagini yumshatish va sug'orishga o'rgatish. Qurigan shox-shabballarni qirqish, ko'milgan gul, tok va anor ko'chatlarini ochish va ularni parvarish qilish ko'nikmasini hosil qilish;

-bog', poliz va gulxonada sabzavot va gul ekinlari yetishtirish haqidagi bolalar tasavvurlarini boyitish;

-o'simliklarning ayrim turlari misolida bolalar ularning urug'dan ko'karib, to urug' bergunigacha bo'lgan o'sish va rivojlanish davrining izchilligini, unib chiqishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni, ularni parvarishlash usullarini bolalar ongiga singdirish, amalda kuzatish ishlarini olib boorish;

-yovvoyi o'simliklar urug'ini to'kib ko'payishi va madaniy o'simliklarni inson tomonidan yetishtirilishi, madaniy va yovvoyi o'simliklarning inson hayotidagi ahamiyati, barcha o'simliklarni ehtiyot qilish va ularni qo'riqlash asosida madaniy va yovvoyi o'simliklar haqida umumiy tasavvurni shakllantirish;

o'simliklar qanday belgilari asosida (xonaki, dala, poliz ekinlari)madaniy o'simliklar (o'rmon, o'tloq ekinlarini), yovvoyi o'simliklarga bo'linishi to'g'risidagi tushunchalarini shakllantirish, guruhdagi gullar nomini bilishga da'vat etiladi.

3 Hayvonot dunyosi

Bolalarni o'zlariga tanish bo'lgan yovvoyi (quyonlar, tulkilar va hokazo) va tabiat burchagida yashovchi hayvonlarning moslashuvchanlik xususiyatlari haqida v'lumot beriladi.

Hayvonlarning o'zi yashaydigan muhitga tanasining tuzilishi va xatti-harakat bilan moslanishiga doir belgilarini ajrata bilishga o'rgatiladi. Uzun, baquvvat oyoqlari tez yugurish imkonini beradi (bo'ri), agar hayvonning orqa oyoqlari uzunroq bo'lsa, unda hayvon katta-katta sakrab yuradi (quyon), o'tkir qayrilgan tirnoqlari daraxtlarga tirmashib chiqishga yordam beradi (olmaxon), to'mtoq baquvvat, oldingi oyoqlari yon tomonga chiqqan, tirnoqlari yerni qazishga moslashgan (toshbaqa, ko'rsichqon).

Hayvonlarning tana qoplami (himoya uchun xizmat qiladigan rang (quyon, olmaxon)ga, ignalar (tipratikan), qattiq qoplamga (toshbaqa) ega bo'lib, bular dushmandan o'zini himoya qilishda yordam) himoya va moslashuv xususiyatiga ega ekanligi haqidagi tasavvurlari kengaytiriladi.

O'simlik (suv quyish, tagini yumshatish) va hayvonlar (ovqatlantirish, kattalar yordamida akvarium yoki qafasni tozalash)ni parvarishlash o'rgatiladi

Kuz faslining o'ziga xos xususiyatlari: kunlar soviy boshlab, kunduzi qisqaradi. Yaproqlar to'kiladi, o'tlar so'liydi, o'simliklar o'sishdan to'xtaydi, chunki ular uchun zarur bo'lgan yorug'lik va issiqlikning miqdori kamayadi. Sovuq tushishi bilan hasharotlar yashirinadi, qushlarning ko'pchiligi issiq o'lkalarga uchib ketadi, hayvonlar qishga tayyorgarlik ko'radilar: tullaydi

(barcha hayvonlar), ovqat to'playdi (olmaxon), ovqat yeb semirib ketadi va uyqu uchun joy izlaydilar (tipratikan, ayiq).

Ushbu davrda bolalar uchun yangi O'zbekiston sharoiti uchun xos bo'lmagan uy hayvonlari-shimol bug'usi bilan tanishtirish, ularning yashash joyi, tashqi qiyofasi, fe'l-atvori, inson tomonidan boqilishi va ular yetkazadigan foydalar haqida tasavvuri shakllantiriladi.

Hayvonlarning tana tuzilishi va fe'l-atvori, tabiiy sharoitlarga moslashuvi yungining qalinligi, uning qor ostidagi mox (shimolda o'sadigan o'simlik)ni kovlab olish ko'nikmasi, bug'uning keng qo'shaloq tuyoqlari bilan loy, tuproqli yer va hatto qiya yerlarda ham yura olishi, o'zining belgilari bilan uy hayvonlari toifasiga kirishi haqida so'zlab beriladi.

Tabiat burchagida yashovchi qushlar haqida, ularning yashash sharoiti, oziqlanishi, ko'payishi to'g'risidagi tasavvurlari boyitiladi.

Qushlarning uchishga moslashganligi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish(keng yig'ma qanotlari, dumi, yengil patlari havoga tayanish va uchish imkonini beradi) muhimdir.

Qish faslining o'ziga xos tabiati haqida tushuncha berish: yer yuzi va daraxtlar usti oppoq qor bilan qoplanganda(kunlar qisqa, sovuq, ayozli bo'lishi, ariq va ko'lmaklarning muzlashi, qorning pag'a-pag'a yog'ishi va b.) tabiat qanchalik jozibali ko'rinishiga bolalar e'tiborini qaratish, ularning estetik tuyg'ularini shakllantirish muhim. Daraxt va butalar bargsiz, harakatsiz holatda bo'ladi. Hasharotlar ham, ular bilan oziqlanuvchi qushlar ham yo'q. Ular issiq o'lkalarga uchib ketishgan. Qishlab qoluvchi qushlar o't-o'lanlarning urug'larini va o'simliklarning mevalarini, odam yashab turgan joy oldidagi ovqat qoldiqlarini yeydilar. Odamlar qushlarni boqib turadilar.

Yovvoyi hayvonlarning bahor davridagi hayoti va tabiatga moslanganligi bilan bolalarni tanishtirishni davom ettirish, ular uyqudan uyg'onadilar, dam olish holatidan chiqadilar, tullaydilar, joy quradilar...

Hayvonlarning rivojlanishi haqidagi bilimlari kengaytiriladi. Qushlar in(uya) quradi, tuxum qo'yadi, bolalaydi, baliqlar urug' qo'yadi va bolalaydi.

Bolalarni akvariumda boqiladigan baliqlarning tana tuzilishi va harakatlari, bularning hammasi hayotga moslashish belgilari ekanligi bilan tanishtirish. Baliqlarning tanasi, shakli, hajmi, ko'zlari va og'zining tuzilishini ajrata bilishga, bu xususiyatlarni ularning xatti-harakati, xususiyatlari(yashash joyi, harakat usuli, ovqatlanishi) bilan qiyoslashga o'rgatiladi.

Bolalarda bahor haqidagi umumlashgan tasavvurni shakllantirish: kunlar issiqroq bo'ladi, quyosh ravshanroq yoritadi, qor va muzlar eriydi, o'tlar, navro'zgullar paydo bo'ladi, kurtaklar to'lishadi va birinchi gullar, yaproqlar

paydo bo‘ladi. Jonivorlar uyqudan uyg‘onadi(hasharotlar, hayvonlar), uchib ketgan qushlar qaytib kelishi haqidagi tushunchalar kengaytiriladi.

Bolalarga o‘zlariga tanish uy hayvonlari, ularning yoz faslidagi hayoti haqidagi bolalar bilimlarini aniqlash, ular haqida umumlashgan tasavvurni mustahkamlash, qanday belgilar asosida u yoki bu hayvon uy hayvoni guruhiga kirishi haqida bolalar bilimlarini aniqlash kerak. Hayvon va parrandalarning inson uchun foydali tomonlari haqidagi tasavvurlarini o‘rganish va ularni parvarish qilishga oid bilimlar bilan qurollantirish joizdir. Bundan tashqari, bolalar bilan hayvonlarning o‘sishi va rivojlanishi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, qushlar va hayvonlarning bolalari juda nozik tug‘ilishi, ular ko‘p jihatdan katta hayvonlardan farq qilishi haqida suhbatlashishni o‘rgatish muhim.

Kichik hayvon yoki parrandalar ko‘pincha yung yoki pat bilan qoplanmagan, ko‘zi yumuq, mustaqil yura olmaydigan va ovqatlana olmaydigan bo‘ladi. Ota-onalari ular haqida g‘amxo‘rlik qilishlari, isitishlari, ovqatlantirishlari, dushmanlardan qo‘riqlashi, ovqat izlab topish, yurish, uchish, tirmashib chiqish va sakrashga o‘rgatishlari haqidagi tushunchalarni o‘zlashtirishlari kerak.

Bundan tashqari, yovvoyi va qo‘lga o‘rgatilgan hayvonlarni taniy olishga bolalarni o‘rgatish, qanday belgilari bilan ular u yoki bu guruhga taalluqli bo‘lishini tushuntirish maqsadga muvofiq.

Yoz fasli haqida umumlashgan tasavvurni shakllantirish: iliq, issiq, yomg‘ir yog‘adi, momaqaldiroq bo‘ladi. Hasharotlar ko‘p. Hayvonlar faollashadilar, bolalaydilar. O‘simliklar gullaydi, yetiladi, hosil beradi.

Yoz faslida poliz, bog‘ va dalalarda mevalar pishishi, ayrim sabzavotlarning yer ostida meva tugishi va pishishi(kartoshka, sabzi, yeryong‘oq) haqida ma‘lumot berish, mevalarni mevasi hididan ajratishga o‘rgatish, sabzavot va mevalarni inson organizmiga ta‘siri va foydasi haqida bolalarga tushuntirish hamda ularni qanday iste‘mol qilish haqida suhbatlashish muhimdir.

Nazorat savollari

1. Ekologik ta‘lim-tarbiya tizimi deganda nimani tushunasiz?
2. Bolalarning tabiatga ongli munosabatlari qanday shakllantiriladi?
3. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish usullari haqida gapiring.
4. Ekologik muammoga umummilliy, umuminsoniy, ijtimoiy muammo sifatida yondashish deganda nimani tushunasiz?
5. Bolalar tomonidan ekologik qonuniyatlarning o‘zlashtirilishi qanday amalga oshiriladi?
6. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish tamoyillari qaysilar?

7. Yer va quyosh haqida tasavvurlar qanday shakllantiriladi?
8. Bolalarga tabiatdagi o‘simlik va hayvonlarni bir-biriga bog‘liqligini dalillang.
9. Tabiat bilan tanishtirish dasturi xususida gapiring.

Mavzu yuzasidan testlar

1. — tabiat jismlari va hodisalarining tabiiy sharoitlarda maqsadga yo‘nalgan va bevosita shu hodisalarni borishiga aralashmagan holda sezgilar bilan qabul qilib olishdir.
 - a. kuzatish
 - b. taqqoslash
 - c. qiyoslash
 - d. solishtirish
2. Qaysi olim tahriri ostida «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish» asari yaratilgan.
 - a. P.G.Samorukova
 - b. I.G.Pestalossi
 - c. K.D.Ushinskiy
 - d. S.A.Veretenikova
3. «Tabiat bilan yaqin munosabatda bo‘lish, kuzatuvchanlik bilan birgalikda bilishga ham qiziqishni o‘rgatadi. Buning asosida taxminiy va tekshiruvchanlik refleksi yotadi va uning nihoyatda taraqqiy etishi insonning xarakterli xususiyatidir», deb hisoblaydi bu qaysi olimning qarashi?
 - a. I.P.Pavlov.
 - b. I.G.Pestalossi
 - c. K.D.Ushinskiy
 - d. S.A.Veretenikova
4. **Kuzatishlar davomiyligi va xarakteri bo'yicha qanday turlari bo'lishi mumkin?**
 - a. qisqa muddatli va uzoq muddatli
 - b. harakatli va harakatsiz
 - c. uzlukli va uzluksiz
 - d. solishtirma va qiyosiy

Foydalanilgan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

1. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari.– T.:2018
2. Ilk qadam maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturi. T.:2018

3. Xasanboeva O, Jabborova X, Nodirova Z Tabiat bilan tanishtirish metodikasi Toshkent 2006.
4. Markovskaya M.M. Bolalar bog'chasida tabiat burchagi .Toshkent O'qituvchi 1991
5. Samorukova P.G Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish Toshkent .O'qituvchi 1991
6. Yusupova F Bolalar bog'chasida ekologik tarbiya Toshkent O'qituvchi .1999
7. Grigor'yants A.G. , Gafurova U. Bolalar bog'chasida ekologik tarbiya Toshkent O'qituvchi .2002
8. Xasanboyeva O.U, Djabborova X.U. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. T. Cho'lpon. 2007.

4. MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH METOD VA VOSITALARI

Reja:

- 1. Tabiat bilan tanishtirishda ko'rgazmali metod va usullarning o'ziga xosliklari.**
- 2. Kuzatish –tabiat bilan tanishtirishning asosiy usullari sifatida**
- 3. Tabiatga nisbattan insoniy munosabatlarni shakllantirishda tabiat materiallarni yig'ish va bolalarda ularni badiiy ijodda aks ettirish faoliyatlarni rivojlantirish.**
- 4. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda og'zaki metoddan foydalanish va uning mohiyati.**
- 5. Tabiat bilan tanishtirishning amaliy metodi va tabiatshunoslikka oid o'yin turlari.**
- 6. Tabiatda bolalar mehnatlari va ularni tashkil etish texnologiyasi.**
- 7. Oddiy tajribalar ularning mazmuni. Bolalarda izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish.**

Tayanch tushunchalar: Tabiat bilan tanishtirishda ko'rgazmali metod, kuzatish, rasmlarni ko'rish, diafilm, kinofilm, ekskursiyalar, o'yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar, bolalarning yosh xususiyatlari va psixologiyasi, qisqa muddatli kuzatish, uzoq muddatli kuzatish, solishtirma kuzatish, kuzatishni boshqarish, tarqatma materiallardan foydalanib kuzatish, kichik yosh guruhda bolalar bilan o'tkaziladigan kuzatishlar.

4.1. Tabiat bilan tanishtirishda ko'rgazmali metod va usullarning o'ziga xosliklari

Pedagogikada metod — pedagog va ta'lim oluvchining (bolaning) ma'lum ta'lim-tarbiyaviy natijasi: bilimlarni egallash, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, qobiliyatlarni o'stirisha axloqiy sifatlar, xulq odatlarni shakllantirishga erishish uchun yo'llangan hamkorlikdagi faoliyatining usulidir. Bolalar bog'chasida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida turli melodlardan foydalaniladi.

Tabiat bilan tanishtirish metodlari uchta asosiy guruhga bo'linadi:

Ko'rgazmali uslub — kuzatish, rasmlarni ko'rish, diafilm, kinofilm, ekskursiyalar;

Amaliy uslub — o'yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar;

Og'zaki uslub — tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o'qish, suhbat.

Metodlarni tanlashda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlari, psixologiyasi, bilimlari, dastur talablari, o'z o'lkasi iqlimining tabiati, pedagogik tamoyillarga moslashadi. Yuqoridagi metodlar bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-birini to'ldiradi.

Kuzatish uslubi. Turli yosh guruhlarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi ko'rgazmali metod - kuzatishdan keng foydalanadi. Kuzatish - tabiat jismlari va hodisalarning tabiiy sharoitlarda maqsadga yo'nalgan va bevosita hodisalarni borishga aralashmagan holda sezgilar bilan qabul qilib olishdir. Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo'lib, bunda idrok, [tafakkur va nutq ishtirok etib](#), barqaror diqqat talab etiladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda doimiy kuzatishlar olib borish ularning mantiqiy fikr yuritishi va nutqini o'stirishda g'oyat katta ahamiyatga egadir. Bu haqda K.D.Ushinskiy shunday deydi: «*Haqiqiy insoniylik aqliy nutq, to'g'ri mantiqiy fikr yuritishdan iboratdir, to'g'ri mantiqiy fikr yuritish esa, biz ko'rsatgandek, boshqa biror narsadan emas, haqiqiy va aniq kuzatishlardan kelib chiqadi*».

Bolalarni tabiatdagi narsa va hodisalar bilan ma'lum bir tartibda tanishtirib borilsa, ularda diqqat va kuzatuvchanlik, tabiatga qiziqish, undagi hodisalarni bilishga intilish kuchayib boradi.

Kuzata bilish — juda muhim xususiyat bo'lib, bunda bolada to'g'ri yoza bilish, og'zaki nutq malakalari rivojlanadi.

Bolalarni hodisa va narsalarni maqsadga muvofiq holda o'zlashtira olishga va ularning eng muhimlarini ajrata olishga o'rgatish zarur.

Tarbiyachi kuzatish ishlarini olib borishda narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqa va sabablarning bog'lanishlarini ilg'ab olishni bolalarga o'rgatishi kerak. Shunday qilib maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tafakkuri tabiat haqidagi aniq bilimlarni to'plash orqali o'sadi. Kuzatishlar diqqatni jalb qilish bilangina olib borilishi mumkin.

Kuzatish, ya'ni narsa va hodisalarga diqqatni maqsadga muvofiq holda jalb qilishga o'rgatish bilan biz ularda ixtiyoriy diqqatni ham o'stiramiz.

Noto'g'ri tushunchalarni tuzatish, yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Shuning uchun bolalar maktabgacha ta'lim yoshidayoq, his qilish tajribalariga asoslangan holda, tabiat haqida to'g'ri tushunchalarga ega bo'lishlari juda muhimdir.

Bolalarda tabiatga qiziqishni tarbiyalash zarur, chunki u sog'lom bo'lmagan faotiyatlarda ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, bolalar qo'ng'iz va kapalaklarni tutib olib, nima qilar ekan deb, ularning qanot va oyoqlarini uzib tashlaydilar. [Yoki hayvonlarni](#), qushlarni qiynab, natijasi nima bo'lar ekan, deb qiziqadilar. Ularga tabiatning o'zaro bog'liqligini, ya'ni uning "oltin zanjir" ekanligini tushuntirish zarur. Bu orqali bolalarga ekologik talim-tarbiya berib boriladi.

Tabiat bilan yaqin munosabatda bo'lish, kuzatuvchanlik bilan birgalikda bilishga ham qiziqishni o'rgatadi. Buning asosida taxminiy va tekshiruvchanlik refleksi yotadi va uning nihoyatda taraqqiy etishi insonning xarakterli xususiyatidir, deb hisoblaydi I.P.Pavlov. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni kattalarga «Bu nima?», «Nima uchun?», «Qanday qilib?» kabi cheksiz savollari bunga misol bo'la oladi. Bu o'rinda tarbiyachi savollarga javob topishda bolalarning o'zlarini jalb qilishga harakat qilishi zarur.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning turli yosh guruhlarida tarbiyachi kuzatishlarni tashkil etar ekan, uning turli xillaridan foydalanadi.

Kuzatishlar davomiyligi va xarakteri bo'yicha qisqa muddatli va uzoq muddatli hamda qiyoslash (solishtirma) bo'lishi mumkin.

O'simlik va hayvonlarni o'sishi hamda rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi bilimlarning jamg'arilishi uchun kuzatishning ancha murakkabroq turi — uzoq muddatli kuzatishlardan foydalaniladi. Bunda bolalarning obyektning kuzatilayotgan holatini ilgarigisi bilan qiyoslashlariga to'g'ri keladi. Kuzatish narsalarning ayrim belgilariga qarab holatlarini aniqlash (masalan, gulning bargiga qarab uni sug'orish, akvariumdagi suvning holatiga qarab suvni almashtirish, yoki qordagi izga qarab qaysi qushning izi ekanligi, mevalarning pishgan yoki xomligini rangiga qarab ajratish) maqsadida ham tashkil etiladi. Kuzatishning bu turi bolalarda tabiat hodisalarini analiz qilish, ayrim ma'lumotlarni qiyoslash, soddaroq xulosalar chiqarish ko'nikmalarini hosil bo'lishiga yordam beradi.

Solishtirma va uzoq muddatli kuzatishlar mazmuniga ko'ra, murakkab bo'lganligi sababli, maktabgacha ta'lim, o'rta, katta hamda maktabga tayyorlov guruhlarida foydalaniladi. Bu kuzatuvlar davomida bolalarda analiz qilish, qiyoslash, xulosalar chiqarish jarayoni takomillashadi. Kuzatishlar mazmuniga

va tarbiyachining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga ko'ra o'simlik va hayvonlar, ob-havo hamda kattalarning tabiatdagi mehnati bilan ekskursiya, sayrlarda, shuningdek tabiat burchagidagi mashg'ulotlarda tashkil etiladi.

Qisqa muddatli kuzatish jarayonida bolalar narsalarning shakli, rangi, tuzilishi, fazoviy joylashuvi, xarakterini farqlashni, hayvonlar bilan tanishganda esa harakat xarakteri, ularning chiqaradigan tovushlarini o'rganadilar. Bu kuzatish turiga masalan, qor yoki yomg'ir yog'ishi, kamalakning hosil bo'lishi kabi holatlar kiradi.

4.2. Kuzatish –tabiat bilan tanishtirishning asosiy usullari sifatida

Kuzatish - maktabgacha ta jim yoshidagi va oiladagi bolalarga ta jim berishning yetakchi uslublaridan biri bo'lib, ta'limiy va tarbiyaviy manzaralarini amalgam oshirish maqsadida tashkil etiladi.

Kuzatish murakkab bilim faoliyati bo'lib, unda nutq, idrok, tafakkur, diqqat ishtirok etadi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish vazifalari asosida tarbiyachi kuzatishni xilma-xil turlaridan foydalaniladi. O'simlik va hayvonlarni o'sishi rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi bilimlarni oshirish maqsadida tarbiyachi uzoq muddatli kuzatishlar tashkil etadi.

Kuzatish 3 ga bo'linadi.

1. Qisqa muddatli kuzatish - bunga daraxtlardan bargning to'kilishi, shamol bo'lishi, qor, yomg'ir yog'ishi, daraxtlarning gullari mevalari o'sib turishi kuzatishimiz mumkin.

2. Uzoq muddatli kuzatish - ekilgan o'simlikni o'sib, unib chiqqanidan to katta bo'lganiga qadar o'tgan vaqt kuzatiladi. Bu jarayonni jonvorlarda ham kuzatish mumkin. Jonivorlarning o'sishi, yashash sharoiti kuzatiladi.

3. Solishtirma kuzatish - uzoq va qisqa muddatli kuzatishlar orasidagi farqni ajrata olish natijasida tashkil etiladi.

Barcha hollarda kuzatish bolalarning yuksak aqliy faoliyatini rivojlantirishi, ularni fikrlashga, berilgan savollarga javob topishga undashi, [shuningdek](#), ulardagi qiziqishlarni rivojlantirishi va tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni tarbiyalashi lozim.

4.3. Tabiatga nisbattan insoniy munosabatlarni shakllantirishda tabiat materiallarni yig'ish va bolalarda ularni nutq jarayonida aks ettirish faoliyatlarini rivojlantirish

Tarbiyachining kuzatishga tayyorlanishi. Kuzatishni tashkil etishda ob'yekt tanlash katta ahamiyatga ega. Tanlangan ob'yekt ochiq holatda bo'lishi kerak, ya'ni o'simlik so'limagan, novdalari o'ralmagan, hayvon qo'lga o'rgatilgan, sog'lom, bolalardan cho'chimaydigan bo'lishi zarur. Kuzatish tabiat

burchagida bo'lsa, obyekt yaxshi yoritilgan bo'lishi, unga yaqinlashish qulay bo'lishi uchun yorug'lik yon tomondan tushib turishi lozim. Bolalar hayvonlarning harakatini kuzata turib, ovqat berishlari, silashlari, ular bilan o'ynashlari mumkin. Bunda hayvonlar o'zlarini erkin tutishlari, bemalol harakat qilishlari zarur. Buning uchun bolalar tabiat burchagida qulay joylashib o'tirishlari maqsadga muvofiqdir.

Kuzatishni boshqarish. Tarbiyachi kuzatishni birinchi marotaba o'tkazayotgan bo'lsa, dastlab bolalarda hosil bo'lgan qiziqishlarini qondirish hamda kuzatilayotgan narsa haqida birinchi taassurot hosil qilish uchun ularni kamida 1—2 daqiqa tomosha qildirib turadi.

Kuzatishni boshqarish jarayonida tarbiyachi xilma-xil usullardan bolalarning yoshlariga [mos savol va topshiriqlar](#), narsani ushlab ko'rish, qiyoslash, o'yin harakatlaridan foydalanadi.

Tarbiyachi kuzatishni tashkil qila turib, kerakli ma'lumotlarni aytishi, kuzatiladigan obyektning muhim xususiyatlarini ajratishi zarur. Bolalarda kuzatishga nisbatan qiziqish uyg'otish, kuzatilayotgan narsalarni estetik idrok yetish uchun tarbiyachi she'rlardan, topishmoqlardan, katta yosh guruhlarida esa badiiy asarlarni o'qishdan foydalanadi.

Hayvonlarni kuzatishda tarbiyachi izchillikka rioya etib, bolalarning diqqatini “Nima qilyapti?” “Qanday yuryapti?” “Nima yeyapti?” “Qanday eyapti?” “Tanasi nima bilan qoplangan?” “Oyoqlari qanday — uzunmi yo qisqami?” “Ko'zlari qanday shakl, rangi?” kabi savollar yordamida hayvonlarning xatti-harakatiga qaratadi.

O'simliklarni kuzatish ularning eng yorqin, ko'zga tashlanadigan belgilarini belgilash va ajratib ko'rsatishdan boshlanadi. Bu o'simlikning guli yoki uning yorqin rangdor barglari, ba'zan poyasi (masalan, kaktus) bo'lishi mumkin. Ana shundan so'ng o'simlik tana tuzilishining asosiy xususiyatlari — kattaligi, poyasi (yoki tanasi), barglari, gullari va shu kabilar tartib bilan ko'rib chiqiladi. Sunday izchillik maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning diqqati hali yetarlicha barqaror emasligi, ko'p jihatdan beixtiyorligi tufayli zarurdir. Biroq mashg'ulot oxiri kuzatish jarayonida paydo bo'lgan tasavvurlar natijasini umumlashtirish lozim. Tarbiyachi topshiriq berishning turli usullaridan foydalanib, «Gapirib berchi, qayerdan bilding? Nimasi bilan farq qiladi?» kabi savol va topshiriqlar bilan bolalarning kuzatish orqali nutqlarini o'sishiga yordam beradi.

Barcha hollarda, tarbiyachi kuzatishni tashkil etar ekan, uni aniq bir vazifadan ikkinchisiga, [faktlardan aloqalarga](#), tasavvurlar to'plashdan ularni qiyoslashga, so'ngra xulosalar chiqarishga o'tishda izchillikka rioya qilishi lozim. Shunda bolalarda mantiqiy tafakkur o'sadi. Har bir kuzatishda bolalarni

tabiat bilan tanishtirishning kichik, aniq vazifasini hal etish lozim. Shuning uchun kuzatishlarning har biri ilgariyasi bilan bogʻlanib oʻtkazilishi zarur. Tarbiyachi uzoq muddatli kuzatishni tashkil etishda, uni oldindan bir qator epizodik kuzatishlar — «boʻlaklarga» taqsimlaydi. Bunday kuzatish oʻsimliklar rivojlanishidagi oʻzgarishlar aniq koʻrinadigan vaqtda oʻtkaziladi. Tarbiyachi bolalarga oʻsimlikni tomosha qilib, belgilarini qayd qilishni (birinchi barglarning chiqishini, oʻsimtaning urugʻ qobigʻini yorib chiqayotganini kuzatishni) tavsiya etadi. Yakuniy kuzatishda bolalar kuzatilayotgan oʻsimlik rivojlanishining butun tasvirini tiklashi lozim. Buni kuzatishlar kundalik daftari, turlicha rasmlar, gerbariyalar, katta yosh guruhlarda esa chizmalı jadvallar asosida tashkil etish mumkin.

Tarqatma materiallardan foydalanish. Bu kuzatishlar oʻrta guruhlardan boshlab oʻtkaziladi. Bunday kuzatishni tashkil etish birgina obʻyektни kuzatishdan koʻra ancha murakkabroqdir. Bu oʻrinda tarbiyachi oʻz diqqat-eʼtiborini taqsimlay bilishi, bolalardagi harakatni uyushtira olishi talab qilinadi, bolalar esa tarbiyachining barcha koʻrsatmalariga aniq rioya qilishlari, bir-birlarini tinglashlari, boshqalarning kuzatishlarini oʻzlarining kuzatishlari bilan taqqoslashlari kerak boʻladi. Kuzatishning bu usuli katta rivojlantiruvchi ahamiyatga egadir. Bolalar turli xil tadqiqotchilik harakatlaridan foydalanib, oʻquv koʻnikmalarini takomillashtirish imkoniga ega boʻladilar. Bu esa oʻz navbatida ularda aniqroq tasavvurlarning shakllanishiga yordam beradi.

Tarqatma material sifatida oʻsimliklar hamda ularning bargi, mevasi, urugʻi, shoxchalari, shuningdek, sabzavot va mevalardan keng foydalaniladi.

Kuzatishda qatnashgan har bir bolaning va tarbiyachining qoʻlida tarqatma material boʻlib, kuzatish davomida tarbiyachi bolalarga savollar berib, narsalarni tekshirishni tashkil etadi. Soʻngra olingan tasavvurlarni qiyoslab, bolalarni xulosa chiqarishga oʻrgatadi. Kuzatish jarayonida tarbiyachi barcha bolalarning yuqori faolligini taʼminlaydi.

Kichik yosh guruh (3—4 yosh). Bu yosh guruhlarda dastlabki kuzatishlar bolalarning ozchiligi bilan oʻtkaziladi. Tarbiyachining asosiy vazifasi bolada kuzatishning sodda malakalarini shakllantirish, yaʼni diqqatni kuzatilayotgan narsaga toʻplash, qoʻyilgan savollarga javob berish, aniq belgilarni ajratib koʻrsatish, kichkintoylarni alohida harakatlantiruvchi narsalar bilan jalb qilishdir. Shuning uchun bolalar dastlab jonivorlarni kuzatishlari maqsadga muvofiqdir. Ularning namoyon boʻlishi - harakati, oziqlanishi, chiqaradigan tovushlari kichkina bolalarda beixtiyor qiziqish uygʻotadi. Shuning uchun tarbiyachi kuzatish jarayonida jonivorlarni harakat qildirishi, masalan, ularni oziqlantirib bolalarning diqqatlarini jalb qilishi zarur. Bunda ozuqa maʼlum bir oraliqda qoʻyilib, bolalarning eʼtiborini jonivorning ozuqani qoʻllari bilan

ushlab, qisirlatib yeyishiga qaratiladi va bolalarni hayvon harakatlarini soʻz bilan ifodalashga oʻrgatiladi. Keyingi kuzatishlarda tarbiyachi jonivorning u yoki bu harakati yuzasidan savollar berib, shu orqali bolalarni maʼlum soʻzlardan va savollardan foydalanishga undaydi.

Shunday qilib, bolalar savollar asosida yotgan aniq vazifani aniqlashni sekin-asta oʻrganadilar.

Kichik yosh guruhda bolalar bilan oʻtkaziladigan kuzatishlar qisqa muddatli boʻlib, tarbiyachi bolalar diqqatini jalb qilish maqsadida ularning baʼzilariga suvdonga suv quyish, hayvonlarga ozuqa berish, baliqlarni oziqlantirish kabi topshiriqlarni beradi. “Qush Nodira uchun qoʻshiq aytyapti”, “Baliq Madina tomonga suzyapti” kabi soʻzlardan foydalanadi.

Kuzatish oxirida sheʼr oʻqish, qoʻshiq aytish mumkin. Kich-kintoylardan kuzatilayotgan narsa haqida gapirib berishni talab qilish nooʻrindir. Ob-havoni yoki jonsiz tabiatning boshqa obʼyektlarini kuzatish, oʻsimliklarni koʻrish jarayonida tarbiyachi bu kuzatishlarni oʻyin, mehnat bilan bogʻlaydi (xona gullarini tomosha qilish jarayonida uning barglarini artishadi, qum oʻynayotganlarida uning sochiluvchanligini bilib olishadi). Bu yosh guruhda oddiy tadqiqot (tekshirishlar) harakatlaridan koʻproq foydalanish maqsadga muvofiqdir: kaftni oftobga tutib issiqlikni sezish, gulni hidlash va boshqa hodisalarni oʻrganadilar.

Oʻrta yosh guruh (4—5 yosh). Bu yosh guruhdagi bolalar qiziquvchan boʻladilar, koʻp [savollar beradilar](#), narsalarni sifatlar va xususiyatlari, atrof-muhit tabiati va ijtimoiy hayot hodisalari bilan qiziqib tanishadilar. Bu yoshdagi bolalarning diqqati ancha barqaror boʻlib qoladi. Ular endi kuzatilayotgan hodisalardagi oddiy aloqalarni tushuna oladilar. Bolalarning ana shu sifatleri asosida oʻrta guruh tarbiyachisi tabiat bilan tanishtirishning yangi vazifalarini hal qiladi: bolalarni predmetlardagi xarakterli xususiyatlarini koʻra bilishga, ularni qiyoslash va guruhlashga baʼzi hodisalar oʻrtasidagi oddiy aloqalarni aniqlashga oʻrgatadi, dastlabki elementar umumlashtirishni shakllantiradi.

Kuzatishdan koʻpincha tanish jism va hodisalar haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, yangi obʼyektlar bilan tanishtirishda foydalaniladi. Shu bilan birga tarbiyachi bolalar bilan birgalikda oʻsimliklarning oʻsishi va rivojlanishi, tabiat hayotidagi yorqin mavsumiy oʻzgarishlar yuzasidan uzoq muddatli kuzatishlarni ham tashkil qiladi. Dastlab bu kuzatishlar yakka obyektlar (masalan, kuzda daraxtlardan birining barglari turli rangda boʻlishi, tabiat burchagida ekilgan loviyaning oʻsishi va hokazo) yuzasidan oʻtkaziladi, soʻngra esa uzoq muddatli kuzatish obyektlari yuzasidan (masalan, bahorgi bogʻ yoki daraxtzor, daraxtlarning barg yozishi, gullarning ochilishi, ob-havo, qushlarni kuzatish) boʻlishi mumkin.

Tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatish davomida o'rta guruh bolalari kuzatilayotgan jismlarning xarakterli belgilarini: hajmi, rangi, shakli, sathining mikdorini ko'rsatishni o'rganadilar. Natijada bolalardagi kuzatish asosida shakllanadigan tasavvurlar ancha aniqlashib boradi. Tarbiyachi bolalarga savol va topshiriqlarni ketma-ket berar ekan, shu asnoda o'zi tavsiya etayotgan rejaga rioya qilishga odatlantiradi. Kuzatishning maqsadi ko'pincha mehnat yoki tasviriy faoliyat bilan bog'liq bo'ladi. Misol uchun, boqqa sayohat tashkil etiladi va u yerda daraxtlar gullaganini ko'rish, ular bilan tanishish ishlari amalga oshiriladi.

Ba'zan kuzatishlarda topishmoqlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bolalar topishmoqlarning javobini predmetni kuzatish jarayonida topadilar.

O'rta guruh bolalari kuzatish uchun zarur bo'lgan muhitni o'zlari yarata oladilar (masalan, ozuqa tayyorlash, jonivor uchun joy tayyorlash kabi). Bu esa bolalarning kuzatishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Xuddi kichik guruhdagidek kuzatish jarayonida xilma-xil tadqiqot (tekshirish) harakatlari, o'yin usullari, mehnat topshiriqlaridan foydalaniladi. Bu harakatlardan ba'zilar izlanish xarakterida bo'lishi mumkin. Masalan, jonivorning nima yeyishini bilish uchun unga turli ozuqa berib ko'riladi.

O'rta guruh bolalari bilan olib boriladigan kuzatishlarda tarbiyachi taqqoslashdan foydalanishi muhimdir. Bunda tarbiyachi predmetning belgilarini ajratib, ikki predmetni qiyoslaydi (ulardan biri bolalarga oldindan tanish). Bolalar ko'ribgina [qolmasdan](#), kerak bo'lganda ushlab, hidlab ham ko'rishi yaxshi natijalarga olib keladi.

O'rta guruhda kuzatishning natijasi hikoya — tasvirlash bo'lishi mumkin. Tarbiyachi bolalarga hikoyaning qisqacha rejasini tavsiya etib, ularni ikki-uchta savol yordamida gapirib berishga undaydi.

Bolalarning mustaqil kuzatishlari o'rta guruhda paydo bo'ladi. Bunda ularni rag'batlantirish, kuzatilayotgan hodisani tushunishlarida yordam berish, ba'zan u yoki bu usulni qo'llashda maslahat berish, boshqa bolalarni ham kuzatishga jalb qilish, o'z kuzatish natijalarini o'rtoqlariga gapirib berishga undash lozim.

Katta guruh(5-6 yosh). Bu guruh bilan olib boriladigan kuzatishlar jarayonida bolalar ob'yektlarning xarakterli va muhim belgilari bilan tanishadilar, o'simlik hamda hayvonlarning o'sishi va rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar ustida uzoq muddatli kuzatishlar olib boradilar.

Tarbiyachi kuzatishni tashkil qila turib, bolalarni ma'lum usullardan foydalanishga, rejaga rioya qilishga, mustaqil ravishda murakkab bo'lmagan xulosalar chiqarishga o'rgatishda davom etadi. Bunda kuzatilayotgan jism va hodisalarda u yoki bu faoliyat uchun ahamiyatli yoki butun bir obyektlar

guruhining umumiy belgilari ajratib ko'rsatiladi, jismlarning tevarakatrof bilan aloqasi va munosabati aniqlanadi.

O'simlik va hayvonlarning o'sishi hamda rivojlanishi, mavsumiy o'zgarishlar ustida olib borilgan kuzatishlarda bolalarning davr (fazo), bosqich yoki holatlarni ko'ra bilish xususiyatlari shakllantiriladi. Masalan, ular o'sayotgan no'xat novdalari, poyasi, barglari, gajaklar, g'unchalar, gul va meva (qo'zoq)larning paydo bo'lishini sinchkovlik bilan kuzatadilar.

Bolalarni jism va hodisalarni ko'ra olish, eshitish va qabul qilib olishga o'rgatish tarbiyachining eng muhim vazifalaridan biridir. Bolalar ko'pincha ikkita tanish jismga qaraydilaru, ularni bir-biridan ajrata olmaydilar. Shuning uchun tarbiyachi [kuzatishni tashkil qilar ekan](#), aniq ob'yektlarni topishi, ularni ta'riflashi, savollarga javob berishga oid muayyan vazifalar qo'yishi kerak.

Kuzatishlarda qo'llaniladigan qiyoslash usullari borgan sari xilma-xillashadi: kuzatilayotgan obyekt rasmda tasvirlangani yoki tasavvurdagisi bilan qiyoslanadi. Faqat ayrim jismlargina emas, balki tabiat hodisalari ham (masalan, bog'ning bahor va qishdagi ko'rinishi) qiyoslanadi. Jismlarni taqqoslashda tarbiyachi bolalarning diqqatini bir necha umumiy bo'lgan belgilarga, ayniqsa, ularning muhim tomonlarini aks ettirgan belgilariga qaratadi. Masalan, bolalar turli hasharotlarni kuzatar ekanlar, ularning oltitadan oyoqchasi borligini bilib oladilar. Tarbiyachi kuzatilayotgan jism va hodisalarni qiyoslash uchun vazifa topshirar ekan, bolalarning mustaqil ishlashga qiynalib qolgan hollaridagina yordam berishga harakat qiladi.

Xuddi o'rta guruhdagidek kuzatish natijalari haqidagi og'zaki hisobot iloji boricha mustaqil bo'lishi lozim. Kuzatish natijalarini bolalar rasmlarda, yasagan buyumlarida aks ettirishlari mumkin.

Maktabgacha tayyorlov guruhi(6-7 yosh). Bu guruhdagi kuzatishlarga rahbarlik qilishning o'ziga xos xususiyatlari bolalarga ko'proq mustaqilliklarini namoyon qilish uchun sharoit yaratishdan iboratdir. Uzoq muddatli kuzatishlar uchun topshiriqlarning bir qismi bolalarga oldindan beriladi. Tarbiyachi bularni bolalarga ba'zi-ba'zida eslatib turadi. Qisqa muddatli kuzatishlarda tarbiyachi savol-topshiriqlardan foydalanadi. Masalan, «Yangi keltirilgan qush, bizda oldin yashagan qushdan nimasi bilan farq qiladi?» «Bog'chamizdagi daraxt va butalarning barglari bir xilda sarg'ayganmi?» va shu kabilar.

Ko'pincha savollar faqatgina bolalar ba'zi bir murakkabliklarga uchraganlaridagina beriladi. Tadqiqotchilik harakatlaridan ham yuqoridagi holatda foydalaniladi.

4.4. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda og‘zaki metoddan foydalanish va uning mohiyati

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachining hikoyasidan tabiat haqidagi badiiy kitoblarni o‘qishlardan. suhbatdan foydalaniladi. Og‘zaki uslub yordamida kuzatish va tabiatdagi mehnat jarayonida olgan bilimlari aniqlashtiriladi. to‘ldiriladi, umumlashtiriladi. hamda bir tizimga solinadi. Shunday qilib, ogzaki uslub bolalarning tajribasi doirasidan chetga chiquvchi bilimlarni shakllantirish imkoini beradi.

OG‘ZAKI USLUB VA UNING TURLARI		
Tarbiyachining hikoyalari ularga quyilgan talablar	Suhbat, uning qurilishi	Badiiy adabiyot unga qoyilgan talab
Ilmiyligi, bolalar yoshiga mos tabiatshunoslikka oidli	Kirish, asosiy qism, yakuniy	1. Tarbiyaviyligi, voqeligi 2. Hissiyotlilik 3. Jonlilik-obrazlilik.

Og‘zaki metodlardan foydalanish bir qancha vazifalarni hal etadi. Tabiatga oid hikoyaning qimmatini shu bilan aniqlanadiki, u ma’lum ta’limiy vazifani hal etar ekan, maktabgacha yoshdagi bolalarning tajriba va qiziqishlarini nazarda tutgan holda tuziladi va ma’lum yoshdagi guruh bolalariga mo‘ljallanadi. Uning badiiy adabiyotni o‘qishga nisbatan afzalligi mana shundandir. Hikoyani idrok etish bolalar uchun anchagina murakkab aqliy faoliyatdir. Bola kattalarning nutkini eshitishi va tinglay olishi, hikoya davomida uni anglab olishi ogzaki tasnif asosida etarlicha jonli obrazlarni faol tasavvur qilishi tarbiyachi himoyasidagi voqea-hodisalarning bir-biriga bogliqligi hamda munosabatlarni aniqlash va tushunishi, hikoya mazmunidagi yangiliklarni o‘zining avvalgi bilimi bilan qiyoslab ko‘rishi lozim.

Bularning barisini tarbiyachi tabiat haqidagi hikoyasiga bo‘lgan talablarni belgilaydi. Tilni jonlilik, obrazlilik, aniqligi -tarbiyachining hikoyasiga qo‘yiladigan mutloq talabdir.

Hikoya uchun tarbiyachi xilma xil material: tabiatga oid shaxsiy kuzatishlari, ajoyib kishilarning hikoyalari, tabiat hodisalari haqidagi ocherklar va hikoyalar ilmiy materiallardan foydalaniladi.

Suhbat didaktik vazifalardan kelib chiqqan holda: kirish suhbat va yakuniy suhbatga bulinadi

Kirish suhbat tarbiyachi kuzatishlar, ekskursiyadan oldin qo'llaydi. Maqsad bo'lajak kuzatishlar bilan mavjud bilimlar o'rtasida aloqa o'rnatish maqsadida bolalarni bilimni aniqlashdir.

Yakuniy suhbat bilib olingan dalillarni bir tizimga solish va aniqlashtirishga, mustahkamlashga yo'naladi. Suhbatning samarali bo'lishi bolalarni oldindan qanday tayyorlanganligiga bog'liq. Suhbat - bu ular bilan o'tkazilgan ishning yakunidir. Shuning uchun tarbiyachi oldida bolalarda kuzatishlar, mehnat faoliyati, oyinlar, tabiatshunoslik, kitoblarini o'qish, hikoyalar orqali tasavvurlar hosil qilish vazifagi turadi. Tarbiyachi doimo suhbatni ta'limiy maqsadini aniq tasavvur qilishi kerak. Suhbat hodisa, dalillarni taxlil qilishdan, ularning xususiyatlari, belgilari, hodisalarga o'rtasida muhim aloqa va munosabatlarni ta'kidlashdan boshlanadi. Bunday tahlil umumlashtirishga o'tishni ta'minlaydi, tarqoq dalillarni tizimga soladi. Suhbat tabiat bilan tanishtirish uslubi sifatida o'rta, katta, tayyorlov guruhlarida qo'llaniladi.

Bolalar adabiyotida tabiat turlari badiiy vositalar yordamida ifodalandi. O'z mazmuniga ko'ra, ilmiy bo'lgan tabiatshunoslik haqidagi kitob ayni vaqtda san'atning bir turidir. Uning xususiyati mana shundadir.

Tabiat haqidagi tabiat kitobidan pedagog birinchi navbatda tarbiyaviy maqsadlarda foydalanadi. U san'atning turi sifatida faqat bolaning aqligagina emas, balki uning hissiyotiga ham ta'sir etadi. Tabiatshunoslik kitobi bolalarda bilishga qiziqishni kuzatuvchanlikni bilimga bo'lgan havasni tarbiyalash uchun boy material beradi. U bolalar oldiga yangi savollarni qo'yadi. Bolalarni atrofdagi tabiatga diqqat bilan o'rashga majbur qiladi. Tabiat haqidagi bolalar kitobi tarbiyachining ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda asosiy vosita sanaladi.

Demak, bolalarni yuksak e'tiqodli ma'naviy barkamol, ajoyib fazilatli, xushfe'l, mehnatkash, samimiy kishilar bo'lib tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'rni ham kattadir. Badiiy adabiyotda berilgan barcha voqea hodisalar hayotiy, jonli qilib berilishi lozim. Shundagina bola shu asar qahramonlariga ishonadi. Bolalar bog'chasi tarbiyachisi esa o'sha asarlar orqali tarbiya maqsadlariga muvaffaq bo'lishlari mumkin.

4.5. Tabiat bilan tanishtirishning amaliy metodi va tabiatshunoslikka oid o‘yin turlari

Amaliy usul		
Tabiatdagi mehnat	O‘yin	Oddiy tajribalar
Tabiat burchagida Yer maydonchasida Navbatchilikda Sayrda	1. Predmetli 2. Stol-bosma 3. Didaktik 4. Harakatli 5. Ijodiy	<hr/> <hr/> <hr/> <hr/> <hr/>

Bolalar tabiatdagi mehnati katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mehnat jarayonida bolalarda tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik, gamxo‘rlik munosabatlari shakllantiriladi. Tabiatdagi mehnat bolalarda burchlariga nisbatan ma’suliyatni his etib yondashishni tarbiyalaydi. Bolalar o‘simlik va hayvonlarni parvarish qilar ekan, uning zarurligiga ishonch hosil qiladi. Biroq tabiatdagi mehnatga nisbatan ma’suliyatni tarbiyalash uchun bolalar mehnat malakalarinn egallab olgan bo‘lishlari, o‘z mehnatlarining ahamiyatlarini tushunishlari lozim. Mehnat jarayonida bolalar o‘simlik holati ularning yoruglikka, namlikka, issiqlikka, yaxshi tuproqqa bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishiga bog‘liq ekanligini anglab oladilar. Bolalar muhitning o‘zgarishi qonuniy tarzda o‘simliklar holatini o‘zgartirishni bilib oladi. Bu aloqa va o‘zaro munosabatlarning egallab olinishi bolaning mehnatga bo‘lgan munosabatiga ham ta’sir etadi, mehnat ancha ongli va maqsadga yo‘llangan holda olib boriladi. Bolalarda mehnatga barqaror qiziqish, mehnatsevarlik shakllanadi. Tabiatdagi mehnat kuzatuvchanlikni o‘stirishning usullaridan biridir. Bolaning tabiatdagi mehnati yakka topshiriq shaklida va jamoa mehnat tarzida tashkil etiladi.

Tabiatning oddiy hodisa va predmetlari haqida bolalarning tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o‘tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda turli o‘yinlardan keng foydalaniladi. Bu usullarda bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradi, egallagan bilimlarini ijodiy o‘zlashtiradilar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirshda ta’limiy, harakatli, ijodiy o‘yinlardan foydalaniladi.

Ta’limiy o‘yinlarda bola o‘zida tabiatdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o‘simlik haqida mavjud bo‘lgan bilimlarini aniqlaydi, mustahkamlaydi, kengaytiradi. Predmetli o‘yinlar - barg, urug‘, gul, meva, sabzavot bilan o‘ynaladigan "ajoyib qopcha", "mevalar va ildizlar" va hakoza. "Stol bosma" - oyinlari - "Zoologiya lotosi", "Botanika lotosi", "Barglarni terib ol" kabilarni ham inobatga olish mumkin. Harakatli o‘yinlar tabiatshunoslik xarakteridagi

harakatli oyinlar, hayvonlarning harakati, ularning hayot tarziga taqlid qilish bilan bog‘liq bo‘lib, ba’zilarida jonsiz tabiat hodisalari aks ettiriladi. Bular “Ona tovuq va jo‘ja”, “Mushuk va sichqon”, “Quyosh va yomg‘ir”. “Bo‘ri va quyon” va hokazolar. Ijodiy oyinlarda bolalar mashg‘ulot, ekskursiya, kundalik hayot jarayonida olgan taassurotlarini aks ettiradilar, kattalarning tabiatdagi mehnati haqidagi bilimlarni egallaydilar, bunda ularga mehnatga ijodiy munosabat shakllanadi.

4.6. Tabiatda bolalar mehnatlari va ularni tashkil etish texnologiyasi

Bolalarning tabiatdagi mehnati katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mehnat qilish jarayonida bolalarda tabiatga bo‘lgan munosabatlar shakllanadi. Tabiatdagi mehnat bolalarda berilgan topshiriqqa mas’uliyat bilan yondoshishni tarbiyalaydi. Biroq buning uchun bolalar zarur mehnat malakalarini egallab olgan bo‘lishi, o‘z mehnatining ahamiyatini tushunishi lozim. Tabiatdagi mehnat maktabgacha yoshdagi bolaning sensor tarbiyasi uchun qulay sharoit yaratadi. Tarbiyachi bolani mehnat orqali maqsad va natijaga erishish, narsalarni sensor belgilarini nazarda tutishga o‘rgatadi. Masalan, o‘simlikning suvga muhtojligini aniqlash uchun uning holatini, [barg va poyasining elastikligi](#), pishiqligi yoki uning so‘lg‘inligi, yumshoqligini, tuproqda esa uning namligi, zichligi va shu kabi belgilarni hisobga olish lozim.

Mehnat jarayonida bolalar o‘simliklar holatining yorug‘likka, namlikka, issiqlikka, yaxshi tuproqqa bo‘lgan ehtiyojlarini qondirilishiga bog‘liq ekanligini anglab oladi. Ular muhitning o‘zgarishi, qonuniy tarzda o‘simliklar holatini ham o‘zgartirishini bilib oladi. Bu munosabatlarni o‘zlashirishi, ularning mehnatga bo‘lgan munosabatiga ham ta’sir etadi, mehnat ongli va maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib boradi.

Bolalarda tabiatga qiziqish, mehnatsevarlik shakllanadi. Tabiatdagi mehnat kuzatuvchanlikni o‘stirish usullaridan biridir. Agar kuzatish mehnat bilan bog‘langan bo‘lsa, samaraliroq bo‘ladi. Tabiatdagi mehnat jarayonida tarbiyaviy vazifalardan tashqari ta’limiy vazifa ham hal qilinadi. Bola mehnat orqali o‘simlikning xususiyati va sifati, uning tuzilishi, ehtiyoji, rivojlanishining asosiy bosqichi, o‘stirish [usuli](#), o‘simlik hayotidagi mavsumiy o‘zgarish haqida, hayvonlar, uning tashqi ko‘rinishi, ehtiyojri, harakat qilishi, hayot tarzi va uning mavsumiy o‘zgarishi haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Shu jumladan, hayvonlarni tabiat burchagida parvarish qilishni o‘rganadi va shu orqali mehnat malakani egallaydi.

Tabiat bilan tanishtirishda bola mehnatini tashkil etishda individual topshiriq shaklida va jamoa mehnat tarzida uyushtiladi.

Individual topshiriq barcha guruhlarda qo‘llaniladi. Bular tarbiyachiga bolaning xatti-harakatini puxtaroq boshqarish, yordam ko‘rsatish, qo‘shimcha

tushuntirish, maslahat berish, topshiriqning bajarilishini nazorat qilish, bolaning faoliyatini boshqarish imkonini beradi. Bularning barchasi malaka hamda ko'nikmalarning aniq va mustahkam shakllanishiga, shuningdek, topshirilgan ish uchun mas'uliyatni [his etish](#), g'ayrat bilan mehnat qilish odatining tarbiyalanishiga yordam beradi.

Jamoaviy mehnat bir vaqtning o'zida guruhning barcha bolalarida mehnat malaka va ko'nikmalarini tarbiyalashga imkon yaratadi. Mehnatning bu shakli jamoadagi munosabatlarning tarkib topishi uchun zarurdir. Bunda mehnatning umumiy maqsadini tushunish, kelishib olish, o'z harakatlarini muvofiqlashtirish, ishni hamkorlikda rejalashtirish, o'rtoqlarga yordam berish, ularning mehnatini baholash kabi muhim ko'nikmalar shakllanadi.

Bolalar mehnatini tashkil etish shakllaridan biri *navbatchilik*dir. Tabiat burchagida navbatchilik qilishni bolalar katta guruhda boshlaydilar. Mehnatning bu shakli mehnat malakalarini takomillashtirish, uning ijtimoiy sabablarini shakllantirish imkonini yaratadi.

Bolalar mehnatiga rahbarlik qilish.

Kichik guruhlar. Bunda bolalar tarbiyachining tabiat burchagi va hovlidagi hayvonlar hamda o'simliklarni parvarish qilishga yo'llangan mehnatida ishtirok etadilar. Ular 1-2 ta individual topshiriqlar oladilar (qushlar uchun tayyor ozuqani olish va donxo'rakka solish o'simliklarni oldindan hozirlab qo'yilgan suv bilan sug'orish va shu kabilardan iborat. Bu qisqa muddatli mehnatga tarbiyachi asta-sekin barcha bolalarni jalb qiladi.

O'rta guruh. Besh yoshli bolalarni mehnat jarayonida uyushtirishning shakllari kichik guruhdagi bilan bir xildir. Bunda individual topshiriqlar katta o'rin egallasa ham biroq ular uzoq muddatli xarakterni kasb etadi. Bolalar ayni bir topshiriqning o'zini 2—3 kun davomida bajaradilar. Natijada o'rta guruhda mehnat jarayoni murakkablashib boradi.

Katta guruh. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda faqat mehnatni tushunish ko'nikmasigina emas, balki mehnat topshirig'ini, uning natijasini ko'rsatishni, topshiriqlarning ketma-ketligini, kerakli anjomlarni tanlashni, mustaqil mehnat qila bilishni (tarbiyachining bir oz yordamida) ham tarkib toptirish lozim. O'simlik va hayvonlarni parvarish qilish bo'yicha individual topshiriq uzoq muddatli ishga aylanadi.

Katta guruhdagi bolalarda tabiat burchagida navbatchilik qilish joriy qilinadi. Navbatchilikni tashkil etar ekan, tarbiyachi mashg'ulot o'tkazib, unda bolalarni navbatchilikning majburiyatlari [bilan tanishtiradi](#), tabiat burchagida yashovchi jonivorlarni parvarish qilish usullarini eslatadi, yangilari bilan tanishtiradi. Bir vaqtda 2-3 nafar bola navbatchilik qiladi.

Navbatchilikka yaxshi ishlaydigan bolalar bilan birga malakalari yetarlicha shakllanmagan bolalar tanlanadi. Navbatchilik bolalarda javobgarlik hissini, ishbilarmonlikni tarbiyalaydi.

4.7. Oddiy tajriba va uning mazmuni. Bolalarda izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish

Bola predmet va hodisa o'rtasidagi aloqa hamda munosabat sabablarini aniqlash uchun oddiy tajribadan foydalaniladi. Tajriba tarbiyachi tomonidan maxsus tashkil etilgan sharoitda o'tkaziladigan kuzatishdir.

Tajribada o'yin, mehnat yoki maxsus mashg'ulot jarayonida paydo bo'lgan bilim va vazifalarni hal qilish usuli sifatida foydalaniladi.

Tajriba shartining muhokamasi tarbiyachi rahbarligi ostida o'tadi. Tajribaning hamma shartlari tenglashtirilishi va faqat ulardan bittasi tajribaning natijasiga ta'sir etadigani alohida ajratilishi, bolaga ko'rsatilishi hamda ular tomonidan tushunilishi lozim. Tajriba uzoq muddatli qiyoslanadigan yoki qisqa muddatli kuzatish tarzida o'tkazilishi mumkin. Uzoq muddatli qiyoslanadigan kuzatishda natijalar kechiktirilganligi tufayli tajribaning ayrim alohida xarakterli bosqichlarini rasmiy jadvallarda qayd qilish lozim.

Tajribalarni tashkil etish jarayonida tirik ob'ektlarni halok bo'lishiga olib kelmaslik, ularning hayotiy muhim ko'rinishlarini buzmaslik kerak. Shuning uchun ham sezilarli o'zgarishlar paydo bo'lishi bilanoq sharoitni darhol o'zgartirish kerak.

Bolalarda oddiy izlanuvchanlik qobiliyatini oshirish ularning tabiat bilan [tanishishidagi mustaqilligini](#), fikr doirasini oshiradi va o'ta faol bo'lishni ta'minlaydi. Bunday qobiliyat bolalarda tabiat hodisalarini tushunishga, uning sodir bo'lish sabablarini bilishga imkon beradi.

Bolalarda izlanuvchanlik qobiliyatini hosil qilish ma'lum tizim asosida amalga oshiriladi. U bolalarni tabiatda bo'ladigan voqea va hodisalarni ko'rish, tahlil qilish asosida turli faoliyatlari davridan boshlanadi. Shundan keyin bolalarda fikrlash qobiliyati shakllanadi, turli muammolar paydo bo'ladi. Bolalar buni fikr qilib, tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarish, uning sababi va bir-biri bilan bog'liq ekanligini yechishga intiladi. Ular ko'rib, kuzatib, u yoki bu voqeani sodir bo'lish sabablari haqida xulosa chiqaradi.

Izlanuvchanlik qobiliyatini oshirishning navbatdagi yo'li bola chiqargan taxminiy xulosani to'g'ri muhokama qilish va uni tekshirish usullarini tanlashdan iborat. Shuni aytish kerakki, izlanuvchanlik qobiliyatini oshirishni o'rganishda xulosalarni tekshirish katta rol o'ynaydi. Buni to'g'ri xulosa chiqarish bilan yakunlash kerak. «Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi»da belgilangan bilimni bolalarga singdirish uchun bolaning bilishga bo'lgan aktivligini va amaliy faoliyatini oshirish zarur. Buning uchun tarbiyachi

dasturdan izlanuvchanlik faoliyati yo‘li bilan o‘rganiladigan tabiat haqidagi bilimlarni ajratib olmog‘i kerak. Shu asosda bolalarda bilishi mumkin bo‘lgan hayotiy muammolar hosil qilinadi. Bolalar bu muammolarni yechish uchun o‘zlari tasavvur qilgan, o‘ylagan fikrlar bilan uni solishtiradi. Izlanuvchanlik faoliyati ulardan qaysi to‘g‘ri-yu, qaysi xato ekanligini aniqlashga yordam beradi.

Masalan: bolalar tabiat burchagida navbatchilik qilib turganda dam olish kunidan keyin xina va koleus barglarini so‘lib qolganini, kaktus va aloe esa juda yashnab turganini sezadilar. Tarbiyachi bu vaziyatdan foydalanib bolalar oldiga muammoli savol qo‘yadi: «Nima sababdan shunday bo‘ladi? Hamma o‘simliklarga ham bir xilda suv kerakmi?»

Bu hayotiy munozarali muammoni bolalar bilan birga muhokama qilib, tarbiyachi rahbarligida kuzatilayotgan hodisaning sodir bo‘lish sababini tushunib oladi. Bolalar tomonidan bildirilgan birorta ham fikr e‘tibordan chetda qolmasligi, bolalariing hamma farazlari to‘liq muhokama qilinishi kerak. Bolalarda muhokama paytida yoki kuzatgan ob‘ektiga baho berishda tug‘ilgan qiziqishidan tarbiyachi foydalanib izlanuvchanlik faoliyatining ikkinchi davri tekshirish yo‘llarini tanlash va o‘zini tekshirishga o‘tadi. Tarbiyachi tekshirishning har xil yo‘llaridan, hatto bolalar tavsiya etgan tekshirish yo‘llaridan ham foydalanishi mumkin.

Izlanuvchanlik faoliyatini kuzatish, tajriba, sayr, tabiat burchagida, mashg‘ulotlarda kamol toptirish mumkin.

Qisqa muddatli kuzatish tabiat ob‘ektining har xil sifati, xususiyatini aniqlash uchun foydalaniladi. Masalan, bolalar gullarga suv quyish zarurati haqidagi fikrlari to‘g‘riligini aniqlash va isbotlash uchun o‘simlikning suvga chanqoqlik belgilarini izlashadi, tuproqning quruq yoki namligi, rangi, barglar holatining o‘zgarishini aniqlash uchun harakat qilishadi.

Uzoq muddatli taqqoslab kuzatish tajribalar tayyor modellarni ko‘rsatish (masalan, hasharotlar xususiyati), tabiat hodisalarining sababi, o‘zaro aloqasi va munosabatini aniqlash uchun foydalaniladi. Tarbiyachi bolalarga hayvonlar harakatidagi o‘zaro aloqani aniqlash uchun (tipratikan, quyon, qurbaqa) ularning yurishini va orqa oyoqlar harakatini kuzatishni hamda taqqoslashni topshiradi.

Tayyor modellarni ko‘rsatib, hayvonlarning himoyalaniish mexanizmini tuzilishi bilan tanishtirish mumkin. Bolalar karam kapalagining g‘umbagini kuzatib, ularni karam bargidan ajratish qiyin ekanligini kuzatadi. Tarbiyachi karam bargini nima uchun bunday tuzilganini o‘ylab ko‘rishni aytadi va o‘zi uning sababini tushuntirib beradi.

Bolalarning ko‘rgazmali-amaliy metodlar asosida tabiat bilan tanishib o‘rttirgan boy tajribalariga tayanib, tarbiyachi bolalar bilimini tekshirish va bilish

qobiliyatlarini aniqlash uchun qiziqarli suhbatdan foydalanishi mumkin. Bu suhbat fikrlash asosida tabiatda bo'ladigan voqea-hodisaning sababini bilishga yordam beradi. Tarbiyachi bolalarning fikrlashini boshqaradi va uni aniq maqsadga yo'naltiradi. Buni sayrlarda amalga oshirish mumkin.

Izlanuvchanlik faoliyati kuzatish, tajribalar, modellarni namoyish etishdan olingan xulosalar asosida yakunlanadi. Tarbiyachi bolalarga o'zlari mustaqil xulosa chiqarishlarini topshiradi. U o'zi xulosa chiqarishga shoshilmasdan bolaning fikrlarini yoritishi, qo'shimcha savollar berishi kerak. Bordi-yu, bola noto'g'ri yoki noaniq xulosa chiqarsa, tarbiyachi uni to'g'rilab, tushuntirib berishi zarur.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish vositasida izlanuvchanlik faoliyatini keng amalga oshirish, asosan, katta guruhlarda olib boriladi. Lekin buni kichik va o'rta guruhlarda ham amalga oshirish mumkin.

Bola tabiatga doir har qanday muammoni dastlab kattalar ko'magida, so'ngra o'zi mustaqil yecha oladigan bo'ladi. Izlanuvchanlik faoliyati natijasida bolani mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Mustaqil yechilgan muammolar bolaga quvonch bag'ishlaydi. Bu quvonch uning tabiatga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi va rivojlantiradi.

Izlanuvchanlik faoliyati bolaning shakllanishida, fikr doirasining kengayishida katta ahamiyatga ega ekanligini bilgan holda har bir tarbiyachi uni doimo tashkil qilishi va buning uchun zarur shart-sharoitni yaratishi kerak.

Nazorat savollari

1. Metod nima?
2. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda qanday metod va usullar qo'llaniladi?
3. Ko'rgazmali uslubga tasnif bering.
4. Og'zaki metodning qanday usullari bor?
5. Tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotning roli.
6. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda qaysi prinsipga tayaniladi?
7. Tabiatda bolalar mehnatlari va ularni tashkil etish.
8. Oddiy tajribalar va ularning mazmuni.
9. Bolalarni ko'rgazmali-amaliy metodlar asosida tabiat bilan tanishtirish
10. Bolalarda izlanuvchanlik faoliyati kuzatish

Mavzu yuzasidan testlar

- 1. O'simlik va hayvonlarni o'sishi hamda rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi bilimlarning jamg'arilishi uchun kuzatishning ancha murakkabroq turi —.....dan foydalaniladi.**
 - a. uzoq muddatli
 - b. harakatli va harakatsiz
 - c. uzlukli va uzluksiz

d. solishtirma va qiyosiy

2. Qanday kuzatishlar mazmuniga ko'ra murakkab bo'lganligi sababli, maktabgacha ta'lim, o'rta, katta hamda maktabga tayyorlov guruhlarida foydalaniladi.

a. solishtirma va uzoq muddatli

b. harakatli va harakatsiz

c. uzlukli va uzluksiz

d. solishtirma va qiyosiy

3. Kuzatishning bu turi bolalarda tabiat hodisalarini analiz qilish, ayrim ma'lumotlarni qiyoslash, soddaroq xulosalar chiqarish ko'nikmalarining hosil bo'lishiga yordam beradi.

a. solishtirma va uzoq muddatli

b. harakatli va harakatsiz

c. uzlukli va uzluksiz

d. solishtirma va qiyosiy

4. Kimning ilmiy qarashlarida Eronning turli tropik o'simlik va hayvonlarining tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulqatvori yil fasllarining o'zgarishi bilan bog'liqligi misollar bilan tushuntirilgan?

a. Abu Rayhon Beruniy

b. Muhammad alXorazmiy

c. Abu Ali Ibn sino

b. Farobiy

5. Bolani ob-havodagi o'zgarishlar (shamol esishi, yomg'ir, qor yog'ishi, havo bulutli yoki ochiq bo'lishi quyosh charaqlab turishi)ni aytishga o'rgatish qaysi guruhda olib boriladi?

a. kichik guruh (3-4 yosh)

b. o'rta guruh (4-5 yosh)

c. katta guruh (5-6 yosh)

d. tayyorlov guruh (6-7 yosh)

Foydalanilgan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Samorukova P.G Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish - Toshkent. O'qituvchi , 1991
2. Yusupova F Bolalar bog'chasida ekologik tarbiya -Toshkent O'qituvchi, 1999
3. Grigor'yants A.G. , Gafurova U. Bolalar bog'chasida ekologik tarbiya Toshkent. O'qituvchi, 2002
4. Xasanboyeva O.U, Djabborova X.J Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi.- T. Cho'lpon. 2007.

5. MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING ISH SHAKLLARI

Reja:

- 1- Tabiat bilan tanishtirishda mashg'ulot turlari**
- 2- Tarbiyachining mashg'ulotga tayyorligi**
- 3- Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'lka tabiati bilan tanishtirishda ekskursiya mazmuni va turlarini tashkil etish metodikasi**
- 4- Bolalarning o'lkashunoslik tasavvurlarini shakllantirishda sayr va ularni tashkil etish metodikasi**

Tayanch tushunchalar: Tabiat bilan tanishtirishda mashg'ulot turlari, kuzatishlar, tabiatning xususiyatlari, kundalik hayotda kuzatish, mashg'ulotlar ularga aniqlash va tizimlashtirish, «Uchinchi ming yillikning bolasi», mashg'ulotga tayyorlanish, tanlangan metod dastur vazifasining to'liq bajarilishi, o'qitish metodlarining xilma-xilligi, ko'r gazmali qurollar, ekskursiya mavzusi hamda maqsadini aniq belgilash, ekskursiya mashg'ulotlarining afzalligi, ekskursiyalar mazmuni.

5.1. Tabiat bilan tanishtirishda mashg'ulot turlari

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiat bilan tanishtirish xilma-xil shakllarda: mashg'ulotlarda, ekskursiyalarda, kundalik hayotda, kuzatishlarda, suhbatlarda, hamda mehnatda amalga oshiriladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari bilimlarni bolalarning imkoniyati hamda tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda shakllantirish imkonini beradi. Tarbiyachi rahbarligida o'tadigan mashg'ulotlarda bolalarda dastur talablariga muvofiq elementar bilimlar shakllanadi, asosiy bilish jarayonlari va bolalarning qobiliyatlari ma'lum bir tartibda rivojlantiriladi. Kundalik hayotda kuzatish, o'yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yig'ilib boradi. Mashg'ulotlar ularga aniqlash va tizimlashtirish imkonini beradi. Bolalarni mashg'ulotlarda o'qitish turli metodlarda amalga oshiriladi. Metod mashg'ulot turi, uning asosiy maqsadiga ko'ra tanlanadi.

Mashg'ulotlarning bir xillarida boshlang'ich bilimlar shakllantiriladi. Shu maqsadda tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko'rish, badiiy asarlarni o'qish, hikoya, diafilm va kinofilmlarni ko'rsatishdan foydalanadi. Boshqa mashg'ulotlarda esa bilimlar kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi.

Aytib o'tilgan metodlardan tashqari bu mashg'ulotlarda bolalarning tabiatdagi mehnatidan ham foydalaniladi. Uchinchi turdagi mashg'ulotlarning asosiy vazifasi bilimlarni umumlashtirish hamda bir tizimga solishdir. Shuning uchun suhbatlar,

didaktik o'yinlar, umumlashtiruvchi kuzatishlardan foydalaniladi. Bolalar egallagan bilimlarini mehnat va o'yinlarda amalda qo'llaydilar.

Mashg'ulotlar kichik va o'rta guruhlarda bir oyda ikki martadan, katta guruhlarda esa haftada bir martadan o'tkaziladi. Sayrlar o'rta guruhdan boshlab tashkil etiladi. Barcha guruhlarda qo'shimcha sifatida maqsadli sayrlar o'tkaziladi.

Mashg'ulotga tayyorlanish. *Mashg'ulotning samaraliligi tarbiyachining tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir.* Tarbiyachi mashg'ulot mavzusi va ahamiyatini belgilab, mavzu bo'yicha tabiatshunoslik bilimlarini to'ldirishi, so'ng mashg'ulot vazifalarini dastur asosida ishlab chiqishi lozim.

Bunda tarbiyachi «Ilk qadam» davlat dastur vazifalariga, bolaning qobiliyat darajasiga hamda tevarak-atrofdagi tabiiy muhitga tayanadi. Mazkur mashg'ulot mazmunini tanlashda uning ish tizimidagi o'rni (mashg'ulotda boshlang'ich bilimlarni shakllantirish jarayoni sodir bo'lyaptimi, yoki ular boyitilib bir tizimga solinyaptimi, bilimlarni qo'llash mashq qilinyaptimi va shu kabilar)ni aniqlash lozim. Bu o'rinda tarbiyachi darsning maqsadi va mazmuniga qarab turli metodlarni qo'llaydi.

Tarbiyachi qanaqa metod va uslublar tanlamasin ulardan kompleks, bir-birini to'ldirgan holda foydalanishi, bu asosiy maqsad o'rganilayotgan tabiat jismlari va hodisalarning bolalar tomonidan qabul qilib olinishini yaxshilashga hamda tabiat haqidagi tushunchalarning to'g'ri shakllanishiga xizmat qilishi kerak.

Mashg'ulotda hal etiladigan tarbiyaviy vazifalar tabiatga ijobiy, ehtiyotkorona, g'amxo'rona, estetik munosabatlarni shakllantirishga yo'llanadi.

Mashg'ulotga tayyorlanish hamda uni o'tkazishda uning tuzilishini to'g'ri aniqlash muhimdir. Metodni tanlash ta'limiy vazifalar xarakteri, tabiiy ob'yektning xususiyatlari hamda bolalarning yoshiga bog'liqdir. Masalan, yovvoyi hayvonlar haqidagi bilimni shakllantirishni yaxshisi diafilm, kinofilmlar ko'rsatish orqali, tabiat burchagidagi hayvonlar va o'simliklar bilan tanishishni esa ularni bevosita kuzatish orqali amalga oshirgan ma'qul. Kichik yoshdagi bolalar mashg'ulotlarida kuzatish, o'yin metodlaridan foydalaniladi. Og'zaki metoddan, asosan, maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda foydalaniladi.

Tanlangan metod dastur vazifasining to'liq bajarilishini va bolalarning faol aqliy faoliyatini ta'minlashi lozim.

Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan o'qitish metodlarining xilma-xilligi tarbiyachidan puxta sharoit yaratishni talab qiladi: hayvonlar, xonaki o'simliklar, rasmlarni ko'rish uchun bolalar yarim doira qilib o'tqaziladi. Bu bolalarning mashg'ulotda faol ishtirok etishlariga imkon beradi. Agar mashg'ulotda tarqatma

materiallardan foydalanilsa, ya'ni har bir bolaning qo'lida kuzatish obyekt bo'lsa, bolalarning o'z stollari atrofida o'tirganlari ma'qul. Ba'zi guruh xonasida mehnat malakalarini tarbiyalashga bag'ishlangan mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bunday holatda bolalarni to'rtburchak shaklida joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Shunda bolalar tarbiyachi ko'rsatadigan ish usullarini yaxshiroq ko'rishga ega bo'ladilar.

5.2. Tarbiyachining mashg'ulotga tayyorligi

Tarbiyachi mashg'ulot o'tkazishdan oldin bir qancha ko'rgazmali qurollar, ya'ni jonli va jonsiz tabiat jismlari (gerbariyalar, yil fasllari, tabiat manzaralari tasvirlangan kalendarlar, toshlar foydali hasharotlar, o'simliklar va ularning qismlari, mayda hayvon va boshqalar)ni tayyorlab qo'yadi. Chunki ko'rgazmali qurol bolalarga o'rganilayotgan narsani bir necha sezgi a'zolari bilan qabul qilib olish imkoniyatini beradi, ya'ni ular narsani ko'ribgina qolmasdan, uning xususiyatini (masalan, tirnab ko'rish, bolg'ach bilan urib ko'rish orqali narsaning mo'rtligini, egish bilan qayishqoqligini, egiluvchanligini va hokazo) sinaydilar. Mashg'ulot so'nggida tarbiyachi bolalarning malaka va ko'nikmalari, ularning mashg'ulotga munosabatlari, qiziqishlarini pedagogik jihatdan baholaydi. Baholarning differensiyalashuv bolalarning yoshiga bog'liq bo'ladi.

Tarbiyachining sayrga tayyorlanishi. Tarbiyachi sayrni rejalashtirar ekan, mavzusi hamda maqsadini aniq belgilaydi, o'rnini, unga boriladigan qulay (bolalarni charchatmaydigan, ular diqqatini asosiy maqsaddan chalg'itmaydigan) yo'lni belgilaydi. Sayr o'rnini tanlashda bolalarning jismoniy imkoniyatlarini (piyoda yuriladigan ekskursiyalar kichkintoylar uchun faqat yaqin masofalargagina uyushtirilishi mumkin), shuningdek, mavsum, yo'lning xususiyatlari, ob-havo holatini hisobga olishi zarur.

Sayr uyushtiriladigan joy tarbiyachiga qanchalik tanish bo'lmasin, u bir-ikki kun oldin o'sha joyni ko'rib chiqishi lozim. Bo'lajak sayr joyida bo'lgan tarbiyachi yo'nalishni aniqlaydi. Kerakli obyektlarni topib, bolalar kuzatishlarni mustaqil olib borishlari hamda dam olishlari mumkin bo'lgan joyni belgilaydi.

Sayrni o'tkazishdan oldin tarbiyachi uni o'tkazish usullarini atroflicha o'ylab ko'radi va qiziqarli o'tishi uchun oldindan she'r, topishmoq, maqollarni tanlab ulardan foydalanadi.

5.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'lka tabiati bilan tanishtirishda sayr mazmun va turlarini tashkil etish metodikasi

Ma'lumki, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tarbiyach xilma-xil: og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarni qo'llaydi U o'simlik va hayvonlarni, ularning yashash sharoitlarini namoyish qiladi. Bu narsalarni oddiy mashg'ulotlarda ko'rsatib bo'lmaydi. Shuning uchun tabiat bilan tanishtirish metodikasida mashg'ulotlarni to'ldiruvchi maxsus shakllar qo'llaniladi.

Sayr bolalarni tabiat bilan tanishtiruvchi mashg'ulotlar turidan biridir. U tabiat bilan tanishtirish metodlarining ko'rgazmali metodiga kiradi. Sayr vaqtida bola tabiat hodisalarining mavsumiy o'zgarishlarini tabiiy sharoitda kuzatishi, tabiatning insonning hayot va talablariga muvofiq o'zgarayotganini hamda atrofimizdagi jonli va jonsiz tabiatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlar to'g'risida bilimlar to'plashga imkon beradi.

Sayr mashg'ulotlarining afzalligi yana shundaki, unda bolalar o'simlik va hayvonlarni ular yashaydigan muhitda ko'rish, hamda tabiatda mavjud bo'lgan o'zaro aloqalar haqida dastlabki dunyoqarash, tasavvur, olamni materialistik tushunishni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tarbiyachi rahbarligida o'rmon, dala, daryo va ko'l qirg'oqlariga uyushtirilgan sayr bolalarning diqqatini jalb qiladi, tabiat burchagida olib boriladigan keyingi kuzatishlarga xilma-xil material to'plashga sharoit yaratadi. Sayrda bolada kuzatuvchanlik, tabiatni o'rganishga qiziqish o'sadi. Ular predmetni sinchiklab kuzatish va uning xarakterli xususiyatlarini qayd qilishga odatlanadilar.

Tabiatning go'zalligi bolalarda estetik hissiyotlarning o'sishiga yordam beradi. Shu asosda ona tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish shakllanadi.

Sayrlar mazmuniga ko'ra shartli tarzda ikki turga bo'linadi:

tabiatga uyushtiriladigan sayr — bog', o'rmon, daryo, o'tloq, shuningdek, hayvonot bog'i, botanika bog'iga (turli mavsumda o'tkaziladi) sayrlar

qishloq xo'jaligiga sayr — dala, parrandachilik fabrikasi, bog', ekinzor va shu kabilarga kattalarning mehnati bilan tanishish maqsadida uyushtiriladi.

Sayr mashg'ulot turi sifatida **o'rta, katta** hamda **tayyorlov** guruhlarida o'tkaziladi. Har bir sayr uchun barcha bolalar egallashlari shart bo'lgan dastur mazmuni belgilanadi.

Bolalarni sayrga tayyorlash. Sayrdan bir necha kun oldin bolalarda mashg'ulotga qiziqish uyg'otish, tasavvurlarni jonlantirish maqsadida tarbiyachi ular bilan kichik suhbat o'tkazadi, ya'ni sayr vazifalarini qo'yadi, topshiriq va vazifalarni taqsimlaydi, sayrdagi xulq-atvor qoidalari bilan tanishtiradi, shuningdek anjom-aslaha va jihozlarni tayyorlaydi.

Tabiatshunoslik sayri. Tabiatshunoslik ekskursiyasi kirish suhbatini, jamoa bo'lib kuzatish, bolalarning individual mustaqil kuzatishlari, tabiatga oid materiallarni to'plash, bolalarning dam olish vaqtida to'plagan materiallar bilan o'ynashi va yakuniy qismlarni o'z ichiga oladi. Bolalarni ekskursiya o'tkaziladigan joyga olib kelgandan so'ng tarbiyachi qisqa suhbatda sayrning maqsadi va vazifalarini eslatadi. Shundan so'ng ular tabiatdagi narsa va hodisalarni kuzatishga o'tadilar.

Sayrning asosiy qismi- jamoa bo'lib kuzatishdir. Bunda mashg'ulotning asosiy qismi hal qilinadi. Tarbiyachi bolaga narsa va hodisalarning xarakterli xususiyatlarini anglab olishga yordam beradi. Bunga turli usullar (savol va topshiriq, she'r, ijodiy harakati, o'yin usullari)ni qo'llash orqali erishiladi. Tarbiyachi kuzatishi, o'z hikoyasi hamda tushuntirishlari bilan to'ldiradi.

Kuzatishda asosiy e'tibor jism va hodisalarni yaxshilab ko'rishga, ularni qiyoslashga, tabiat hodisalari o'rtasidagi aloqalarni aniqlashga yordam beradigan savol va topshiriqlarga qaratiladi.

Kuzatish jarayonida hikoya, she'r va topishmoqlarni qo'llash foydalidir. Sayr jarayonida tarbiyachi bolaning bilish faoliyatiga rahbarlik qiladi. Bunda og'zaki (hikoya, suhbat, tushuntirish), ko'rgazmali va amaliy metodlardan foydalanadi.

Sayrning asosiy qismi tugagach, bolalarning individual mustaqil kuzatishlarga qiziqishlarini qondirish va tabiatshunoslikka oid materiallarni to'plash uchun imkoniyat berishi zarur. Biroq material to'plash uchun topshiriq berishda, to'plangan material miqdorini qat'iy cheklash lozim, bu bolalar e'tiborini faqat ma'lum o'simlik va hayvonlarga qaratish va bundan tashqari tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni tarbiyalash uchun ham kerakdir.

Bolalar mustaqil ishlayotgan paytda, tarbiyachi ham yordam berib turishi lozim. Ba'zan o'simlikni qanday kovlab olish, quruq novdani qanday qirqish va shu kabilarni ko'rsatib turishi lozim.

Dam olish vaqtida to'plangan materiallar saralanadi, jildlarga, savatchalarga joylanadi. Ba'zilaridan o'yin va mashqlarda foydalaniladi.

Qishloq xo'jalik sayri. Qishloq xo'jalik sayrlari xilma-xildir: dala (yer haydash, ekish, hosil to'plash), o'tloq (mol boqish, hashak o'rish) bog', ekinzor, mevazor, ferma, botanika bog'i, issiqxona, parrandachilik fermasi va shu kabilarga sayrlardir. Sayr insonning tabiatga ta'sirini, ya'ni o'simliklarni o'stirishni va hayvonlarni boqishni ko'rgazmali tarzda ko'rsatish imkonini beradi. Bu yerda bolalar asosiy mehnat jarayonlarining bir nechtasi bilan tanishadilar.

Sayrlarning o'ziga xosligi shundaki, bola inson faoliyatini ham, u ta'sir etayotgan tabiatni ham kuzatishi mumkin.

Qishloq xo'jalik obyektiga uyushtiriladigan sayr, suhbat bilan boshlanadi. Qishloq xo'jalik sayrlariga tayyorlanishda tarbiyachi kuzatish obyekti bilan oldin o'zi tanishadi, sayr o'tkazish uchun ruxsat oladi. Sayr vaqti va bolalarning mehnatda qatnashishlari haqida kelishib oladi hamda bolalarning ma'lum ishda band bo'lgan kattalar bilan bo'ladigan suhbatining mazmunini belgilaydi. Sayr yakunida mazkur ob'yeckt ishi haqidagi taassurotlar umumlashtiriladi.

Sayrdan keyingi ish. Sayrda olingan bilim, mashg'ulot, o'yin, tabiat burchagida o'tkaziladigan kuzatishlarda kengaytiriladi va mustahkamlanadi. Sayr yakunida to'plangan materiallarni tabiat burchagiga joylashtirish (masalan, o'simliklarni vazalarga, gul tuvaklarga solish, jonivorlarni akvarium, terrarium, sadaklarga joylashtirish), o'simlik va hayvonlarni kuzatuv ostiga olish zarur. Sayrdan 2-3 kun o'tgach, tarqatma material, rasm solish, loy va plastilindan narsalar yasaladi, tabiiy materiallardan foydalanib didaktik o'yinlar, mashg'ulotlar o'tkaziladi. Badiiy adabiyotlar o'qitiladi, bolaning sayrdan olgan taassurotlari haqidagi hikoyalari tinglanadi. Mashg'ulot yakunida umumlashtiruvchi suhbat o'tkaziladi.

Tabiatshunoslik sayrlari ma'lum tizimga muvofiq o'tkaziladi. Ularni tabiatda bo'ladigan mavsumiy o'zgarishga qarab ayni bir ob'yektning o'ziga yilning turli fasllarida uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, bahor mavsumida maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan vazifalarni asta-sekin murakkablashtirgan holda istirohat bog'iga 3 marta sayr uyushtirish lozim.

Bu sayrdan maqsad bolalarni bahorgi o'zgarishlar bilan tanishtirish, ularni ko'rish hamda tabiatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning sababini tushunish ko'nikmalarini o'stirishdir. Qishloq xo'jalik sayrlarini kattalar mehnatining ayrim turlari bilan tanishtirish maqsadida epizodik tarzda o'tkazish lozim. Sayrni uyushtirish guruhdagi mashg'ulotni uyushtirishga qaraganda qiyinroqdir, shuning uchun uning muvaffaqiyatli o'tishi tarbiyachi va bolaning puxta tayyorlanishlariga bog'liq bo'ladi.

5.4. Bolalarning o'lkashunoslik tasavvurlarini shakllantirishda sayr va ularni tashkil etish metodikasi

Sayr darsi. Bu o'qitishning eng yuqori ko'rgazmalilikka va tarbiyachilarning ijodiy mustaqilligiga asoslangan maxsus shaklidir. Dasturning deyarli har bir mavzusi bo'yicha sayrlar mo'ljallangan. Ammo O'zbekistonning tabiiy sharoiti ular sonini ancha ko'paytirishga imkon beradi.

Sayr o'quv-tarbiya ishlarining juda murakkab va qiyin shakli hamda bilimlarni bayon qilishning xilma-xil metodlarini nazarda tutuvchi eng samarali o'qitish shakllaridan biridir.

Sayrlarning taqvim rejasini o'quv yilining boshida bir yil uchun choraklar bo'yicha mahalliy sharoitni hisobga olgan holda tuziladi, har bir ekskursiya puxta tayyorgarlikni talab qiladi va odatda quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

- sayrlarning taqvim rejasini tuzish;
- aniq o'quv-tarbiya vazifalarini belgilash;
- ob'ekt tanlash va u bilan taxminiy tanishish;
- kengaytirilgan ish rejasini tuzish;

- sayr o'tkazuvchi yoki korxonada xodimining tarbiyachisi bilan suhbat o'tkazishga tayyorlash, ularni sayrning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish;
- tarbiyachini oldindan tayyorlash (sayrning umumiy vazifalarini qo'yish, topshiriq va vazifalarni taqsimlash, sayrdagi xulq-atvor qoidalari bilan tanishtirish, anjom-aslaha va jihozlarni tayyorlash);
- kuzatish imkoniyatlarini hisobga olib, eng maqsadga muvofiq yo'nalish tanlash;
- sayr o'tkazish uchun yordamchilarni tayyorlashdan iborat.
Sayr vaqtida tarbiyachilar sayr joyigacha quyidagi ishlarni bajaradilar:
- Sayr vaqtida tarbiyachilar sayr joyigacha yo'l-yo'lakay kuzatishlar o'tkazib boradilar.

1. Butun sayr davomida o'qituvchi tushuntirib boradi. Sayr joyida tarbiyachilar odamlar va mashinalarning ishini yoki tabiat ob'ektlari va hodisalarini kuzatadilar.

2. Ishchi va muhandislar bilan suhbatlashadilar.

3. Tabiiy material yig'adilar va oldindan tayyorlab qo'yilgan papka, quticha, bankalarga soladilar.

4. O'lchov ishlarini (daryoda, tuproq kesmasida, tepalikda) olib boradilar;

5. Kompas bo'yicha yo'nalishlarni aniqlaydilar.

6. Rasm chizadilar, xulosalar chiqaradilar va umumlashtiradilar.

7. Kuzatayotgan ob'ektda baholi-qudrat ijtimoiy foydali mehnat qiladilar.

Sayr vaqtida to'plangan material dars, uy yoki darsdan tashqari vaqtda maktabda ishlanadi (tartibga keltiriladi). Ulardan gerbariy va kolleksiyalar tayyorlanadi, ular tarqatma material bo'lib xizmat qiladi yoki ko'rgazmali qurol sifatida foydalaniladi. Shu maqsadda rasmlar, albomlarda to'plangan materialdan faqat tabiatshunoslik darslaridagina emas, balki matematika, ona tili, mehnat va rasm darslarida ham foydalanish kerak. Chunonchi, birinchi guruhda savodga o'qitishning alifbe davrida tarbiyachilar bilan «Kuz» mavzusi bo'yicha ikkita sayr o'tkaziladi, sayr vaqtida tarbiyachilar o'rmonda yoki parkda erta va kech kuz davrida o'simliklar hayotidagi o'zgarishlar bilan tanishadilar. Bolalar qushlarning uchib ketishini kuzatadilar, mehnat darslari uchun tabiiy material yig'adilar. Qish va bahorda tarbiyachilarning o'simliklar hayotidagi yil fasllariga qarab farqlarni ko'rishlari uchun kelgusi sayrlar o'sha ob'ektlarda o'tkaziladi. Ikkinchi guruhda «Tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar» mavzusi bilan bog'liq holda sayrlar o'tkaziladi, ularda o'qituvchi bolalar bilimlarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, tabiat to'g'risida aniq tushunchalarni shakllantiradi.

Tabiatshunoslik sohasidagi bilim doiralarini doimo kengaytirib borish lozim. Chunonchi, birinchi sinfda sayrlarda 3 - 4 o‘simlik bilan tanishadi va ularni yil davomida kuzatib boradi. Ikkinchi sinfda yana 3 - 4 o‘simlik turi qo‘shiladi, Uchinchi sinfda bahorning oxiriga kelib, ular 6 - 8 o‘simlik (daraxt, buta va o‘t o‘simliklari) turlarini taniy va ta’riflay olishlari, to‘rtinchi sinfda esa 8—10 turni yaxshi bilib olishlari kerak.

Sayr tarbiyachilarni tabiat hodisalarining yoki tabiat va mehnat aloqalarini aks ettiruvchi dalillar bilan tanishtirish uchun zarur bo‘lgan noyob bilim manbaidir. Misol sifatida eng ko‘p tarqalgan suv o‘simliklari va hayvonlari bilan tanishish maqsadida suv havzasiga o‘tkaziladigan sayr rejasini keltiramiz (3 guruh):

- *ilgari tabiatga (parkka, xiyobonga) o‘tkazilgan sayr mazmuni bo‘yicha suhbat;*
- *yangi mavzu bo‘yicha (suv havzasining mavjudotlari to‘g‘risida) kirish suhbat;*
- *o‘simliklarni kuzatish;*
- *hayvonlarni kuzatish;*
- *yaqinda joylashgan suv havzasidagi o‘simlik va hayvonlarning tashqi tuzilishini qarab chiqish;*
- *sayr materialini yig‘ish;*
- *umumlashtiruvchi suhbat;*
- *uyga vazifa beriladi (jadval asosida).*

Sayr jarayonida o‘qituvchi tarbiyachilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qiladi, bunda og‘zaki (hikoya, suhbat, tushuntirish), ko‘rgazmali (suhbat jarayonida kuzatish) va amaliy (tarbiyachilarning amaliy ishlariga rahbarlik qilish) metodlardan foydalanadi. Sayr jarayonida tarbiyachi faqat kuzatibgina qolmasdan, balki o‘rganilayotgan ob’ekt to‘g‘risida yangi ma’lumotlar olishlari va ularni amalda foydalana bilishlari kerak. Olgan bilimlarining natijalarini tarbiyachi so‘zlab bera olishi lozim.

Nazorat savollari

1. Tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotning qanday turlari bor?
2. Kundalik hayotda kuzatishlardagi o‘zgarishlar haqida gapiring.
3. Mashg‘ulotda dalilni aniqlash va tizimlashtirish qanday belgilanadi?
4. «Ilk qadam» dasturida tabiat mavzularini ayting.
5. Mashg‘ulotga tayyorlanish qanday tashkil etiladi?
6. Mashg‘ulot metod va usullarini izohlang.
7. Sayr mashg‘ulotlari qanday tashkil etiladi?
8. Sayr mashg‘ulotlarining mavzusi, rejasi va uni o‘tkazish maqsadi va vazifalari nimadan iborat?

9. Sayrningning mazmuni va afzalligi nimada?
10. Bolalarni sayrga tayyorlash qanday tashkil etiladi?
11. Sayrning qanday turiari bor?
12. Qishloq xo‘jalik sayri qanday tashkil etiladi?
13. Sayrdan dan keyingi ishlar nimalardan iborat?
14. Sayrlarning taqvim reja
15. si qanday tuziladi?

Mavzu yuzasidan testlar

1. Kichik guruhda istirohat bog‘ida sayr qilib yurganda nima topshiriq beriladi?

- a. manzarali daraxtlarning bargi va mevalarini to‘plash
- b. yovvoyi daraxtlarning bargini to‘plash
- b. gullarning barglarini to‘plash
- c. daraxt va gullarning meva va barglarini toplash

2. Kichik guruhda yil fasllarining xususiyatlari qanday o‘rgatiladi va ular to‘g‘risida tushuncha beriladi?

- a. yozning issiq, qishning sovuq ekanligi
- b. yozning iliq, qishning sovuqroq ekanligi
- c. yozning sovuq, qishning iliq ekanligi

3. Sabzavotlar (bodring, pomidor) va mevalar (olma, gilos, o‘rik)ning nomi, ta‘mi, rangi va shaklini bilishga, o‘zaro farqlashga o‘rgatishda qaysi guruhda olib boriladi?

- a. kichik guruh (3-4 yosh)
- b. katta guruh (5-6 yosh)
- c. tayyorlov guruh (6-7 yosh)
- d. o‘rta guruh (4-5 yosh)

4. Bolani uy hayvonlari (mushuk, kuchuk, qo‘y va qo‘zichoq) va yovvoyi hayvonlar (quyon, ayiq), parrandalar (xo‘roz, tovuq, jo‘jalar) bilan tanishtirish qaysi guruxda olib boriladi.

- a. kichik guruh (3-4 yosh)
- b. katta guruh (5-6 yosh)
- c. o‘rta guruh (4-5 yosh)
- d. tayorlov guruh (6-7 yosh)

5. Kichik guruhda hasharotlardan qaysilari bilan tanishtiriladi va o‘rgatiladi?

- a. xonqizi va asalari
- b. chigirtka va asalari
- c. pashsha va nenachi
- d. xonqizi va nenachi

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar

1. Hasanboyeva O.U, Djabborova X.J , Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi.- T. Cho'lpon. 2007.
2. Haydarov H, Nishonova S .Tabiatshunoslik asoslari va olalarni atrof-tabiat bilan tanishtirish.- T, O'qituvchi,1992.
3. Yusupova P.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish. - T, O'qituvchi, 1995.
4. Djabborova X.D. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim –tarbiya berishning o'ziga xosligi.- T, O'qituvchi. 2000.
5. «Ilk qadam» tayanch dasturi.- T, 2018 y
6. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. - T. O'qituvchi, 1996.
7. Hasanboyeva O. va boshq. Pedagogika tarixi.- T.O'qituvchi. 1997.
8. Yo'ldoshev X.S, Avezov Sh.Sh. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari.- T. O'qituvchi. 1997.

6. MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TABIAT BURCHAGINI TASHKIL QILISH

Reja:

- 1- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat burchagini tashkil etish va unga qo'yiladigan talablar
- 2- Turli yosh guruhlari bollarini o'simliklar hayvonlar va qushlarni parvarish qilishga o'rgatish texnologiyasi

Tayanch tushunchalar: Tabiat burchagi, bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini oshishi, tabiat burchagidagi hayvonlar va o'simliklar, tarbiya muassasasi joylashgan ekologik muhit, tabiat burchagiga qo'yiladigan talablar, tabiat burchagini kuzatish.

6.1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat burchagini tashkil etish va unga qo'yiladigan talablar

Tabiat burchagini ta'lim- tarbiyaviy ahamiyati. Bolalarni tabiat bilan tanishtirib borishda MTMlar qoshidagi tabiat burchagi juda katta rol o'ynaydi. Tabiat burchagida saqlanadigan o'simliklar va hayvonlar bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini oshishida, shakllanishida dastlabki manba bo'lib xizmat qiladi. Bolalar tabiat burchagidagi hayvonlar va o'simliklar bilan uzviy aloqada bo'ladilar. Tabiat burchagi bolalarni tabiat bilan bevosita munosabatda bo'lishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham yil o'n ikki oy o'simlik va hayvonot olami bilan tanishib, ular bilan muloqotda bo'lish imkonini beradi. Biz bolalar bog'chalarida tabiat burchagini tashkil qilish yo'llari haqida batafsil

to'xtalmadik. Chunki ular haqida "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" ("O'qituvchi", T., 1984, 48—91-betlar) kitobida gapirilgan. Lekin viloyatimizning tabiiy sharoitini hisobga olib, bog'chalarda tabiat burchagini tashkil qilish, tabiat burchagi uchun o'simlik va hayvonlarni tanlash va bolalar bog'chasi uchastkasida qilinishi lozim bo'lgan ishlarni eslatib o'tmoqchimiz. Tarbiyachi tabiat burchagida o'simliklarni o'stirishga kirishishdan avval unga qo'yiladigan talablarni bilib olishi zarur. Bu talablar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Tabiat burchagidagi o'simliklar shu xona sharoitida, maktabgacha tarbiya muassasasi joylashgan ekologik muhitda bemalol o'sa oladigan bo'lishi kerak.

2. O'simliklarning normal o'sishi uchun issiqlik va yorug'lik etarli bo'lishi zarur.

3. Tabiat burchagidagi o'simliklarni suvga bo'lgan talabiga qarab joylashtirilishi va ma'lum vaqtlarda namlik bilan ta'minlanib turilishi kerak.

4. Tabiat burchagida o'stiriladigan o'simliklar chiroyli, bolalarga estetik zavq bag'ishlaydigan, bolalarni o'ziga tortadigan manzarali o'simlik bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

5. Tabiat burchagidagi o'simliklar bolalar sog'ligiga zarar yetkazmaydigan bo'lishi darkor.

6. Tabiat burchagidagi o'simliklar bolalarning bo'yi yetadigan, ularga suv bemalol quyiladigan, barglarini arta oladigan, tagini yumshata oladigan joyda bo'lishi kerak.

Tarbiyachilar tabiat burchagida o'simliklarni o'stirish va ular bilan bolalarni tanishtirish uchun ularning nomlarini va har bir o'simlikning morfologik, biologik xususiyatlarini yaxshi bilishi zarur. Bunda qaysi o'simlik quyosh yorug'ligi yaxshi tushadigan joyda va qaysi biri yorug'lik kam tushadigan joyda bo'lishini bilish ham muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, o'simliklarning suvga, organik va mineral o'g'itlarga nisbatan talabi ham har xil bo'ladi. Ba'zi o'simliklar sersuvlikni (gidrofit o'simliklar), ba'zilar o'rtacha suvlikni (mezofit o'simliklar), ba'zilar kam suvlikni (ksyerofit o'simliklar) talab qiladi. Masalan, xitoy atirguliga har kuni suv quyish zararli. Chunki uning ildizi bunda chirib ketadi. Xina, begoniya kabilarni esa har kuni sug'orish mumkin.

Bundan tashhari gullarga suv quyish qoidalarini yaxshi bilish kerak. Xonada o'stiriladigan gullarga mumkin qadar vodoprovod suvini quymaslik kerak. Chunki, bunday suv birinchidan sovuq bo'lishi (ayniqsa qish paytlarida), ikkinchidan uning tarkibida xlor ko'p bo'lishi mumkin. Shu sababli bu xildagi suv ishlatishdan oldin kam deganda xona sharoitida 1 - 2 kun saqlanishi zarur.

Gullarga quyish uchun ariq va hovuz suvlari eng yaxshi hisoblanadi. Ularni to'g'ridan-to'g'ri gulga quyish mumkin. Tabiat burchagida gul o'stirish uchun mos keladigan tuproqni tanlay bilish kerak. Buning uchun 50% tuproq, 25% qum va 25% go'ng olib, ularni yaxshilab aralashtiriladi. Bu tuproqni 10—12 kun davomida o'rtacha haroratda (15—18°) xonada saqlab, keyin o'simliklarni o'stirishda foydalansa bo'ladi. Tabiat burchagida hayvonlarni boqishning o'ziga xos hayotiy va biologik tomonlari bo'lib, uni har bir tarbiyachi yaxshi bilishi zarur. Tabiat burchagida hayvonlarni asrash o'simliklarni asrashdan farq qiladi. Chunonchi hayvonlar harakat qiladi, tovush chiharadi, go'ng, pat, jun tashlaydi, yemishini to'kadi va ma'lum miqdordagi hidga ega bo'ladi. O'simliklarda esa bu xususiyatlar kuzatilmaydi.

Shunga ko'ra ularni tabiat burchagida asrash quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. *Tabiat burchagida saqlanadigan hayvonlar biologik tuzilishi jihatidan bog'cha joylashgan ekologik sharoitga mos kelishi va xonada o'sish xususiyatiga ega bo'lishi kerak.*

2. *Saqlanadigan hayvonlar ularga bolalar qaray oladigan, parvarish qila oladigan, ovqatni tanlamaydigan bo'lishi zarur.*

3. *Saqlanadigan hayvonlar bolalarga zarar yetkazmaydigan, xavfsiz, sog'lom bo'lishi kerak.*

4. *Saqlanadigan hayvonlarni tanlashda ularning chiroyli, bolalarga estetik zavq beradigan, bolalarni o'ziga tortadigan xususiyatlariga va tashqi tuzilishiga e'tibor berish zarur.*

5. *Hayvonlar asraladigan xona — ularning yashashi, normal hayot kechirishi, ko'payishi uchun qulay va talabga javob berishi kerak.*

6. *Hayvon va qushlar bolalar parvarish qila oladigan va bo'yi etadigan bo'lishi kerak. Ularga ovqat, don, suv berish uchun, tagini vaqt-vaqti bilan tozalab turish uchun sharoit mavjud bo'lishi zarur.*

Tabiat burchagida sut emizuvchilardan quyon, tipratikan, dengiz cho'chqasi, olmaxon kabilarni; suvda ham quruqda yashovchilar va sudralib yuruvchilardan toshbaqa, kaltakesak, baqa, qurbaqalarni; qushlardan turli xil to'tilar, kanareyka, kaklik, kaptar, bedana, tovuq, bulbul kabilarni asrash mumkin. Agar imkoni bo'lsa, hamma guruh bolalari keng foydalana oladigan umumiy jonli burchak tashkil qilinsa yanada ham yaxshi bo'lardi. Bunda istagan guruh bolalari ekskursiya qilib kelib ko'radi, tanishadi, o'rganadi. Bunday jonli tabiat burchagida tulki, quyon, tovuq, echki, harsak kabilarni qo'yib foydalanish mumkin. Tabiat burchagida akvariumlar ham tashkil qilinadi.

Akvariumlar tayyor holda zoomagazinlardan sotib olinadi. Ular aylana yoki to'rtburchak shakllarda bo'lishi mumkin. Ularni guruhga qo'yish oldidan 4—5%

li kaliy pyermanganat eritmasi bilan yaxshilab yuviladi. Soʻngra, daryo qumidan keltirilib yaxshilab yuviladi va 2-3 soat qaynatiladi. Akvarium tagiga undan 3—4 sm qalinlikda solinadi. Uning ichiga suv oʻtlaridan elodeya, vallisnyeriya, richchiya kabilar solinadi va 3—4 kun qoʻyib tinitiladi. Akvarium suvining haroratini normal holda saqlash uchun termometr oʻrnatiladi, baliqlarga qoʻshimcha havo berib turish uchun apparat, qishda suvni isituvchi maxsus shishali pechka va yorugʻlik beruvchi lampochka qoʻyiladi. Akvarium tayyor boʻlgach unga baliqlar qoʻyib yuboriladi. Akvariumda oltin baliq, guppi, mechenos, skolyariy, teleskop, qilich baliq va boshqalarni saqlash mumkin. Akvariumdagi suv ifloslanmasligi uchun har haftada almashtirib turiladi. Baliqlarga ovqat kuniga 2 marta, oz-ozdan ertalab va kechqurun beriladi. Ularga iloji boricha tirik chuvalchang berish foydali. Bolalar bogʻchasida jonli tabiat burchagining boʻlishi bolalarni tabiat bilan koʻrgazmali va amaliy tanishtirishning zarur sharoitlaridan biridir.

Har bir yosh guruhda tashkil etiladigan tabiat burchagida quidagi jihozlar boʻlishi kerak:

1. *Gullar*
2. *Qushlar*
3. *Baliqlar*
4. *Hayvonlar*
5. *Obi-havo kalendari*
6. *Navbatchilik burchagi*
7. *Mehnat anjomlari*

Tabiat burchagiga qoʻyiladigan talablar.

1. *Oʻsimlik yoki hayvon biron-bir aniq tur uchun xos boʻlishi kerak;*
2. *Tabiat burchagida yashovchilar “beozor” va qoʻl mehnatini talab qilmaydigan, ovqat tanlamaydigan, bolalar yoshiga mos boʻlishi kerak;*
3. *Tabiat burchagida yashovchilar yorqin, jozibador, bolalar diqqatini oʻziga jalb qila oladigan boʻlishi kerak;*
4. *Bir turdagi oʻsimlik va hayvonlarni bir necha hili boʻlishi kerak;*
5. *Tabiat burchagida yashovchilar tamoman hayfsiz va bolalar sogʻligʻiga hech qanday zarar yetkazmasligi kerak;*
6. *Tabiat burchagida yashovchi oʻsimliklar va hayvonlar soni cheklangan va biologik hususiyatlari hisobga olingan holda joylashtirilishi kerak.*

Hayvon va oʻsimliklarni tabiat burchagida saqlash, joylashtirishda birinchi

navbatda ularning biologik xususiyatlari hamda ehtiyojlari nazarda tutilishiga e'tibor berish kerak. Masalan, ba'zi bir xona o'simliklari quyosh nurlarini ko'proq talab qiladi, shuning uchun ularni eng yorug' joyga qo'yish lozim. Bundan tashqari, tabiat burchagida hayvonlarni boqishning o'ziga hos hayotiy va biologik tomonlari bo'lib, uni har bir tarbiyachi bilishi zarur.

Turli guruhlarda tabiat burchagini tashkil etish, ya'ni:

Kichik guruh.

O'simliklar dunyosi: hitoy atir guli, doimiy gullovchi begoniya, fikus.

Baliqlar: *tilla baliq*.

Qushlar: *konoreyka*.

O'rta guruh.

O'simliklar dunyosi: *begoniya, reks, fikus, hlorofitum*.

Qushlar: *konoreyka, taram-taram, to'ti*.

Tayyorlov guruh.

O'simliklar dunyosi: *amarallist, koleus, fikus, xlorofitum, kaktus*.

Baliqlar: 2-3 tur bo'lishi kerak.

Qushlar va mayda sutemizuvchilardan tabiat burchagiga tavsiya etilganlardan istalgancha saqlanishi mumkin.

Xonaki tabiat burchagiga obyekt tanlashda yuqoridagi talablarga rioya qilgan holda ulkan tabiat sharoitni hisobga olish zarur.

Ikkinchi kichik guruhdan bolalar o'simliklarni parvarish qilishga jalb qilinadi. Hayvonlarni bolalar kuzatar ekanlar, ular hayvonlarning chiqaradigan tovushlari, gavda qismlarini bilib oladilar.

O'rta guruhda bolalar predmetlarning xususiyatlarini va sifatlarining xilma-xilligini ko'ra olish malakalarini hosil qilingan bo'ladilar. O'simliklar va hayvonlar haqidagi bilimlari murakkablashadi.

Katta tayyorlov guruhda bolalarning predmetlarini kuzatish, solishtirish, klassifikatsiyalashtirish ko'nikmalari davom ettiriladi. Bunda tashqi tuzilishi, hayot tarzini, yashash muhitiga bog'liqligi haqida elementar bilimlarni shakllantiradi. Bolalar turlimavsumlarda o'simlik va hayvonlar hayotida o'sish va rivojlanishi asosiy davrlarni bildiradi va tanishtiradi.

MTTda tabiat burchagini kuzatish.

Maktabgacha tarbiya muassalarida bolalarni tabiat bilan, yilning turli fasllarida unda ro'y berib turadigan o'zgarishlar bilan tanishtirib boriladi, hosil qilingan bilimlar asosida tabiat hodisalarini tushuna bilish, qiziquvchan bo'lish, kuzata bilish, mantiqan fikr yurita bilish, jamiki tirik narsalarga zavq - shavq bilan qarash singari fazilatlar shakllanib boradi. Tabiatga mehr qo'yish uni ehtiyot qilib e'zozlash, tirik jonivorlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, tabiatga qiziqish uyg'otibgina qolmay, boshqa bolalarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik,

tabiat boyliklarini asrash kabi tushunchalari shakillanib boradi.

Tabiat burchagida yashayotgan jonzotlarni bolalar har kuni ko'rib turadi, bu tarbiyachining ishini yengillashtiradi; uning rahbarligi ostida bolalar tirik mavjudodlarni muntazam kuzatib boradilar, ularni parvarish qiladilar.

Taram-taram to'tiqushlar. Bu to'tiqushlarning vatani Avstraliya hisoblanadi. Bu yerda ular kichikroq daraxtzorlari bo'lgan tekis yerlarida yashaydi. Ko'chib yurib hayot kechiradi. Yevropaga birinchi marta 1840 yilda keltirilgan, bu to'tiqushchalar aholi orasida juda manzur bo'lib qoldi. Bu to'tiqushchalarni Avstraliyadan ko'lab olib kela boshlashdi, shunga ko'ra mamlakat hukumati ularni chetga chiqarishni man etuvchi qarorni tasqidlashga majbur bo'ldi.

Toptiqushlar *asosan yer yuzidagi tropic mintaqalarda yashaydi. Ular 320 tagacha turni o'z ichiga oladigan to'tiqushlar ('sittacidae) degan alohida oilaga birlashtiradi. Avstraliyada ular hammadan ko'ra ko'proq tarqalgan, to'tiqushlar turlarining deyarli yarmi shu yerda yashaydi. Talaygina turlari Markaziy va Janubiy Amerikada tarqalgan. To'tiqushlarning kattaligi har xil bo'ladi.*

Ayrimaslar. *Vatani Afrika. Kichikroq to'tiqushlar bo'lib, rangi asosan yashil, boshida rangdor xollari bor, dumi kalta, dumaloqlanib ketgan. Modalari narlaridan ko'ra oqishroq. Bir-biriga juda mehribon bo'ladi. Taram-taram to'tiqushlar qanday sharoitlarda boqiladigan bo'lsa, bular ham xuddi shunday sharoitlarda boqiladi.*

Korella(nimfa-toptiqush). *Vatani Avstraliya. Taram-taram to'tiqushlardan ko'ra yirikroq, rangi qo'ng'irnamo kulrang, peshonasi, bo'yni boshidagi kokili sariq, lunjlarida pushti xollari bor. Modasining rangi xiraroq bo'ladi. Boshqa qushlar bilan yaxshi chiqishadi. Qattiq-qattiq ovoz chiqaradi, gapirishga o'rgatish mumkin.*

Baliq-Lyalius (Anabantidalar oilasi). Hindistonda tarqalgan. Erkak va urg'ochilarining boyi 5-6 sm ga boradi. Tanasining shakli tuxumsimon, ikki yonidan qisilib kelgan.

Lyaliuslar har hil sig'imli akvariumlarda boqiladi. Xo'rozcha baliqlardan farq qilib, bular boshqa turdagi baliqlar bilan yaxshi chiqishib ketaveradi. Ularni uchratish qiyin emas. Buning uchun erkagi sig'imi 10-30 L keladigan va suvining harorati 27-28 gradus bo'lgan alohida akvariumga olinadi.

Barbus, sumatra barbusi - (zogara baliqsimonlar oilasiga) kiradi. Sumatra va Klimanta oralaridagi suv xavzalatida tarqalgan. Bo'yi 6-7sm bo'lib toban baliqning shakliga o'xshayda. Bundan tashqari "Olovrang barbus" va "Shubert barbusi" bor "Olovrang barbus " Xindiston suv xavzalarida tarqalgan, bo'yi 6-7 sm. "Shubert barbusi "esa nemis akvariumchasi Shubert yashil barbuslarni

yetishtirgan va bo'yi 5 sm.

Gurami yoki ko'k gurami-(Anabantidalar oilasi). Sumatra oroli suv havzalarida tarqalgan. Erkaklarning bo'yi 10 sm, urg'ochisniki 8- sm bo'ladi. Tanasining rangi kumushsimon ko'k bo'ladi. Guramini yana 3 xili mavjud bo'lib, ular:

1) Marvarid gurami - malakka yarim oroli, Xindiston va Indoneziyada tarqalgan. Bo'yi 10 sm

2) Marmar gurami -ko'k guramidan etishtirib chiqarilgan. Bo'yi 10 sm.

3) Xoldor gurami -Malakka yarim oroli, Vetnam va Indoneziya tarqalgan. Bo'yi 10-12 sm.

Oltin baliq -zog'ora baliqsimon oilasiga mansub. Tobon baliqlar orasida olib borilgan seleksiya ishlari orqali Xitoyda yetishtirib chiqarilgan. Bo'yi 15-20 sm gacha bo'ladi. Skalyariya-(Sixlidalar oilasi). Amazonka daryosi havzasida tarqalgan.

Telesko' -(Zog'ara baliqsimonlar oilasi). Seleksiya yo'li bilan oltin baliqdan yetishtirib chiqarilgan

Xo'rozcha baliq - (Anabantidalar oilasi).Xindiston, Tailand va Malakka yarim oralda tarqalgan. Bo'yi 6 smga teng.

Urtikbum (Zangora baliqlar oilasi). Oltin baliqda seleksiya yo'li bilan yetishtirilib chiqarilgan. Rangi turli-tuman.

Qilichbor . Shimoli Amerika janubida tarqalgan. Erkagining bo'yi 8 sm, urg'ochisniki 10 sm ga teng.

Verxo'labka - suvning yuza qismida yashaydi, agarda akvariumda suv o'tlari ko'p bo'lsa, ular ko'ayishi xususiyatiga ega bo'ladilar. Shuning uchun ularni akvarumda boqish tavsiya etiladi.

6.2. Turli yosh guruhlarini bolalarini o'simliklar hayvonlar va qushlarni parvarish qilishga o'rgatish texnologiyasi

Tabiat burchagidagi xona o'simliklarini saqlash ularni sug'orish, purkash, yuvish, tuprog'ini yumshatish, almashtirish, bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, oziqlantirish, kesish, ko'paytirish, zararkunandalarga qarshi kurashishdan iboratdir.

Suv quyish. O'simlikka xona haroratidagi suv qo'yiladi. Vodoprovod suvi tarkibidagi xlorini yo'qotish uchun uni ochiq idishda ushlab turiladi.

O'simlik rivojlanayotgan va gullayotgan vaqtda unga xona haroratidan 2°S ortiq bo'lgan suv quyiladi. Agar gultuvak tagida suv yig'ilib qolgan bo'lsa va ikki soat davomida unak teshigi orqali shimilib ketmasa, u to'kib tashlanadi.

Purkash. Purkash ko'pgina o'simliklarni parvarish qilishning muhim qismi hisoblanadi. Chunki u o'simlikning suv bilan me'yorida ta'minlanishiga yordam

beradi. Purkaganda o'simlik qishda ham xuddi yozdagidek ko'm-ko'k bo'lib turadi. Iliq suv bilan purkab turilganda o'simlik novdalari va barglari tezroq o'sadi, kurtak chiqaradi.

Yuvish. O'simlikni changdan tozalash uchun iliq suv bilan mumtazam yuvib turish lozim. O'simlik dush tagiga yoki tog'oraga qo'yib yuviladi, bunda tuvakdagi tuproq ivilib ketmasiigi uchun uning usti kleyonka bilan yopib qo'yiladi. Tikanli kaktuslarni yuvishdan oldin changlari yumshoq cho'tka bilan tozalanadi. Egilgan bargli o'simliklarni yuvish mumkin emas, ularni changi mayin mo'yqalam bilan tozalanadi. Gultuvaklar yiliga 3 - 4 marta sovunlab, qaynoq suv bilan qattiq cho'tka yordamida yuviladi.

Yumshatish. Yumshatish — bu suvsiz sug'orishdir. U suv qo'yilgan kunning ertasiga amalga oshiriladi. O'simlik ildizlari zarar etkazmaslik uchun tuvak chetlaridagi tuproq ko'pi 1-1,5 sm chuqurlikda yumshatiladi.

Ko'chirib o'tkazish va ko'chat qilish. Ko'chirib o'tkazish tuvak torlik qilganda o'simlik ildizini yopishib turgan tuproq bilan birgalikda boshqa tuvakka o'tqazishdir. Tuvak tagiga yangi tuproq solib, o'rtasiga ko'chat o'tqaziladi. Bunda qolgan tuproq bilan joyga solinadi. Ko'chat qilishda esa o'simlik ildiziga yopishib turgan uyum bir oz tozalanadi va eski tuproqni bir qisim olib tashlanadi. Yangi tuvak eskisidan 3-4 sm kattaroq bo'lishi kerak. Ko'chat qilishni bahorda, o'simlik o'sishni boshlamasdan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

O'g'itlash. O'simliklarning me'yorida oziqlanishlari uchun ularni o'g'itlab borish zarur. Buning uchun bolalar bog'chasi sharoitida mineral o'g'itlardan foydalangan maqul. O'simlik ko'chat qilib o'tqazilgandan so'ng o'sa boshlagach yoki ildiz olgach o'g'itlanadi. O'g'itlashdan bir necha soat oldin o'simlikni yahshlab sug'orish lozim.

Kesish. O'simlikning chiroyli ko'rinishi va sershoh bo'lishi uchun uning o'sishini muntazam boshqarib turish lozim. Buta hosil qilish maqsadida, yon shoxchalar o'sishi uchun asosiy shoxning uchi qirqiladi, yon shoxchalar 10-15 sm ga yetganda ularning ham uchi qirqiladi. Kesishda o'tkir pichoqdan foydalanilib, kurtak tepasidan qirqiladi va kesilgan joyga maydalangan ko'mir sepiladi. Yorongul, fuksiya, rozan va shu kabilar kesiladi.

Ko'paytirish. Xona o'simliklarini poya va barg qalamchalari, bachkilar, piyozi, butani bo'lish, parvarish qilish va shu kabilar orqali ko'paytirish mumkin.

Qalamchalar yordamida ko'paytirish. Qalamchalar poya va bargdan bo'lishi mumkin. O'simliklarning ko'pchiligi (radeskatsiya, begoniya, fikus, aukuba xina, pelargoniya) poya qalamchalaridan ko'payadi, bunda o'sib turgan novdadan 2—3 bo'g'imli novda qirqib olinadi. Pastki kesik shunday

bo'g'imning tagida bo'ladi. Qalamcha suvga solib qo'yiladi yoki tuvakka ekiladi, bunda pastki kesik qumga ko'milib turishi kerak. Ekilgan qalamchalar usti oyna bilan yopilib, kuniga 2 marta pulverizator yordamida suv purkab turiladi. Begoniya-reks, sansevera, uzambarg gunafshasi barg qalamchalaridan ko'payadi. Begoniya-reksning bargi (pastki tomoni)ni tomirlari tarqalgan joydan lezviya bilan kesiladi va nam qumga o'tqaziladi. Kesilgan joylar qum bilan siqib qo'yiladi.

Piyozdan ko'paytirish. Amaralis, krinum, gemantus, zaflrantes piyozdan ko'payadi. Piyoz boshida kurtaklar paydo bo'lib, ulardan piyozchalar o'sib chiqadi. Ko'chat qilinishda ular eski piyozboshdan ehtiyotkorlik bilan ajratilib, tuvakka ekiladi va xuddi piyozbosh singari parvarish qilinadi.

Bachkilardan ko'paytirish. Yer ustidan deyarli to'liq shakllangan yosh o'simliklar shaklidagi bachkilarni hosil qiluvchi o'simliklar (toshiyorar, xorofltum) juda oson ko'payadi. Bu bachkilar asosiy o'simliklardan qirqib olinib, kichik tuvaklarga o'tqaziladi.

Ildizpoyadan ko'paytirish. Bu usuldan o'simliklarni ko'chat qilib ekishda foydalaniladi. Ildizpoyadagi tuproq silkitib tushiriladi va uni o'tkir pichoq bilan har bir bo'lakda, juda bo'lmaganda 1 -2 kurtak yoki nihol va ildiz qoladigan qilib qismlarga ajratiladi. Aspidistra, sansevera, siperus ildizpoyadan ko'payadi.

Terrariumda yashovchilarni boqish

Terrarium turlari. Toshbaqa, kaltakesak, baqa, qurbaqalarga mo'ljallangan terrariumlarning tagiga 5-6 sm qalinlikda tuproq va qum solinib, ko'proq qismiga chim o'tqaziladi. 1-2 ta yassi tosh solib qo'yilsa yaxshi bo'ladi. Terrariumdagi «suv havzasi» o'rni tog'orachadagi suv bajaradi. Agar terrariumda qurbaqa yoki toshbaqa saqlansa, gultuvak parchalaridan uy (yashirinish joylari) yasash lozim. Qishda o't-o'lanlardan uzun, ingichka bargli xona o'simliklari, suli, salat barglari qo'yiladi.

Tirik tug'iluvchi kaltakesaklar, baqa, qurbaqalarga mo'ljallangan terrarium toshbaqalar terrariumiga o'xshash bo'ladi: uning tagiga qum solinadi, usti esa o'rmon yo'sini bilan qoplanadi va 1 - 2 ta tosh, po'stloqli yo'g'on shox solib qo'yilsa yaxshi bo'ladi.

Baqalar uchun tuvak parchalaridan yashirinadigan joy qilinadi. To'sin orasiga kichikroq suv havzasi joylanadi. Qishda aspidistra, plyush, paprotnik o'simliklarini qo'yish maqsadga muvofiqdir. Terrariumga qarash unchalik murakkab emas. Suv vaqti-vaqti bilan almashtirilib, suv idish muntazam yuvilib turiladi.

Bir yilda 2-3 marta terrariumni, undagi tuproq-qum ustini, devorlarini tozalab turish kerak. Terrariumdagi o'simliklar xona o'simliklaridek parvarish qilinadi. Terrariumda yashovchilar past temperaturada harakatchanligini

yo‘qotadi va ovqat emay qo‘yadi. Bunday hollarda terrariumni elektr lampochkalari bilan isitish lozim.

Jonivorlarni 25—30°S haroratda nimrang margansovka eritmasida, boshini suvga tiqmay, 20-30 soniya cho‘mltirish maqsadga muvofiqdir. Agar jonli tabiat burchagida qurbaqa, baqa, kaltakesaklarning yashashi uchun normal sharoit yaratishning iloji bo‘lmasa, hayotini saqlab qolish maqsadida kuzda ularni qo‘yib yuborish kerak.

Sudralib yuruvchilar hamda suvda va quruqlikda yashovchilar terrariumda saqlanadi. Tayyor terrariumlardan tashqari turli idishlardan, eski akvariumlardan foydalanish mumkin. Ularning ustidan doka yoki mayda metal to‘rqoplash kifoyadir. Terrariumlar hayvonlarning biologik xususiyatlariga moslab tayyorlanadi.

Quruqlikda yashovchi toshbaqa. Toshbaqa salat, qoqio‘t barglari, sabzi, sholg‘om, xom kartoshka bo‘laklari bilan boqiladi. U tarvuz po‘sti, pomidor, ba‘zi mevalarni va nonni yaxshi ko‘rib yeydi. Goh-gohida qiyma go‘sht berish kerak. Bu toshbaqa ozuqani quyoshda yaxshi yeydi. Ozuqa yozda har kuni, qishda 1- 2 kun oralatib beriladi. Ozuqa suvli bo‘lsa, toshbaqa suv ichmaydi. Botqoq toshbaqasi go‘sht, mayda baliq, chuvalchang, suv shilliq qurti bilan oziqlanadi va ozuqani faqat suvda yeydi.

Takimon. Un qurti, chuvalchang, tirik hasharotlar va ularning lichinkalarini yeydi. Qishda unga chivin g‘umbagi, uzun qilib kesilgan xom go‘sht beriladi. U suvni yaxshi ko‘radi.

Tirik bola tug‘adigan kaltakesak takimondan ko‘ra maydaroq narsalar (tutgan o‘ljalari) bilan oziqlanadi. Baqa va qurbaqa tirik ozuqa: hasharotlar, chuvalchanglar, malyuuskalar hamda xom go‘sht bilan boqiladi. Bunda go‘shni tayoqcha uchiga ilib, qurbaqaning ko‘zi oldida qirmirlatib turish kerak.

Mayda sut emizuvchilar va ularni parvarishlash yo‘llarini o‘rgatish

1. Bolalar bog‘chasida boqish mumkin bo‘lgan hayvonlarni tabiat burchagida muntazam parvarish qilib turishni tarbiyachi va bolalar zimmasiga yuklatiladi. Bolalar kichik guruhda tarbiyachi rahbarligada tabiat burchagida mehnat qilsalar, katta va tayyorlov guruhlarda mustaqil mehnat qiladilar. Har bir guruhda tabiat burchagida navbatchilik tashkil etiladi. Navbatchilarning vazifasi hayvonlarning qafasini, terrariumini tozalash va ularga ovqat berishdir. Har bir tabiat burchagida navbatchilar uchun fartuklar bo‘lib, maxsus taxtakachalar, pichoq, tog‘orachalar bo‘ladi. Navbatchilar sabzavot va mevalarni shu taxtakach ustida tog‘rab hayvonlarga beradilar. Tozalash uchun supurgich, hakondozi, latta, chelak bo‘lishi shart. Tozalayotganda ham, yosh xususiyatga ham e‘tibor berish kerak. Har bir guruhda navbatchilar zo‘r qiziqish bilan navbatchilik qiladilar. Tabiat burchakda boqiladigan jonivorlar bir kunda bir marta oziqlantiriladi,

chunki bu jonivorlar o'z ozuqalarini g'amlab qo'yadigan odatlari bor. Tabiat burchagida boqiladigan hayvonlar uchun terrariumning kattaligi 60/70 santimetrli bo'lishi kerak. Terrariumni atrofi oyna bilan o'ralgan bo'lishi shart, chunki jonivorlar bolalarga ozor berib qo'yishlari mumkindir. Tabiat burchagida quyidagi jonivorlarni boqish tavsiya etiladi:

Dengiz cho'chqasi. Vatani Janubiy Amerika. Dengiz cho'chqasi cho'chqasimonlar oilasiga kiradi. Dengiz cho'chqasi kichkina hayvon bo'lib, tanasi oval, bo'yni kalta, tumshug'i tuxumsimon shaklda, quloqlari yarim doira bo'lib dikkayib turadi, ustki labi ikkiga ajralgan. Dumi yo'q, oyoqlari bir xil uzunlikda, uchtdan barmog'i bor, juni qattiq, silliq, uch xil rangli bo'ladi. Dengiz cho'chqasi juda yuvosh, beozor hayvondir. Ularni holati o'rtacha bo'lgan quruq xonalarda boqish kerak. Ular sovuq, issiq, namlik va yevlizaklarga bardosh bera olmaydilar.

Dengiz cho'chqasi sabzavotlar va mevalar, xashak, suli, bug'doy, quritilgan non bilan oziqlanadi. Suv va sut berib turish kerak. Dengiz cho'chqasini suvsiz akvariumda saqlasa bo'ladi. Ular 8-10 yil yashaydi.

Suriya olmaxomi. Vatani Suriya. Sichqonsimonlar oilasiga kiradi. Tanasi uncha katta bo'lmagan hayvon, tumshug'i oval tuxumsimon, ko'zlari qora chaqchayib chiqqan, quloqlari dikkaygan, tanasi tuxumsimon, oyoqlari katta emas, bir xil uzunlikda, 5 ta barmog'i bor, dumi kalta, juni yumshoq kalta, tilla rang malla, qorni oq. Qora og'maxonlar ham uchraydi. Olmaxonning lunji orqasidagi xaltalari katta bo'ladi, shu xaltalarda iniga ovqat olib ketadi. Og'maxon 3 yil yashaydi. U har xil o'simliklar donlari, sabzavotlar, mevalar, ko'katlar, qotgan non, xashak, bir oz suv yoki sut bilan boqiladi, qo'lga tez o'rganadi.

Tipratikan. Tikanlilar oilasiga mansub bo'lib, tanasi oval shaklida kichkina, kul rang bo'ladi. Tumshug'i cho'zinchoq, quloqlari tepaga dikkaygan. Qorin qismi silliq, usti tikan bilan qo'langan bo'ladi. Oyoqlari kalta, panjalari bor, orqasida kalta dumi bor. Tipratikan mevalar, non, sut va suv bilan boqiladi. Bolalar bog'chasida terrariumda boqiladi.

Toshbaqa. Kattaligi 20-25 sm bo'ladi, ustida qattiq kosasi bor, orasida kichkina dumi bo'ladi. Tabiat burchaklarida toshbaqalarni tagiga qum yoki qipiq solib qo'yilgan yashiklarda boqish mumkin. Ularni salat, qoqi o't, karam, qirilgan sabzi, olma, tarvuz, bodring bilan boqiladi. Serhira oziqa ko'p bo'lsa, suv ham ichmaydi. Unda ovqatni bir vaqtda harakat qilib turgan vaqtda berish kerak. Toshbaqalar qishda uyquga ketishadi va bahorgacha qumga ko'milib uxlashadi.

Quyion. Sutmizuvchilar sinfiga kiradi, ayri tishlilar kenja oilasiga kiradi. Yovvoyi quyionlar inlarida katta guruh bo'lib yashaydilar. Vatani Ispaniyadir. U

yerdan Janubiy Yevropa, Osiyo va so'ngra hamma mamlakatlarga tarqalgan. Yangi tug'ilgan quyoning 16 ta sut tishlari bo'ladi, voyaga yetganda 28 taga yetadi. Ularda qoziqtish bo'lmaydi. Yovvoyi quyonlarni qo'lga o'rgatish va xonakilashtirish bilan odamlar o'rta asrlardayoq shug'illanganlar. Vatanimizda oq pahlavon, oq , kumush rang, kul rang va boshqa turlari boqiladi. Quyonlarni to'g'ri ovqatlantirish kerak, shunda ular yaxshi o'sib borishadi. Ularni o'tlar, ko'k novdalar, sabzavotlar, mevalar, hashoratlar, qotgan nonlar bilan boqiladi. Tabiat burchagida mana shu hayvonlarni boqish mumkin. Bu hayvonlarni boqishda hamma qonun qoidalarga rioya qilinsa juda yahshi natijaga erishamiz.

Nazorat savollari

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat burchagini tashkil etish va unga qo'yiladigan talablar nimadan iborat?
2. Tabiat burchagining ta'lim- tarbiyaviy ahamiyati haqida gapiring.
3. Tabiat burchagida o'simliklarni o'stirish qoidalari qanday amalga oshiriladi?
4. Tabiat burchagida saqlanadigan hayvonlar biologik tuzilishi qanday o'rgatiladi?
5. Tabiat burchagida qanday hayvonlar parvarish qilinadi?
6. Tabiat burchagida qanday jihozlar mavjud bo'lishi lozim?
7. Tabiat burchagiga qo'yiladigan talablar nimadan iborat?
8. Katta tayyorlov guruhda bolalarning predmetlarini kuzatish, solishtirish, klassifikatsiyalash qanday tashkil etiladi?
9. MTTda tabiat burchagini kuzatish qanday maqsadda o'tkaziladi?
10. Turli yosh guruhlari bolani o'simlik, hayvonot va qushlarni parvarish qilishga o'rgatish texnologiyasi qanday o'rgatiladi?
11. Mayda sut emizuvchilar va ularni parvarishlash yo'llarini ayting.

Mavzu yuzasidan testlar

- 1. Akvariumdagi baliqlar bilan tanishtirish, ularning hayot tarzi, nimalar bilan oziqlanishi haqida qisqacha ma'lumot berish va tana qismlari, ranglaridagi farqlarga bola e'tiborini qaratish akvariumdagi baliqchalarni ozuqa bilan boqish, jonivorlarga suv, don berishga o'rgatish qaysi guruhda amalga oshiriladi?**
 - a. kichik guruh (3-4 yosh)
 - b. o'rta guruh (4-5 yosh)
 - c. katta guruh (5-6 yosh)
 - d. tayorlov guruh (6-7 yosh)
- 2. Kichik guruh yil oxirida necha xil daraxt va o'simlikning nomini biladi?**

- a. 2-3 xil daraxt va 2-3 xil o‘simlikning nomini biladi
- b. 4-5 xil daraxt va 4-5 xil o‘simlikning nomini biladi;
- c. 3-4 xil daraxt va 3-4 xil o‘simlikning nomini biladi;
- d. 5-6xil daraxt va 5-6 xil o‘simlikning nomini biladi;

3. Kichik guruhda sabzavotlardan qaysilarni va mevalardan qaysilarning nomi, ta’mi, rangi va shaklini bilishga, o‘zaro farqlashga o‘rgatishda davom etiladi?

- a. bodring, pomidor va olma, gilos, o‘rik
- b. baqlajon pomidor va shaftoli, gilos, nok
- c. qalampir pomidor va shaftoli, olxo‘ri, nok
- d. qalampir baqlajon va shaftoli, gilos, o‘rik

4. Kichik guruhda qaysi kushlar bilan tanishtiriladi Ularning nomini to‘g‘ri aytish, katta-kichikligiga e‘tibor berish, tovushlaridan tanish va farqlashni o‘rgatiladi.

- a. musicha, chumchuq va qaldirg‘och
- b. musicha, kabutar va qaldirg‘och
- c. zog‘cha, chumchuq va qaldirg‘och
- d. kabutar chumchuq va qaldirg‘och

5. Tayyorlov guruhida havo va suv bilan qanday usuldan foydalanib havo haqidagi tushunchalarini kengaytirish, sharni puflaganda sharning ichida havo paydo bo‘lishi, suv solingan tog‘oraning ichiga sharni solib, undan asta-sekin havo chiqarilsa, suv yuzasida mayda ko‘pikchalar paydo bo‘lishiga bolaning e‘tiborini qaratish mumkin?

- a. amaliy tajriba o‘tkazish orqali
- b. amaliy va nazariy tajriba o‘tkazish orqali
- c. ilmiy va amaliy tajriba o‘tkazish orqali
- d. ilmiy va nazariy tajriba o‘tkazish orqali

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar

1. Hasanboyeva O.U, .Djabborova X.J. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. -T.Cho‘lpon. 2007.
2. Haydarov H, Nishonova S Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof-tabiat bilan tanishtirish.- T. O‘qituvchi. 1992.
3. Yusupova P.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish.- T. O‘qituvchi. 1995.
4. Djabborova X.D. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta‘lim –tarbiya berishning o‘ziga xosligi.- T. O‘qituvchi. 2000.
5. «Ilk qadam» tayanch dasturi. T. 2010 y
6. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. - T. O‘qituvchi, 1996.
7. Xasanboyeva O va boshq. Pedagogika tarixi. -T. O‘qituvchi. 1997.

8. Yo'ldoshev X.S , Avezov Sh.Sh. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari.- T. O'qituvchi. 1997.
9. O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Ta'lim to'g'risida». -T O'zbekiston. 1997.
10. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha tarbiya Konsepsiyasi-T., O'zbekiston. 1995.

7. MAVZU: YER MAYDONLARINI TASHKIL QILISH VA ULARNING TURLARI

Reja:

- 1- Ekinzor va gulzorlar tashkil etish metodikasi**
- 2- Turli yosh guruhlarda yer maydonlarini tashkil etish texnologiyasi**
- 3- Yer maydonlarida hayvonlarini saqlash uchun shart- sharoitlar**

***Tayanch tushunchlar:** Manzarali o'simliklar, bir yillik o'simliklarni yetishtirish, gulzorlarni tashkil qilish, turli shakldagi gul ekinlari, gulzorlar tashkil qilishda qoidalardan foydalanish, yer maydonchasi, tabiatga o'tkaziladigan sayrlar, jonli tabiat burchagi uchun xona, jonli tabiat burchagini jihozlash, o'simlik va hayvonlar namunalari yig'ish.*

7.1. Ekinzor va gulzor tashkil etish metodikasi

Manzarali o'simliklar urug'idan, ya'ni ona o'simlikda uning qismlari – bargi, kurtagi, ko'chati, shoxi, ildizi, tugunagi va hokazolarni ajratish yo'li bilan ko'paytiriladi. Ko'pgina bir yillik o'simliklar urug'idan ko'paytirilganda, shu navga tegishli xususiyatlarni saqlab qoladi. Ko'p yillik manzarali o'simliklardan, shu jumladan, piyozsimon o'simliklardan urug' ko'paytirish, qoida bo'yicha, turli-tuman avlodlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Bu o'simliklar ko'pincha vegetativ yo'l bilan ko'paytiriladi.

Ochiq yerga quyidagi xususiyatli o'simlik urug'lari ekiladi:

- a) talabchan emas va chidamli (kalendula, mattiola, koreopsis);
- b) tez o'suvchan (loviya, nastrustiya);
- v) kuchli rivojlangan o'q ildizli va ko'chirib o'tqazishga chidamsiz (delfinium, bir yillik lyupin, rezeda);
- g) kech gullovchi (levkoya, qo'qongul);
- d) urug'lari qiyin iviydigan po'choqli (akonium, anemos, iris, liliya);
- e) ko'chatlari issiqxonalarda chirishga moyil bo'lgan (gesperis, iberis, lyupin va boshqalar);
- y) ekilgandan bir yil o'tgach, unib chiqadi (ko'p yilliklar – adonis).

Butashga mo'ljallangan bir yillik o'simliklarni yetishtirishda, shuningdek, ularning davomli gullashini ta'minlash uchun, urug'lar bir necha muddatlarda ekiladi (5-7 kun oralig'ida).

Bir yillik o'simliklarni ko'chatsiz yetishtirish usuli mehnat sarf va o'simlik tannarxini ma'lum darajada kamaytiradi. Bunda o'simlik kuchli rivojlanishi bilan ajralib turadi, kamroq kasallanadi. Bu usulning kamchiligi shundan iboratki, o'simliklar ko'chat bilan yetishtirilgandagiga qaraganda bir muncha kech gullaydi va urug' 2,5-3 baravar ko'p sarf bo'ladi.

Gul urug'lari ekish uchun tuproq qunt bilan tayyorlanadi. Kuzgi haydalgan yoki shudgorlanib yoz bo'yi ekilmagan yerlarga rejaga muvofiq joylashtiriladi, kultivastiya va borona solinadi. Bir yillik o'simliklarni ko'chatsiz usulda yetishtirishda urug'lar bahorgi don ekinlarisingari mart oxiri, aprel boshlarida (qachonki yer yetilganda) ekiladi.

Yer haydalayotganda yoki kultivastiya paytida o'g'it to'liq solinmagan bo'lsa, u holda jo'yak tortish davomida 1m² yerga 30-50 g. superfosfat, 20-30 g. kaliy tuzi beriladi. Yuqori kislotali tuproqlarni ohak bilan o'g'itlash tavsiya qilinadi. Urug' yaxshi shamollatilgan torf, qum yoki chirindilar bilan ko'mib berkitiladi. Urug'ni g'altakmola bilan tekislab, ehtiyotkorlik bilan sug'oriladi.

Lekin boshqa maqsad ham bo'lishi mumkin. Masalan, tomoshabinda (dam oluvchi) gullarning go'zalligi, ularning rangi, shakli, hidi, yangiligi va takrorlanmasligi bilan yaxshi kayfiyat hosil bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Bu holda umumiy arxitektura maqsadiga bezatish bo'ysunmaydi, ya'ni teskarisi, arxitektura ansambllari va ularning detallari o'simliklar shaklining o'ziga xosligini ajratib ko'rsatadi., ularga qo'shilib ketadi va o'ziga xos garmoniya kasb etadi.

Parterli va turli kompozitsiyali rang-barang, chiroyli gulzorlar alohida xususiyatga ega inshootlarni bezatishda ishlatiladi. Jumladan, bu ishlar ko'rgazmalar, madaniyat saroylari, haykallar, memoriallar, muzeylar, teatrlar ro'parasida amalga oshiriladi. Gullar va boshqa o'simliklarning barcha sifatini ko'rsatish uchun, bog'lar, xiyobonlar va alohida gulzorlarni ko'kalamzorlashtirishda turli klassik usullardan - regulyar (geometrik, franstuz) va landshaft (ingliz) usullaridan foydalanish mumkin. Bu usullar tinch, shoirona muhit va tabiatga bevosita yaqinlik tasavvurini aks ettiradi. Shaharlar va boshqa yirik aholi punktlarida madaniyat va dam olish bog'lari shunday tashkil etiladiki, ularla gulzorlar, gazon (maysazor)lar daraxt butalar bir nechta mintaqalarda turlicha maqsad va har xil ko'rinishda joylashishi mumkin. Ko'kalamzorlashtirishda xiyobonlar, dahalar, maxsus bog'lar - rozariyalar, sirengariyalar, georgonariyalar va hokazolar ham katta ahamiyat kasb etadi.

Gulzorlarni tashkil qilish - bu loyihalash va ularni amaliyotda bajarishdan iboratdir. Gulzorlar loyihasini xiyobonlar, istirohat bog'lari va boshqa qurilishlari mo'ljallangan joydan ajratilgan holda amalga oshirish mumkin emas.

Gulzor deganda turli ob'ektlarni bezatish uchun mo'ljallangan va o'zida maysazorlar, yo'lakchalar bir yillik va ko'p yillik gullovchi hamda manzara beruvchi bargli o'simliklar va kichik arxitektura shakllarini mujassam etgan maydon tushuniladi. Gulzorlar qisqa vaqtli dam olish va bezatish uchun ishlatiladi, shuningdek, joyning konfiguratsiyasiga ko'ra turli shaklda - to'rt burchak, cho'zinchoq yumaloq, to'g'ri burchak bo'lishi mumkin. Gulzorlar turli o'lcham va shakldagi klumbalar, maysazorning yashil fonidagi rabatkalar va hoshiyalardan tashkil topadi. Gulzorlar maydoni kichikroq maydonchadan (4-5 dan 20 m gacha) 1 gektargacha va undan ko'proq bo'lishi mumkin.

Gulzor aniq tarkibiy qismga ega:

- 1) turli shakldagi gul ekinlari;
- 2) yo'lakchalar;
- 3) maysazor.

Ularning klassik mos tushishi, gul ekinlari maydoni, yo'lakchalar va maysazorlarning 3:5:8 munosabati hisoblanadi.

So'ngi yillarda maysazorlar ko'proq gullar uchun esa kamroq joy ajratiladi. Ob'ektlarni ko'klamzorlashtirish turli elementlarning foizli munosabati ham mavjud. Daraxtlarga 40-50 foiz va (janubda birmuncha ko'proq), butalarga 10-20 foiz (shimolda ko'proq), maysazorlar uchun 8-18 foiz, gul ekinlariga 4-8 foiz va yo'lakchalarga 15-20 foiz joy ajratish tavsiya etiladi.

Gulzor qismlari juda chiroyli, ko'zga tashlanib turishi, yorqin bo'lishi kerak. Shu masalani yechishda «oltin proporsiya» qoidasidan foydalanish yordam beradi, bunda birinchi ikki sonning yig'indisi uchinchi sonni beradi hamda birinchi son ikkinchi sonning yarmisidan katta.

Gulzorlar tashkil qilishda quyidagi qoidalardan foydalanish tavsiya qilinadi:

1. Gulzor - klumbaning o'rta, markaziy qismi eng yorqin, diqqatni jalb qiluvchi bo'lishi kerak. U hovuz, haykal yonida yoki o'zicha mustaqil ob'ekt bo'lishi mumkin.
2. Gulzordagi gul shakllari mayda bo'lmasligi kerak, aks holda u xunuk ko'rinishi mumkin. Oddiy chiziqli yirik shakl hosil qilinishi ma'qulroqdir.
3. Gulli shakllar kamroq va ma'lum masofalarda gazon (maysazorlar) bilan ajratilgan bo'lishi kerak.

Nusxa loyahasini tuzish va tasdiqlanish dekabr oyining oxiri yanvar oyining boshidan kechiktirmaslik kerak, chunki ko‘kalamzorlashtirish uchun kerakli o‘simlik ko‘chatlarini yetishtirish bo‘yicha ishlab chiqarish topshirig‘ini oldindan berish lozim. Shundan so‘ng ekishning ishchi chizmasi masshtabda, bo‘yoqsiz bajariladi, bunda yo‘llarning eni, klumbalarning diametri, rabatkalar eni va uzunligi, ekish uchun o‘simliklar va jo‘yaklar orasidagi masofa ko‘rsatiladi. Ekish chizmasi loyihani amalda bajarish rasmlar, rabatkalarining rejasi tuziladi.

Ko‘kalamzorlashtirish ob‘ektida birinchi navbatda turli kommunikation yo‘llar (vodoprovod, elektroprovodka va lyuk) o‘kaziladi. Shundan so‘ng daraxt butalar ekiladi, yo‘l tarmog‘i, turli maydonchalar quriladi, maysazorlar aralashmasi ekiladi va oxirgi navbatda gulli o‘simliklar ekiladi hamda urug‘lari sepiladi.

7.2. Turli yosh guruhlarda yer maydonlarini tashkil etish texnologiyasi

MTM da yer maydonchasi bo‘lib, bolalar ko‘p vaqtlarini o‘sha yerda o‘tkazadilar. Maydoncha o‘yinlar, sayrlar, mashg‘ulotlar o‘tkaziladigan butun yil davomida o‘simlik va hayvonlarni kuzatadigan joydir. Maydonchada daraxtlar, butalar, ekinzor, gulxona, mevali daraxtlarning bo‘lishi katta ta‘limiy va tarbiyaviy ahamiyatiga ega. Bola tarbiyachi bilan birga o‘simliklarni o‘stiradi, ularni parvarish qiladi, o‘shishi va rivojlanishi haqida aniq tasavvurlarga ega bo‘ladilar. Bolalarga o‘simliklarni pavarish qilish jarayonida, tuproqda ishlov berishda zarur bo‘ladigan oddiy asboblardan foydalanish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi hamda tabiatga unda yashovchilarga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish kabi xislatlar tarbiyalanadi. Maydonchani chiroyli, nafasatli bezatilish bolalarda badiiy va go‘zallikni xis qilish, vatanparvarlik kabi nozik xislatlarni tarbiyalaydi. Bolalarda o‘z o‘lkasini sevishi, o‘z o‘lkasining tabiatini bilishi katta ahamiyatga ega. MTM maydonchaga ekiladigan daraxtlar, o‘simliklar mana shu o‘lka tabiatiga, iqlimga mos bo‘lishi zarur. Ekinzorni tashkil etishda dastur mazmunidan kelib chiqqan holda bir guruh uchun poliz ekinlari tanlanadi.

Kichik guruh uchun urug‘lari yirik xomligicha iste‘mol qilish mumkin bo‘lgan sabzi, rediska tavsiya etiladi. O‘rta guruhda ham xuddi shular ekiladi. Biroq imkoni boricha ikki xil navi ya‘ni qizil va oq rediska ekiladi. Maqsad bolalar ularni solishtirib o‘xshash va farqli tomonlarini tanlashlari lozim.

Katta guruhda bolalar uchun tavsiya etilgan barcha sabzavot o‘simliklari ekiladi. Gulzorni tashkil etishda, MTTning tabiiy sharoitini hisobga olgap holda erta bahordan to kech kuzgacha gullaydigan o‘simliklar tanlanadi. Masalan: lola,

narsiss (chuchmoma), kapalakgul, qo‘qongul kabi gullar tanlanib, ularni markazga baland bo‘yli, chetlariga past bo‘yli gullar tanlanadi.

Yer maydonchasida bahor, yoz oylarida jonli tabiat burchagi tashkil etiladi. MTTning tabiiy sharoitini hisobga olgan holda, jonli tabiat burchagida quyonlarni, tovuqlarni, o‘rdaklarni boqib parvarish qilish mumkin. Bolalar jonivorlarni parvarish qilish, ko‘nikmasini tarbiyalash ularga nisbatan g‘amg‘o‘rlik munosabatlarini chuqurroq tarbiyalashga yordam beradi. Yer maydonchasida har bir yosh guruh uchun o‘yin va jismoniy tarbiya maydonchalari, tabiiy material bilan o‘ynash uchun qum solingan yashiklar kichikroq hovuz bo‘lishi lozim. Jonivorlar quyon va tovuqlar boqish uchun joyi ajratiladi.

Kichik guruh bolalari uchun ekinzor maydoni har bir bolaga 1 kv m hisobidan tashkil qilinadi. O‘rta guruh bolalari uchun norma 1,5 kv m gacha, tayorlov guruh bolalari uchun 1,5 — 2 kvm gacha oshiriladi. Ekinzor atrofi past bo‘yli o‘simliklar bilan o‘raladi. Atrofi o‘ralgan ekinzor qulay ko‘rinishga ega bo‘lishi bilan birga guruhlarni bir-biridan tabiiy ajratib turadi.

Ekinzor uchun tanlangan urug‘lar yuqori navli yaxshi ekish xususiyatiga ega bo‘lishi kerak. Ekilgan urug‘larning asosiy sifat ko‘rsatkichi uning unib chiqishidir. Nihollar paydo bo‘lishini tezlashtirish uchun urug‘lar namlanadi va undiriladi.

Gul o‘simliklarining ekishning eng ko‘p tarqalgan shakli klumba, rabotka va gazonlardir. Gulzorni bezashda manzarali o‘simliklarni to‘g‘ri tanlash muhimdir. O‘simliklarning yorug‘ va namga bo‘lgan talabini e‘tiborga olish kerak. O‘simliklarni tanlaganda erta bahordan to kech kuzgacha gul ochilib turishi nazarda tutilishi lozim. Erga bahorda ochilgan gulga ega bo‘lishi, chunki ko‘zda yerga piyozli o‘simliklar: lola, chuchmoma ekiladi yoki iyul oyida kapalakgul, dastagullar ekilib, yerga bahorda ular doimiy joylariga kuchirib o‘tkaziladi. Gulzorni bezashda chiroyli gullarni butazor va o‘tsimon manzarali o‘simliklardan foydalanish mumkin. Ochiq yerda yashash davomiyligiga ko‘ra, o‘simliklar ko‘p yillik, 2 yillik, 1 yilliklarga bo‘linadi. Uning hayoti tuproq ostidagi organlarida; piyoz, tutunak, ildizpoya, ildizida saqlanadi. Qishki o‘simliklar bahorda tez o‘sadi. Erta bahorda va kuzda gullaydi. Ko‘p yillik o‘simliklarga alohida e‘tibor berish lozim. Ikki yillik gulli o‘simliklarga ko‘pincha urug‘ sepilgandan so‘ng 2 yiliga gullaydigan o‘simliklar kiritiladi. Bu o‘simliklar yozning birinchi yarmida ochiladi.

Gulxonada bir vegetativ tarzda foydalaniladigan gullarni bir yillik yoki yozgi o‘simliklar deyiladi. Yozgi o‘simliklar ekilgan yili ochiladi, urug‘ beradi va halok bo‘ladi. Ularning guli chiroyli bo‘lib, yozning ikkinchi yarmida qiyg‘os bo‘lib ochiladi.

Maydoncha MTT bolalari uchun yil mavsumi va fasllarning o'zgarishini kuzatadigan qulay joylardir. Tarbiyachi bolalarni maydonchaga olib chiqib, tabiatda bo'ladigan o'zgarishlar, uning sabablari, qishlab qoluvchi va uchib keluvchi qushlar bilan tanishtiradi. Bir so'z bilan aytganda, MTT maydonchasi bolalarning har tomonlama rivojlanishida jonli va jonsiz tabiat bilan tanishishida, o'z ona Vatanini sevishda uni muhofaza qilish, o'simlik va hayvonlarni va ko'paytirishda ta'lim - tarbiya oladigan ilk maskan hisoblanadi.

7.3. Yer maydonlarida hayvonlarini saqlash uchun shart- sharoitlar

Tabiatda davomli (uzoq vaqt davom etadigan) kuzatish va tajribalar uchun jonli tabiat burchagi tashkil qilinishi kerak. U yerda hayvon va o'simliklarni saqlash va zaruratga qarab ulardan tabiatshunoslikni o'rganishda foydalanish mumkin. Burchak shuningdek tarbiyachilarning darsdan va sinfdan tashqari ishlari uchun baza hisoblanadi. Bu yerda ular yilning itsagan vaqtida ish olib borishlari mumkin.

K.D.Ushinskiy quyi sinflarda tabiatni o'rganishni bolani doimo o'rab turgan va ularga tanish bo'lgan o'simlik va hayvonlardan boshlash kerak deb tavsiya qilgan. Bu prinsipga darslarda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham amal qilish kerak. Bu prinsipni amalga oshirishga jonli tabiat burchagidagi ishlar imkon beradi. Shu vaqtning o'zida u tarbiyachilarda jonajon o'lkaga muhabbatni tarbiyalaydi, tabiat to'g'risidagi ularning bilimlarini kengaytiradi.

Tabiatga o'tkaziladigan ekskursiyalar jonli tabiat burchagi tashkil qilishning boshlanishi bo'lishi mumkin. Suv havzasidagi hayot bilan tanisha turib, tarbiyachilar mollyuska, ninachi qurtlari, har xil qo'ng'izlar, gambuziya, peskar (tanga baliq), shuningdek suv o'simliklarining barchasi akvarium, shisha bankalar yoki boshqa yaroqli idishlarga joylashtiriladi. Bog' va polizlarda ko'pincha meva, rezavor meva hamda sabzavot o'simliklari zararkunandalarining g'umbak va qurtlari uchraydi. Sayr vaqtida ularni yig'ib, jonli tabiat burchagida ular ustida hasharotlar taraqqiyotining butun siklini tekshirib borish va yeb to'yimas qurtning harakatsiz g'umbakka aylanishini, g'umbakdan yetuk kapalak chiqishini ko'rish uchun kuzatishlar tashkil qilish mumkin. Jonli tabiat burchagiga keltiriladigan tirik ob'ektlar alohida daftarda hayvon yoki o'simlikni keltirish vaqti (kuni), kimdan qabul qilinganligi, hayvonning nomi va uning holatini ko'rsatib qayd qilib borilishi kerak.

Jonli tabiat burchagi uchun xona. Jonli tabiat burchagi uchun alohida xona ajratgan ma'qul. Bunday imkoniyat bo'lmaganda o'simlik va hayvonlarni tabiatshunoslik xonasi yoki sinfdan joylashtiriladi. Jonli tabiat burchagi uchun xona yorug' bo'lishi, deraza ro'parasiga qo'yilgan har xil tagliklarga suv hayvonlari hamda o'simliklari bo'lgan akvariumlarni qo'yish qulay bo'ladi.

Agar jonli burchak alohida xonada bo'lsa, unda qushlarni ham saqlash mumkin. Barcha qush qafaslariga tozalash oson bo'lsin uchun harakatchan taglik va oziq uchun harakatchan yashik o'rnatiladi. Maktab tabiat burchagida sa'va, to'ti, chittak, chechetka kabilarni saqlagan yaxshi. Qafaslar devor yoki derazalarga ilib qo'yiladi, ammo shamol g'urillab o'tadigan joyga qo'ymaslik kerak, bunday joy qushlar uchun halokatlidir. Terrariumlar xona o'rtasiga yoki devor bo'ylab qo'yilgan stolchalarga o'rnatiladi. Sut emizuvchilarning (olmaxon, dengiz cho'chqasi) katakchalari xonaning qorong'iroq qismida polga qo'yiladi. Agar tabiatshunoslik kabineti katta bo'lmasa, o'simlik va hayvonlarning bir qismini sinflarda joylashtiriladi va ular kerak bo'lganda foydalaniladi.

Jonli tabiat burchagini jihozlash. Burchakda hayvonlar uchun ajratilgan joy ularning tabiatdagi hayot sharoitlariga muvofiq bo'lishi kerak. Akvariumni zoomagazindan olish ma'qul. Ammo akvarium sifatida xohlagan shisha idishdan foydalanish mumkin, lekin shuni hisobga olish kerakki, baliqlar to'rtburchak idishda yaxshi ko'rinadi. Akvariumdagi baliqlar soni uning katta-kichikligiga (o'lchamiga) va undagi o'simliklarning soniga muvofiq bo'lishi kerak, bunda yutiladigan va chiqariladigan kislorodning balansi ta'minlansin.

Akvariumda yashovchilarga doimiy parvarish zarur. Oziqni zoomagazindan sotib olish mumkin. Baliqlarni ular shartli refleks hosil qilishi uchun muayyan vaqtda oziqlantirilishi kerak. Bolalar termometr bilan o'lchab, suv haroratini tekshirib borishga o'rganishlari lozim.

Sudralib yuruvchilar va suvda ham quruqda yashovchilar uchun xilma-xil ko'rinish va katta-kichiklikdagi terrariumlar quriladi. Odatdagi terrarium metaldan yoki yog'ochdan tayyorlangan yashik bo'lib, yon va tepa devorlari shisha va to'rdan iboratdir. Shisha devor terrariumda yashovchilarni kuzatish, yon devor hamda tepasining to'rdan bo'lishi toza havo bilan ta'minlash imkoniyatini beradi. Terrariumning metall tagiga tuproq sepiladi, unga o'simliklar o'tqaziladi va suvli idish joylashtiriladi. Terrariumga unda yashovchilarning yashirinib olishi uchun toshlar qo'yiladi. Suvga va quruqqa ehtiyojmand suv baqalari va tritonlar uchun akvaterrarium, ya'ni quruqlik oroli bo'lgan akvarium quriladi, uni akvarium tagiga tuproq solingan va suv sathidan biroz ko'tarilib turadigan shisha banka qo'yib tayyorlash qiyin emas. Quruqlik uchatskasini suv otsiga o'rnatish yoki suzuvchi qilish mumkin.

O'simlik va hayvonlar namunalari yig'ish, kuzatishlar tashkil qilish. Jonli tabiat burchagining aholisi (yangi o'simlik va hayvonlari) uning asosini tashkil qiladi, unga qarab jihozlar tanlanadi. O'simlik va hayvonlar to'plami tabiatshunoslik datsuriga qarab, o'lkashunoslik xususiyatlarini hisobga olib

belgilanadi. Barcha xona o'simliklari ularning nomlari, qachon va qayerdan olinganligi to'g'risida ma'lumotlar yozilgan etiketkalariga ega bo'lishlari zarur.

O'simliklardan avval shundaylarini tanlash kerakki, ular yordamida namlik, issiqlik, yorug'lik, suv itse'mol qilishdagi farqlarini, jumladan quruq iqlimga (kaktus, aloe), nam iqlimga (asparagus, tradeskantsiya) moslangan o'simliklarni, tropik o'simliklarni (begoniya), mo'tadil iqlim o'simliklarini (navro'zgul), yorug'lik sevuvchi (xina) va soyaga chidamli (plyushch, aspiditsra) o'simliklarni namoyish qilish mumkin bo'lsin.

Keyin shunday o'simliklar tanlanadiki, ular, masalan, yorongul, fuksiya, begoniya, kaktus, tradeskantsiya, elodeya, binafsha kabilarning har xil turlari yordamida turlicha tajribalar o'tkaziladi. Tradeskantsiyada qalamchalar bilan ko'paytirishni namoyish qilish yaxshi bo'ladi. Begoniya, fuksiya, yoronguldan ham foydalanish mumkin. Barglardan ko'paytirishni uzumbark, binafsha yoki begoniya reksda ko'rsatish mumkin.

Jonli tabiat burchagida tajribalar o'tkazish uchun har xil madaniy o'simliklarning urug'laridan, loviyaning quruq, ivitilgan yoki undirilgan urug'laridan (1 guruh), rediska, qizil lavlagi, sabzi urug'laridan (2 guruh), pomidor va g'o'za chigitidan (3 guruh) keng foydalaniladi. Tajribalar tabiatshunoslik va qishloq xo'jaligi mehnati datsuriga muvofiq o'tkaziladi.

Jonli tabiat burchagida hayvonlarning har xil turlari bo'lishi kerak. Barcha akvariumlarda chig'anoqli mollyuskalar bo'lishi kerak, chunki ular akvarium devorlarini suv o'tlaridan tozalaydi va atmosfera havosidan nafas olgani uchun akvariumdagi boshqa hayvonlar uchun zarur bo'lgan suvdagi havoni yutmaydi. Baliqlardan yashash sharoitlariga uncha talabchan bo'lmaganlarini, masalan, guppi, qilich baliq, tilla baliq, to'rsimon dumli baliq, teleskop, kometa kabilarni saqlash yaxshi. Aylanchiq baliq, suv qandalasi kabi suv havzalarining vakillarini alohida shisha bankalarda saqlash kerak, chunki ularni baliqlar yeb qo'yadilar. Shuningdek yirtqich hisoblangan gambuziyani ham alohida saqlash zarur.

Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida akvarium katta rol o'ynaydi. Tarbiyachilar suv hayvonlarining harakatlanishini kuzatadilar, ularning tana qismlarini ko'radilar, qanday ov qilishlarini kuzatadilar. Baliqlarni harakatda ko'ra turib, bolalar ularning harakat organlariga e'tibor beradilar, baliqlar hayotida rang qanday rol o'ynashligini aniqlaydilar. Gambuziya va tanga baliqlarning ko'payishini kuzatishga alohida e'tibor beriladi. Kuzatishlar kundaliklarida tangabaliq lichinkalari va gambuziya chavoqlarining paydo bo'lishi va rivojlanish muddatlari yozib boriladi. Akvariumda hayvonlardan tashqari o'simliklar (shoxbarg, urut, vodokras, vallesneriya, elodeya, ryaska) ham saqlanadi, ular bilan tarbiyachilar datsurni o'tish davomida tanishib boradilar.

Dasturga muvofiq kichik yoshdagi maktab tarbiyachilari baqa va qurbaqaning rivojlanishini (itbaliq, dumli baqacha va yetuk baqaning vujudga kelishini) ham kuzatadilar. Jonli tabiat burchagida bolalar ularni solishtirishlari, tana qismlarini qarab chiqishlari, ularning tuxumlari qanday farq qilishini, tuxumdan itbaliq rivojlanishini ko'radilar. Terrariumda tarbiyachilar, shuningdek kaltakesak va toshbaqalarning xulq-atvori, harakatlanishi, tashqi xususiyatlarini kuzatishlari mumkin.

Tabiatshunoslik o'qituvchisi tarbiyachilarning jonli tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni sitsemali ravishda parvarish qilib borishlariga, gullarni muntazam sug'orishlari, barglarni yuvishlari, hayvonlarni boqishlari hamda toza joyda saqlashlariga erishish kerak. Buning uchun tarbiyachilarning navbatchiligi yo'lga qo'yiladi.

Jonli tabiat burchagidagi tajriba, kuzatish va amaliy ishlar o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi va u tomonidan nazorat qilib borilishi kerak. Barcha ishlar reja bo'yicha ko'rilishi zarur, reja tuzishda mavsumiylik printsiptiga amal qilish lozim. Burchakdagi ishlar yillik, yarim yillik va choraklik tuziladi. Reja tuzishda tarbiyachilarning qiziqishlari, umumiy taraqqiyoti, shuningdek ishning uddalay olinadigan bo'lishi hisobga olinadi. Rejada maqsad va mavzuni belgilash, ishning mazmuni va shakllari ochib berilishi, amalga oshirish metodlarini ko'rsatishi, tarbiyachilar egallashi mo'ljallangan amaliy ko'nikmalar belgilangan bo'lishi kerak. Ayrim mavzularni ham rejalashtirish mumkin. (Jonli tabiat burchagidagi ishlar rejasining taxminiy shakliga qarang.)

Jonli tabiat burchagidagi ishlar rejasining taxminiy shakli

Mavzu va ishning mazmuni

Mavzu bo'yicha soatlar

Ishning boshlanishi va oxiri

Amaliy ko'nikmalar

Bajarilishi uchun mas'uliyatli shaxs

Ish rejasining bajarilishini maxsus jurnalda qayd qilib borish zarur. Jurnal sifatida umumiy daftar xizmat qilishi mumkin, unda o'qituvchi tarbiyachilar bajargan ishning hajmi va olingan natijalar ko'rsatiladi. Tarbiyachilarning kuzatishlar kundaliklari hisobga olishning shaklidir, unda kuzatishlar qisqacha yozib boriladi, rasmlar chiziladi, quritilgan o'simliklar yopishtiriladi.

O'lkashunoslik burchagi

Guruhdan boshlab tarbiyachilar o'z o'lkalari, o'z joylarini o'rganadilar, tabiat ustida kuzatishlar olib boradilar, ekskursiyalar o'tkazadilar. Boshlang'ich maktabda o'qish vaqtida ularda boy faktik material to'planadi, bu material o'lkashunoslik burchagida joylashtiriladi. Vaqt o'tishi bilan o'lkashunoslik burchagida boshlang'ich maktabni ilgarigi bitiruvchilari yiqqan eng qimmatli

materiallar to'planib boradi. Undan tabiatshunoslikni o'qitishda sitsemali ravishda foydalaniladi.

Nazorat savollari

1. Ekinzor va gulzorlar tashkil etish metodikasi haqida nimalar bilasiz?
2. Bir yillik o'simliklarni k o'chatsiz yetishtirish usuli qanday amalga oshiriladi?
3. Gulzorlarni tashkil qilish xususiyatlarini ayting.
4. Gulzorlar tashkil qilish qanday qoidalarini bilasiz?
5. Guruhlarda yer maydonlarini tashkil etish texnologiyasi.
6. Yer maydonlarida hayvonlarini saqlash uchun shart- sharoitlar
7. Tabiatga o'tkaziladigan ekskursiyalar
8. Jonli tabiat burchagi uchun xona
9. Jonli tabiat burchagini jihozlash
10. Jonli tabiat burchagida tajribalar o'tkazish
11. Jonli tabiat burchagidagi ishlar rejasining taxminiy shakli

Mavzu yuzasidan testlar

- 1. Qaysi guruhda tabiat hodisalarining oddiy sabab-oqibat aloqalarini bilishga qiziqishini rag'batlantirish olib boriladi?**
 - a. tayorlov guruh (6-7 yosh)
 - b. o'rta guruh (4-5 yosh)
 - c. kichik guruh (3-4 yosh)
 - d. katta guruh (5-6 yosh)
- 2. Tayorlov guruhda qaysi poliz ekinlari haqidagi tasavvurlarini aniqlab kengaytirib boriladi?**
 - a. qovun, handalak, tarvuz, qovoq
 - b. bodring handalak, tarvuz, qovoq
 - c. pamidor handalak, tarvuz, qovoq
 - d. qovun, pomidor tarvuz, bodring
- 3. Tayorlov guruhida go'zaning qaysi farqlarini solishtirish va shu orqali to'kilgan barglarni yig'ib, qaysi daraxtni ekanligini topish o'rgatiladi?**
 - a. tanasi, po'stlog'i va barglarini bir-biriga solishtirish
 - b. ildizi chanogini va barglarini bir-biriga solishtirish
 - c. tanasi, chanogini va barglarini bir-biriga solishtirish
 - d. tanasi, ildizi va barglarini bir-biriga solishtirish

4. Bolaning oldin o‘rgangan qaysi manzarali daraxtlari haqidagi tushunchalarini mustahkamlab, qayrag‘och, tol daraxtlari bilan tanishtirish amalga oshiriladi?

- a. chinor, terak
- b. qayragoch, terak
- c. majnuntol, archa
- d. qayin, terak

5. Qaysi guruhda tog‘, o‘rmon, dengiz, daryo kabi atamalarni solishtirish, farqini ajratish, ularda yashaydigan hayvonlar va o‘simliklar haqida qisqacha ma’lumot berib boriladi?

- a. tayyorlov guruh (6-7 yosh)
- b. katta guruh (5-6 yosh)
- c. kichik guruh (3-4 yosh)
- d. o‘rta guruh (4-5 yosh)

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar

1. Hasanboyeva O.U, Djaborova X.J Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi.- T. Cho‘lpon. 2007.
2. Haydarov H, Nishonova S Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof-tabiat bilan tanishtirish. -T. O‘qituvchi. 1992.
3. Yusupova P.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish. - T. O‘qituvchi. 1995.
4. Djaborova X.D. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim –tarbiya berishning o‘ziga xosligi. -T. O‘qituvchi. 2000.
5. «Bolajon» tayanch dasturi. -T. 2010 y
6. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. - T. O‘qituvchi, 1996.
7. O. Xasanboyeva va boshq. Pedagogika tarixi. -T. O‘qituvchi. 1997.
8. Yo‘ldoshev X.S, Avezov Sh.Sh. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari.-T. O‘qituvchi. 1997.
9. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni «Ta’lim to‘g‘risida» T.O‘zbekiston. 1997.
10. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha tarbiya Konsepsiyasi. T, O‘zbekiston. 1995.

8- MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TABIAT BILAN TANISHTIRISH ISHLARINI REJALASHTIRISH

Reja:

- 1- Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini rejalashtirish**
- 2- Yillik reja**
- 3- Istiqbolli reja**
- 4- Taqvimiy-mavsumiy reja**
- 5- Tabiatshunoslikka oid o'yinlarni rejalashtirish.**
- 6- Turli guruhlarda mashg'ulotlar o'tkazish, ularga rahbarlik qilish**
- 7- Tabiat bilan tanishtirish ishlarini rejalashtirishda oilaviy hamkolik.**
- 8- Jonli va jonsiz tabiat bilan tanishtirish usullari**
- 9- Turli fasllarda bolalarni tabiat bilan tanishtirish usullari**
- 10- Tabiatshunoslikka oid ishlarni hisobga olish**

Tayanch tushunchalar: tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini tashkil etish, "Ilk qadam" davlat tayanch dasturi, yillik reja, tabiat bilan tanishtirish ishini rejalashtirishning asosiy shakli, kundalik rejani tuzish, mashg'ulotlarda qo'llaniladigan o'qitish metodlari, maktabgacha yoshdagi bolalarni jonli va jonsiz tabiat bilan tanishtirish usullari.

8.1. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini tashkil etishda rejalashtirishning ahamiyati

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishlarini rejalashtirishdagi asosiy qo'llanma, manba "Ilk qadam" davlat tayanch dasturi hisoblanadi. Bunda umumpedagogik qoidaga va rejalashtirish prinsiplariga amal qilinadi. Rejalashtirishning asosiy prinsipi bola shaxsini aqlan, axloqan shakllantirib, ularda tabiatga doir bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilish, tabiatga nisbatan ilmiy nuqtai nazardan qarash bo'yicha oddiy tushunchalar berish, tabiatda kattalar mehnatini hurmat qilish va uni qadrlash, o'simlik va hayvonlarni sevish hamda asrash ruhida ta'lim berishdan iboratdir. Buni amalga oshirish uchun pedagogik tarbiya ishlari turli rejalashtirilgan bo'lishi, bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olinib ta'lim - tarbiya berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilinishi, bunda turli - tuman ta'lim - shakllari va bolalar faolligi hisobga olingan bo'lishi lozim. Reja aniq tizim asosida izchillik bilan oddiydan murakkabga qarab bir -biri bilan bog'liq turli uslub va shakllardan iborat bo'lishi kerak. Rejalashtirishning bosh maqsadi "Ilk qadam" davlat tayanch dasturini to'liq amalga oshirishdir. Shuning uchun ham yilning har bir fasli shunday rejalashtirilishi kerakki u o'tgan fasl xulosasi va kelgusida qilinadigan

ishning davomi bo'lishi kerak. Rejaga turli xil ishlarni kiritilishi tarbiyachiga bolalarni har tomonlama tarbiyalashga yordam beradi.

8.2. Yillik reja

Yillik reja umumiy vazifani qamrab olib butun pedagogik jamoaning maqsadini o'ziga mujassamlashtiradi. Ana shulardan biri tabiat bilan tanishtirish ishini maqsadga muvofiq tashkil qilishdir. Yillik rejada tarbiyachi bilan birga tabiat bilan tanishtirishning uslubiy ish shakllari rejalashtiriladi. Bunda pedagogik majlislarning mazmuni tabiat bilan tanishtirish sohasidagi ilg'or tarbiyachilarning ish tajribalarini yoyish va ularni to'plash imkonlari(mashg'ulot kuzatish, uni muhokama qilish, sayr va hokazolar), rejada tabiatshunoslik xarakteridagi, uslubiy mavzularidagi topshiriqlar, yo'llanmalar o'tkazish rejalashtiriladi.

Yillik reja ota-onalar bilan tabiatni muhofaza qilishga doir pedagogik tashviqot targ'ibot ishlarini olib borish ham kiritiladi.

8.3. Istiqbolli reja

Istiqbol rejaları bir guruh uchun tuziladi. Uni yil fasllari bo'yicha tuzish maqsadga muvofiq. Chunki bu tabiatning rang-barang xususiyatlarini hisobga olish va tabiat hodisalari bilan bolalarni tanishtirishga imkon yaratadi. Istiqbolli reja tarbiyachiga dastur materiallarini taqsimlashga yordam beradi. U bolalar bilimni, malaka va ko'nikmalarini ma'lum tizim asosida izchillik bilan borishini ta'minlaydi. Rejada jonsiz tabiat haqidagi bilim, o'simliklar haqidagi bilim, hayvonlar haqidagi, tabiatda kattalar mehnati haqidagi ma'lumotlar kiritiladi. Rejada tabiat burchagiga qo'yilgan vaqtincha va doimiy yangi ob'yektlar ham kiritilishi kerak. Bularni avvaldan aniqlashtirishdan maqsad o'simlik va hayvonlar uchun ovqat, sharoit tayyorlab qo'yishdir.

Rejada ta'limiy o'yinlar, kinofilm va diafilmlar, tabiatga doir adabiyotlar, tarbiyachi uchun tabiatga oid lug'at adabiyotlari kiritiladi. Istiqbolli rejada bolaning yer maydonchasi va tabiat burchagida bajaradigan mehnatlari o'z ifodasini topadi. Bu ishlarni oldindan rejalashtirishdan maqsad zarur mehnat asboblari sharoitini oldindan tayyorlab qo'yishdir. Asosiy kuzatish jonli va jonsiz, tabiatda kishilar mehnatini fasllar bo'yicha o'zgarishini aniqlashdan iborat.

Tabiat bilan tanishtirish ishini rejalashtirishning asosiy shakli kundalik ish rejasini tuzishdir. Bu reja yilning har xil faslini o'z ichiga oladi. Yosh tarbiyachilar bajaradigan ishlarini 2 haftaga tuzib olishlari maqsadga muvofiqdir.

8.4. Taqvimiy – mavsumiy reja

Kundalik rejani tuzishda mashgʻulot oʻtishning rejalashtirishdan boshlash lozim. Mashgʻulot dastur mazmuni boʻlgan tabiat bilan tanishtirish ishini kunlik hayotda amalga oshirish va tabiatshunoslik ishining asosiy shaklidir. Kundalik rejada tabiat burchagidagi kuzatish va mehnatning asosiy mazmunida oʻz aksini topishi kerak.

Rejada kuzatishning maqsadi va kuzatish yoʻllari va kuzatilgan obʻyekt natijalarini tahlil qilish ham kundalik rejada tabiat materiallari asosida harakatli oʻyinlarni bajarish ham qayd etiladi. Bajarish uchun qanday jihozlar zarurligi aniqlanadi. Tabiatshunoslikka doir taʼlimiy oʻyinlardan foydalanishda ularning shakli, mazmuniga qarab ishlatish rejalashtiriladi. Tabiatshunoslikka oid ishlarni rejalashtirganda har bir yosh guruhning xususiyati hisobga olinib, ularning asosiy shakllaridan foydalanilib tabiat bilan tanishtirish uslublari asosida tuziladi. Tarbiyachi bajarilgan ishni kundalik ish rejasida hisobga olib boradi. Mashgʻulotga tayyorlanish hamda uni oʻtkazishda uning tuzilishini toʻgʻri aniqlash muhimdir. Metod tanlash taʼlimiy vazifalar xarakteri, tabiiy obʻyektning xususiyatlari hamda bolalarning yoshiga bogʻliqdir. Masalan, yovvoyi hayvonlar haqidagi bilimni shakllantirishning yaxshisi diafilm, kinofilmlar koʻrsatish orqali, tabiat burchagidagi hayvonlar va oʻsimliklar bilan tanishishni esa ularni bevosita kuzatish orqali amalga oshirgan maʼqul.

Kichik yoshdagi bolalar mashgʻulotlarida kuzatish, oʻyin metodlaridan foydalaniladi. Ogʻzaki metoddan, asosan, maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan oʻtkaziladigan mashgʻulotlarda foydalaniladi.

Tanlangan metod dastur vazifasining toʻliq bajarilishini va bolalarning faol aqliy faoliyatini taʼminlashi lozim.

Mashgʻulotlarda qoʻllaniladigan oʻqitish metodlarining xilma-xilligi tarbiyachidan puxta sharoit yaratishni talab qiladi: hayvonlar, xonaki oʻsimliklar, rasmlarni koʻrish uchun bolalar yarim doira qilib oʻtqaziladi. Bu bolalarning mashgʻulotda faol ishtirok etishlariga imkon beradi. Agar mashgʻulotda tarqatma materiallardan foydalanilsa, yaʼni har bir bolaning qoʻlida kuzatish obʻyektini boʻlsa, bolalarning oʻz stollari atrofida oʻtirganlari maʼqul. Baʼzan guruh xonasida mehnat malakalarini tarbiyalashga bagʻishlangan mashgʻulotlar oʻtkaziladi. Bunday holatda bolalarni toʻrtburchak shaklida joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Shunda bola tarbiyachi koʻrsatadigan ish usullarini yaxshiroq koʻrishga ega boʻladilar.

Tarbiyachi mashgʻulot oʻtkazishdan oldin bir qancha

ko'rgazmali qurollar, yani jonli va jonsiz tabiat jismlari (gerbariylar, yil fasllari, tabiat manzaralari tasvirlangan kalendarlar, toshlar, foydali hasharotlar, o'simliklar va ularning qismlari, mayda hayvon va boshqalar)ni tayyorlab qo'yadi. Chunki ko'rgazmali qurol bolaga o'rganilayotgan narsani bir necha sezgi a'zolari bilan qabul qilib olish imkoniyatini beradi, ya'ni ular narsani ko'ribgina qolmasdan, uning xususiyatini (masalan, tirnab ko'rish, bolg'acha bilan urib ko'rish orqali narsaning mo'rtligini, egish bilan qayishqoqligini, egiluvchanligini va hokazo) sinaydilar. Mashg'ulot, asosan, quyidagi tartibda olib boriladi:

- *ish maqsadini e'lon qilish;*
- *topshiriqni tushuntirish;*
- *ko'rgazmali qurollar ustida ishlash;*
- *kuzatish;*
- *o'tkazilgan ish natijalarini tushuntirish — suhbat;*
- *xulosa chiqarish;*
- *rasmlar chizish.*

Mashg'ulot so'ngida tarbiyachi bolalarning malaka va ko'nikmalarini, ularning mashg'ulotga munosabatlarini, qiziqishlarini pedagogik jihatdan baholaydi. Baholarning differensiyalashuvi bolalarning yoshiga bog'liq bo'ladi.

8.5. Tabiatshunoslikka oid o'yinlarni rejalashtirish

Tabiatshunoslik xarakteridagi harakatli o'yinlar hayvonlarning xatti-harakati, ularning hayot tarziga taqlid qilish bilan bog'liq bo'lib, ba'zilarida jonsiz tabiat hodisalarini aks ettiradi. Bu «Ona tovuq va jo'jalar», «Mushuk va sichqon», «Quyosh va yomg'ir» kabi o'yinlardir.

Ijodiy o'yinlar. O'yinda bola mashg'ulot, sayr, kundalik hayot jarayonida olingan taassurotlarni aks ettiradilar (parrandachilik fabrikasi, issiqxona va shu kabilardagi ishlar), ular haqidagi bilimlarni egallaydi, bunda ularda mehnatga ijodiy munosabat shakllanib, kattalarning tabiatdagi mehnatlarining ahamiyatini anglab oladi.

Ijodiy o'yinlarning mustaqillik xarakteri tarbiyachiga bolalarni yangi bilim, malaka va ko'nikmalardan o'rgatish metodi sifatida foydalanish imkonini bermaydi. Biroq bunda tarbiyachi bolalar qaysi bilimlarni yetarlicha egallaganlar-u, qaysilarini yana kengaytirish lozimligini bilib olish uchun ijodiy o'yinlarni diqqat bilan kuzatib borishi lozim. Tarbiyachi tabiatshunoslik mazmunidagi ijodiy syujetli, rolli o'yinlarni boyitib, sayrlar vaqtida bolalarni

kattalarning mehnati haqidagi bilimlarini kengaytiradi, diafilmlar ko'rsatadi, kitoblar o'qib beradi.

O'yinni rivojlantirishda qishloq mehnatkashlari sut sog'uvchi, bog'bonlar haqidagi hikoyalar bolalarga alohida ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga ularda kattalar mehnatiga nisbatan qiziqish uyg'otib o'yin mazmunini boyitadi. Tabiatshunoslik mazmunidagi ijodiy o'yinlarni avj oldirish uchun sharoit yaratish, ya'ni zarur o'yinchoqlar - qishloq xo'jalik mashinalari, hayvonlar va shu kabilar bilan ta'minlash darkor.

Ijodiy o'yin turlaridan biri tabiiy materiallar qum, qor, loy, mayda toshchalar, so'ta va shu kabilar bilan o'ynaladigan o'yinlardir. Materiallar yordamida bolalar ijod qilar ekan, ularning xususiyatlari va sifatlarini bilib oladilar. Har bir yosh guruhda yilning fasliga mos tabiiy material bilan o'ynash uchun sharoit yaratiladi. Bular qum maydonchalari hamda qum stollari, qum va qor bilan o'ynash uchun shakl to'plamlari, odamlar va hayvonlarning rezinkadan yasalgan figuralari, uy, daraxtlarning fanerdan yasalgan skiletleri, butalar, shoxchalar, metall karkaslar bo'lib, bular yordamida figuralar yasaladi. Tarbiyachi bolalarga o'yin uchun tabiiy materiallarni tanlashda va ulardan foydalanishda yordam beradi hamda foydalanish usullarini ko'rsatadi. Misol uchun ba'zi mashg'ulotlarga diqqatimizni qaratamiz:

Mashg'ulot mavzusi: Xo'roz, tovuq va jo'jalar (surat orqali).

Mashg'ulot maqsadi:

- a) bolalarni uy parrandalarining kishilar hayotida tutgan o'rni, foydasi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish;
- b) bolalarning e'tiborini parrandalar tanasining asosiy qismlariga qaratish;
- c) ularning hatti-harakatiga aniqlik (uchadi, qo'noqqa qo'nadi, cho'qiydi) kiritish;
- d) bolalarni parrandalarning ko'payishi haqidagi tushunchalarini kengaytirish;
- e) parranda poloponlari tuxumdan chiqqanda ularning tanasi yung yoki pat bilan qoplanmagan, ko'zi yumuq bo'lishi, ota-onalari ular haqida g'amxo'rlik qilishlari, isitishi, ovqatlantirishi, dushmanlardan qo'riqlashi, ovqat izlab topish, yurish, uchish, tirmashib chiqish va sakrashga o'rgatishlari haqidagi tushunchalarini aniqlash va kengaytirish;
- f) parrandalarga nisbatan g'amxo'r bo'lishga o'rgatish iborat.

Mashg'ulot jihozlari:

“Xo'roz, tovuq va jo'jalar” surati

Mashg'ulotning borishi: Tarbiyachi bolalarga ko'rinarli qilib "Xo'roz, tovuq va jo'jalar" suratini ilib qo'yadi. Bolalar rasmni ko'rib chiqadilar va suratdan xo'roz, tovuq, jo'jalarni topadilar. Tarbiyachi bolalardan xo'roz tovuqdan, tovuq jo'jalardan nimasi bilan farq qilishini so'raydi.

Tarbiyachi: Bolalar, xo'roz, tovuq va jo'jalar qayerda yashaydi? To'g'ri, bolalar xonadonlarda. Ularni odamlar boqadi. Xo'roz, tovuq va jo'jalarga don, no'xat, bug'doy berib boqishadi.

Bolalar, suratga qarang, xo'roz qanday?... To'g'ri, xo'roz katta. Xo'roz qanday ovoz chiqaradi?...

Tovuq qanday?..... To'g'ri, tovuq katta. Tovuuq qanday ovoz chiqaradi?

Tarbiyachi bolalar bilan xo'roz, tovuq va jo'jalarning ovozlarini imitatsiya qiladi (Qu-qa-ra-qu-qu, qoq-qoq, chip-chip).

Jo'jalar-chi? Jo'jalar kichkina. Jo'jalarning rangi qanday? (sariq, qora). Suratda sariq jo'jalar nima qilishyapti? Qora jo'jalar nima qilishyapti?

Kimning uyida tovuq va jo'jalar bor? Ularga don, suv berganmisiz? Tovuuq donni cho'qilab yeydi. Chunki tovuqning tishi yo'q. Tumshug'i bilan cho'qilab yutib yuboradi. Tovuuq o'z jo'jalarini qanday parvarish qiladi? Yegulik topib olsa jo'jalarni yoniga qanday chaqiradi? To'g'ri, tovuq jo'jalarga yegulik topib olsa "qoq-qoq-qoq-qoq" deb chaqirib oladi.

Jo'jalar o'zlari yegulikni qaerdan qidirishadi? To'g'ri, yerni oyoqlari bilan titkilashadi? Jo'jalar yegulikni tumshuqchalari bilan cho'qilaydilar.

Jo'jalar ko'pincha qaerda o'ynashadi? To'g'ri, bolalar, jo'jalar ko'pincha onalarining qanotlari ostiga, tovuq yerda yotganda jo'jalar onalarining ustida ham chiqib o'ynashadi. Tovuuq jo'jalarini yomg'ir yoqqanda yoki mushuk yaqinlashganda qanotlari ostiga olib asraydi.

Mashg'ulot oxirida «Tovuq va jo'jalar» o'yini o'ynaladi.

Bolalar bilimlarini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

-Qanday suratlarni ko'rdik?

-Xo'rozning rangi qanaqa?

-Tovuqning rangi qanaqa?

-U kattami? Kichikmi?

-Qanday jo'jalarni ko'rdik?

-Qanday o'yin o'ynadik?

8.6. Turli guruhlarda mashg'ulot o'tkazish, unga rahbarlik qilish

Kichik guruh

Qo'ng'iz va kapalaklarni kuzatish

Mashg'ulot maqsadi: "Bolalarga kapalaklarni qo'ng'izlardan farqlash, hasharotlarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'ra bilishni o'rgatish,

kapalaklarning qanotlari chiroyli, katta mo'ylovli, xartumchasi bor, kapalak o'rmalaydi, uchadi. Qo'ng'izning qanotlari qattiq, qo'ng'izlar uchadi, g'o'ng'illaydi, xartumchasi chiroyli, nozik uchadi" kabi so'z va iboralarini qo'llanishini faollashtirish, tabiatga ehtiyotkorona munosabatni, kuzatishga qiziqishni tarbiyalash.

Mashg'ulotga tayyorgarlik: stollar surib qo'yiladi va ustiga rangli qog'oz solinib, atrofiga bolalar o'tqaziladi. Qo'ng'iz va kapalaklar (2-3 tadan) daraxt shohchalari, gulli o'simliklari bo'lgan 2 ta bankaga solinadi.

Mashg'ulotning borishi. Tarbiyachi dastlab bankadan shoxchali qo'ng'izni olib stolga qo'yadi, "Bu nima?" – deb so'raydi. Hasharotni bundan keyingi kuzatish uning harakat qilishi bilan bog'lanadi. Qo'ng'iz o'rmalaganda tarbiyachi "Qo'ng'iz nima qilayapti?", "Kim tomonga o'rmalayapti?" – deb so'raydi. U quyi qanotini chiqarganda bolalarga ko'rsatib: "Bu nima?" – deb so'raydi. Qanday uchayotganiga quloq solishni taklif qiladi. Shundan so'ng, yana bir qo'ng'izni bankadan chiqarish lozim. Bunda "Qo'ng'iz qanaqa?", "Bunday qo'ng'izni qayerda ko'rgansizlar" – deb so'raydi.

Bankadan kapalak olinadi. Tarbiyachi bolalarga kapalakni ushlab bo'lmasligini, uning qanoti nozikligini, yirtilib ketishi mumkinligini tushuntiradi. Gulni kapalagi bilan stolga qo'yadi. So'ngra, "Bu nima?", "U nima qilayapti?", "Qanotining rangi qanaqa?", "Ular qanday?" – deb so'raydi. Kapalak yurganda "U nima qilayapti?" – deb yana so'raladi. U uchganda "U qanday uchyapti?" – deb so'raladi. Qanotini qanday qoqishi ko'rsatiladi.

Yana qo'ng'iz olinadi va "Bu nima?", "Qo'ng'izmi yoki kapalakmi?" – deb so'raladi.

Mashg'ulotni yakunlash: o'yin orqali bolalarga qo'ng'iz yoki kapalak bo'lib uchishni taklif etish bilan tugatish mumkin.

"Bu qanday hayvon" didaktik o'yini

O'yinning mazmuni. Uy hayvonlarini tovushiga qarab tanishga o'rgatish.

Kerakli jihozlar. Uy hayvonlari tasvirlangan rasmlar.

O'yinning borishi. Tarbiyachi bolalarga tanish bo'lgan uy hayvonlari tasvirlangan (mushuk, kuchuk, echki, qo'y, tovuq, ot, sigir) rasmlarini tarqatib chiqadi. Shundan keyin, u birorta hayvonning ovozigacha taqlid qilib ovoz chiqaradi, bolalar o'sha rasmni ko'rsatadi.

O'yinning ikkinchi variantida tarbiyachi qaysi rasmni ko'rsatsa, bolalar o'sha hayvonning nomini aytadilar va tovushiga taqlid qiladilar.

"Bu qachon bo'ladi" didaktik o'yini

O'yinning mazmuni: Yil fasllarining o'ziga xos belgilari to'g'risidagi tasavvurlarini mustahkamlash.

Kerakli jihozlar. Qog'ozdan qirqilgan dumaloq shakl to'rtga bo'linadi, har

bir qismida yilning bitta fasli aks ettirilgan bo‘ladi.

O‘yinning borishi: Chaqirilgan bola tarbiyachining iltimosiga ko‘ra, rasmga qarab fasl tartibini, o‘ziga xos xususiyatlarini so‘zlab beradi. Shu tariqa o‘yin to‘rtta fasl asosida davom ettiriladi.

O‘rta guruh **BOQQA MAQSADLI SAYR**

Bu sayr oltin kuzda bog‘ning mevali va manzarali daraxtlar o‘sadigan, ochiq, quyoshli kuz belgilari sezilib turadigan kunda o‘tkaziladi.

Sayrdan maqsad:

- a) bolalarni kuzning xarakterli belgilari bilan tanishtirish ;
- b) bolalarga mevali va manzarali daraxtlar topg‘risida tushuncha berish;
- c) bolalarga mevali va manzarali daraxtlarning nomini aytish, mevali daraxtlarni manzarali daraxtdan farq qilishga o‘rgatish hasharotlar va qushlar hayoti haqidagi bilimlarini aniqlash;
- d) bolalarga kuzning belgilarini bildiruvchi so‘zlardan foydalanishni o‘rgatish;
- e) kuzatishlarga qiziqishni, tabiat go‘zalligidan zavklanish qobiliyatlarini tarbiyalash.

Sayrga tayyorlanish. Bolalarga bugun ular kuzda bog‘ qanday bo‘lgani, u erda kashtan daraxtlar o‘shini bilib olishlari, daraxt mevalari va barglarini terishlari aytiladi. Barg urug‘larni solish uchun qog‘oz xaltachalar tayorlab qo‘yiladi.

Sayrning borishi. Boqqa kirish bilan tarbiyachi A. Bartoning quyidagi she‘rini o‘qiydi:

*Barg to‘kilib, to‘kilib,
Tushar g‘amgin, shitirlab
Yerni bezab qoplagan,
Sariq, yashil, qizil rang.*

Bolalar diqqatini mevali va manzarali daraxtlarning kuzgi go‘zal bezagiga jalb qilinadi, ulardan zavqlanish lozim. Tarbiyachi bolalarga o‘zlariga tanish mevali daraxtlar - olma, nok, behi, olcha, gilos, olxo‘ri, anjir, o‘rik va manzarali daraxtlar - chinor, archa, terak, tolni topishni taklif etadi. Bolalar barglarni teradilar, ularni sinchiklab ko‘radilar. Uning rangi, shakli, katta-kichikligini aytadilar. So‘ngra hammalari nok daraxtlarning oldiga keladilar. Tarbiyachi bolalarni daraxtni tanish, nok daraxtining o‘ziga xos belgilarini aytadi. Bolalar olma barglarini topib, uni shaftoli bargi bilan solishtiradilar, ularning shakli va rangini aniqlaydilar.

Tarbiyachi bolalardan bog‘da yana qanday mevali va manzarali daraxtlar

borligini soʻraydi.

Bolalar biroz tinch turib, bogʻdagi tovushlarga quloq solishlarini taklif etadi: «Nima eshitilayaʻti?», «Qushlar sayrayaptimi?». Uchib oʻtayotgan qushlarning nomi aytiladi. Barglar tagidan yashirinib olgan qoʻngʻizlarni, kapalaklarni axtarish mumkin.

Sayr oxirida bogʻ goʻzalligidan yana bir zavqlanib, kuz haqidagi quyidagi sheʻrdan parcha oʻqish mumkin.

KUZ

Kirib keldi oltin kuz,
Gullar jilosi soʻndi.
Yap-yalangʻoch butalar,
Gʻamgin boqadi endi.

Bolalarning oʻsimliklar toʻgʻrisidagi tasavvur va tungi didaktik oʻyinlar orqali mustahkamlash mumkin:

«SHUNDAY DARAXTNI TOP» DIDAKTIK OʻYINI

Oʻyinning maqsadi. Daraxt barglarini farqlashga oʻrgatish.

Kerakli materiallar. Bolalarga tashʻi bulgan uchta mevali, uchta manzarali daraxtnʻng bargi beriladn.

Oʻyinning borishi. Tarbiyachi bolalarga daraxtning bargini koʻrsatib soʻraydi, bu barg qaysi daraxtdan uzilgan. Bolalar oʻsha daraxtning oldiga borib koʻrsatishlari kerak. Oʻyin shu tariqa bolalar hamma tanish daraxtlarni koʻrsatib boʻlgunlaricha davom etadi, keyin tarbiyachi bargni koʻrsatmay biron daraxtning nomini ogʻzaki aytadi, bolalar oʻsha daraxtning oldiga chopib borishlari kerak.

Xuddi shu oʻyinni xonada quyidagicha variantda oʻtkazish mumkin. Tarbiyachi hamma bolalarga tanish daraxtlarning rasmi, oʻsha daraxtlarning mevasi tasvirlangan kartochkalarni tarqatadi. Tarbiyachi qaysi mevani koʻrsatsa, bolalar oldilaridagi meva tasviri tushirilgan kartochkani oʻsha daraxt shoxiga ilib qoʻyishlari kerak.

Bunday didaktik oʻyinning topishmoqli varianti bolalarda yaxshi qiziqish uygʻotadi.

Masalan, tarbiyachi quyidagi topishmoqni aytadi:

*Bodom kabi yaʻrogʻi,
Sollonadi butogʻi,
Oʻzi shirin, tukligina,
Mazasi totligina.
(Shaftoli)
Malla topni saʻ-sariq,
Murobbosi mazali.*

*Palovga bossa bo'lar,
Podvolga ossa bo'lar.*

(Behi)

*Mayda, yoqutday qizil,
Shirin, nordon, xilma-xil.*

*Qalin, taxir po'sti bor,
Hamma yerda do'sti bor.*

(Anor)

Bolalar mana shu o'simliklarning tasvirini yoki bargini ko'rsatishlari kerak va h. k. Xuddi shu o'yinni sabzavotlar bilan ham o'tkazish mumkin. Masalan:

*Pak-pakana bo'yi bor,
Qavat-qavat to'ni bor.*

(piyoz)

Qat-qat to'nli,

Qarich bo'yli.

(Karam)

*Yer tagida oltin qoziq,
U hammaga bo'lar oziq.*

(Sabzi)

Bir barmoqcha bo'yi bor,

Qizil baxmal to'ni bor

(Garmdori)

Bolalarning mevalar to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarini mustahkamlash uchun sabzavot magaziniga ekskursiya uyushtirish mumkin. Ikkinchi galda ekskursiya yaqinroqda joylashgan bozorga uyushtiriladi.

Ko'zlangan maqsad:

- a) bolalarni kuz faslida o'lkamizda pishadigan mevalar, sabzavotlar bilan tanishtirish
- b) saxovatli ona o'lkamizda turli-tuman mevalar etilishi, ularning o'sib rivojlanib, mo'l hosil berishida mehnatkash dehqon, bobolarimizning xizmati kattaligi haqida bilim berish
- v) olalarda oia o'lka tabiatidan g'ururlanish hissini uyg'otish, uni o'stirgan bog'bon va dehqonlarga nisbatan hurmat va muhabbatni tarbiyalashdan iborat.

Mashg'ulotlardan birida sabzavotlarni, ikkinchisida, mevalarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mashg'ulotdan ahamiyati:

- mevalarning tashqi ko'rinishi haqidagi tasavvurlarini aniqlash,

meva tushunchasini aniqlashtirish ular bog'larda o'stirilishini, bog'bonlar o'stirishini aytish;

- *bolalarni tekshirib ko'rishga mashq qildirish solishtirish ko'nikmasini takomillashtirish mevalarning nomini, aniq belgilarini bolalar lug'atiga kiritish;*
- *ona tabiatimizdan g'ururlanish hissini uyg'otish.*

-o'stirgan dehqonlarga nisbatan hurmat, muhabbatni tarbiyalashdir.

Mashg'ulotni tashkil etish. Bolalar stollar atrofida o'tiradilar. Mevalardan behi, olma, anor, nok katta lagan yoki savatchaga solingan, ta'mini bilish uchun alohida tarelkada bo'laklarga bo'lib qo'- yilgan mevalar tayyorlab qo'yiladi.

Mashg'ulotni tashkil etish. Bolalar bilan birgalikda xo'jalik bog'ida, bozorda qanday mevalar ko'rilgani, ularni kimlar etishtirgani eslatiladi. Tarbiyachi bolalarga navbati bilan stol ustidagi idishda turgan mevalar nomini aytishni taklif etadi. «Nokni qo'lingizga olib ko'rsating», «Uni nima uchun nok deb atadingiz?» Qayerda o'sadi? Boshqa mevalarni ko'rishda ham xuddi shu topshiriq takrorlanadi. So'ngra, ikkita mevany bir-biridan farqi, shakli, rangi, katta-kichikligi, ustki ko'rinishi aniqlanadi. Bu farqlarni aniqlashda bolalar mevalarni ushlab, silab, hidlab, dumalatib, bir-birini oldiga yaqinlashtirib ko'rish kabi usullardan foydalanadilar. Shundan so'ng, mevalarning farqlanishi haqidagi xulosa chiqariladi, tarbiyachi bolalardan ular bozorda yoki boshqa joyda yana qanday mevalarni ko'rganlarini, ularning nomini so'raydi. Ularni nima uchun meva deb atalishini so'raydi. Mashg'ulot oxirida bolalar mevalar bilan mehmon qilinadi. Xuddi shunday mashg'ulot boshqa mevalar hamda sabzavotlar bilan ham o'tkazilishi mumkin.

8.7. Tabiat bilan tanishtirish ishlarini rejalashtirishda oilaviy hamkorlikni o'rnatish

Tabiat bilan tanishtirish ishlarini rejalashtirishda **ota-onalar bilan ishlashning quyidagi asosiy tomonlariga e'tiborni qaratish kerak:**

- *ota-onalarni ekologiya bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyati bilan tanishtirish (ochiq darslar, maxsus ekspozitsiyalar, videofilmlar, yig'ilishlar, konferentsiyalar va boshqalar);*
- *ota-onalar ishtirokida turli tadbirlarni tashkil etish (shu jumladan ularning tibbiyot xodimi, o'rmonchi, o't o'chiruvchi kabi kasbiy tajribasidan foydalanish).*
- *ota-onalarni o'quv natijalari bilan tanishtirish (ochiq darslar, turli xil umumiy tadbirlar, ota-onalar burchaklaridagi ma'lumotlar va boshqalar);*
tabiatga sayohatlar, musobaqalar yuyshtirishdan iborat.

Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi muloqotning mazmuni:

- Ota-onalar tomonidan yaratilgan tabiat tasvirlari realistik, bolaning hissiy va hissiy tajribasiga yaqin bo'lishi kerak.
- Tasvirlarning yorqinligi va rangi. Tabiiy obrazning xususiyatlari qanchalik yorqin ifodalangan bo'lsa, ular bolalar bilan bo'lgan hikoyada yoki suhbatda shunchalik aniq aks ettirilgan bo'lsa, ular ularning his-tuyg'ulari va ongiga shunchalik ta'sir qiladi.
- Tabiat bilan tanishish jarayonida bolalarning hayotiy tajribasi va qiziqishlarini hisobga olish.
- Tabiatning mohiyatini, uning hodisalari va mexanizmlarini tushuntirish.
- Tabiat bilan tanishish jarayonlarini amalga oshirish: uy sharoitida va kundalik sharoitda, oila ichidagi ijtimoiy va mehnat faoliyati.

Uydagi ekologik rivojlanish muhiti quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- Bolaning o'zi yoki ota-onasi bilan o'stiradigan turli xil yopiq o'simliklarni va ularga g'amxo'rlik qilish uchun zarur bo'lgan barcha vositalarni o'z ichiga olgan yovvoyi tabiat burchagi. Har qanday hayvonlarni topish mumkin, ammo istalmagan (hamsterlar, dengiz cho'chqalari, toshbaqalar, baliqlar, qushlar va boshqalar);
- Bolalarning mustaqil tadqiqotlari va amaliy faoliyati uchun zarur vositalar bilan jihozlash (o'stirish, ko'chirib o'tkazish, o'simliklarni davolash, ularning rivojlanishini nazorat qilish): tuproq, yer, qum, mayda toshlar, suv, ko'chatlar, gullar va sabzavotlarning urug'lari yoki mevalardan urug'lar va boshqalar.
- "Tabiat" mavzusidagi fotosuratlar, mahalliy tabiat va butun dunyo haqidagi jurnallar va kitoblar va hokazo.

8.8. Maktabgacah yoshdagi bolalarni jonli va jonsiz tabiat bilan tanishtirish usullari

Jonsiz tabiat

Bolani kun va tunning almashuviga, ob-havodagi o'zgarishlar (shamol esishi, yomg'ir, qor yog'ishi, havo bulutli yoki ochiq bo'lishi quyosh charaqlab turishi) ni aytishga o'rgatish zarur:

- yil fasllari va ularning o'ziga xos xususiyatlari (yozning issiq, qishning sovuq ekanligi) to'g'risida tushuncha berish;

- tabiat hodisalari va odamlarning unga munosabati (yomg'irli va nam havoda kostyumsiz sayr qilish mumkin emas, yozda issiq havoda quyosh taftidan saqlanish uchun bosh kiyim kiyiladi, qishda sovuq havoda issiq pal'to, sharf, etik, shapkalar kiyiladi. va h.k.)ni tushuntirish;

- suv, qor, muz, qum, loyning o'ziga xos belgilarini farqlash va nomini aytish, oddiy tajribaga asoslanib, ularning xususiyatlarini (qor-oppoq, yumshoq, sovuq; suv oqadi, iliq va sovuq bo'lishi mumkin; muz-qattiq va sirpanchiq; qum to'kiladi, ho'l qumdan narsalar yasash mumkin; loy-yumshoq, undan narsalar yasash mumkin, agar loy qurisa, ezganda uqalanadi, tuproqqa aylanadi) o'rgatish;

- ertalab, kunduzi, kechqurun, tun so'zlarining ma'nosini hamda kattalar va bolalar sutkaning turli vaqtlarida qanday harakat qilishlari haqida suhbatlashish orqali tasavvurlarini kengaytirish;

- predmet xususiyatlarini tajriba yordamida doimiy o'rgatib boriladi (cho'kadi yoki cho'kmaydi, yirtiladi yoki yirtilmaydi).

Jonli tabiat

O'simliklar dunyosi

Nabotot olami turli-tuman va rang-barang bo'lib, bolalarga uning quyidagi belgi va xususiyatlari o'rgatiladi:

-sabzavot(sabzi, kartoshka, piyoz) va mevalarning (olcha, anor,nok) nomlarini aytish, o'zaro farqlash, ularni rangi va shakliga qarab rasmlar orqali guruhlarga ajratishga o'rgatish;

-xona gullari (oldin o'rganilgan fikus haqidagi bilimlarini mustahkamlash), navro'zgul, yorongul bilan tanishtirish, ularni parvarish qilish yo'llari (o'simliklarning yirik barglarini artish, tuvakdagi gullarga suv quyish)ni o'rgatish;

-tarbiyachi tuvakka piyoz, sabzavotlar ekib, qanday parvarish qilishni o'rgatash;

-gullaydigan madaniy (atirgul) va o'simliklar (qoqi o't, lolaqizg'aldoq) bilan tanishtirish;

-ularning nomlari va ranglarini to'g'ri aytishga o'rgatish;

-shu bilan birga bolaning e'tiborini barglarning shakliga, poyasi va gullaridagi farqlarga, ba'zi o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlariga qaratish;

-jonli olamga ta'sir ko'rsatadigan ko'pgina omillarni (ozuqa, suv, nur) oddiy misollar orqali aytib berish;

-yoz faslida o'simliklar hayoti qanday kechishi haqida suhbat o'tkazish;

-olcha, anor, nok daraxtlari misolida daraxtlarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar: tana qismlari yer ustki va ostki (ildiz) qismi, shoxi, bargi, guli va mevasi bilan tanishtirish;

-bog'da sayr qilib yurganda manzarali daraxtlarning bargi va mevalarini to'plash.

Hayvonot dunyosi

-Bolani uy hayvonlari (mushuk, kuchuk, sigir,(buzoq) qo‘y, (qo‘zichoq)), yovvoyi hayvonlar(quyon, ayiq, bo‘ri, sher) va ularning bolalari, parrandalar(xo‘roz, tovuq, jo‘jalar) va ularning bolalari bilan tanishtirish;

-Ularning o‘ziga xos belgilariga e‘tibor qaratish va nomlarini to‘g‘ri aytish, tashqi ko‘rinishini farqlash va tasvirlab berishga o‘rgatish.

Qushlar

Musicha, chumchuq va qaldirg‘och, qarg‘alar bilan tanishtirish. Ularning nomini to‘g‘ri aytishga, katta-kichikligiga e‘tibor berish, tovushlariga ko‘ra tanish va farqlash, tasvirlab berishga o‘rgatish.

Kichik guruhlarda ta‘lim-tarbiyaviy ish mazmunining mavzulari

Jonsiz tabiat

Qum va suv haqida nima bilamiz?

Ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi.

Jonli tabiat

O‘simliklar dunyosi

Sariq va qizil sabzilar.

Mazali kartoshka va foydali sholg‘om.

Anor pishdi.

Mazali yong‘oq.

Katta bargli fikus.

Biz ekkan piyoz.

Atirgul.

Gullagan olcha daraxti.

Hayvonot dunyosi

Qo‘y va qo‘zichoq (surat orqali).

Asalari(surat orqali).

Ayiq(surat orqali).

Akvariumdagi baliqchalar.

Xo‘roz, tovuq va jo‘jalar (surat orqali).

Quyvon(surat orqali).

Qaldirg‘och(surat orqali).

Xon qizi(surat orqali).

Sayrda:

Jonsiz tabiat

Kun va tunning almashuvi.

Ob-havodagi ayrim o‘zgarishlar (turli fasllarda).

Jonli tabiat

Maydoncha bo‘ylab maqsadli sayr (turli fasllarda).

Olma, olcha daraxtlari (turli fasllarda).
Maydonchamizga qushlar (musicha, chumchuq) uchib keldi.
Sariq qoqio‘t.
Qip-qizil lolaqizg‘aldoq.

Hashoratlar

Kapalak

Asalari

Ninachi

Mashg‘ulot namunasi

Mavzu: Qum va suv bilan turli o‘yinlar o‘ynaymiz.

Maqsad: Bolaga qumning xususiyatlarini qiziqarli misollar orqali tanishtirish. Qum quruq bo‘lsa to‘kiladi, ho‘l bo‘lsa shaklni yaxshi saqlaydi, ho‘l qumdan narsalar yasash mumkin. Shuning uchun turli shakllar (quyosh, sabzovotlar) yasashda qumga suv aralashtiriladi. Bolaning qumdan xilma- xil shakllar yasab o‘ynashini rag‘batlantirish.

Bolaning suv haqidagi tasavvurlarini kengaytirishda davom etish: suv to‘kiladi, toshib ketadi, sachraydi. Suvni hamma – odamlar, hayvonu parrandalar, o‘simliklar ichadi. Biz toza, ozoda bo‘lish uchun suvda yuvinamiz, cho‘milamiz. Suv bilan turli o‘yinlar o‘ynash mumkinligi haqida tushuncha berishda davom etish.

Kutilayotgan natija: Bolalar suv, qumning xususiyatlari haqida ilk tushunchaga ega bo‘ladilar. Qumda oddiy narsalar yasab qum bilan o‘ynashni o‘rganadilar.

Kerakli jihozlar: To‘rtburchak shakldagi idishda quruq qum. Sabzovotlar maketi.

Mashg‘ulotning borishi: Tarbiyachi bolalarga idishda suv ko‘rsatadi. Bolalar, bu nima? To‘g‘ri, bu suv. Suvni biz nima qilamiz? Suvni ichamiz. Suvda cho‘milamiz. Gullarga suv quyamiz. Suv bilan o‘ynaymiz. Mana, tog‘orada suv. Suvga o‘yinchoqlar solib qo‘ysak, mazza qilib o‘ynaymiz. Bu qum. Qum sochiluvchan. Qum bilan ham o‘ynaymiz. Mana qum. Qumga kaftingizni qo‘ying.

Kaftingiz bilan qumni asta silang. Qum qanday ekan? Mayinmi? Iliqmi? Sovuqmi? Ho‘lmi, quruqmi? Silliqlimi? G‘adur-budurmi? Qumni barmoqlaringiz bilan qitiqlang. Barakalla, sizga qum bilan o‘ynash yoqdimi?

Kelinglar, hozir qumda sabzovotlar yasaymiz? o‘yinini o‘ynaymiz, quyosh yasaymiz, gul yasaymiz....

Demak, bu ikki narsa har xil. Suv-suyuqlik, suv to'kilsa, uni yig'ib bo'lmaydi, qum sochilsa uni yig'ib idishga solsa bo'ladi. (Tarbiyachi tajribada ko'rsatadi). Suv-suyuqlik, qum esa sochiluvchan.

Kelinglar, birgalikda suv, qum bilan o'ynaymiz. Mana tog'orada suv, suvda turli o'yinchoqlar. O'rdaklar, baliqlar, qayiqchalarni solib bolalar bilan o'yinlar tashkil etiladi. Qum ho'llanadi va qum bilan ham turli o'yinlar tashkil etiladi.

Bolalar bilimlarini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

Qum qanday ekan?

Qumdan nimalar yasadik?

Suv qanday ekan?

Suvni biz nima qilamiz?

-Qanday o'yin o'ynadik?

O'rta guruhda tabiat bilan tanishtirishning ish mazmuni

Jonsiz tabiat

Bola bizni o'rab turgan borliqni, tabiat hodisalarini kuzatish, tabiat go'zalligini ko'rish, uni asrab avaylash va ongli ravishda munosabatda bo'lishni tarbiyalash va jonsiz tabiat ob'ektlarining ayrim xossa va xususiyatlari bilan tanishtiriladi:

-bolani ob-havodagi o'zgarishlar (sovuq, issiq, iliq, quyoshli, bulutli bo'lishi; shamol esishi, yomg'ir, qor yoki do'l yog'ishi), suv, muz va qorning ayrim xususiyatlari (tiniq, toza suv iste'mol qilinadi; qor yumshoq, oppoq, uni iste'mol qilib bo'lmaydi, qordan qorbobo yasash, qorbo'ron o'ynash mumkin, muz qattiq, muz erib suvga aylanadi) bilan tanishtirish va farqlashga o'rgatish;

-tabiatdagi ayrim narsalarning o'ziga xos xususiyatlari (tosh-qattiq, qum-sochiluvchan) haqida qiziqarli tarzda tushuncha berish;

-bolaning tun va kun haqidagi tushunchalarini kengaytirish, kun qismlari (ertalab, kunduz, kechqurun, tun)da kattalar va bolalarning harakatlari haqida suhbatlar o'tkazishni davom ettirish;

-bolaga yil fasllarining almashib kelishi va ularning nomlarini (kuz, qish, bahor, yoz)rasmlar orqali aytib berishga o'rgatish;

-yil fasllarini o'rgatishda "Bu qachon bo'ladi?", "Bahorda qushlar hayoti", "Qishlab qoluvchi qushlar" kabi ta'limiy o'yinlardan foydalanish.

Jonli tabiat

O'simliklar dunyosi

Bolani sabzavotlar va mevalarning o'ziga xos belgilari va xususiyatlari bilan muntazam ravishda tanishtirib boorish zarur:

- sabzavotlar polizda, mevalar esa bog‘da, daraxtda o‘sishi, sabzavotlar har yili ekilishi, mevali daraxtlar esa ko‘p yillik o‘simlik hisoblanishi haqida qisqacha tushuncha berish;

- mevali bog‘lar va poliz xo‘jaliklari bilan tanishtirish;

- sabzavotlar: sabzi, kartoshka, sholg‘om, piyoz, pomidor, bodring va mevalar: olma, gilos, o‘rik, olcha, anor, nok haqidagi tushunchalarini mustahkamlash. Sabzavotlar: lavlagi, rediska, turp, sarimsoq va mevalar: shaftoli, olxo‘ri, xurmo bilan tanishtirish;

- bolaga sabzavot va mevalarning nomini, rangi, shakli, o‘lchami, ta‘mi, tanovul qilinishi (pishiriladi, tuzlanadi, quritiladi yoki xomligicha yeyiladi) haqida amaliy mashg‘ulotlar orqali tushuncha berish lozim.

Meva va sabzavotlarni rasmlar orqali guruhlarda (mevalar, sabzavotlar) ajratishga o‘rgatish amalga oshirish lozim .

Sabzavot va mevalar yetishtirishda kattalarning mehnati haqidagi tasavvur shakllantiriladi.

Poliz ekinlari (qovun, tarvuz) bilan tanishtiriladi.

Bolaning e‘tiborini fasllar o‘zgarishi (bahor, yoz, kuz, qish); har bir faslning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq ravishda o‘simliklar dunyosida ham o‘zgarishlar sodir bo‘lishi haqida ma‘lumotlar beriladi.

Kuzda daraxtlarning bargi to‘kiladi, o‘tlar sarg‘ayadi, dala va bog‘larda yig‘im-terim ishlari boshlanadi.

Qish faslida tarbiyachi bola diqqatini barglarning to‘kilib, daraxtlar yalang‘och bo‘lib qolganiga, igna bargli archalar esa doimgidek ko‘m-ko‘k bo‘lib, yashnab turishiga jalb qiladi.

Bola e‘tiborini bahor kelib kunlar ilishi bilan daraxtlarning kurtak chiqarishi, gullashi, barg yozishi, o‘t-o‘lanlarning ko‘karishi kabilarga qaratiladi.

Yoz faslida mevazor bog‘lar, daraxtlardagi o‘zgarishlar haqida qiziqarli suhbatlar uyushtiriladi.

Mevali daraxtlardan shaftoli, olxo‘ri, xurmo bilan tanishtiriladi.

O‘simliklar yaxshi o‘sishi uchun eng avvalo unumdor yer, suv, quyosh, ozuqa va doimiy parvarish zarurligi haqida tasavvurlarni shakllantiriladi.

Bola bilan mevali daraxtlar bog‘da, sabzavotlar polizda o‘sishi haqida suhbat tashkil etiladi.

Tanish o‘simliklar nomlarini eslab qolishga o‘rgatiladi.

Maktabgacha ta‘lim muassasasining yer maydonchasiga piyoz, kashnich, gullovchi o‘simliklarning yirik urug‘larini tarbiyachi boshchiligida ekish va ularning o‘sish jarayoni kuzatiladi.

Gullaydigan madaniy (chinnigul), o't o'simlik (boychechak) va dorivor o'simliklar (moychechak, yalpiz) bilan tanishtiriladi.

Ularning nomlari va ranglarini to'g'ri aytishga doimiy o'rgatib boriladi.

Shu bilan birga bolaning e'tiborini barglarning shakliga, poyasi va gullaridagi farqlarga, ba'zi o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlariga qaratiladi.

Daraxt va gullarni farqlashga o'rgatib boriladi.

Xona guli fikus haqidagi bilimni mustahkamlash va navro'zgul, yorongul (geran) bilan tanishtirish, ularni parvarish qilish yo'llarini o'rgatish davom ettiriladi.

Bolaga tabiatni asrash kerakligi haqida dastlabki tushunchalarni (daraxt shoxini sindirmaslik, gullarni uzmaslik, qush inlarini vayron qilmaslik, suvni isrof qilmaslik) rasmlar orqali tushuntirib boriladi.

Hayvonot dunyosi. Bolani fasllar o'zgarganda, xususan, kuz va qish davrida ayiq, bo'ri, olmaxon, quyon, toshbaqa singari yovvoyi hayvonlarning hayot tarzi (qaerda yashaydi, nima bilan oziqlanadi, dushmanlaridan qanday himoyalanaadi) haqidagi tasavvurlari boyitiladi.

Bu faslda uy hayvonlarining hayoti qanday kechishi, ularning bolalari (it-kuchukcha, mushuk-mushukcha, qo'y-qo'zichoq, sigir-buzoq, echki-uloqcha v.b.) haqida tushunchalari aniqlanib kengaytiriladi.

Uy hayvonlarining tashqi ko'rinishidagi farqlar (tana qismlari, tovushlari, yurish-turishlariga xos xususiyatlar), nima bilan oziqlanishi, xo'jalikka qanday foyda keltirishi, ularga g'amxo'rlik qilish, parvarishlash yo'llari xususida qiziqarli ma'lumotlar berib, bolaning uy hayvonlari haqidagi tushunchalari yanada boyitiladi.

Uy va yovvoyi hayvonlarni rasmlar orqali guruhlariga (uy va yovvoyi hayvonlar) ajratishga o'rgatiladi.

Parrandalarni (o'rdak va jo'jalari, kurka va jo'jalari) parvarish qilish haqidagi tushunchalarini kengaytirish. Parrandalarni bolalari bilan rasmlar orqali guruhva oilalarga ajratish o'rgatiladi.

Bolada ilk ekologik madaniyatni tarbiyalanadi.

Bola diqqatini kunlar ilishi bilan qushlar ko'payib, hasharotlar paydo bo'lishi, kunlar sovishi bilan hasharotlar butkul ko'rinmay qolganiga, muassasa hovlisidagi qushlar ham kamayib ketganiga qaratiladi.

Sovuq qish kunida qorni ochib ovqat izlayotgan qushchaga qiyin ekanligini his etishga undash. Bolada qushlarga g'amxo'rlik qilish (maydonchada uchib yurgan qushlarga don sepish) hissini tarbiyalanadi.

Qushlarning nima bilan oziqlanishi, qishloq xo'jaligiga keltiradigan foydasi haqida ham qisqacha ma'lumot beriladi.

Bolani qushlar (chumchuq, musicha, qaldirg'och) haqidagi tasavvurlarini mustahkamlash va mayna, zag'izg'on bilan tanishtirish.

Atrof-muhitda uchraydigan hasharotlar (kapalak, xonqizi, asalari, ninachi, tillaqo'ng'iz)ni farqlashga da'vat etiladi.

Uy va yovvoyi qushlarni rasmlar orqali guruhlarga (uy va yovvoyi qushlar) ajratishga o'rgatiladi.

Bolani akvariumdagi baliqlarga ozuqa berishga o'rgatishda davom ettiriladi.

O'rta guruh

Ta'lim-tarbiyaviy ish mazmunining mavzulari

Jonsiz tabiat

1. *Ertalab, kunduz, kechqurun, tun.*
2. *Ob-havodagi o'zgarishlar (shamol esishi, yomg'ir, qor yog'ishi).*
3. *Qum, suv, loyning xususiyatlari*
4. *Havoning xususiyatlari*
5. *Tajriba: cho'kadi, cho'kmaydi*
6. *Yil fasllari*
7. *Yumshoq, oppoq qor*
8. *Paxtadan nima tayyorlanadi?*

Jonli tabiat

O'simliklar dunyosi

1. *Muassasa bog'iga sayr*
2. *Olxo'ri mevasining foydasini bilasizmi?*
3. *Sabzavotlar: lavlagi, rediska, turp*
4. *Kuzgi daraxt (xurmo)*
5. *Xona o'simliklari (yorongul, navro'zgul)*
6. *Biz ekan sarimsoq*
7. *Boychechak guli*
8. *Gullagan shaftoli daraxti*
9. *Qizil chinnigul*
10. *Poliz ekinlari (qovun, tarvuz)*

Hayvonot dunyosi

1. *Xushovoz bulbul(surat orqali, disk)*
2. *Olmaxon(surat orqali)*
3. *Bo'ri(surat orqali)*
4. *Tabiat burchagidagi toshbaqa*
5. *Akvariumdagi baliqcha*

6. O‘rdak va jo‘jalar(surat orqali)
7. Echki va uloqcha(surat orqali)
8. Hasharotlar: ninachi, tilla qo‘ng‘iz
9. Kurka va jo‘jalar(surat orqali)
10. Uy va yovvoyi hayvonlarni guruhlash

Sayrda

Jonsiz tabiat

1. Ob-havodagi o‘zgarishlar (turli fasllarda kuzatish).
2. Tosh-qattiq, qum-sochiluvchan.

Jonli tabiat

1. Maydoncha bo‘ylab maqsadli sayr (turli fasllarda).
2. Maydonchamizga qushlar (kabutar, musicha, qaldirg‘och, mayna, zag‘izg‘on, mayna) uchib keldi.
3. Bahor darakchilari: boychechak, binafsha.
4. Dorivor o‘simliklar (moychechak, yalpiz)
5. Muassasa bog‘idagi daraxtlar (turli fasllarda).
6. Gulzorimizdagi gullar.

Mashg‘ulot namunasi

Mavzu: Ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi

Maqsad: bolaning tun va kun haqidagi tushunchalarini mustahkamlash;

Kattalar va bolalar sutkaning turli vaqtlarida qanday harakat qilishlari haqida suhbatlashish orqali bolalarning ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi haqidagi tasavvurlarini kengaytirishdan iborat.

Vazifalar:

Bolalarni kun qismlarini farqlashga o‘rgatiladi.

Bolalarga “ertalab”, “kunduzi”, “kechqurun” so‘zlarini, vaqtni to‘g‘ri belgilab gapirish doimiy o‘rgatib boriladi.

Kutilayotgan natija: Bolalar ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi so‘zlarining ma‘nosini tushunadilar, kun qismlarini farqlashni o‘rganadilar. Bolalar nutqda “ertalab”, “kunduzi”, “kechqurun” so‘zlarini, vaqtni to‘g‘ri belgilab gapirishni o‘rganadilar.

Kerakli jihozlar: Ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi so‘zlarining ma‘nosini anglatuvchi rasmlar tayyorlash.

Mashg‘ulotning borishi: Tarbiyachi: Bolalar, bugun biz siz bilan kun davomida nimalar bilan shug‘illanishimiz haqida suhbatlashamiz. Bolalar quyosh chiqadi. Xo‘rozlar qichqirib bolalarni uyg‘otadi, bolalar bog‘chaga keladilar. Bu qaysi vaqt bo‘ladi? Siz bog‘chaga qachon kelasiz? (Ertalab)

Quyosh charaqlab nur sochadi. Bolalar o'ynagani ko'chaga chiqadilar. Bu qaysi vaqt bo'ladi? (Kunduzi)

Ko'cha chiroqlari, uydagi chiroqlar yoqilsa, oila a'zolari hammasi uyda yig'ilib, ovqatlanadilar. Televizor ko'rib dam olib o'tirishadi. Bolalar oqshom ertaklarini eshitsalar, bu qaysi vaqt bo'ladi? (kechqurun)

Hamma kattalar, bolalar, uyquga yotadilar. Bu qaysi vaqt bo'ladi(tun) ?

Tarbiyachi: Siz ertalab turib nima ishlar qilasiz? (ertalab turamiz, yuz qo'limizni yuvamiz, o'rnimizni tuzatamiz va bog'chamizga kelamiz).

Bolalar uchun amaliy ish.

Tarbiyachi: Bolalar suratga qarab kun qismlari haqida gapirib beradilar

Mavzu: Yong'oq daraxti

Maqsad: bolani yong'oq daraxtining tashqi ko'rinishi, mevasi, bargining tuzilishi bilan tanishtirish. Uni asliga qarab va rasmlardagi tasviri asosida farqlash ko'nikmasini tarkib toptiriladi.

Daraxtlarning yaxshi o'sishida kattalarning mehnati haqidagi tasavvuri mustahkamlanadi.

Kutilayotgan natija: Yong'oq daraxtini asliga qarab va rasmlardagi tasviri asosida farqlay oladilar.

Kerakli jihozlar: yong'oq daraxtining rasmi, mevasining rasmi, mavzuga mos suratlar, tarqatma materiallar.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: Bolalar, bog'imizda mevali daraxtlar ko'p. Bugun bog'imizda o'sadigan mevali daraxtlardan biri haqida suhbatlashamiz. Bu qanday daraxt? (bolalar javoblari)

Yong'oq daraxtining tanasi qanday?

Barglari qanday?

Mevasining nomi nima?

Yong'oq daraxti qachon meva beradi?

Bog'imizdagi daraxtlarni kim parvarishlaydi?

Bog'bon ishini kuzatganmisiz?

Tarbiyachi: To'g'ri, bolajonlar, yong'oq daraxtdan kuz faslida yig'ib olinadi. Bog'bon doimo daraxtlarni parvarishlab suv quyib turadi. Shuning uchun bizning bog'imizdagi daraxtlar serhosil bo'ladi.

Yong'oqni bolalar, qishin-yozin iste'mol qilsak bo'ladi, ularni quruq yerda saqlab, yil davomida iste'mol qilsak bo'ladi. Yong'oq dasturxon ko'rki. Biz yong'oqni ko'pincha magiz bilan qo'shib istemol qilamiz-a? Qanday mazali bo'ladi?

Yong'oq och jiggar rangda bo'ladi. Yong'oqni silab ko'ramiz. Yong'oq g'adur-budur ekan. Yong'oqni yeb ko'rib ta'mini aytamiz? Yong'oq

mag'izlarini tarbiyachi bolalarga qoshiqlarga solib yediradi. Ta'mi qanday ekan? (Mazali) Yong'oqdan turli pishiriqlar pishiriladi. (yong'oqli pirog, yong'oqli muzqaymoq, yong'oqli bulochka)

"Yong'oq daraxti haqida gapiramiz" o'yini o'tkaziladi.

Katta guruhda tabiat bilan tanishtirishning ish mazmuni

Jonsiz tabiat.

Bolaning tabiat hodisalariga qiziqishini orttirish va bilimlarini yanada kengaytiriladi (qor, do'l yog'ishi, tuman tushishi, momaqaldiraq v.b.);

Bolaga suvning inson hayoti uchun nihoyatda zarurligi, suvsiz hayot bo'lmasligini, yer yuzidagi eng bebaho boylik suv ekanligi, suvni asrash, tejash, isrof qilmaslik lozimligi haqida ta'kidlab boriladi;

Oddiy sabab-oqibat aloqalarini tushunishlariga yordam berish, amaliy tajribalar asosida ko'rsatiladi.

Issiqda muzning suvga aylanishi va aksincha past harorat ta'sirida suyuq holatdan qattiq holatga (suvning muzga) o'tishi haqidagi tasavvuri kengaytiriladi.

Suvning bug'ga va aksincha, bug'ni suvga aylanish hodisalari bilan tanishtiriladi.

Tog', o'rmon, daryo singari o'ziga xos geografik atamalarning nomlarini bilishga qiziqish uyg'otiladi.

O'zbekistonda yuksak tog'lar, qalin o'rmonlar, dengiz va daryolar borligi haqida suhbat olib boriladi. **Misol uchun:** *Daryo – tog'dan boshlangan irmoqlardan hosil bo'ladi. Daryolarning suvlari dengizga quyiladi. Daryo suvlaridan dala va bog'larni sug'orishda, aholi ehtiyojini qondirishda foydalaniladi. O'rmon – eng ko'p daraxt o'sadigan joy. O'rmon daraxtlari tabiiy ravishda vujudga keladi. O'zbekistonning tog'li qismida o'rmonlar bor. Tog' o'rmonlarida mevali, manzarali daraxt va butalar o'sadi.*

Bolani mustaqil fikrlashga, dalillar keltirib, bemalol asoslab berishga undash (suvdan yengil bo'lgan narsalar suvga cho'kmasligi, suvdan og'ir bo'lgan narsalar cho'kishini oddiy tajriba asosida amaliy ko'rsatib tushuntirish).

Jonli tabiat

O'simliklar dunyosi

Sabzavotlar- sabzi, kartoshka, piyoz, pomidor, bodring, sholg'om, sarimsoq, turp, rediska, lavlagi; mevalar: olma, gilos, o'rik, olcha, anor, nok, shaftoli, olxo'ri, xurmo haqidagi tasavvurlari aniqlanib mustahkamlanadi. Karam, baqlajon, gulkaram, bulg'or qalampiri, mevalardan qulupnay, behi, nok bilan tanishtirish, ularning rangi, shakli, mazasi, shifobaxshligi haqidagi tasavvurlari boyitiladi.

Sabzavotlar va mevalar haqidagi umumlashtirilgan tasavvurlarni quyidagi belgilariga qarab shakllantirish: sabzavotlar polizda, mevalar esa bog'da yetishtiriladi. Ular inson salomatligi uchun shifobaxsh dori-darmonlarga boyligi, mevalardan murobbolar, sharbatlar tayyorlanishi haqida to'xtalib o'tiladi.

Poliz ekinlari (qovun, tarvuz, qovoq) haqidagi tasavvurlari aniqlanib kengaytiriladi.

Bolaning o'simliklar olami to'g'risida tasavvurlarini kengaytirish. Daraxt, buta va o'tsimon o'simliklarning o'ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha berish: daraxt va butalarning tanasi qattiq, ular ko'p yillik o'simlik hisoblanadi; o't o'simliklarining poyasi esa yumshoq bo'lib, ular bir yillik bo'ladi, ya'ni har yili bahorda o'sib chiqadi. Daraxtlarning tanasi bitta, butalarning tanasi esa bir nechta bo'lishi, butalarning tanasi daraxtlarnikiga qaraganda ingichka va bo'yi past bo'lishi haqida qiziqarli tarzda, ko'rgazmalilik asosida so'zlab beriladi.

Bolani manzarali daraxtlar (chinor, terak) bilan tanishtirish. Ularning tanasi, po'stlog'i va barglarini bir-biriga solishtirish, farqlarini aniqlash, to'kilgan barglarni yig'ib, qaysi daraxtniki ekanligi so'raladi.

Butasimon o'simliklar (na'matak, malina)ni kuzatish, barglarining shakli, rangi, mevalariga qarab qiyoslash, nomini aytish, bir-biridan farqlanadi.

Bahor tabiatning uyg'onish fasli ekanligi haqidagi tasavvurlarini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish. Ba'zi daraxtlar (bodom, o'rik) avval gullab, so'ng barg chiqarishi, ba'zilar esa barg chiqarib (olma, behi) so'ng gullashi tushuntiriladi.

Ayrim o'simliklarning piyozidan, daraxtlarning qalamchasidan, butasidan ko'payishi mumkinligini tushuntirish, maktabgacha ta'lim muassasasi hovlisida erta gullaydigan daraxt va gul ko'chatlarini ekish, tagini yumshatish va sug'orishga o'rgatiladi.

Bolaning urug'lardan o'simlik o'stirilishi (2-3 xil gullaydigan o'simliklar misolida), o'simlikning o'sishi va rivojlanishidagi asosiy bosqichlar (urug' unib chiqishi, yaproqli poya, gul, urug'), o'simlikni parvarishlash usullari (chopilgan yerga o'tkazish, suv quyish, yerni yumshatish, o'toq qilish, ozuqa berish) haqidagi tasavvuri shakllantiriladi.

O'simliklarning tuzilishi, ildiz qismining vazifalari bo'yicha bilganlarini aniqlash va kengaytirish: o'simliklar ildizlari orqali oziqlanadi, ildiz suvni, ozuqa moddalarni shimib oladi, tanasi orqali shoxlariga, yaproqlariga, gullaridan mevalarga o'tkazadi. O'simliklarning o'sishi uchun havo, suv, quyosh, ozuqali tuproq zarurligini amaliy tajribalar orqali tushuntiriladi.

Bolaga o'simlikka zaruriy sharoit yetishmayotganligini bildiruvchi alomatlar haqida qisqacha ma'lumot berish: yorug'lik kam bo'lganida o'simlik yorug'lik tomonga cho'ziladi, uning yaproqlari va poyasi oqaradi, ozuqa

moddasi kam tuproqda o'simliklar sekin o'sadi, issiq bo'lmasa urug' unmaydi, barglar yozilmaydi, suv bo'lmasa o'simliklar qurib qoladi.

Tabiat burchagida "qishki poliz maydonchasi" barpo etish: rayhon, piyoz, sarimsoq, turli ko'katlar ekish, unib chiqishini kuzatish va parvarishlash. Mehnatga va unda ishtirok etishga bo'lgan ishtiyoq tarbiyalanadi.

Yozning dastlabki oylarida mevali daraxtlar, polizdagi sabzavotlar, gulzordagi o'simliklarning rivojlanishidagi o'zgarishlar kuzatiladi va bolani ekinzordagi o'simliklarni parvarish qilishda yordamlashishga o'rgatiladi.

O'simliklar bilan bevosita muloqot qilishning xavf-xatari to'g'risida ogohlantirish. Ayrim o'simliklarni bilmay turib (zaharli zamburug'lar, qo'ziqorinlarni) iste'mol qilish xatarli ekanligi haqida alohida tushuntiriladi.

Bolaning ilk ekologik madaniyatini tarbiyalashda davom etish. Tabiatga zarar yetkazmaslik, ekologiyani buzmaslik (tevarak-atrofni iflos qilmaslik, hayvon va qushlarga ozor bermaslik, uyalarini buzmaslik, o't-o'lanlarni bosmaslik, daraxt shoxlarini sindirmaslik, gullarni yulmaslik, buning oqibatida gullar, kapalaklar yo'q bo'lib ketishi)ni tushuntiriladi.

Gullaydigan madaniy (rayhon, kartoshkagul, chinnigul) o'simliklar; o't o'simliklar (qoqio't, lolaqizg'aldoq, boychechak, moychechak haqidagi bilimlarini mustahkamlash) va dorivor o'simliklar (sachratqi, bargizub, otquloq) bilan tanishtirish. Ularning nomlari va ranglarini to'g'ri aytishga o'rgatish. Shu bilan birga bolaning e'tiborini barglarning shakliga, poyasi va gullaridagi farqlarga, ularning shifobaxsh xususiyatlariga qaratish.

Xona gullari fikus, yorongul, navro'zgul haqidagi bilimlarini mustahkamlash va aloe, koleus bilan tanishtirish, ularni parvarish qilish yo'llarini, ko'chirib o'tqazishni tushuntirishni davom ettiriladi.

Hayvonot dunyosi

Yovvoyi hayvonlar. O'rmon hayvonlari: bo'ri, quyon, ayiq haqidagi bilimlarini mustahkamlash hamda sher va yo'lbars haqida tushuncha berish. Hayvonlarning tashqi qiyofasi, yashash tarzi, o'ziga xos xususiyatlarini ta'riflash ko'nikmasini shakllantirish. Ular qaerda yashaydi,

o'ziga qanday uy quradi, qanday yuradi, kuzda, qishda nima bilan oziqlanadi, qishga qanday tayyorgarlik ko'radi. Bolani hayvonlarning ko'rinishi va tabiatidagi o'xshashlik va farqli tomonlarni ajratish (o'rmon hayvonlari, yirtqich hayvonlar) o'rgatiladi.

Ayrim hayvonlar (daydi it va mushuklar) bilan bevosita muloqot qilishning xavf-xatari to'g'risida bolaga alohida tushuncha berish va qattiq ta'kidlab aytish. Hayvonlarga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish tushuntiriladi.

Uy hayvonlari (tuya, ot, sigir, qo‘y, echki) va parrandalar (tovuq, xo‘roz, kurka, o‘rdak)ning hayoti va sharoitlari haqidagi bilimlarini mustahkamlash. Odamlar uy hayvonlari hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan sharoitni yaratishi, uy hayvonlarining kishilar hayotida tutgan o‘rni, foydasi haqidagi tasavvurlari kengaytiriladi.

Qushlar (laylak, turna, qizilishton)ning ovqatlanishi, tashqi ko‘rinishi, o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlarini ajratishga o‘rgatish. Bolaga respublikamizda qishlab qoluvchi qushlar haqida tushuncha berish, ularga qishda g‘amxo‘rlik ko‘rsatish va xayrixohlik munosabatini tarbiyalash davom ettiriladi.

Bahor faslida kunlar ilishi bilan barcha hayvonlar va parrandalar faol hayot boshlashi haqidagi tasavvurlarini boyitish. Qushlarning harakatini kuzatish, in qurishi, tuxum qo‘yishi, bola ochishi haqidagi tushunchalari kengaytiriladi.

Bola bilan qushlarning sayrashini tinglash va farqlashni o‘rgatish, qushlarning issiq o‘lkalarga uchib ketishi haqida suhbat olib boriladi.

Ninachi, chumoli, asalari, xonqizi, tillaqo‘ng‘iz, kapalaklarning hayot tarzi, oziqlanishi (kapalak, asalari – gullar shirasi bilan oziqlanadi v.b.), ular o‘z dushmanlaridan qochish uchun yaxshi moslashganliklari (ninachi, kapalak tez uchadi, chigirtka sakraydi) haqida qiziqarli misollar bilan izohlanadi.

Jonivorlar yashaydigan turli muhit (baliq – suvda, bo‘ri – o‘rmonda, qurbaqa – botqoqlikda, kapalak va chigirtkalar – o‘tloqda) haqidagi tasavvuri kengaytiriladi.

Bolani akvariumdagi baliqlarga ozuqa berish va qafasdagi qushlarga, jonivorga suv, don berib, mehribon bo‘lishga undashdan iborat.

Katta guruhlarda ta’lim-tarbiyaviy ish mazmunining mavzulari

Jonsiz tabiat

1. Tog‘, o‘rmon, daryo. (surat orqali, disk).
2. Suvning bug‘ga va bug‘ni suvga aylanishi (amaliy tajribalar).
3. Suvning muzga va muzning suvga aylanishi (amaliy tajribalar).
4. Qor bilan tajriba o‘tkazish (qor, muz, suv) (amaliy tajribalar).
5. Tuproq, tosh va qumning, xossalari(amaliy tajribalar).
6. Havo bilan amaliy tajribalar
7. Un va xamir turish xususiyatlari(amaliy tajribalar).
8. Paxtaning xususiyatlari. Chigitdan yog‘ olamiz(amaliy tajribalar).
9. Qog‘oz xususiyatlari bilan tanishish
10. Magnit va uning xususiyatlari bilan tanishtirish.
11. Ust, bosh va oyoq kiyimlar tayyorlash uchun matolarni nimadan tayyorlaydilar (hayvonlar juni, paxta, shoyi, teri, pat, ipak, somonlar)

Jonli tabiat
O‘simliklar dunyosi

12. Mevalar: qulupnay, behi, nok, yong‘oq.
13. Sabzavotlar: karam, baqlajon, bulg‘or qalampiri, gulkaram.
14. Sabzavotlar bilan amaliy tajribalar.
15. Xona gullari: koleus, aloe.
16. O‘simliklarni qalamchasidan, butasidan ko‘paytirish.
17. Poliz ekinlari: qovun, tarvuz va qovoq.
18. Butasimon o‘simliklar: na‘matak va malina.
19. Biz ekkan rayhon. Ekilgan rayxonni parvarishlash.
20. Bug‘doy urug‘ini ivitish va ekishga tayyorlash

Hayvonot dunyosi

21. Ot (surat orqali, disk).
22. Yo‘lbars va sher (surat orqali, disk).
23. Tuya bo‘talog‘i bilan (surat orqali, disk).
24. Qushlar (laylak, turna, qizilishton, disk).
25. Akvariumdagi baliqcha.
26. Tovus (surat orqali, disk).
27. Tipratikan (surat orqali).
28. Chumoli va chigirtka.

Sayrda

Jonsiz tabiat

29. Ob-havo holati (qor, yomg‘ir, do‘l yog‘ishi, momaqaldiroq, tuman tushishi).
30. Muassasa bog‘iga sayr (fasllarga xos belgilarini farqlash).

Jonli tabiat

31. Dorivor o‘simliklar (sachratqi, bargizub, otquloq).
32. Madaniy va dorivor o‘simlik: rayhon.
33. Maydonchadagi qushlar
34. Qora qarg‘alar.
35. Gulzorimizdagi gullar.
36. Muassasa bog‘idagi mevali va manzarali daraxtlar (turli fasllarda).

Mashg‘ulot namunasi

Mavzu: Xo‘roz, tovuq va jo‘jalar (surat orqali).

Mashg‘ulotning maqsadi: Bolalarni uy parrandalariining kishilar hayotida tutgan o‘rni, foydasi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

Bolalarning e'tiborini parrandalar tanasining asosiy qismlariga qaratish. Ularning hatti-harakatiga aniqlik (uchadi, qo'noqqa qo'nadi, cho'qiydi) kiritish. Bolalarni parrandalarning ko'payishi haqidagi tushunchalari kengaytiriladi.

Parranda poloponlari tuhumdan chiqqanda ularning tanasi yung yoki pat bilan qoplanmagan, ko'zi yumuq bo'lishi, ota-onalari ular haqida g'amxo'rlik qilishlari, isitishi, ovqatlantirishi, dushmanlardan qo'riqlashi, ovqat izlab topish, yurish, uchish, tirmashib chiqish va sakrashga o'rgatishlari haqidagi tushunchalarini aniqlash va kengaytirish. Parrandalarga nisbatan g'amxo'r bo'lishga o'rgatib boriladi.

Mashg'ulot jihozlari: "Xo'roz, tovuq va jo'jalar" surati

Mashg'ulotning borishi: Tarbiyachi bolalarga ko'rinarli qilib "Xo'roz, tovuq va jo'jalar" suratini ilib qo'yadi. Bolalar rasmni ko'rib chiqadilar va suratdan xo'roz, tovuq, jo'jalarni topadilar. Tarbiyachi bolalardan xo'roz tovuqdan, tovuq jo'jalardan nimasi bilan farq qilishini so'raydi.

Tarbiyachi: Bolalar, xo'roz, tovuq va jo'jalar qayerda yashaydilar? To'g'ri, bolalar, bular xonodonlarda yashaydi. Ularni odamlar boqadilar. Xo'roz, tovuq va jo'jalarga don, no'xat, bug'doy berib boqishadi.

Bolalar, suratga qarang, xo'roz qanday? To'g'ri, xo'roz katta. Xo'roz qanday ovoz chiqaradi?

Tovuq qanday? To'g'ri, tovuq katta. Tovuuq qanday ovoz chiqaradi? Tarbiyachi bolalar bilan xo'roz, tovuq va jo'jalarning ovozlari imitatsiya qiladi (Qu-qa-ra-qu-qu, qoq-qoq, chip-chip)

Jo'jalar-chi? Jo'jalar kichkina. Jo'jalarning rangi qanday? (sariq, qora). Suratda sariq jo'jalar nima qilishyapti? Qora jo'jalar nima qilishyapti? Kimning uyida tovuq, jo'jalar bor? Ularga don, suv berganmisiz? Tovuuq donni cho'qilab yeydi. Chunki tovuqning tishi yo'q. Tumshug'i bilan cho'qilab yutib yuboradi. Tovuuq o'z jo'jalarini qanday parvarish qiladi? Yegulik topib olsa jo'jalarni yoniga qanday chaqiradi? To'g'ri, tovuq jo'jalarga yegulik topib olsa "qoq-qoq-qoq-qoq" deb chaqirib oladi. Jo'jalar o'zlari yegulikni qaerdan qidirishadi? To'g'ri, yerni oyoqlari bilan titkilashadi? Jo'jalar yegulikni tumshuqchalari bilan cho'qilaydilar.

8.9. Turli fasllarda bolalarni tabiat bilan tanishtirish usullari

Kuz fasliga tavsif

Ob-havodagi o'zgarishlar. Kuzda harorat asta-sekin pasayib boradi, buning natijasida o'simlik va hayvonot dunyosi hayotida o'zgarish hamda susayish ro'y beradi (o'simlik barglari sarg'ayadi, to'kiladi, ba'zi qushlar uchib ketib, boshqalari uchib keladi va hokazo). Sentyabr kuz faslining birinchi oyidir, biroq O'zbekistonda sentyabr oyida ham yoz faslidagidek issiq bo'ladi. Sentyabr

oyida havo issiq bo‘lib, kechalari harorat +7 darajagacha tushib ketadi. Kunduz kunlari esa +20+25 darajagacha ko‘tariladi. Oktyabr odatdagidek kuz oyi hisoblanadi. Bu oyda o‘lkamiz quyoshli, issiq va quruq bo‘ladi, kunning birinchi yarmida harorat +7+10 daraja bo‘ladi, kunduz kunlari +15+23 darajaga, ba’zi hollarda esa +27 darajagacha ko‘tariladi. Ana shunday juda issiq vaqtlarda o‘simliklar, ayniqsa gunafsha, dastargul va boshqalar 2 marta gullaydi. Hayvonlar dunyosida ham bahorgi hodisalarning takrorlanishini ko‘rish mumkin: g‘urraqlar g‘urullay boshlaydi, to‘rg‘aylar sayraydi, qurbaqalar qurullaydi, ba’zi bir hasharotlarda esa kuzgi urchish boshlanadi.

Oktyabr oyining ikkinchi yarmida harorat odatda pasayadi, ertalab +3+5 daraja bo‘lib, kunduz kunlari esa +16+20 darajagacha ko‘tariladi. Uzoq yillik tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘simliklarning katta qismini va ayniqsa, qishloq xo‘jalik o‘simliklaridan paxta, kartoshka, pomidor, bodring va boshqalarni sovuq uradigan ayozlar o‘lkamizda taxminan 12—18-oktabrlarda boshlanadi. Sovuq tushishi — bu haroratning qisqa vaqtli pasayishi bo‘lib, yer qatlamlari va yer yuzasining ustki qatlamlari nol’ darajadan pastroq bo‘ladi. Ana shunday dastlabki ayozlar kuz faslining boshlanganidan dalolat beradi. Shimoliy kenglikdan sovuq shamol esa boshlashi bilan sovuqlar boshlanadi. Sovuq darajasi joyning relefiga va tuproqning issiqligiga bog‘liq bo‘ladi. Odatda, sovuq tushganining dastlabki kuni kunduzi, ba’zi hollarda esa tunda havoning bulutli bo‘lishi kutiladi. Agar, kechasi osmon bulutsiz bo‘lsa, yer ustki qatlamlarining parlanishi natijasida yerning yuza qatlami muzlaydi. Bunday sovush yer qatlamlariga tegib, havoning haroratini yanada ko‘proq pasaytiradi. Sovuqning dastlabki to‘lqinlari o‘zi qoplagan barcha hududni ozgina muzlatadi, u faqatgina past joylarga tarqaladi va bir-ikki kun davom etadi. Agar havo to‘lqinining harorati nol’ darajadan past bo‘lsagina muzlash barcha hududga yoyilishi mumkin. Shunda tuproq va o‘simliklarning ustki qatlamlariga ertalabki shudring tushadi. Ba’zi vaqtlarda oktyabr oyida kuchli va sovuq shamollar aralash yomg‘irlar ham yog‘ib o‘tadi. Bunday paytlarda tarbiyachi bolalarning diqqat-etiborini daraxtlarning katta shoxlari va ingichka novdalarning tebranishiga jalb etadi. Noyabr qishga o‘tish oyi hisoblanadi. Odatda noyabr oyida o‘lkamizda ob-havo qulay bo‘lmaydi. Goh yomg‘ir, goh qor yog‘adi, kun goho iliq, goho sovuq bo‘lib turadi. O‘simliklar hayotidagi o‘zgarishlar. O‘zbekistonda, asosan, paxta yetishtiriladi. Bu vaqtda g‘o‘za barglari bir tekisda yetila boshlaydi (g‘o‘za chanoqlari pishib, asta-sekin ochila boshlaydi va momiqdek oq paxta paydo bo‘ladi). Bog‘larda kechki olmalar, kechki uzumlar, yong‘oq pishib yetiladi, shuningdek, O‘zbekiston uchun xos bo‘lgan behi, anor pishadi, yovvoyi do‘lana, olcha va na’matak hamda bolalarning eng sevimli mevalaridan biri — jiyda pishadi. Gulxonalarda gultojxo‘rozlar, xrizantemalar

gullaydi, floks va boshqa gullar esa soʻliy boshlaydi. Kuzning tushishi avvalo mevasiz daraxtlarga taʼsir qiladi. Birinchi galda bu daraxtlarning barglari sargʻaya boshlaydi. Bunday oʻzgarishlarni bolalar butun kuz davomida kuzatib boradilar. Ushbu davrda maʼlum turdagi oʻsimliklarning hammasi birdaniga oʻzgarmaydi, albatta. Bu vaqtda ularning bir qismi «kuz libosi»ni kiya boshlaydilar, boshqa bir qismi esa, oʻzining yozgi holatini toʻla qoplaydi (barglari koʻm-koʻk boʻladi). Oʻsimliklarning yoshi ham maʼlum darajada taʼsir qiladi, qari daraxtlarda yosh daraxtlarga nisbatan ilgariroq oʻzgarish koʻzga tashlanadi. Barglarning rang oʻzgarishlari xlorofillning parchalanishi bilan bogʻliq boʻladi. Xlorofill donalarining yordami bilan daraxt barglari butun yoz davomida karbonat kraxmal oladilar. Yoz davomida xlorofill koʻproq hosil boʻladi va kamroq parchalanadi. Kuzda haroratning pasayishi bilan xlorofillning hosil boʻlishi kamayadi. Aksincha, quyosh nurlarining taʼsiri ostida xlorofillning parchalanishi kuchayadi. Shuning uchun xlorofillning umumiy miqdori kamayib boradi. Xlorofill murakkab modda boʻlib, bir necha (rang beruvchi) pigmentlardan: ikkita koʻk va ikkita sariq pigmentdan iboratdir. Xlorofillning parchalanish vaqtida (koʻk va sariq pigmentlar) sariq rangdagi yana yangi moddalar paydo boʻladi. Ana shu moddalar kuzda barglarni sariq rangga boʻyaydi. Barglardagi hosil boʻlgan pigmentlar, oradan birmuncha vaqt oʻtgach parchalanadi va barglar qoʻngʻir tusga kiradi. Barglarning qoʻngʻir rangga kirishi ularning xazon boʻlishidan dalolat beradi. Bundan tashqari barglarning sariq tuslari qizgʻish tusga, qizgʻish tusdan toʻq binafsha tusga oʻtadi. Maktabgacha taʼlimlarining tarbiyachilari esa tabiatda boʻlayotgan bunday oʻzgarishlarga bolalarning eʼtiborini jalb qiladilar. Bu rang antotsian deb ataluvchi alohida pigmentga bogʻliq boʻladi. Har turli qizgʻish barglarning tusi barglardagi nordon va ishqor moddalarning mavjudligiga bogʻliq boʻladi. Kuchli yorugʻ va past harorat boʻlgandagina barglarda antotsian hosil boʻladi. Barglarda shakar moddalarining mavjudligi antotsian hosil boʻlishining muhim shartlaridan biridir. Maʼlumki, kuzda harorat pasayishi bilan shakar kraxmalga aylanadi. Barglarning kuzdagi rang oʻzgarishi bilan tiniq rangli zarang ilgariroq oʻzgara boshlaydi (ular och sariq rang hosil qiladilar) va majnuntolning barglari toʻq sariq, oqish tusga kiradi. Uzum, oʻrik, nok va keyinroq esa qayragʻoch, shaftoli va boshqa daraxtlarning barglari sargʻayib, qizgʻish tusga kiradi. Oktyabr oyida, odatda, quruq ob-havo sharoitida barglar rangining oʻzgarishi tezlashadi va ular oʻziga xos goʻzallik kasb etadi: barglar yana ham ravshanroq tus oladi. Tarbiyachi bolalarning diqqat-eʼtiborini daraxtlarning goʻzalligiga jalb qiladi. Bolalar barglardan guldastalar yasaydilar va ular bilan tabiat burchaklari, shkaflar, jovonlarni bezatadilar. Barglarning rangi oʻzgara borishi bilan asta-sekin xazon boʻla boshlaydi va oʻsimliklarning qishga tayyorlanishiga zamin

hozirlaydi, chunki bunday tayyorgarlik o'simliklar hayoti bilan bog'liqdir. Oktyabr oyida barglar to'kila boshlaydi. Avvalo zarang daraxtining barglari to'kiladi, keyinchalik esa, akatsiya, qayrag'och, gledichiya, eman, yong'oq, oq terak va chinorlarning barglari to'kila boshlaydi. Zarang daraxtining siyraklashgan barglari orasidan juft-juft bo'lib o'suvchi bir pallali meva boshlari ko'rinib turadi. «Pallalar» orasida jigarrang, yumaloq urug'lari bo'ladi. Kuzda to'kilgan urug'dan yana daraxt o'sib chiqaveradi. Zarang daraxtining urug'lari juda ko'p bo'ladi, uzoq payt yaxshi saqlanadi (buzilmaydi), shuning uchun bu daraxtning unib o'sishini kuzatish va shunday daraxtlarni ekib o'stirishga bolalarni jalb qilish oson. Shu maqsadda kuz faslida zarang, shumtol va boshqa daraxt navlarining urugiarini yig'ish tavsiya etiladi. Xazonrezgilik o'simlik hayotida katta ahamiyatga egadir. Agar barglar to'kilmaganida, eski barglar daraxt tanasidagi namlikni parlatib yuborar, natijada daraxtlar qurib qolgan bo'lar edi, shuning uchun ham barglarning to'kilishi o'simliklarni qurib qolishdan saqlaydi. Bundan tashqari, barglar to'kilmasa, qishda qorni tutib qolub, novdalarga zarar yetkazar edi. Barglarning to'kilishi bilan o'simliklarning hayot kechirishlari uchun zararli bo'lgan shavel kislotasi yo'qoladi, Bu nuqtai nazardan qaraganda o'simliklar bargining to'kilishi ularning yashashi uchun tug'ilgan yangi shart-sharoit hisoblanadi. Barglarning to'kila borishi turli daraxtlarda turlicha, eman daraxtining barglari bir necha kundayoq to'kilib bo'ladi, teraklarda esa uzoqroq saqlanadi. Jumladan, terak sovuq tushguncha ko'karib turadi, sovuq tushgach esa barcha barglari tezda to'kiladi. Bolalar barglarning to'kilishi ustida bir necha marta kuzatish olib borishlari natijasida kuz fasliga xos xazonrezgilik haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'ladilar. Noyabr oyida daraxt va butalarning barglari ko'proq sarg'ayib qo'ng'ir tusga kiradi, keyinchalik asta-sekin to'kilib tamom bo'ladi. Eman, chinor va boshqa daraxtlarning barglari ayrim hollarda qattiq sovuq tushgunga qadar ham ko'm-ko'k bo'lib turadi.

Qushlar va hasharotlar hayotidagi o'zgarishlar. Sentyabr-oktyabr oylarida o'lkamizga go'ngqarg'alar uchib kelishadi. Biz ularni maktabgacha ta'lim muassasasi bog'larida ham ko'ramiz. Ular bizga tog'lardan tushib uchib kelishadi (bu qushlar bahor va yoz fasllarida tog'larda yashaydilar). Go'ngqarg'alar kunduz kunlari dalalarga uchib ketishadi va hosili yig'ib olingan ekin maydonlaridan don va turli begona o'tlarning urug'larini terib yeydilar. Qarg'a turli qoldiqlarni yeydi. Toshkentning chekka joylarida sentyabr oyining ikkinchi yarmida qizilto'shlar (o'rmon sayroqi qushi) paydo bo'ladi. Ba'zan ular Toshkent bog'larida aprel oyining oxirigacha bo'lishadi. Odatda ular to'da-to'da bo'lishib O'zbekistonning havzalarida ko'chib yuradi. Sentyabr oyida qorayaloqlar, chittaklar va issiq mamlakatlarga uchib ketayotgan tilla rangli

qushlarni ko'rish mumkin. Tog' o'rmonlaridan vodiylarga tushib kelgan zag'chalarning katta to'dasini ham ko'rish mumkin bo'ladi. Zarg'aldoq, qaldirg'och, bulbul, chivinxo'r qushlar, moyqutlar, jibljibon, ko'kqarg'a va boshqa shu kabi qushlar janubdan issiq mamlakatlarga uchib ketadilar. Qushlar uchib ketishga odatlanib qolganliklari, shuningdek, hasharotlarning (kapalak, ninachi, qo'ng'izlarning) sekin-asta yo'qola borishi tufayli uchib ketishadi. Chunki bu hasharotlar ana shu qushlar uchun ozuqa bo'lib xizmat qiladi. Sentyabr oyida laylaklar, g'ozlar, o'rdaklar va turnalar o'z inlariga yig'iladilar va uchib ketishga tayyorlanadilar. Tovuqlar tullay boshlaydi. Ularning deyarli barcha patlari to'kilib, yangidan chiqadi. Shu bilan birga, ular qishki sovuqlarga tayyorlana boshlaydilar. Uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarda ham qish sharoitiga monand keladigan tuklar o'sa boshlaydi. Sentyabr oyida asalarilar ham qishga tayyorlana boshlaydilar. Ular o'zlarining asal zahiralari uylarining bir tomoniga olib o'tadilar, o'z uylarini isitadilar, keraksiz teshik va yoriqlarni bekitadilar, o'z uylaridan o'rgimchaklarni haydab chiqaradilar, chunki o'rgimchaklar qish vaqtida asalarilar uchun ortiqcha yuk bo'lib, asal zahiralari yeb qo'yishlari mumkin. O'rgimchaklarning asalalariniki kabi nishlari va jag'lari bo'lmaydi, shuning uchun ular o'zlarini himoya qila olmaydilar, uylarni tashlab chiqib ketib ochlikdan o'lib qoladilar. Asalarilar boshqa hasharotlar singari uzoq uxlamaydilar. Dastlabki sovuqlar tushishi bilanoq turnalar va g'ozlar janub tomonga gala-gala bo'lib uchib ketishadi. Qushlar to'dasining tuzilishi — uchib etuvchi qushlarning xarakterli belgilaridandir. Turnalar odatda o'tkir burchak hosil qilib, g'ozlar esa uzun qiyshiq qator, ba'zida esa burchak hosil qilib uchadilar. Yovvoyi qushlar va kakkulargina alohida-alohida uchib ketadilar. Qushlarning uchib ketishini bolalarni sayrga olib chiqish yo'li bilan kuzatish mumkin. Oktyabr oyining oxirlarida shaharlar va vodiylarda sa'valar paydo bo'ladi va ular mart oyining oxirlarigacha shu yerlarda qoladi. Ular qariqiz, otquloq urug'larini yeb kun kechiradilar. Sa'valar o'zlarining chiroyli patlari va ajoyib ovozlari bilan bolalarni o'zlariga jalb qiladilar. Bolalar sa'valarni tabiat burchaklarida parvarish qilishni o'rganadilar: toza suv, so'k, arpa, pista donlarini maydalab beradilar. Shuningdek, kuz faslida zarang va shumtol daraxtlarining urug'laridan tayyorlangan ozuqalarni beradilar. Sa'valar qirilgan sabzini va bolalar qo'li bilan tabiat burchagida o'stirilgan ko'k sulini zo'r ishtaha bilan yeydilar. Kechalari dalalardan shaharlarga go'ngqarg'a, zag'cha va qarg'alar to'da-to'da bo'lib uchib keladi. Haroratning pasayishi bilan hasharotlar ham asta-sekin yo'qola boradi. Ularning ba'zilari o'ladi, boshqalari esa (sassiq qo'ng'iz) daraxtlarning, (chivinlar, pashshalar) imoratlarning kavaklariga kirib yashirinadilar. Ko'pgina chivinlar xazon bo'lgan barglar ostiga yashirinadilar. Ba'zi hasharotlar qish

uchun tuxumlarini saqlab qo'yadilar (o'simlik biti, kapalak), boshqalar esa lichinka holatida yerda qishlaydilar (tillaqo'ng'izlar). Bolalar ochiq havoga dam olgani chiqqanlarida to'kilgan barglar tagida yotgan hasharotlarni topib oladilar. Oltin kuz davomida uchib yurayotgan o'rgimchak uyasi ko'zga tashlanadi. Uning kumushsimon uzun to'qimasida kichkina o'rgimchak uyachalari, shuningdek, ko'chmanchi qo'ng'izlar bo'ladi. Noyabr oyida shaharda ko'plab go'ngqarg'alar, olaqarg'alar, zag'chalar uchib yuradi. Shaharga dala chumchuqlari uchib keladilar. Ular don izlab to'da-to'da bo'lib uchib yuradilar. Shuningdek, shaharga tog'lardan oqbosh sa'valar, shahar chetlaridan esa so'fito'rg'aylar uchib keladilar. Bog'larda ko'pgina qorayaloqlar va chittaklar paydo bo'ladi. Ular, asosan, tog'lardan uchib keladi. Ko'k chumchuqlarning o'tkir ovozlari ham eshitilib turadi. Hayvonlar hayotidagi o'zgarishlar. Kuz faslida qurbaqalarning vaqirlashi kamroq eshitila boradi. Bunga bolalar e'tiborini jalb qilish lozim. Yosh tipratikanlar mustaqil hayot kechira boshlaydilar. Bolalar tabiat burchagida ularni boqadilar va parvarish qiladilar. Shu paytlarda tog' etaklari va cho'lli zonalarda qum quyonlarini tez-tez uchratish mumkin. Kichikroq ko'rinishdagi, unchalik katta bo'lmagan bu quyonlar o'ziga xos rangga egadir. Ular sariq kurakli va oq rangli bo'ladi. Uning dumi uzun, dumining uchida popukchasi bo'lib, boshi esa cho'zinchoq bo'ladi. Qum quyoni qumlar orasida, saksovul o'rmonlarida va daryolarning qirg'oqlaridagi to'qaylarda yashaydi. Kuz faslida, o'tlar quriganda shahar atrofidagi zonalarda quyonlar yosh daraxtlarning qobiqlarini, cho'lli zonalarda esa cherkes kandim, yulg'un va shu kabi yovvoyi o'simliklarning qobiqlarini kemirib tashlaydilar. Sudraluvchi hayvonlar (kaltakesaklar, ilonlar, toshbaqalar) dong qotib uxlash davriga kiradilar. Sovuq tushishi bilan qurbaqalar hovuz tagidan balchiqlar ichiga kirib ketadilar, cho'l qurbaqalari esa uy atrofidagi kavaklarga kirib, uyquga ketadilar. Tipratikanlar sovuq tushguncha o'zlarining qishgi joylariga ketishadi. Ular qishda to'rt oydan ortiq uxlaydilar. Bu vaqt ichida qimirlamaydilar va hech qanday ovqat ham yemaydilar. Ular ana shu uyqu jarayonida o'zlarining gavda og'irliklarining uchdan bir qismini yo'qotadilar. Ba'zi vaqtlarda maktabgacha ta'lim muassasalarida tipratikanni qish vaqtida ham olib qoladilar. Ularni qutilarga solib, bahorgacha salqin yerda saqlaydilar. Bolalar tipratikanning uyg'onishini alohida qiziqish bilan kuzatadilar. Ko'rshapalaklar sovuq tushishi bilan tashlandiq uylarning shiplariga kelib, osilib olgan holda yashaydilar. Ular yoz mobaynida to'plagan ozuqa zahiralarni qishda juda kam sarflaydilar. Agar ko'rshapalak qishda, issiqroq joylarda yashasa, tez-tez uyg'onib turadi. Qishloq xo'jalik ishlari. Sentyabr oyida O'zbekistonning barcha hududlarida, shu jumladan, Toshkent viloyatida ham asosiy xo'jalik ishlaridan biri — paxta yig'im-terimi boshlanadi. Har bir

chanog‘da 3—5 pallacha bo‘lib, har bir pallachada esa paxta tolalari bilan o‘rab olingan 8—9 tadan chigit bo‘ladi. Paxta tolasida paxtaning eng qimmatbaho qismi hisoblanadi. Paxta tolasidan gazmollar va boshqa ko‘pgina texnik mahsulotlar, chigitidan esa moy, kunjara va boshqa narsalar tayyorlanadi. Sentyabr oyida mevali bog‘larda olma, behi teriladi, uzum uziladi. Bu ishlarda bolalar ham qo‘llaridan kelgancha ishtirok etishlari mumkin. Tarbiyachilar bu paytda bahorda bog‘cha hovlisiga o‘tkazilgan uy o‘simliklarini tabiat burchaklariga ko‘chirib o‘tqazadilar. Gulzorlarda qo‘qongul, xushbo‘y no‘xat, ajdarog‘iz (gullari katta-katta bog‘ o‘simligi), nasturtsiya, petuniy, sambittol, floks va tirnoqgul kabi o‘simliklar urug‘ini terishni davom ettiradilar, bunda bolalar ham qatnashadi. Oktyabr oyida dalalarda ommaviy ravishda paxta yig‘im-terimi davom etadi. Paxta chanoqlari tungi sovuq va kunduzgi issiqning keskin ta‘siri natijasida ochila boshlaydi. Dalalar va polizlarda karam, pomidor, lavlagi, baqlajon, kartoshka singari sabzavotlar yig‘ib-terib olinadi. Bu kabi manzarani qishloq joylarda tez-tez uchratib turish mumkin. Bog‘larda mevali daraxtlarni qish sharoitiga tayyorlaydilar. Yerga o‘simliklar o‘sishtan to‘xtagan vaqtda o‘g‘it solinadi. So‘ngra daraxt atroflari chopib qo‘yiladi, qator oralari haydaladi. Daraxtning ildiziga yaqinroq yerlari yuzaroq haydaladi, chunki daraxt ildizlari yerning ustki qatlamiga yaqinroq turadi. Daraxt ildizlaridan uzoqlashgan yer chuqurroq haydalishi kerak. Bunda daraxt turlarining o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi lozim. Jumladan, nok va olma daraxtlarining ildizlari olcha va olxo‘rilarga nisbatan katta chuqurlikda joylashgan, shuning uchun ham shu daraxtlar atrofidagi yerlarni chuqurroq haydash talab qilinadi. Yerni kuzgi shudgorlash vaqtida tuproqni haddan tashqari maydalab yubormay, balki uni yirik qilib ag‘darish va shu holicha qishga qoldirish kerak, bunday qilinganda tuproq strukturasi yaxshilanib uni saqlab qolishga imkoniyat tug‘iladi. Bundan tashqari yerni yirik-yirik qilib ag‘darish foydali, chunki u namni va qorni yaxshi saqlaydi. Bu esa o‘simlikning yaxshi rivojlanishi uchun juda muhimdir. Odatda qish faslida tuproqning ustki qatlamida zararli hasharotlar yashirinib qoladilar. Yerni haydash va namlash natijasida ular o‘ladilar, demak ular kelgusi yil hosili uchun zarar keltira olmaydilar. Barglarning to‘kilishi bilan barcha zararli hasharotlar ham yerga tushadilar va to‘kilgan barglar orasiga joylashib oladilar. Shuning uchun barcha axlatlarni to‘plash va yoqish yoki ko‘mib tashlash kerak. Bu yerda ularning hammasi chirib o‘g‘itga aylanadi. Zararli hasharotlar, ularning bolalari, lichinka va tuxumlari daraxt po‘stloqlarining yoriqlari orasida ham bo‘ladi. Ularni eski, chirigan ildizlari bilan birga yo‘qotish, yoriqlarini esa suvash kerak. Daraxt tanalarini yangi go‘ng yoki loy qo‘shilgan ohak bilan oqlash kerak (daraxt ildizlari kuyib ketib, zarar yetkazmasligi uchun) yoki dust DDT (geksaxloral)ning bo‘r bilan aralashmasini daraxtlarga surish kerak. Ana

shu vaqtda daraxt po'stlog'idan shiralar olib tashlanadi. Oktyabr oyida daraxt va novdalarni butash boshlanadi. Bu ish shoxlarning uzunasiga qarab o'sishini to'xtatadi va yosh novdalarning rivojlanishiga yordam beradi. Bunday holda o'simlik qishni osonlik bilan o'tkazadi. Daraxt tanasidagi o'sishga qarshilik qilgan ortiqcha, eski, chirigan shoxlari ham qirqib tashlanadi. Shu yo'l bilan daraxtlarning kelgusi yil rivojlanishi uchun yaxshi sharoit yaratib berishga harakat qilinadi. Oktyabr oyining oxirida daraxtlar va butalarni (1 va 2-ilova) bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, toklarni qish mavsumiga tayyorlash boshlanadi. Bunda toklar kesilib ko'miladi. Toshkent viloyati sharoitida ba'zi paytlarda toklarni ko'mmasdan ham qishlatish mumkin, ayrim hollar, ya'ni to'satdan sovuq tushishidan saqlash uchun toklarni ko'mish maqsadga muvofiqdir. Shu maqsadda gullar, anorlar va boshqa o'simliklar ham xashak va somon bilan o'raladi yoki qish davri uchun yerga ko'miladi. Xmel, pechak, chirmashuvchi gullar singari o'simliklar yig'ib olinadi yoki o'rab qo'yiladi. Gulzorlardan kannalardagi ildizlari, gladiolus ildizi, kartoshkagul va boshqa shu kabi sovuqqa chidamli ko'p yillik o'simliklar tuganaklarini kavlab olinadi. Kartoshkagul tuganaklari oftobda bir oz quritilib, so'ng salqin joyda saqlanadi. Gladiolus ildizlari yaxshilab tuproqdan tozalanadi va doka xaltachaga solib quruq, salqin yerga osib qo'yiladi. Oktabrning ikkinchi yarmida kapalakgul (bo'tako'z), dastargul urug'lari sepiladi, bular erta bahorda gulzorlarni bezaydi. Bolalar dala va bog'larda kattalar qilayotgan ishlarni kuzatib boradilar va urug' sepish, qirqilgan shoxchalarni yig'ish, yerni ko'p yillik o't ildizlaridan tozalash va ularni quritish singari ishlarda o'zlari bevosita qatnashadilar. Noyabr oyida dalalarda g'ozaning ochilmagan ko'saklari ham terila boshlanadi. g'ozapoya yulib olinadi, ekin maydonlariga o'g'it solinib, shudgor qilinadi. Bundan tashqari mana shu vaqtda kelgusi yil hosiliga zamin hozirlash maqsadida yoppasiga sug'orish o'tkaziladi. Ekin maydonlari haydalgandan keyin ham sug'orish o'tkazish mumkin. Bog', maktab oldi maydonlarida, agar harorat 5 darajadan past bo'lmasa, daraxt ko'chatlarini o'tqazish mumkin. Noyabr oyida daraxtlarni butash, mevali daraxtlar hamda boshqa daraxtlarda bo'ladigan zararkunandalarga qarshi kurash ishlari davom ettiriladi. Gulxonalarni xazonlardan tozalanadi, qizitilgan go'ng yoki sharbat va superfosfat solinadi. Shuningdek, tuproqni kuzgi shudgor qilib qo'yiladi.

Qish fasliga tavsif

Taqvim bo'yicha qish birinchi dekabrda boshlanadi. Aslini olib qaraganda, qish ba'zi hollarda ilgariroq boshlanishi ham mumkin, chunki xalq maqolida aytilganidek: «Yil yilga to'g'ri kelmaydi».

Ob-havodagi o'zgarishlar. Yerning ustki qatlamini qor qoplashi va suvlarning muzlashi qishning boshlanishidan darakdir. O'zbekistonda qish

o'ziga xos xususiyatga ega. Qor qatlamlari mumtoz bo'lmay, tez eriydi va qishda bir necha martagina yog'adi. Odatda qor dekabr oyining boshlarida yog'adi. Qishning ikkinchi yarmida — yanvar oyida, fevral oyining boshlarida ko'proq qor yog'adi, mart oyida ham bir oz yog'ishi mumkin. Dekabr oyida sovuq tushib, tez-tez shamol esib turadi. Dekabr oyida barvaqt qor yog'ishi Toshkent sharoiti uchun xos bo'lgani bilan, bunday hol kamdan-kam bo'ladi. Hatto, dekabr oyida shunday kunlar bo'ladiki, bunda harorat +20+25 darajagacha ko'tariladi. Masalan, 1955- yilning dekabr oyida mahalliy vaqt bilan soat 6 dan 12 minut o'tganda bahordagi singari momaqaldiroq, chaqmoq bo'lib, do'l aralash yomg'ir yog'gan. Yanvar oyida odatda qor yog'adi, lekin tez erib ketadi. O'rtacha harorat butun oy davomida +4—6°C atrofida bo'ladi, biroq ba'zan janubi-sharqdan iliq shamol «garmsel» esishi natijasida haroratning keskin ko'tarilishini payqash mumkin. Kunduz kunlari harorat +17+20 darajagacha isiydi. Vaqtincha iliq va quyoshli havo bo'ladi. Shunday vaqtlarda daraxtlar va butalar kurtak chiqarib qoladi. Keyinchalik yengil ayoz ta'siri ostida asta-sekin yana havo sovib qoladi. Fevral oyida quyosh yuqoriroq ko'tariladi, kun ancha uzayadi. Fevralning birinchi o'n kunida odatda kun iliq, quruq bo'ladi, harorat +17+19 darajagacha ko'tariladi. Ikkinchi o'n kunlikda unchalik qattiq sovuq bo'lmay, kuchli qor yog'ib o'tadi. Ba'zi vaqtlarda uchinchi o'n kunlikda ham qattiq sovuq tushib, qor quruq yog'adi. Daraxtlarning shoxlari oqarib, qattiqqina qor qatlami hosil bo'ladi. Qushlar ovqat topib yeyishga qiynaladilar. O'simliklar hayotidagi o'zgarishlar. Qishda daraxtlar «yalang'och» holda bo'ladilar va nisbiy osoyishtalik holatida yashaydilar. O'simlikning yer ustidagi qismlari o'sishdan to'xtab, qishki osoyishtalikka o'tadi, ildizlarning yer ostidagi hayot faoliyatlari esa davom etadi. Daraxt nisbiy osoyishtalik vaqtlarida ozuqa zahiralari to'playdi, (kraxmal, shakar va yog') to'qimalarining nafas olishi pasayadi. Qish davrida daraxtlarning barcha shoxlari va po'stlog'i, shuningdek, kurtak, tanasidagi yoriqlar va barglar o'z namini yo'qotib boradi. Daraxtlar namligining katta miqdorda yo'qolishiga qishki shamollar ham sabab bo'ladi. Qishki shamollar ta'sirida o'simliklarning novdalari va hatto butun o'simlik ham halok bo'lishi mumkin. Shuning uchun hosil olingach, kech kuzda bog'larni asta-sekin qoplatib sug'oriladi. Qishda daraxtlarning halok bo'lmasliklari va ko'proq nam saqlashlari uchun ular atrofiga qorlarni to'dalab qo'yadilar. Ikki yil va ko'p yillik o't o'simliklarning yer yuzasidagi qismi qurib, ildizpoya, piyozbosh va tunganaklari qoladi, bular o'simlikning yangidan o'sib chiqishi uchun ozuqa moddalar zahirasi to'playdi. Ildizlar yer tagida, qor tagida sovuqdan saqlanib turadi. Qishda sovuq qattiqroq bo'lib yer qatlami qattiq muzlasa, o'simliklarning ildizlari ham nobud bo'ladi. Ba'zi yillarda dekabr oyida ham o'simliklar kurtak chiqaradi: bo'tako'z, margaritkalar

ochiladi. Fevral oyida sovuq bo'lsa, o'simliklar hayotida hech qanday o'zgarish bo'lmaydi. Bunda agar havo iliq bo'lsa, ko'k o'tlar ko'rina boshlaydi. Iliq qish vaqtida, fevral oyining o'rtalarida gunafshalarning kurtagi bo'rtadi, kumushdek teraklar kuchalalay boshlaydi, zarang daraxtining bo'rtib chiqqan kurtaklarida nozikkina gulbarglari ko'rina boshlaydi. Maysa o'tlar chiqa boshlaydi, gunafsha, qoqio't, bodom, oq qaldirmoqlar gullaydi.

Qushlar va hasharotlar hayotidagi o'zgarishlar. Qish vaqtida o'simliklarning uyquga ketishi munosabati bilan bu davrda bolalarning diqqat-e'tiborini qushlar hayotiga va holatiga jalb etish mumkin. Dekabr oyida shahar va qishloqlarda, aholi yashaydigan punktlarda chumchuqlar, qarg'alar, zag'chalar va boshqa qishlaydigan parrandalar yig'iladi. Ular o'ralar, axlatxonalar, shuningdek, serqatnov yo'llarda ozuqa qidiradilar. Ovqatlanib bo'lishgach, bog' va xiyobonlarga uchib ketadilar. Daraxtlarning shoxlarida dam oladilar. So'ng, yana hovlima-hovli uchib keladilar. Qorong'i tushishi bilan oq to'da-to'da bo'lib uchib ketib, baland daraxtlarning shoxlariga qo'nib tunaydilar.

Dekabr oyida shahar atroflaridan ko'kraklari oq-qora rangli katta chittaklar uchib keladilar va shahar bog' va xiyobonlarini to'ldirib yuboradilar. Ular, daraxtlarning kavaklari va shoxlarida qishlagan hasharotlarni topib yeydilar. Ular hasharotlarning yuz minglarcha tuxumlarini ham tozalaydilar. Ba'zi vaqtlarda zyabliklar ham uchraydi. Quyoshli kunlarda qushlar ko'proq harakatchan, quvnoq bo'lishadi, bunga bolalarning diqqatini jalb etish kerak. Shahar atrofidagi joylarda bu vaqtda ko'pgina so'fito'rg'aylarni uchratish mumkin, ular dalalardagi yovvoyi o'tlarning urug'larini terib yeydilar. Shuningdek, bu vaqtda bog'lar va odamlar yashaydigan yerlarga yaqin kelib yashovchi zag'izg'onlarni ham uchratamiz. Dekabr oyida qorayaloq va chittaklarning sayrashi eshitiladi. Bog'larda qizilquyuqlar paydo bo'ladi. Kam-kam uchrasada, har o'n yilda bir marta sovuq qish vaqtida snegirlar paydo bo'lishadi. Ular sekin-sekin hushtak chalib uchadilar. Bunda ota qushgina emas, balki ona qush ham sayraydi (ba'zi qushlarda esa ona qushlar sira sayramaydi). Doimiy qishlovchi qushlar bilan birgalikda ahyon-ahyonda jarqanotlarni uchratish mumkin. Bu qushlar tog' qoyalaridan shaharga tushib kelishadi va xoliroq yerdagi g'isht devorli binolarga joylashadilar. Qor yoqqan vaqtda bu qushlar och qolishadi va hatto ochlikdan o'la boshlaydilar. Ular bironing ovqat berishiga muhtoj bo'lib qoladilar. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalari hovlilarida qushlarni oziqlantirish maqsadida har turli inlar yasab qo'yish kerak. Bunday manzara bolalar bilan birgalikda qushlarning harakatlarini kuzatish imkoniyatini beradi. Qushlarni cho'chitib yubormaslik maqsadida inlar uchun tinch yerlarni tanlaydilar. Ularni daraxtlarga, uylarning devorlariga osib qo'yadilar, deraza tokchalariga o'rnatadilar. Donxo'rak yoki

inlarda do'imo ozuqa bo'lishi kerak. Qushlar bunday ozuqalarga ko'nikadilar va har kuni ma'lum soatlarda uchib keladilar. Bolalar qushchalar to'g'risida g'amxo'rlik qiladilar, deyarli har kuni ularga ozuqa berib turadilar. Kuzatish vaqtida har turli qushlarning o'zlarini qanday tutayotganlarini, shuningdek, qaysi bir ozuqani manzur ko'rishlarini payqab olish mumkin. Hatto hasharotni zaharlovchi chittaklar ham qish faslida urug'liklar bilan oziqlanadilar. Yog' ularning asosiy ovqati bo'lib hisoblanadi. Qushlar gavjum bo'lishib, oziq-ovqat qidirishni davom ettiradilar. Kunduz kunlari to'da-to'da qarg'alar, ko'kqarg'alar va go'ngqarg'alarning uchib yurishlarini ko'rish mumkin, shuningdek ko'pgina sa'valar va g'urraklar ham uchib yurishadi. Bog'larda qorayaloqning qattiq qichqirishi ahyon-ahyonda eshilib tursada, lekin uning sayrashi endi eshitilmaydi. Ko'pincha qorayaloqlar ariqlarning bo'ylarini kavlayotganliklarini, shuningdek, bog'lardagi na'mataklarning donini topib cho'qiyotganligini ko'rish mumkin. Ba'zan Toshkentning Salar va Qorasuv bo'ylarida jibljibonlarni uchratish mumkin. Ular bahorda uchib kelib, bu yerda qishlash uchun qolishadi.

Yanvar oyining boshlarida g'urraklarning g'urullashi eshitila boshlaydi. Yanvar oyining o'rtalarida esa g'urraklarning akatsiya daraxtlarining chiviqlaridan mayda tayoqchalar va quruq qobiqlardan uyalar qurishga kirishganliklarini bolalar bilan birgalikda kuzatish mumkin.

Fevral oyida qushlar oziqlantirishga muhtoj bo'ladilar. Fevralning oxirida qushlar galasi qo'shaloq-qo'shaloq bo'lib ajraladi. Keyinchalik ular uya qurish uchun shahardan chetdagi joylarga uchib ketadilar. Chittaklar bahor oldi qo'shiqlarini «kuylaydilar». Fevral oyida g'urraklar tuxum ochib, 15 kun tuxum bosadilar. Tuxumdan chiqqan yosh g'urraklar o'z uyasida o'n kun qoladi. G'urrak bir yilda besh marta tuxum qo'yadi. G'urraklar kaptarlar singari biologik tomondan juda qiziq bo'ladilar. Ular sut emizuvchilar singari qushchalarni boqish uchun o'zlaridan ozuqa moddasi ishlab chiqaradilar: bu ichki bezlardan ajralib chiqadi. Ona qush og'zini ochadi, qushchalar esa ozuqani cho'qib oladilar. Fevral oyining oxirlarida shaharlardan jibljibonlar uchib kelishadi. Kechki payt shaharga yana ko'pgina zag'chalar va ko'kqarg'alar uchib kelishadi. Tunash uchun baland daraxtlarning shoxlariga qo'nayotganlarida ularning shovqinlari va qichqiriqlari eshitaladi. Biroq ular asta-sekin sovuq o'lkalarga uchib keta boshlaydilar. Bulutli kunlarda qorong'i tusha boshlashi bilan mayda ko'rshapalaklarni ko'rish mumkin. Bular barcha ko'rshapalaklar ichida eng kichigi hisoblanadi. Ularning qish faslida g'orlarda qishlovchi ko'pgina boshqa ko'rshapalaklardan farqi shundaki, ular yil bo'yi binolarning yoriqlarida yashaydi va haroratning ko'tarilishi bilan birinchi bo'lib uyg'onadi. Qorong'i tushishi bilanoq ovoz chiqarmasdan ucha boshlaydi hamda chivin, pashsha va boshqa jonivorlarni tutib yeydi. Yerda qishlagan tut

kapalaklari fevral oyida kapalak qurtlari chiqaradi. Hayvonlar hayotidagi o'zgarishlar. Dekabr oyida ko'pgina yovvoyi hayvonlar qishlash uchun o'z uyalariga kirib oladilar. Toshkent viloyatining shahardan chetdagi ba'zi bir tumanlaridagina shu vaqtda oziq-ovqat qidirib o'z uyalaridan chiqqan hayvonlarni (qaragan tulki, qo'shoyoqlarni) uchratish mumkin. Dekabr oyida oziq-ovqat topish maqsadida tog'lardan sahro bo'rilari tushib keladilar va ko'pgina mollarga hujum qiladilar, itlarni g'ajib, ba'zi vaqtlarda qishloq chetidagi poliz, hovlilarga kirishga urinadilar. Sahro bo'rilari unchalik katta bo'lmay, juni kalta, dag'al tusda bo'ladi. Uning rangi atrof muhitga qarab o'zgarib turishi mumkin.

Yanvar, fevral oylarida tabiat burchagi sharoitida ba'zan toshbaqalar uyg'ona boshlaydilar. Shu vaqt ularga ovqat berish zarur. Bolalar esa toshbaqalarni zo'r qiziqish bilan boqadilar. Toshbaqa karam barglarini, qirilgan sabzi, ko'ksuli, sutda ivitilgan non, grechixa va suli bo'tqalarini zo'r ishtaha bilan yeydi. Qish faslida Sirdaryo vohasidagi cho'llarda uchraydigan mahalliy karagan tulkilar junining tusi o'zgaradi. Odatda uning juni och kul rang bo'lib, sahro va cho'llardagi loylarning tusiga mos keladi. Qish faslida esa uning beli, bo'yni va yelkasi zang tusini beruvchi och sariq tusga kiradi. Dumining uchi va qorni oqaradi. Karagan tulki, asosan, cho'ldagi yumronqoziq va qum-sichqonlar singari kemiruvchilar bilan oziqlanadi. Ba'zan tovuqlarga ham hujum qilib qoladi. U qishloq xo'jaligi zararkunandalari bo'lgan kemiruvchilarni yeb tugatishi va yaxshi mo'yna berishi bilan bizga foyda keltiradi. Fevral oyida yovvoyi hayvonlar hamda uy hayvonlarida bahorgi tullash boshlanadi. Tulkilar, qo'shoyoqlar, bo'rilar, quyonlar, qumsichqonlar va boshqa hayvonlar po'st tashlaydilar. Ularning yungi tushib, terilari ko'rimsiz bo'lib qoladi. Uy parrandalari, ayniqsa tovuqlarda katta jonlanish boshlanib, ular tuxum qilishga kirishadilar.

Qishloq xo'jalik ishlari. Dekabr oyida paxta dalalarida «oq oltin»ning oxirgi qoldiqlari yig'ishtirib olinadi, g'o'zapoyalar yig'ib olinib, yerga o'g'it solib, shudgor qilinadi. Ba'zi joylarda zarur bo'lgan hollarda yaxob suvi berilib, yerning sho'ri yuviladi. Bog'larda daraxtlarni butash, atroflarini yumshatish va qator oralarini haydash, shuningdek, zararkunandalarga qarshi kurash ishlari davom ettiriladi. Yanvar oyida parniklarda ertangi sabzavotlar rediska, pomidor, bodring, karam va boshqa o'simliklar ko'chatlarini yetishtirish boshlanadi. Yetishtirilgan ko'chatlar parnik yoki issiqhonalarga o'tqaziladi. Bundan keyin bevosita dalalarga ekiladigan ko'chatlar tayyorlanadi. Issiqhona va parniklarda fevral oyida ertangi pomidor, bulg'or qalampiri, baqlajon va boshqa sabzavot o'simliklarining ko'chatlarini yetishtirish uchun sabzavot urug'lari ekish davom etadi. Fevral oyida parniklarda ba'zi bir gul ko'chatlari yetishtirish uchun:

chinnigul, qo‘qongul, sambittol, petuniya (gullari katta-katta bog‘ o‘simligi), xushbo‘y tamaki, siniya (qizil gulli xona o‘simligi), ajdarog‘iz (yirik gulli o‘simlik) va boshqa gullarning urug‘lari ekiladi. Parnik va issiqxonalarda ertangi rediska, bodring, ertangi karam va boshqa sabzavotlar o‘stiriladi. Iliq kunlar bo‘lganda maktabgacha ta‘lim muassasasi hovlisida rediska urug‘i sepiladi. Bunda bolalar ham qatnashadilar. Ana shu vaqtda ko‘chalar, istirohat bog‘larini obodonlashtirish ishlari boshlanadi, har turli daraxtlar: eman, chinor, qayrag‘och, kashtan (qora qayinlar oilasiga mansub daraxt va shu daraxting yong‘og‘i), shumtol daraxtining barcha turlari, teraklarning barcha turlari, oq akatsiya, zarang, gledichiya, aylant, qora tol va boshqa daraxt ko‘chatlari ekiladi.

Ko‘chalarni ko‘kalamzorlashtirishda shu narsani esda tutish kerakki, hatto tez o‘sadigan daraxt ko‘chatlari ham kamida 5—6 yil o‘tgandan keyin chiroyli manzara beradi, sekin o‘sadigan daraxt ko‘chatlari esa oradan 10—12 yil o‘tgandan keyingina dekorativ manzara kasb etadi. Gullaydigan va dekorativ butalar ikkinchi yili va hatto o‘tqazilgan birinchi yiliyoq ko‘kalamzor ko‘rinishini beradi. Mana shuning uchun ham birinchi yili zarang, shumtol singari tez o‘sadigan daraxtlar va ko‘chatlarni o‘tqazish, keyingi yillarda esa, shar tusidagi va piramida sifat qayrag‘och, shuningdek, sekin o‘sadigan eman, kashtan singari daraxtlarning ko‘chatlarini o‘tqazish tavsiya qilinadi. Fevral oyida legistrum (jonli devor), buldonej, nastarin, shumtol (oq xushbo‘y gulli daraxt), jasmin (xo‘shbo‘y oq gulli o‘simlik) daraxtlarining qalamchalari o‘tqazila boshlaydi. Agar maktabgacha ta‘lim muassasalari hovlilarida tut daraxtlari bo‘lsa, bu holda daraxt taglarida qishlagan tut zararkunandalariga qarshi kurash olib boriladi. Fevral oyida g‘umbaklardan chiqqan to‘q kul rangdagi ona qurtlar barglarga tirmashib chiqib, daraxt tanasidagi yoriq joylarga tuxum qo‘yadilar. Kapalak qurti tut daraxtining po‘stlog‘i va barglarini yeydi, Tut daraxtlarining ommaviy ravishda ko‘karishiga zarar yetkazuvchi hasharotlarni yo‘qotish uchun har bir daraxtga 3—4 litrdan 5%li geksaxloran sepiladi. Agar havo issiq kelsa, fevral oyida ham ekin ekishga kurishish mumkin. Bunda donli ekinlar va yer ishlari uchun juda qimmatli bo‘lgan o‘t o‘simligi — bedani ekish mumkin. Beda ko‘p yillik dukkakli o‘simlikdir. Yaxshi parvarish qilinganda uni yiliga 4—5 marta o‘rib olish mumkin. U mollarga to‘yimli ozuqa sifatida beriladi. Bundan tashqari, beda ekilgan tuproqning tuzilishi o‘zgaradi va yerning hosildorligi ortadi.

Bahor fasliga tavsif

Bahor mavsumi kalendar hisobi bo‘yicha birinchi martdan boshlanadi. Lekin bahorning kelishi har yilda turlicha bo‘ladi. Yurtimizda bahor erta, odatda fevral oyidayoq boshlanadi. Biroq mart oyining oxirgi o‘n kunligida ko‘pincha

qor yog'ib, ertasiqayoq erib ketadi. Bahor kunlarining boshlanishi bilan daraxt kurtaklari bo'rtadi, mevali daraxtlar gullay boshlaydi. Shundan keyin bo'lgan qattiq sovuqlar esa kurtak va gullarni urib ketadi. Natijada o'rik, shaftoli va boshqa mevali daraxtlar hosil bermaydi.

Ob-havodagi o'zgarishlar. Mart oyida qattiq yog'ingarchilik bo'ladi. Harorat +25+29 darajagacha ko'tariladi. Lekin sovuqlar ham bo'lib turadi. Martning oxirlarida ba'zan momaqaldiroq bo'ladi. Aprel oyida harorat ko'tariladi. Oyning boshida kunning o'rtacha harorati +12+13, ba'zan +18+19 darajaga ko'tariladi. 1955-yili kunduzgi harorat hatto +35 darajaga ham yetgan edi. Aprel oyining ikkinchi yarmi haroratning ko'tarilishi, ayrim hollarda esa haroratning birmuncha pasayishi bilan xarakterlanadi. Aprel oyida yog'ingarchilik ko'p bo'ladi. Ba'zi yillarda sovuq tushib qolish hollari ham bo'ladi, ayrim hollarda qor ham yog'adi. Bahorda yoqqan katta-katta qorni xalqimiz «laylak qor» deydi, chunki shu qor bilan laylak ham keladi. May oyida esa issiq kunlar boshlanadi, kunlik o'rtacha harorat +10+25 daraja atrofida bo'ladi. Biroq, oyning boshlarida ob-havo beqaror bo'lib, tez-tez o'zgarib turadi. Ba'zan g'o'za va boshqa o'simliklarga zarar keltiruvchi do'l yog'adi, momaqaldiroq bo'lib turadi. O'simliklar hayotidagi o'zgarishlar. Mart oyida dalalar «ko'klam libosini kiyadi». Boychechak, chuchmoma, sovrinjon, gunafshalar ochila boshlaydi. Yovvoyi ildizli o'simliklar, lolalarning ko'pgina turlari, giatsintlar, har turli nartsislar barg chiqara boshlaydi. Toshkentning tepalik va yon bag'irlari ertangi gulsapsar, lola, nilufar singari gullar bilan qoplanadi. Bu gullar ko'p yil yashasa ham, yog'ingarchilikdan keyingina gullaydi. Yozda ularning tanalari quriydi, yer ostida esa ildizlari saqlanib qoladi. Ochiq va baland joylarda oq qaldirmoq, boychechak, itgunafsha, qoqio't, kapalakgul, gunafsha, bo'tako'z singari bir yillik o'simliklar ham gullaydi. Daraxtlar shira chiqara boshlaydi. Qor erishi bilan daraxt ildizlari yerdagi namlikni o'ziga tortadi. O'simlik to'qimalari suvga to'ladi, suv olish bilan birga ozuqa moddasi bo'lgan uglevodni ham oladi. Uglevod barg to'qimalari orqali ildizga borib, kunlar isiy boshlashi bilan ildizdan kurtakka qarab yo'naladi. Kurtak bo'rtadi va ochiladi. Ozuqaning shunday harakati orqali o'simlik «uyg'onadi». Suvning ildizdan daraxtga ta'siri shox-shabba orqali bo'ladi, yozda suv shoxlar orqali ildizga boradi va parlanadi.

Mart oyida qo'ziqorinlar paydo bo'ladi. Ular O'zbekiston sharoitida uch haftagina o'sadilar, biroq seryomg'ir bahorda qo'ziqorinlar aprel-may oylarida ham o'sishni davom ettiradi. Mart oyida ko'lmak suvlarda lempa, elodeya qo'yitikan perolistnik va boshqa suv o'simliklari o'sadi. Aprel oyida deyarli barcha daraxtlar barg chiqaradi. Eman va shumtol singari daraxtlar hamma daraxtlardan keyin ko'karadi. Yog'ochli daraxtlar gullay boshlaydi, yong'oq,

eman, tol singari daraxtlar gulto‘da chiqara boshlaydilar, zarang daraxtining gullari kul rang va ko‘k-sariq tusda bo‘ladi, shumtol daraxtida esa mayda gul kosalari ichida o‘tiradi, akatsiyada — cho‘p shaklidagi oq, xushbo‘y gullar ochiladi, gledichiya daraxtida, ko‘rimsiz, mayda sariq gulchalar paydo bo‘ladi. Aprel oyida nastarin, jasmin singari buta o‘simliklari gullaydi. Daraxtlarning uyg‘onishi ob-havoning isishiga bog‘liq bo‘ladi. Martning oxiri va aprel oyining birinchi yarmida danakli o‘simliklardan birinchi bo‘lib: shaftoli, olcha, tog‘olcha, olxo‘ri gullaydi. Keyinchalik aprel oyining yarmida mevasining ichida urug‘i bo‘lgan daraxtlardan: olma, nok, behi gullaydi. Bahorda harorat bir me‘yorda ko‘tarilganda danakli daraxtlar bilan urug‘ daraxtlarning gullashi deyarli oldinma-кетин, ayrim hollarda esa, bir vaqtning o‘zida gullaydi. O‘rik, shaftoli singari daraxtlar avval gullab, keyin barg chiqaradi. Olcha, tog‘olcha, olma, nok, olxo‘ri, behi singari daraxtlar esa avval barg chiqarib, keyin gullaydi. Ob-havo sharoitining qulay kelishi daraxtlarning ko‘plab gullashiga imkon beradi va hosildorlikni oshiradi. Bolalar bilan gullarning har turli rangi va tuzilishi bilan tanishtirish maqsadida mevali boqqa ekskursiyalar o‘tkaziladi. Bolalar o‘rik, shaftoli, olcha daraxtlarining gullarini hajmiga, barglarining rangiga qarab tezda ajrata olib, eslarida saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ana shu vaqtda sahrolarda lolaqizg‘aldoq va lolalar chamandek ochiladi. Aprel oyining oxirida va ko‘pincha may oyining boshlarida jiyda daraxti kumushsimon barglar bilan qoplanadi. U kuchli xushbo‘y hid taratuvchi sariq gullar chiqaradi.

May oyida uzum, jiyda gullaydi, olcha, gilos, qulupnay pishadi. Suv havzalarida mayda suv o‘simliklarining ko‘payishi davom etadi va suv yashil yoki sariq tusga kiradi.

Qushlar va hasharotlar hayotidagi o‘zgarishlar. Mart oyida qushlar uchib kela boshlaydi. Qushlarda ko‘payish davri boshlanishi sababli ularda uyalariga qaytib kelish zarurati tug‘iladi. Agar qushlarda ko‘payish ikkinchi yilda bo‘lmay, uchinchi yilda sodir bo‘lsa (masalan: kakkuga o‘xshash) u vaqtda ular ikkinchi yili ham o‘sha yerda qishlab qoladilar. Qushlar, odatda oziq-ovqat paydo bo‘lishi bilan, hasharotxo‘r qushlar esa keyinroq uchib keladilar. Ularning uchib kelishi hasharotlarning ko‘payishi davriga to‘g‘ri keladi. Suvda suzuvchi qushlar suv havzalarida hayot qaynaganda uchib keladilar. Mart oyida biz bolalar bilan birgalikda turnalar, g‘ozlar va o‘rdaklarning to‘da-to‘da bo‘lib uchib kelayotganligini kuzatamiz.

Fevralning oxiri, martning boshlarida jiblajibonlar uchib keladilar. Ular bahorning darakchilaridan hisoblanadilar. Qaldirg‘ochlar, jarqaldirg‘ochlar, popishak, chug‘urchuqlar uchib kelib, bo‘g‘otlarga, daraxt kavaklariga uya quradilar. Chug‘urchuqlar qurilgan tayyor uyalariga zo‘r ishtiyoq bilan

joylashadilar. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasasi hovlisida bolalar bilan birgalikda erta bahorda daraxtlarga donxo'rak va inlar osib qo'yish kerak. Qushlar qo'sha-qo'sha bo'lib urchiy boshlaydilar. Ba'zi bir qushlar butun bir umrga juftlashadilar. Agar ular qishda ba'zan ajralishsa, bahorda yana o'sha eski inlarida uchrashadilar. Qarg'alar esa o'z juftlaridan hatto qish faslida ham ajralmaydilar. Zag'chalar o'z juftlari bilan har yili o'zlarining eski inlariga joylashadilar. Qushlar eski inlariga qaytib kelganlaridan keyin, uni «tuzatadilar». Ular tumshuqlarida pat va xashaklarni tishlab inlariga olib keladilar. Ba'zan ular daraxt shoxlarida shovqin-suron qilib shox talashadilar. Bu vaqtda qushlarning sayrashlari, hushtaklari va qiyqirishlari, ajoyib parvozlari kishini o'ziga jalb qiladi. In qurish vaqtida ota qushlar patlarining to'kilishi juda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ona qushlarniki u qadar yaqqol ko'zga tashlanmaydi.

Bolalar bilan sayrga chiqqanda ularning e'tiborini bu narsaga qaratish zarur. Mart oyida g'urraklarning g'urullashi yanada ko'proq eshitila boshlaydi. Chittaklarning ovozi yana ham o'tkirroq, sa'valarning ovozi esa ahyon-ahyondagina eshitiladi. Zag'cha, qarg'a singari ko'chib yuruvchi qushlar esa asta-sekin uchib keta boshlaydilar. Mart oyida ko'pgina hasharotlar (yaltiroq qurt), qarsildoq qo'ng'iz va boshqalar) paydo bo'ladi. Ular o'simliklarning asosiy ildizlarini kemirib, ularga katta zarar yetkazadilar. Buning natijasida ko'pgina o'simliklar nobud bo'ladi. Ayniqsa, bu kabi hasharotlar tut daraxtlarining ildizlariga zarar yetkazadilar. Mart oyining boshlarida, ba'zan esa fevral oyining oxirlarida iliq kunlar boshlanishi bilanoq arilar o'z uyalaridan uchib chiqadilar. Asalarilar katta-katta oila bo'lib yashaydilar. Har bir oilada bitta ona urug'i bo'lib, u besh yilgacha yashaydi. Bahorgi iliq kunlarning boshlanishi va gullarning ochila boshlashi bilan ona ari tuxum qo'ya boshlaydi. Bundan avvalo lichinkalar, keyinchalik esa qo'g'irchoqlar paydo bo'ladi va nihoyat katta asalarilar yetishadi. Bolalar bilan mevali bog'larga sayrga chiqilganda asalarilarning o'rik, shaftoli va boshqa o'simlik gullarining biridan-ikkinchisiga qo'nib yurganligini kuzatish mumkin. Bolalar asalarilarning g'uvillashini eshitadilar. Maktabgacha ta'lim muassasasi gulzorlarida ham asalarilarni kuzatish mumkin. Hovuzlar tagidan suzg'ich qo'ng'izlar, suvsevar qo'ng'izlar suv yuziga chiqadilar. Suzg'ich qo'ng'izlar chuchuk suvlarda yashovchi umurtqasiz hayvonlarning eng yirik va kuchli vakillaridan biridir. Uning tanasi yashil-qora tusda va tanasi atrofida sariq hoshiyasi bor. Hovuzlarga ekskursiya vaqtida tarbiyachi suvdagi qo'ng'izlarni o'simliklarga ilashtirib oladi. Uni ehtiyotlik bilan olish kerak, bo'lmasa qo'lni tishlab oladi. Suvsevar qo'ng'iz ham yirik suv qo'ng'izlari qatoriga kiradi. Uning rangi qora yoki qo'ng'ir bo'ladi. U o'simliklar bilan ovqatlanadi. Tabiat burchagida qo'ng'izlarni baliqlardan bo'lak akvariumda saqlash kerak, chunki qo'ng'iz yovvoyi

hasharotdir. Suzuvchi qo'ng'iz qo'yiladigan akvarium keng va baland bo'lishi kerak. Qo'ng'iz unda bemalol suzib yura oladi. Bunda akvarium doka bilan bekutiladi. Suzg'ich qo'ng'izlar, odatda, kechasi ovqat izlab chiqadilar. Katta guruh bolalari bilan suzg'ich qo'ng'iz hamda baliqlar ustida kuzatishlar olib borish mumkin. Bolalar baliq ham, suzg'ich qo'ng'iz ham suvda yashab, ammo ucha olishi ham mumkinligi haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Bunda baliq tanasi tangachalar bilan qoplanganligiga, qo'ng'izlarda esa qanot borligiga bolalarning diqqatlarini jalb qilish zarur. Baliq suzg'ich qanotlari yordamida, qo'ng'iz esa orqa oyoqlari yordamida suzadi. Qo'ng'izning old oyoqlari orqa oyoqlariga qaraganda uzunroq bo'ladi. U xom go'sht va chuvalchang yeydi.

April oyida uya quruvchi qushlarning uchib kelishi ancha kamayadi. Zarg'aldoq, bulbul, moyqut, ko'rshapalak, laylak, ko'k qarg'a, chivinxo'r, shuningdek, o'zining kelganligidan xabar beruvchi kakkular ham uchib keladilar. April oyida turg'un qushlarda ham katta jonlanish boshlanadi. Ularning xatti-harakatlari ham o'zgaradi. Jumladan, chumchuqlar uchishdan to'xtaydilar. Ular juft-juft bo'lib, ota chumchuq yangi chiqqan patlarini yozib ona chumchuq oldida sakrab yuradi. Chumchuqlar uylarning bo'g'otlarida, shuningdek, katta qushlar tashlab ketgan bo'sh joylarga uya soladilar. April oyida ko'kqarg'a, go'ngqarg'a, sa'valarning uchib ketishi tugaydi. Shaharda endi so'fito'rg'aylarni uchratib bo'lmaydi.

Uy parrandalari. Tovuqlar, o'rdaklar, g'ozlar tuxum bosadilar. Bu tuxumlardan quyuq patli, ko'zlari mo'ltirab turgan, chopishga va ovqat cho'qishga qobiliyatli bo'lgan qush bolalari — jo'jalar chiqadilar. April oyida turli qo'ng'izlar: tillaqo'ng'iz (ko'k rangli qo'ng'izcha), tutxo'r qo'ng'iz (havo rang va yonlarida sarg'ish dog'lari bo'lgan kichkina qo'ng'izcha), meva qo'ng'iz (yashil belgili, qanot ostlarida uchta oltinsimon chuqurchasi bo'lgan qo'ng'iz)lar paydo bo'ladi. May oyida qizil zag'chalar uchib kela boshlaydi. Kakkularning sayrashlari eshutiladi, qizilishton, laylak, popushak, ko'kqarg'a, qaldirg'ochlar tuxum qo'ya boshlaydilar. Kakku o'z uyasiga tuxum qo'ymay, balki boshqa qushlarning uyasiga (uning tuxumlari 20 tagacha bo'ladi) qo'yadi. Kakku uyaga tuxum qo'yganida uya egasining bitta tuxumini olib tashlab, o'zining tuxumini qo'yadi. Shunday qilib, uyadagi tuxumlarning soni o'zgarmay qolaveradi. Shu bilan kakkuning nasllar haqidagi g'amxo'rligi tamom bo'ladi. Kakkular boshqa qushlarga nisbatan bir sutka ilgari tuxumlarni ochib chiqadilar, tuxumni uyadan chiqarib tashlab o'zlari qoladilar. Ular uyadagi boshqa qushchalarga mutlaqo o'xshamaydi, biroq qushlar o'z bolalari singari ularni ham muhabbat bilan parvarish qilaveradilar. May oyining o'rtalarida qushchalarning tuxumdan chiqishi boshlanadi. Yosh chumchuqlar, zag'chalarning bolalari chiyillaydilar, jarqaldirg'ochlar ovoz chiqarib uchib yuradilar. Bolalar ularning

ovoziga quloq soladilar va qushchalarni ko'rsatishni iltimos qiladilar. May oyida har xil rangdagi kapalaklar: limon o'simligi kapalagi, qichitqi o't kapalaklari va boshqalar paydo bo'ladi. Ekin maydonlarida sassiq qo'ng'iz (katta hajmdagi qo'ng'iz), go'rkov qo'ng'iz, xonqizi paydo bo'ladi. Hayvonlar hayotidagi o'zgarishlar. Mart oyida qurbaqalar, cho'l baqalari va quruqlikda yashovchi hayvonlar o'z «kontsertlarini» boshlaydilar. Qurbaqalar suv havzalari va anhorlarda, ariq va hovuzlarning bo'ylarida, cho'l baqalari esa devorlarning kavaklarida, ariqlardagi ko'priklar ostida, bog'larda, ekinzorlarda va dalalarda yashaydilar. Toshkent viloyatida to'q yashil va quyuq qo'ng'ir ko'l qurbaqalari suzib yuradi. Ba'zan uning qovurg'a kuragida ko'ndalang oq chizig'i bo'lib, tanasi silliq bo'ladi. Cho'l baqasi yashil kul rangli, terisi g'adir-budir, bir oz namxush bo'lib, oq-qizil so'galli bo'ladi. U dushmanning hujumidan himoya qiluvchi suyuqlikka egadir. Qurbaqa singari cho'l baqasining ham terisi tarang bo'lib, dumi, bo'yni bo'lmaydi. Tanasi kallasidan keskin ajralmagan, ko'zlari katta va serharakat, go'yo shishgandek bo'ladi. Bunday xususiyat tungi hayvonlar uchun xarakterlidir. Ko'zining bunday joylashishi kallasini ortiqcha harakatlantirmay yon-atroflarini bemalol ko'rishiga imkoniyat beradi. Qurbaqa suzgan vaqtida ko'zini zararlantirmaslik uchun ko'z qorachig'ini ko'z kosasi ichiga tortib oladi. Qurbaqada og'iz kengligi juda katta. Tili ikkilangan, old uch tomoni yopishgan bo'lib, hasharotlarni ovlash uchun xizmat qiladi. Qurbaqa tilini chiqarib qanotli hasharotlarni ham urib tushiradi, ushlangan hasharot tilning yopishqoq qismiga uzatiladi, og'ziga tortiladi va butunicha yutiladi. Qurbaqa va cho'l baqalarining quyruqlari yaxshi rivojlangan bo'lib, orqa oyoqlari oldingi oyoqlariga nisbatan uzunroq, suzuvchi pardalar bilan ta'minlangandir. Bular quruqlikka chiqqan vaqtlarida uch buklangan shakldagi bukilish quyruqlarini to'g'rilaydilar va yerga tayangan holda nafas oladilar. Uning oldingi oyoqlari tayanch vazifasini bajaradi. Bu oyoqlar qurbaqa sakrashga tayyorlanayotganida uning tanasini ko'tarib turadi va uning yerga qaytib tushayotganida tayanish xizmatini o'taydi. Qurbaqa ajoyib suzadi. Suzish vaqtida uning oldingi oyoqlari ishlamaydi. U ko'pincha qirg'oqqa chiqib olib, quyoshda isinadi. U suvda yashovchi jonivorlar bilan: suzuvchi o'rgimchak bolasi, suvsevar qo'ng'iz, ninachi tuxumlari, shuningdek suv o'simliklari bilan oziqlanadi. Cho'l baqalari uchmaydigan hasharotlarni zo'r ishtiyoq bilan ovlaydilar, shuningdek pashsha, chivin tuxumlarini, qo'ng'iz tuxumlarini, o'simliklarning ildizini kemiradigan qurtlarni, karam barglarini, pomidor barglarini, kemiruvchi va g'o'za chanoqlarini zararlovchi qurtlarni, yomg'ir chugalchanglarini yeydilar. Ular qishloq xo'jaligi uchun ko'pgina zarar keltiruvchi har turli hasharotlarning katta qismini qirib tashlab, yaxshi foyda keltiradilar. Bolalarni qurbaqa va cho'l baqalarini saqlash hamda asrashga

o'rgatish kerak. Tarbiyachi qurbaqa va cho'l baqasi to'g'risidagi bu kabi ma'lumotlardan bolalar bilan kuzatish va suhbatlar o'tkazish vaqtida keng foydalanadi.

Ko'lmak suvlarda gulxayrilar, dafniyalarning yoki boshqacha aytganda «suv burgalari»ning to'dasi paydo bo'ladi. Suvda qizil va sariq «nuqta»lar ko'rinadi — bu ana shu suv burgalaridir. Dafniyalar suv yuzasida suzib yuradilar, qorong'i tushishi bilan suv tagiga tushib ketadilar. Dafniyalar bilan birgalikda baliqlarning sevimli ozig'i sikloplar paydo bo'ladi. Bular akvariumlarda saqlanuvchi kichik baliqlar uchun ham sevimli ozuqadir. Ko'lmak suvlar ostidan shilliq qurt, suzg'ich qo'ng'izlar, suvsevar qo'ng'izlar ko'tarilib suv yuziga chiqadi.

Mart oyida baliqlar ikra yig'ishga va urchishga kirishadilar. Toshbaqalar, kaltakesaklar, ilonlar singari sudralib yuruvchilar ham uyg'onadilar. O'zbekistonda cho'l baqasi (toshbaqa) ko'p uchraydi. Toshbaqaning rangi kosasining rangi bilan bir xilda: sarg'ish yoxud qo'ng'ir tusda bo'ladi, barmoqlari orasida parda bor. Dumi qisqagina bo'lib, uchi o'tkir, ota toshbaqa ona toshbaqaga nisbatan kichikroq bo'lib, dumi uzunroq bo'ladi. Toshbaqalar suvga muhtoj bo'lmaydilar, chunki ular uchun yeydigan o'simliklaridagi suvlarning o'zi ham yetarlidir. Tunlari o'z uyalariga kirib ketadilar, ular o'z uyalarini novdalarning tagiga, shuningdek, o'nqir-cho'nqir yerlardan kavlaydilar. Toshbaqalar erta saharda yoki kech kirishi oldidan o'tlaydilar. Toshbaqalar yalpiz, ko'k o't va boshqa o'simliklar bilan oziqlanadilar. Toshbaqalar terrariumlarga joylashtiriladi va bolalar ularni parvarish qiladilar — o't olib kelib boqadilar. Toshbaqaning harakat qilishi bolalarni juda qiziqtiradi. Toshbaqalar mart-aprel oylarida ko'payadi. Ular tuxumlarini qum orasini yorib, u yerga ko'madilar. Yosh ona toshbaqalar odatda ikkitadan, qarilari esa uch-beshtadan tuxum qo'yadilar. Toshbaqaning tuxumi tovuq tuxumiga o'xshash bo'lib, hajmi kichikroq bo'ladi. Toshbaqalar mavsum davomida ikki-uch marta tuxum qo'yadilar. Tuxum qo'yish iyun oyidagina tugaydi. Yosh toshbaqalar tuxumdan yuz kunda ochib chiqadilar. Aprel oyida, havo yaxshi isiganida tipratikanlar uyqudan uyg'onadilar. Toshkent atrofida va Toshkent viloyatida «quloqli tipratikan»lar uchraydi. Bu tipratikan Yevropa tipratikanidan kichikroq bo'lib, ignalari ham kaltaroqdir. Uning quloqlari katta (boshining yarmidan ham uzunroqdir), shuning uchun ham u quloqli tipratikan deb ataladi. Tipratikanlar havzalarda, tog'li o'lkalarda va bog'larda yashaydi. Ular qorong'i tushganidan tonggacha dalalar, bog'lar, soyabon daraxtlar tagida daydib yuradilar va hasharotlar, kalta-kesaklar, ilonlar va sichqonlarni, chigirtkalar, cho'l sichqonlarini goho-goho o'simliklarni (yer ostidan makkajo'xori, bug'doy donlarini) topib yeydilar. Tipratikanlar suzishni biladilar,

Yevropa tipratikaniga nisbatan kamroq o'raladilar. Ular ko'p vaqt terrariumlarda yashaydilar. Tipratikanlar beixtiyor, tezda ko'nikadilar. Bolalar ularni qo'llariga olishlari mumkin. Ular hatto bolalar chaqirsalar ham boradilar. Bolalar terrariumga barglar solishganda, tipratikan bu barglarga yumalab, ularni o'z ignalariga sanchib olib yuraveradi. Uning bu harakatlari bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Tipratikanlar berilgan narsalarni tanlamay yeyaveradilar. Bolalar ba'zan o'zlaridan qolgan ovqatlarni ham berishlari mumkin. Tipratikanlar sichqonlarni, suvaraklarni qirib tashlaydilar. Shuning uchun ham ko'pincha odamlar mushuk o'rniga tipratikan saqlaydilar. Tuya cho'l va sahroda yashaydigan ajoyib hayvonlardan biridir. Sahrodagi tuya shimolda yashaydigan bug'u singari mehnat qiluvchi hayvonlardan hisoblanadi. Bizda tuya uy hayvonlaridek bo'lib, kishilarga ko'chib yurishda, og'ir yuklarni tashishda va xo'jalikda ham katta foyda keltiradi. Ona tuya oqsil moddalarga boy bo'lgan va moyli quyuq sut beradi. Tuyadan jun va par olinadi. Jundan dag'al kiyimlar, ko'rpalar, qop va arqonlar tayyorlanadi. Pardan bosh kiyimlar, shuningdek, qimmatbaho movutlar ishlab chiqariladi. Tuyaning go'shti ovqatga ham ishlatiladi.

Qishloq xo'jalik ishlari. Mart oyida dalalarda don ekinlari va beda ekish davom etadi. Kartoshka va ertangi karam ekiladi, rediska, petrushka va ukrop sepiladi. Mart oyida ko'chatlar o'tqazish va daraxtlarni bir yerdan ikkinchi yerga ko'chirish ishlari davom ettiriladi. Daraxt ko'chatlarini o'tqazish ishlarini tuproqning yumshashidan boshlab kurtaklarning bo'rta boshlaganiga qadar davom ettirish mumkin. Daraxt ko'chatlarini o'tqazish uchun joy va har bir daraxtning yaxshi o'sishi uchun ma'lum ozuqa maydoni tanlanadi. Daraxtlarni bir-biriga juda ham yaqin o'tqazib bo'lmaydi, chunki ildizlar o'sib yetilib, bir-biriga xalaqit beradi (daraxtlarning ildizlari tevarak-atrofga keng quloch yozadilar, ayniqsa eski bog'larda ularning ildizlari bir-birlari bilan chatishib ketgan). Mevali bog'larda daraxtlarning turli xillarini ekish tavsiya qilinadi. Har bir tur mevadan bir necha nav; urug'lalaridan 2—3 nav, danaklilaridan 3—4 nav ekiladi. Olma va nok daraxtlarini bir-biridan 6—10 m masofada o'tqaziladi, olcha va olxo'ri daraxtlarini bir-biriga yaqinroq, ya'ni 3—4 metr oralig'ida joylashtirish mumkin. Daraxtlar qatorlab yoki shaxmat usulida ekiladi. Daraxtlar ko'chatzorlarda qanday o'tqazilgan bo'lsa, ana shunday chuqurlikda o'tqazilishi lozim. Odatda daraxtlarni o'tqazish vaqtida shu narsa tavsiya qilinadiki, daraxtning ildiz bo'yni tuproqning yuqori qatlamiga nisbatan birmuncha yuqoriroq bo'lishi kerak, chunki tuproq keyinchalik cho'kkan vaqtida daraxtning ildiz bo'yni bilan barobar bo'lib qoladi. Daraxtning ildiz bo'ynini besh santimetrdan oshiqroq chuqurlikda ekilsa, keyinchalik havoning yetarli miqdorda klrmassligi natijasida daraxtlar yomon rivojlanadi. Chuqur o'tqazilgan

daraxt sekin o'sadi, sovuqqa chidamsiz bo'lib, har xil kasalliklarga, bog' zararkunandalarining hujumiga chidash bera olmaydi. Daraxt ildizining normal o'sishi uchun yetarli miqdorda issiqlik, havo va namlik bo'lishi kerak. Mevali daraxtlar chuqur o'tqazilsa yaxshi hosil bermaydilar yoki mutlaqo hosildan to'xtab, birvaqt quvrab qoladilar. Daraxt ko'chatining sayoz ekilishi ildizlarining qurib qolishiga va o'simlikning nobud bo'lishiga olib keladi. Daraxt ekish uchun o'yilgan chuqurlik radiusi va chuqurligi bo'yicha ildizining rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi (radiusi 50—75 sm, chuqurligi 60 sm), chuqur qazish vaqtida yerning ustki qatlami bir tomonga, ostki qatlami esa ikkinchi tomonga tashlanadi. Chuqur tayyor bo'lgach, yerning yuza qatlami ko'proq ozuqalarga ega bo'lganligi uchun o'g'it bilan aralashtirib chuqurning tagiga solinadi, shuningdek tepacha qilinadi, bunda daraxt shunday qo'yiladiki, ana shu tepachaning atroflari bo'ylab erkin ravishda joylashadi. Daraxt ko'chatlarini o'tqazishdan oldin qazilgan har chuqurga 3—4 chelakdan suv quyiladi. Daraxt o'tqazilgach, uning uchi va novdalari qirqiladi, chunki daraxt ko'chatining taraqqiy qilgan uchi (tojisi) hali tuproqda yaxshi o'rnashmagan ildizlardan ko'ra suvni ko'proq bug'lantirib yuboradi. Fevral-mart oylarida daraxt va butalarning atroflari o'yib qo'yiladi. Keyin esa o'sishga yaroqsiz — kasal va zararlangan daraxtlar kesib tashlanadi. Mart oyida anor, atirgul kabi (ko'mib qo'yilgan) gullarning usti ochiladi.

O'zbekistonda tut daraxti ayniqsa ko'p tarqalgan. Tut daraxt shaklida ham, buta shaklida ham o'sadi. Tut daraxtidan pilla qurtlari uchun ozuqa sifatida foydalaniladi. Shuningdek, tut daraxti meva ham qiladi. Erta bahorda bevaqt bo'lgan sovuqlar tut daraxtini zararlantiradi, bu bilan ipak qurtini ozuqadan mahrum qiladi. Taxminan mart oyining ikkinchi o'n kunligida toklarni ochish boshlanadi. Tok kurtak chiqarguncha ochilishi zarur. Aks holda, bo'rtgan kurtaklar va yosh sho'ralar zararlanadi. Ko'p yillar mobaynida olib borilgan kuzatish ishlari shuni ko'rsatdiki, tok sho'ralarining ochilishi Toshkent havzasi sharoitida bir necha hafta atrofida yildan-yilga o'zgarib turadi. Mart oyining uchinchi o'n kunligi va aprel oyining birinchi yarmi. Bunday ahvol ko'pincha ob-havo xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Yaxshi bo'rtgan «ko'zchalar» haroratning 3—4 daraja pastga ketishi natijasida zararlanishi mumkin. Ochila boshlagan kurtaklar bir-ikki daraja sovuqdayoq osonlikcha zararlanadi. Yosh va nozik sho'ralar uchun bir daraja sovuq ham xavflidir. Maktabgacha ta'lim muassasasi hovlisida bolalar katta kishilarning ishlarini kuzatadilar, katta yoshli bolalar esa, daraxt ko'chatlarini o'tqazishda ishtirok etadilar: ular ko'chatlarni tashib kelishda ko'maklashadilar, ko'chatlarni o'tqazishda ushlab turadilar, tuproqni o'raga tashlaydilar, yosh ko'chatlarni sug'oradilar. Bolalar zambil va zambil g'altaklarda tok taglaridagi go'ng va axlatlarni olib chiqarib tashlaydilar.

April oyida dalalarda chigit ekish boshlanadi. Chigitning yaxshi unib chiqishi uchun tuproq yetarli miqdorda nam bo'lishi va kunlik o'rtacha harorat 10 darajadan kam bo'lmasligi kerak. Bunday harorat odatda Toshkent viloyatida aprelning birinchi o'n kunligida bo'ladi, janubiy viloyatlarda birmuncha oldinroq boshlanadi. Harorat qanchalik ko'tarilsa, chigit shunchalik tez o'sa boshlaydi va bir tekisda ko'karib chiqadi. Chigitni yaxshi unib chiqishi uchun chuqurlarga solib namlaydilar. G'o'zani parvarish qilish vaqtida mashina bilan ikki tomonlama uzunasiga va ko'ndalangiga ishlov berish maqsadida chigitni seyalkalar yordamida kvadrat-uyalab ekiladi. Shunday usul bilan ekilganda, qo'l mehnati kam sarflanadi, hosil esa ko'proq olinadi. Chigit yaxshi tayyorlangan va nam yerga 4—5 sm chuqurlikda ekiladi. Chigit unib chiqqandan keyin darhol unga ishlov beriladi. Ekin maydonini doimo haydalgan va yovvoyi o'tlardan tozalangan holda tutishga harakat qilinadi. G'o'za qator oralariga ikki tomonlama ishlov berishda mashinalar yaxshi yordam beradilar. O'simlik ildiziga yaqin bo'lgan joydagi o'tlarni yo'qotish va yaganalash ishlaridagina qo'l mehnatidan foydalaniladi. Shuningdek, dalalarga makkajo'xori, oq jo'xori va kungaboqar ekiladi. Istirohat bog'lari, ko'chalar, bog'cha hovlilarida «jonli devorlar (ko'm-ko'k kichik daraxtlar) ekiladi. Bog'larda qishloq xo'jalik zararkunandalariga va hasharotlarga qarshi kurash olib boriladi.

April oyining o'rtalarida qashqargul, xina, nasturtsiya, petuniya (gullari katta-katta bog' o'simligi), jasmin, xushbo'y no'xat va boshqa bog' gullarining urug'lari sepiladi hamda ko'chatlari o'tqaziladi. Katta gullarning ko'chatlari (qo'qongul, petunya va boshqa gullarning) 15—20 sm oralig'ida o'tqaziladi. Shu bilan birga gulning uzun novdalari chilpiladi, ya'ni bo'ynining uzunligi uchdan birga qisqartiriladi, bu gulning yon shoxchalarining yaxshi o'sishiga imkon beradi. Yangi o'tqazilgan gul ko'chatini albatta mayda katakli leyka yordamida sug'orish tavsiya qilinadi. Yosh o'simliklarning o'sishiga xalaqit qilmasligi uchun yovvoyi o'tlar tezda yulib tashlanadi. Yer sug'orilgandan keyin ozgina qurigach, yovvoyi o'tlarni olib tashlash osonlashadi. Gul urug'lari sepilishdan oldin, +12+20 daraja haroratda undiriladi. So'ng esa sepiladi. Kanna, lunasvet kabi gullarning urug'lari qattiq bo'lgani uchun, bir uchi pichoq bilan bir oz qirqib qo'yiladi. Ba'zan ana shunday o'simliklarning urug'i qaynoq suvga solib ivitiladi, keyinchalik esa sovuq suv solib aralashtiriladi, bunda urug'lar yoriladi. Floks, delfinum, pion singari ko'p yillik gullarning urug'lari ekishdan oldin sovutilmasa, o'smaydi.

April oyining dastlabki kunlarida yerto'lalardan kartoshkagul gulining kartoshkasi olinib, ko'zdan kechirib chiqiladi. Qurib qolganlari namlanadi va yorug'roq joyga qo'yib, vaqti-vaqti bilan suv sepib turiladi. Unib chiqa boshlaganlari ajratilib, yonveridan unib chiqqan shox-shabbalar bilan birga

alohida joyga o'tqaziladi. Bunday ishlarni amalga oshirishda bolalar ham jalb qilinadilar. Gullayotgan o'simliklar (nastarin, buldonej) gullagach, yangi shoxlarni yaxshi rivojlantirish uchun gulkosalari qirqib tashlanadi. Ekin maydonlarida pomidor va boshqa sabzavotlarni ekish ishlari davom ettiriladi. Tarvuz, qovun, qovoq singari poliz ekinlari ekiladi. Dala ekinlarini parvarish qilish, g'ozaga ishlov berish, bedani o'rib olish, texnika ekinlari va boshqa o'simliklarni sug'orish davom etadi. Profilaktika maqsadida toklar (uzum) maydalangan oltingugurt bilan changlatiladi.

Shuningdek, toklarga tushuvchi, O'zbekistonda keng tarqalgan kasalliklardan — oidiumga qarshi kurash olib borish maqsadida ham bu tadbir qo'llaniladi. O'simlik shoxlarining yaxshi ko'karishi, ko'p suv berib turilishi bu kasallikka qarshi kurashishning qulay shartlaridan biridir. Oidium tokning barcha ko'k qismlarida - gullari, barglari va shoxlarida bo'ladi. Mevasi ustida ko'plab kul rang nuqtalar paydo bo'ladi, to'qimalarning normal o'sishi natijasida yoriqlar paydo bo'ladi va meva urug'i ko'rinib qoladi. Ob-havo nam bo'lganida, yorilgan mevalar chiriy boshlaydi, quruq ob-havo sharoitida esa qurib qoladi. Ortiqcha shoxlarni, barglarni kesib tashlash, novdalarni chekanka qilish oidiumga qarshi kurashning muhim vositalaridan biridir. Bu kabi tadbiriy chora agrotexnika sharoitlarini yaxshilashdan tashqari shoxlarning zichlashib qolishidan asraydi va ularning orasidan shamol bemalol o'tadi. Bunda tekinxo'r qo'ziqorinning yashashiga hech qanday sharoit qoldirmaydi. Toklarni (uzumni) maydalangan oltingugurt bilan har 20 kunda muntazam changlab turish kerak. Tokzorni ana shunday parvarish qilish natijasida maktabgacha ta'lim muassasasi uzumdan mo'l hosil olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bularga bolalarning e'tiborini jalb qilish zarur. Mevali bog'larda qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi kurash olib boriladi.

Yoz fasliga tavsif

Birinchi iyun kalendar hisobi bo'yicha yozning birinchi kuni hisoblanadi. 22 iyun yoz faslida quyoshning eng uzoq nuqtadan o'tgan kuni bo'lib, bunda eng uzun kun va eng qisqa tun bo'ladi.

O'zbekistonda haqiqiy yoz may oyidan boshlanadi. Yoz fasli O'zbekistonda birmuncha cho'ziladi. Bahorda boshlangan bu jarayon o'simliklardagi meva va urug'larning pishib yetilishi bilan tugallanadi. Ob-havodagi o'zgarishlar. Iyun oyida ob-havo yaxshi bo'ladi. Kunlik o'rtacha harorat +20+30 daraja atrofida bo'ladi. Ko'pincha yoz oylarida havo ochiq bo'lib turadi. Iyun oyida kamdan-kam yomg'ir yog'adi. Shunda ham oying birinchi o'n kunligida, ko'pincha momaqaldiroq aralash yomg'ir yog'adi. Ba'zan esa hatto do'l yog'adi. Iyul oyida harorat ko'tarilib, +30°+40° o'rtasida bo'ladi. Ahyon-ahyon yomg'ir yog'adi. Yaxshi ob-havo sharoiti bo'lganini

ko'rsatuvchi ko'pgina belgilar bor. Jumladan, ertalabki tongning zarrin nurlari quyoshning bulutlar orasidan chiqmasligi. Tuman tushadi va tezda tarqaladi, pashshalar barvaqt uyg'o-nishadi, tong endi yorishishi bilanoq asalarilar, qaldirg'ochlar uyalaridan uchib chiqadilar va havoda baland parvoz qiladilar, chivinlar qo'ng'izlar g'o'ng'illab uchib yuradilar. Quyosh bulutlar orasiga yashirinmaydi, balki, botish oldidan to'q qizil yoki oltin rangga kiradi, charaqlab oy chiqadi, yulduzlar moviy rangda charaqlaydilar. Ayniqsa, oyning ikkinchi yarmida o'rtacha harorat pasayadi va $+20^{\circ}+25^{\circ}$ darajaga tushadi. Havoda bulut bo'lmaydi. Ba'zan avgust oxirlarida ozgina yomg'ir yog'adi. O'simliklar hayotidagi o'zgarishlar. Bog'larda o'rik, olcha, erta pishar olma va noklar pishib yetiladi. 3—4 yil ilgari o'tqazilgan mevali daraxtlar: shaftoli, olcha hosil bera boshlaydi, olma daraxti esa 4—7 yildan keyin hosil bera boshlaydi. Ko'pgina mevali daraxtlar yil sayin emas, balki yil ora hosil beradi. Bu hosil berishning davriyligi deb ataladi. Iyun oyida gladiolus, ajdarog'iz, chinnigul, kartoshkagul, kanna, xushbo'y tamaki, delfiniullar, siniya (qizil gulli dekorativ o'simlik), moychechak, floks, petuniy, tizingul, semizo'tlar va boshqa bog' gullari gullay boshlaydi, chirmashuvchi gullar, chirmovuqlar to'q qizil rangda gullaydi.

Iyunning uchinchi o'n kunligida g'o'za gullay boshlaydi. Iyul oyida, bog'larda olma, shaftoli, olcha, nok pishib yetiladi. Polizlarda pomidor, baqlajon, bulg'or qalampiri singari sabzavotlar pishadi. Qovun, tarvuz kabi poliz ekinlari ham yetiladi. Gulzorlarda qo'qongul, tizingul, nastursiya, za'fargul, kartoshkagul va boshqa gullar ochiladi. G'o'zalar yoppasiga gullaydi va ko'sak tuga boshlaydi. Makkajo'xorilar dumbul bo'ladi. Qushlar va hasharotlar hayotidagi o'zgarishlar. Qushlarning ovozi jaranglaydi. Ayniqsa, bulbul ko'p sayraydi. Sayroqi qushlarning tuxumlaridan madorsiz jish bolalar, ya'ni qushchalar chiqadilar. Ularni onalari boqadilar. Bu paytda uyasidan tushib ketgan qaldirg'och va chumchuq bolalarini tez-tez ko'rish mumkin. Ularni uyalariga solib qo'yish kerak. Qush bolalarini tabiat burchaklariga olib kelib bo'lmaydi. Ular juda serovqat bo'ladilar. Qo'ng'izlar, pashshalar, asalarilar tez-tez guldan-gulga qo'nib turadilar. Ular gullardan nektar va chang yig'adilar. Kapalaklar ham gullarga qo'nadilar. Barglarning quyi qismlarida hasharotlarning ignalari izini ko'rish mumkin, ular barglarning sharbatidan so'rib oladilar. Salqin tunlarda gullarda mayda hasharotlarni uchratish mumkin. Ular tunda gullar ichida isinadilar. Ba'zi vaqtda esa, gullar ichiga tuxum qo'yadilar. Jumladan, chinnigullarning gulkosalarida tungi kapalaklarning tuxumlari topilgan. Suzg'ich ona qo'ng'iz ham o'simliklarga tuxum qo'yadi. U ikki oy mobaynida mingtacha tuxum qo'yadi. Keyinchalik tuxumdan lichinkalar chiqadi. Suzg'ich qo'ng'izning lichinkalari ikki-uch oy yashaydi, ana shu davr mobaynida ikki marta tullaydi. Yozning o'rtalarida lichinkalar qo'g'irchoqlarga

aylanadi. Suzuvchi qo'ng'izlarning barcha qo'ng'izlardagi singari qo'g'irchog'i bo'ladi. Lekin qo'ng'iz lichinkasi suvdan chiqib, quruqlikda qo'g'irchoqqa aylanadi. Ana shu vaqtda suv qo'ng'iz oqayotgan suvdagi barglarga tuxum qo'yadi. U o'rgimchak iplariga o'ralgan holda hammasi bo'lib 50—60 ta tuxum qo'yadi. Oradan ikki-uch hafta o'tgach, tuxumlardan lichinkalar yorib chiqadilar. Suvsevar qo'ng'izning lichinkasi semiz va beo'xshov bo'ladi. U yomon suzadi. Oradan ikki oy o'tgach, qirg'oqqa sudralib chiqadi, o'ziga «beshik» yasaydi, ikki haftadan keyin esa, qo'ng'izga aylanadi. U quvvatga kirib olgach, «beshigi»ni qoldirib ketadi va suvda suzaboshlaydi. Suv qo'ng'izini bahorda yoki yoz oxirida tutib olish va tabiat burchagida tekshiruv olib borish mumkin. Ular o't bosib ketgan hovuzlarda juda ko'p bo'ladi. Iyul' oyida qushlar tullay boshlaydi. Ayniqsa, g'ozlar va o'rdaklarda tullash qizg'in tus oladi. Ularning barcha yo'g'on qanotidagi katta patlar to'kilib, uchish qobiliyatini yo'qotadi.

Iyul oyining oxirlarida qushlarning sayrashlari kamaya boshlaydi. Qush bolalari esa mustaqil hayot kechira boshlaydi. Bu vaqtda ko'pgina kapalak va chigirtkalar paydo bo'ladi. Chigirtkalar himoya ranglari (ko'k ranglari) bilan deyarli ko'zga tashlanmaydilar. Ularni ko'pincha ko'k o't, shox-shabba va daraxtlarning ustida ko'rish mumkin. Ular orqa oyoqlarining yordami bilan katta-katta sakrashlari, shuningdek, o'zlarining pirillashlari bilan bolalarning diqqatini jalb etadilar. Ularning ikki juft qanoti va uzun mo'ylovi bo'ladi. Avgust oyida, ko'kqarg'a, jarqaldirg'och, ko'rkunaklar singari ba'zi bir qushlar uchib keta boshlaydi. Laylaklar Toshkentdan sentyabr oyida, butun O'rta Osiyodan esa oktyabr oylarida uchib ketadilar. Avgust oyida hali kapalak, ninachi va qo'ng'izlar bo'ladi. Hayvonlar hayotidagi o'zgarishlar. Iyun oyida suv havzalaridagi itbaliqlar yosh qurbaqacha va cho'l baqalariga aylanadilar. Qurbaqalar suv havzalarining o'zida yashayveradilar, cho'l baqalari esa qirg'oqqa chiqadilar, ekin maydonlari va bog'larga joylashadilar. May-iyun oyining oxirida yovvoyi hayvonlarning ham bolalari, jumladan, bo'ri bolalari ulg'aya boshlaydi. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, bo'ri bolalari 5—6 hafta ona suti bilan ovqatlanadi. Oltinchi haftadan boshlab asta-sekin go'sht yeyishga o'rganadi. Bo'ri bolalari katta hayvonlar singari ko'p suv ichadigan bo'ladilar. Shunday voqealar ham uchraganki, buloq suvining qurib qolishi natijasida ko'pgina bo'ri bolalari nobud bo'lgan.

Yozning ikkinchi yarmida bo'rilar mol va yovvoyi tuyoqlilar: jayronlar, arxar (yovvoyi qo'y)larga tez-tez hujum qilib turadilar. Iyun oyida tuyalar ham tug'adi. Yosh bo'taloq odatda nimjon bo'ladi. Mahalliy aholi uni o'z o'tovlarida saqlaydi, kigizlarga o'rab, quyoshdan panalaydi. Bo'taloq bir oz o'sgandan keyin, uni soya-salqin yerga bog'lab juda ehtiyot qilib boqadilar. Faqat tunlari

uni bo'shatib, onasining yonida qoldiradilar. Ona tuyalar o'z bolalariga juda g'amxo'r va mehribon bo'ladilar, hatto bolalarini emizish uchun ataylab yaylovlardan kelib turadilar. Avgust oyida yosh toshbaqalar paydo bo'ladi. Ular ko'rinishda juda kichkina bo'lib, bo'ylari 3057 mm ga etadi. Toshbaqalar juda sekin o'sadilar. Tuxumdan chiqqach, ular qum orasiga kirib ketib u yerda kelgusi bahorgacha uxlaydilar.

Avgust oyida tipratikanlar 5—7 tadan bola tug'adilar. Ular tug'ilganda ko'zlari ko'r, tanasi mayda-chuyda qisqa ninachalar bilan qoplangan bo'ladi. Tipratikanchalar ulg'ayishi bilan ularning ninachalari o'sa boradi, qattiqlashadi va to'q qo'ng'ir tus oladi. Tipratikanlar ko'pgina yovvoyi qushlar va hayvonlar (ukkilar, tulkilar) uchun yemish bo'ladilar. Avgust oyining oxirida bo'ri bolalari o'sib yetiladi. Ular ko'pincha qorong'i tushgach va tun paytlarida uy hayvonlarini ovlaydilar. Ba'zi hollarda uy hayvonlariga kunduz kunlari ham hujum qiladilar, lekin aholi yashaydigan punktlardan olisda bo'lgan joylardagina shunday qilishlari mumkin. Cho'l bo'risi chorvachilikka zarar keltiradi. Qishloq xo'jalik ishlari. Iyun oyida kunning jaziramasini va havoning quruq bo'lishi ko'pincha bir yillik o'simliklarning gullash davrini qisqartiradi. Biroq o'z vaqtida sug'orib turilsa va oziqlantirilsa, gullash davri birmuncha uzayadi. Shuning uchun gullarni (yertalab va kechki soatlarda) har kuni sug'orib turish kerak. Iyun oyida va undan keyinroq bog'larda olma daraxtlarini zararlantiradigan qurt kapalaklar paydo bo'ladi. Olmaning ichi kapalak qurti uchun ishonchli uy, zahiradagi ozuqa manbai bo'lib ham hisoblanadi. Qurtlagan olma yerga to'kiladi, uning ichida qurtchalar o'rmalab chiqadi. Daraxt tanasi orqali o'rmalab chiqib, yangi pishgan olmani topib, uning po'stlog'ini kemirib, ichiga joylashadi va o'sha yerda yashay boshlaydi. Shuning uchun to'kilgan olmalarni tezda terib olish kerak, aks holda qurt yana daraxt ustiga o'rmalab chiqib yangi olmalarni zararlaysin boshlaydi. Iyun oyining oxiri va iyul oyining boshlarida kapalaklarning ikkinchi avlodi paydo bo'ladi, ular uzum urug'lari bilan ovqatlanadilar. Chiqqan qurt mevalarning ustida ochiq holda, mevaning bir yerini chuqurcha qilib olib yashayveradi. Keyinchalik mevaning yumshoq joyini yeb o'sha joyda yashaydi.

Yosh qurtlar bir mevedan ikkinchisiga tez-tez o'tib turadilar va o'z uychalari atrofmi yupqa iplar bilan o'raydilar. Qattiq zararlangan mevalar to'kiladi. Uzumlarning xomtok qilinishi ana shu zararkunandalarni yo'qotish imkonini beradi. Iyun oyidan oktyabr oyigacha tut qurtlarini qirib tashlashga kirishish kerak. Buning uchun tut daraxtlarining tevarak-atroflarini qazib, yumshatish lozim. Iyun oyida bog'larda ertangi olma, shaftoli, olcha, gilos va o'riklarni yig'ish ishlari boshlanadi. Polizlarda ertangi pomidor, garmdori va baqlajonlarni yig'ishtirish boshlanadi. Bolalar bunday ishlarda qatnashadilar.

Yozda havo issiq bo'lgan taqdirda kechki payt daraxtlarga, ko'kat devorlarga suv sepiladi. Shuningdek, daraxt tanalari yonlaridan o'sib chiqqan mayda shox-shabbalar qirqib tashlanadi, ko'kat devorlar kesib, tekislanadi. Bog'lar va polizlarda hosilni yig'ib-terib olish ishlari boshlanadi.

Avgust oyi sabzavot va mevalarning g'arq pishgan oyidir. Bu oyda, uzum, shaftoli, olxo'ri, olma va boshqa mevalar ko'plab pishib yetiladi. Polizlarda esa qovun-tarvuzlar mo'l-ko'l bo'lib yetiladi, dalalarda pomidor, baqlajon va bulg'or qalampiri pishadi. Avgust oyida paxta terimi va boshqa yig'im-terim ishlari boshlanadi. Dalalarda g'o'zalar, bedalar, kechki makkajo'xori va qish uchun tayyorlanadigan kartoshka hamda boshqa sabzavotlarni parvarish qilish ishlari davom etadi. Avgust oyida gulzorlarda gullarning urug'larini yig'ish ishlari boshlanadi. Bu ishda bolalar ham qatnashadilar. Yaxshi rivojlangan, sog'lom o'simliklarning urug'lari yig'ib olinadi. Urug'lik uchun hamisha dastlab ochilgan gullarning urug'lari olib qo'yiladi. Ularni kesib qo'ymaslik maqsadida ilgariroq birorta aniq lenta bilan ajratib belgilab qo'yiladi. Bunday gullarni yorliqlar bilan ham belgilabqo'yadilar. Bu yorliqlarga o'simlikning nomi, navi, rangi yozib qo'yiladi. O'simlik to'la pishib yetilgandan keyingina, uning urug'i yig'ib olinadi. Dekorativ o'simliklarning sarg'aya boshlashi yoki qo'ng'ir tusga kirishi mevasining pishganligidan dalolat beradi. Gullarning yaxshi urug'laridan bebahra bo'lmaslik uchun ularning pishib yetilishini diqqat bilan kuzatib borish kerak, chunki ular pishib yetilgach, yerga to'kilishi va shamol bilan uchib ketishi mumkin. Ayniqsa, kapalakgulni, xinani, xushbo'y no'xat, kartoshkagul, gladiolus, floks singari gullarni kuzatib borish kerak. Ushbu o'simliklarning yetilgan urug'lari har tomonga sochilib ketadi.

Ko'pgina gullarning urug'lari uchuvchan bo'ladi. Gullarning urug'lari quyoshli kunlarda, tonggi shudring qurigachgina yig'ishtirib olinadi. Agar yig'ilgan urug'lar nam bo'lsa, ularni quritish kerak. Ko'k mevalar va urug'larni turlari va navlariga qarab dokadan tikilgan xaltachalarga solinadi. Urug'lar solingan xaltachalar ustiga urug'ning navi, yig'ib olingan yili ko'rsatilgan yorliqlar yopishtirilgan bo'ladi. Xaltachalar ichiga urug'larni zichlab joylashtirish yaramaydi, chunki havo harorati ko'tarilgan taqdirda urug'lar buzilishi va namligini yo'qotishi mumkin. Urug'lar solingan xaltachalar kanop bilan bog'lanadi va quruq, shamol yaxshi kiradigan binoga osib qo'yiladi.

Avgust va sentyabr oylarida vaqti-vaqti bilan o'simliklarni sug'orib turiladi. Ko'pincha bunday ishlarga katta yoshdagi bolalar ham jalb qilinadi. Qishloq xo'jalik zararkunandalariga va ko'k o'simliklarning kasalliklariga qarshi kurash ishlari olib boriladi.

8.10. Tabiatshunoslikka oid ishlarni hisobga olish

Bolalarga ekologik ta'lim berishning ushbu tizimidagi ishlarni tahlil qilish, amalga oshirilgan ishlarning ijobiy natijalari to'g'risida xulosa chiqarishimizga imkon beradi. Kognitiv rivojlanish darslarida bolalar ko'proq diqqatli bo'lishdi. Ular hayvonlar va o'simliklar haqidagi hikoyalarni qiziqish bilan tinglashadi va ko'plab qo'shimcha savollar berishadi. Ular mantiqiy fikrlashni, izchil fikr yuritishni, taqqoslashni, umumlashtirishni, ob'ektlar va tabiat ob'ektlarining muhim xususiyatlarini ta'kidlashni o'rgandilar. Bolalar sinfda olgan bilimlarini sinov va xatolar usuli asosida mustaqil eksperimental faoliyatda "sinab ko'rishadi". Yigitlar "ekologiya", "olimlar", "laboratoriya", "kollektorlar", "geologlar" ni o'ynashdan mamnun; bog' hududida bahor va yoz oylarida siz tashlandiq va qurigan guldastani endi ko'rmaysiz. Bolalar bog'chasida atrof-muhitni muhofaza qilishda faol ishtirok etish istagi ularga tug'iladi. Olingan taassurotlar, bilimlar, tajribalar, bolalar ota-onalari va boshqa bolalar bilan bo'lishadilar, ularni o'zlarining o'yinlari bilan tanishtiradilar. Tashxisiy natijalar shuni ko'rsatdiki, bolalar o'rtasida ekologik bilim va tabiiy dunyoga ekologik jihatdan to'g'ri munosabatni shakllantirishning yuqori darajasi 75%, o'rtacha 23% ni tashkil etadi.

Nazorat savollari

1. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari qanday tashkil etiladi?
2. "Ilk qadam" dasturida tabiat mavzusi haqida qanday fikrlar bayon etilgan?
3. Yillik reja mavzulari haqida nimalarni bilasiz?
4. Tabiat bilan tanishtirish ishini rejalashtirishning asosiy mazmuni haqida gapiring.
5. Kundalik reja qanday tuziladi?
6. Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan o'qitish metodlarini ayting.
7. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jonli va jonsiz tabiat bilan tanishtirishning qanday usullarini bilasiz?
8. Tabiatshunoslikka oid bolalar o'yinlari turlarini ayting?
9. Turli guruhlarda mashg'ulotlar o'tkazish, ularga rahbarlik qilish qanday tashkil etiladi?
10. Tabiat bilan tanishtirish ishlarini rejalashtirishda oila bilan hamkorligi qanday tuziladi?
11. Guruhlarda bolalarni jonli va jonsiz tabiat bilan tanishtirishning qanday usullarini bilasiz?
12. Tabiatshunoslikda fasllar tavsifi haqida gapiring?

Mavzu yuzasidan testlar

1. Qaysi guruhdan boshlab ilk ekologik madaniyatni tarbiyalab borish amalga oshiriladi?

- a. oʻrta guruh (4-5 yosh)
- b. kichik guruh (3-4 yosh)
- c. tayorlov guruh (6-7 yosh)
- d. katta guruh (5-6 yosh)

2. Oʻrta guruh bolalari nechi turdagi daraxtlar, nechi xil turdagi oʻsimliklarning nomini ayta oladi?

- a. 3-4 xil turdagi daraxtlar hamda 2-3 xil turdagi oʻsimliklarning
- b. 3-5 xil turdagi daraxtlar hamda 3-4 xil turdagi daraxtlar
- b. 2-4 xil turdagi daraxtlar hamda 1-4 xil turdagi daraxtlar
- c. 2- 3 xil turdagi daraxtlar hamda 3-4 xil turdagi daraxtlar

3. Oʻrta guruhda bolani sabzavotlar va mevalarning oʻziga xos belgilari bilan qanday tanishtirib boriladi?

- a. sabzavotlar polizda, mevalar esa bogʻda, daraxtda oʻsishi haqida
- b. sabzavotlar dalada mevalar esa bogʻda, erda oʻsishi haqida
- c. sabzavotlar dalada mevalar esa polizda, yerda oʻsishi haqida
- d. sabzavotlar, yerda mevalar esa , polizda, oʻsishi haqida

4. Uy hayvonlarining tashqi koʻrinishidagi farqlar (tana qismlari, tovushlari, yurish-turishlariga xos xususiyatlar), nima bilan oziqlanishi, xoʻjalikka qanday foyda keltirishi, ularga gʻamxoʻrlik qilish haqidagi tushunchalar qaysi guruhda amalga oshiriladi.

- a. oʻrta guruh (4-5 yosh)
- b. kichik guruh (3-4 yosh)
- c. tayorlov guruh (6-7 yosh)
- d. katta guruh (5-6 yosh)

5. Oʻrta guruhda qaysi xona guli haqidagi bilimni mustahkamlash va qaysi gullar bilan tanishtirish, ularni parvarish qilish yoʻllarini oʻrgatishni davom ettirib boriladi?

- a. xona guli fikus hamda navroʻzgul, yorongul, geran
- b. xona guli fikus hamda aloe, yorongul, geran
- c. xona guli aloe hamda navroʻzgul, yorongul, kaktus
- d. xona guli atirgul hamda navroʻzgul, kaktus, geran

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

- 1.O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari.– T.:2018
- 2.Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturi.– T.:2018
- 3..Hasanboeva O, Jabborova X, Nodirova Z Tabiat bilan tanishtirish metodikasi . Toshkent 2006.
4. Markovskaya M.M Bolalar bog‘chasida tabiat burchagi Toshkent O‘qituvchi .1991
- 5.Samorukova P.G “Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish - Toshkent , O‘qituvchi , 1991.
- 6.Yusupova F. “Bolalar bog‘chasida ekologik tarbiya”-Toshkent, O‘qituvchi, 1999
- 7.Grigor’yants A.G. , Gafurova U. Bolalar bog‘chasida ekologik tarbiya. Toshkent, O‘qituvchi 2002
8. Hasanboyeva O.U , Djabborova X.J Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi.- T. Cho‘lpon. 2007.
9. HaydarovS .Nishonova O. Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof-tabiat bilan tanishtirish.- T.: O‘qituvchi. 1992.
- 10.Yusupova P.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish. - T.: O‘qituvchi. 1995.
- 11.Djabborova X.D. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim –tarbiya berishning o‘ziga xosligi. -T.: O‘qituvchi. 2000.

Qo‘shimcha siyosiy adabiyotlar:

- Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017
- Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017
- Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti, 2017.
- 4.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T. O‘zbekiston. 1997.
 - 5.Bolajon tayanch dasturi. T. 2010 y
 - 6.Xoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. T. O‘qituvchi, 1996.
 7. Xasanboyeva O va boshq. Pedagogika tarixi. T. O‘qituvchi. 1997.
 8. Yo‘ldoshev X.S, Avezov Sh.Sh. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari.- T. O‘qituvchi. 1997.

9.O'zbekiston Respublikasining Qonuni Ta'lim to'g'risida. -T. O'zbekiston. 1997.

10.O'zbekiston Respublikasi maktabgacha tarbiya Konsepsiyasi. -T. O'zbekiston. 1995.

11.Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi Nizom Maktabgacha ta'lim. 2005.3- son.

Elektron ta'lim resurslari

1.www tdpu. uz

2.www pedagog. uz

3.www Ziyonet. uz

4.www edu. Uz

5.www INTRANET. Ped

GLOSSARIY

Applikatsiya - Lotincha soʻzdan olingan boʻlib «joylashtirish» degan maʼnoni anglatadi.

Didaktik oʻyin – oʻrganilayotgan obʼekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida bolaning bilishga boʻlgan qiziqishi va faollik darajasini ragʻbatlantiruvchi oʻquv faoliyati turi.

Jamoa – (lotincha «jamoaus» soʻzining tarjimasi boʻlib, yigʻilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi maʼnolarni anglatadi) – bir necha aʼzo (kishi)lardan iborat boʻlib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Jamoa anʼanalari – jamoa aʼzolari tomonidan birdek qoʻllab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.

Idrok – aniq maqsadga yoʻnaltirilgan anglash jarayoni.

Izohlash – tarbiyalanuvchiga hissiy-ogʻzaki taʼsir etish usuli.

Ishlab chiqarish – kadrlarga boʻlgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qoʻyiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan taʼminlash jarayonining faol ishtirokchisi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli – shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz taʼlim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning oʻzaro hamkorligi, ular oʻrtasidagi oʻzaro aloqadorlik asosida «yuksak maʼnaviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha. Uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Kompozitsiya - Tevarak-atrofdagi predmetlarni joylashishi.

Koʻnikma – olingan bilimlarga asoslanib qoʻyilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yigʻindisi.

Koʻrgazmali metodlar – predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini koʻrsatishda qoʻllaniluvchi usullar.

Qiziqish – shaxs harakatiga sabab boʻladigan faoliyat yoʻnalishining ongli shakli, insonning u yoki bu narsaga, ishga diqqat-eʼtibor qaratishi, ixlos qoʻyishi, agar u bajaradigan ish boʻlsa bajarishga astoydil kirishishi.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) – bolalarning oʻquv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.

Madaniyat («kultura» soʻzidan olingan boʻlib, parvarish qilish, ishlov berish maʼnosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qoʻlga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va maʼnaviy boyliklar tizimi.

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida bola tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Maktabgacha ta'lim – bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlovchi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otuvchi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta'lim bosqichi.

Maqsad – faoliyat natijasini oldindan fikran belgilash.

Maqto'v – foydali ish qilgan shaxsni, jamoani og'zaki taqdirlash.

Malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

Mahorat – shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati. Biror sohadagi moslashuvchan ko'nikma va ijodkorlik asosida hosil bo'lgan kasbiy ko'nikmalarning yuqori darajasi, kasbiy mohirlik. Biror faoliyat sohasidagi yuqori darajada egallangan bilim, ko'nikma, malakalarni amaliyotda yuqori sifat va samaradorlik bilan qo'llash.

Mashg'ulot - yangi bilim beruvchi mustaqil mashqlar.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Metod – yunoncha tarjimasi «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi.

Metodika (fan sifatida) – xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Mehnat tarbiyasi – shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Munozara – tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli.

Odat – kishining ma'lum e'tiqodlar, qadriyatlar yoki axloqiy me'yorlardan kelib chiqib, amalga oshiradigan ongli faoliyati.

Pedagogik talab – turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida bola tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari.

Pedagogik faoliyat – ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

Rag‘batlantirish – tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘ngilini ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash usuli.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o‘shida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta’lim metodi.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tafakkur – ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to‘laonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli.

Ta’lim – bolalarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon.

Ta’lim va tarbiya mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta’lim vositalari – ta’lim samaradorligini ta’minlovchi ob’ektiv (darslik, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va sub’ektiv (o‘qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

Ta’lim jarayoni – o‘qituvchi va bolalar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta’lim tizimi – yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish yo‘lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o‘quv-tarbiya muassasalari majmui.

Topshiriq - bolalarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida qo‘llaniladigan usul.

Tushuntirish - o‘quv materialini mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish.

Tushuncha – atrof-muhitdagi hodisalar, predmetlarning muhim xususiyatlarini, ular orasidagi aloqa va munosabatlarni bilish.

O‘zlashtirish – tushunish, o‘rganish orqali axborotning ma’no-mazmuni, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to‘g‘risida bilim va ko‘nikmalar hosil bo‘lishi.

Uzluksiz ta'lim – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

O'rganish – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash.

O'rgatish – axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini turli vosita va usullarni qo'llab tushuntirish, ko'rsatish va mashqlar orqali amalga oshirish jarayoni.

Faoliyat – 1) ongli maqsadga ko'ra boshqariladigan kishining ichki (ruhiy), tashqi (jismoniy) faolligi; 2) atrof-muhitni kishilar tomonidan maqsadga muvofiq qayta bunyod etish.

Faoliyat - shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Estetik tarbiya - bolalarni tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go'zalligini idrok etish, to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik olib kirish qobiliyatini tarbiyalash jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI	3
1- MAVZU: MAKTABGACHA TA’LIMDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA TABIAT HAQIDA TUSHUNCHANI IFODALASH	5
1.1. “Tabiat bilan tanistirish texnologiyalari “fanining maqsad va vazifalari	5
1.2. Tabiat, inson va jamiyat haqida tushuncha	6
1.3. Inson rivojlanishida tabiatning roli haqida qadimdi qo’lyozmalarda yoritilishi	9
1.4. Sharq va G’arb olimlarining tabiat, uning inson hayotidagi o’rni haqidagi qarashlari	15
1.5. So’ngi yillarda tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va texnologiyasi fanining istiqbollari	19
2- MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TABIATSHUNOSLIK ISHLARINI TASHKIL ETISH	22
2.1. Tabiat-bolalarni har tomonlama tashkil toptirishda asosiy omil sifatida	22
2.2. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi shaxsiga qo’yiladigan talablar	31
3- MAVZU: MAKTABGACHA TALIB TASHKILOTLARIDA TABIAT BILAN TANISHISHTIRISHNING MAZMUNI	35
3.1. Tabiat bilan tanishtirish tamoyillari	36
3.2. Tabiatdagi ekologik bog’lanishlar haqidagi bilimlarni shakllantirish	39
3.3. Tabiat bilan tanishtirish dasturining mohiyati	40
3.4. Dasturning konsentrik tamoyillari asosida tuzilishi	41
3.5. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda faslchilik tamoyillariga oid jolashtirish	41
4- MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH METOD VA VOSITALARI	48
4.1. Tabiat bilan tanishtirishda ko’rgazmali metod va usullarning o’ziga xosliklari	48
4.2. Kuzatish –tabiat bilan tanishtirishning asosiy usullari sifatida	51
4.3. Tabiatga nisbattan insoniy munosabatlarni shakllantirishda tabiat materiallarni yig’ish va bolalarda ularni nutq jarayonini aks ettirish faoliyatlarni rivojlantirish	51
4.4. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda og’zaki metoddan foydalanish va uning mohiyati	57

4.5. Tabiat bilan tanishtirishning amaliy metodi va tabiatshunoslikka oid o'yin turlari	59
4.6. Tabiatda bolalar mehnatlari va ularni tashkil etish texnologiyasi	60
4.7. Oddiy tajribalar uning mazmuni. Bolalarda izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish	62
5- MAVZU: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOBLALARNING TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING ISH SHAKLLARI	66
5.1. Tabiat bilan tanishtirishda mashg'ulot turlari	66
5.2. Tarbiyachining mashg'ulotga tayyorligi	68
5.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'lka tabiati bilan tanishtirishda sayr mazmuni va turlarini tashkil etish metodikasi	68
5.4. Bolalarning o'lkashunoslik tasavvurlarini shakllantirishda sayr va ularni tashkil etish metodikasi	71
6- MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TABIAT BURCHAGINI TASHKIL QILISH	75
6.1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat burchagini tashkil etish va unga qo'yiladigan talablar.	75
6.2. Turli yosh guruhlarini bollarini o'simliklar hayvonlar va qushlarni parvarish qilishga o'rgatish texnologiyasi	81
7- MAVZU: YER MAYDONLARINI TASHKIL QILISH VA ULARNING TURLARI	88
7.1. Ekinzor va gulzorlar tashkil etish metodikasi	88
7.2. Turli yosh guruhlarida yer maydonlarini tashkil etish texnologiyasi	91
7.3. Yer maydonlarida hayvonlarini saqlash uchun shart- sharoitlar	93
8- MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TABIAT BILAN TANISHTIRISH ISHLARINI REJALASHTIRISH	99
8.1. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini tashkil etishda rejalashtirishning ahamiyati	99
8.2. Yillik reja	100
8.3. Istiqbolli reja	100
8.4. Taqvimiy –tematik reja	101
8.5. Tabiatshunoslikka oid o'yinlarni rejalashtirish	102
8.6. Turli guruhlarida mashg'ulotlar o'tkazish, ularga rahbarlik qilish	104
8.7. Tabiat bilan tanishtirish ishlarini rejalashtirishda oilaviy hamkorlikni o'rnatish	109
8.8. Maktabgachah yoshdagi bolalarni jonli va jonsiz tabiat bilan tanishtirish usullari	110
8.9. Turli fasllarda bolalarni tabiat bilan tanishtirish usullari	125

8.10. Tabiatshunoslikka oid ishlarni hisobga olish	152
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	154
Glossariy	156
INTRODUCTION QUESTION	3
CHAPTER I. THEORETICAL FOUNDATIONS OF INTRODUCING CHILDREN TO NATURE IN PRESCHOOL EDUCATION AND UNDERSTANDING ABOUT NATURE	5
1.1. Aims and objectives of science of technology of acquaintance with nature	5
1.2. Understanding of nature, man and Society	6
1.3. Lighting in ancient hands about the role of nature in human development	9
1.4. The views of eastern and Western scientists on nature, its role in human life	15
1.5. The prospects of the science of technology of acquaintance with nature in the last years	19
CHAPTER II. ORGANIZATION OF NATURAL SCIENCE WORK IN PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS	22
2.1. Nature- as the main factor in the comprehensive Organization of children	22
2.2. Requirements for the educator in introducing children to nature	31
CHAPTER III. CONTENT OF INTRODUCTION TO TABINAT IN PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATIONS	35
3.1. Principles of acquaintance with nature	36
3.2. Formation of knowledge on ecological links in nature	39
3.3. The essence of the program of acquaintance with nature	40
3.4. The structure of the program on the basis of concentric principles	41
3.5. Strife on the principles of romanticism in introducing children to nature	41
CHAPTER IV. METHODS AND TOOLS FOR INTRODUCING PRESCHOOL CHILDREN TO NATURE	48
4.1. Peculiarities of visual methods and methods in acquaintance with nature	48
4.2. Observation as the main methods of acquaintance with nature	51
4.3. Collection of materials by nature in the formation of human relations relative to nature and reflection of them in artistic creativity in children development of activities	51
4.4. The use of oral method in introducing children to nature and its essence	57

4.5. Practical method of acquaintance with nature and types of games in natural science	59
4.6. Children's labor in nature and the technology of their organization	60
4.7. Simple experiments are their content. Development of traceability skills in children	62
CHAPTER V. THE WORKING FORMS OF ACQUAINTANCE OF PRESCHOOL AGE CHAPTERS WITH NATURE	66
5.1. Types of training in acquaintance with nature	66
5.2. Teacher's readiness for training	68
5.3. Methods of Organization of the content and types of extractions in introducing preschool children to the nature of the country	68
5.4. Travel and methods of their organization in the formation of local imagination of children	71
CHAPTER VI. ORGANIZATION OF THE CORNER OF NATURE IN PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS	75
6.1. The organization of the corner of nature in preschool organizations and the requirements for it	75
6.2. The technology of teaching children of different age groups to care for animals and birds of plants	81
CHAPTER VII. ORGANIZATION OF LAND AREAS AND THEIR TYPES	88
7.1. Methods of Organization of cultivation and flowery	88
7.2. Technology of Organization of land plots in different age groups	91
7.3. Conditions for the storage of animals in landfills	93
CHAPTER VIII. PLANNING THE WORK OF ACQUAINTANCE WITH NATURE IN PRE-SCHOOL ORGANIZATIONS	99
8.1. The importance of planning in the organization of acquaintance classes with nature	99
8.2. Annual plan	100
8.3. Perspective plan	100
8.4. Calendar-thematic plan	101
8.5. Planning games for naturalism	102
8.6. Conduct classes in different groups, lead them	104
8.7. Establishing cooperation with the family in the planning of acquaintance work with nature	109
8.8. Ways to introduce children of school age with Animate and inanimate nature	110
8.9. Ways to introduce children to nature in different seasons	125

8.10. Taking into account the work on Natural Science	152
List of used literature	154
Glossary	156